

dot.84(7kai)6


M 28



Barcha davrlarda sevimli kitob

Gabriel Garsia Marques

ULUG' ONANING JANOZASI



10.11.2018
M 28 GABRIEL GARSIA MARKES

ULUG' ONANING JANOZASI

Tanlangan hikoyalar



FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI
QABUL QILISH YIG'ISH VA
KATALOGLASH BO'LIMI

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2023

UO'K 821.111(73)-31

KBK 84(7AQSh)6

G 82

Rus tilidan

Boboxon Muhammad Sharif tarjimasi

Garsia Markes, Gabriel

Ulug' onanig janozasi. [Matn]: Tanlangan hikoyalar / Gabriel Garsia Markes, – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 264 bet.

To'plamda jahonga mashhur yozuvchi, Nobel mukofoti sovrindori Gabriel Garsia Markesning eng yaxshi hikoyalari jamlangan. Bu hikoyalarda adibning fusunkor realizmi mukammal darajaga ko'tarilgan. Hikoyalar sayqallangan uslubi, shaklan mukammalligi va muallif g'oyasining nihoyatda aniq ifodalanishi bilan o'quvchini hayratga soladi.

UO'K 821.111(73)-31
KBK 84(7AQSh)6

ISBN 978-9943-8835-7-4

© G'afur G'ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023



ADOLAT VA QALAMGA SADOQAT RAMZI

Jahon adabiyotida «fusunkor realizm» deb atalgan adabiyotning buyuk vakili, Nobel mukofoti sovrindori Gabriel Garsia Marquesning vafoti soʻz, qalam, goʻzallik va adolatni qadrlaydigan barcha kishilarni qaygʻuga soldi. Boshqacha boʻlishini tasavvur ham qilib boʻlmaydi. Oʻz ijodi va faoliyati bilan adabiyot, hayot taraqqiyotiga katta hissa qoʻshgan buyuk insonlarning oramizdan ketishi insoniyat uchun katta yoʻqotishdir.

Markes Kolumbiyaning Arakataka shaharchasida 1928-yil 6-martda telegrafchi oilasida tugʻilgan. Sakkiz yoshigacha bobosi, isteʼfodagi polkovnik Nikolas Rikardo Marques va buvisi Trankilina Iguaran Kotes qoʻlida tarbiyalanadi. Marquesning yozuvchi boʻlib shakllanishiga bobosi va buvisi katta taʼsir oʻtkazgan. Bundan tashqari, yozuvchining oʻzi taʼkidlashicha, uning taqdirini belgilab bergan uchinchi omil – u yashagan muhit, jonajon shaharchasi hayotidir. Bir tomondan real hayot, ikkinchi tomondan qulogʻida qolgan ogʻzaki ijod, xayolot keyinchalik adib ijodida gʻoyat nafis va hayratda qolarli darajada uygʻunlashib ketgan. Boʻlgʻusi adib sakkiz yoshga toʻlgan vaqtda bobosi vafot etadi va Gabo (oilasidagilar uni erkalatib shunday deb atar edilar) Sapakira shahridagi internatda oʻqiy boshlaydi. U birinchi adabiy mashqlarini shu yerda boshlagan. 1946-yilda Marques Bogota universitetining huquqshunoslik fakultetiga oʻqishga kiradi.

Markesning birinchi hikoyasi 1947-yilda eʼlon qilinadi. Lekin Gabriel hali adabiyotga oʻzining asosiy ishi deb qa-

ramaydi. 1948-yilda liberal partiyaning rahnamosi o'ldirilgach, poytaxtda vaziyat keskinlashadi va Markes Kartaxenaga ko'chadi. Advokatlikka qiziqmagani uchun, u jurnalistika bilan shug'ullana boshlaydi. 1950–1954-yillarda u reportyor bo'lib ishlaydi. 1951-yilda birinchi qissasi «Sarg'aygan yaproqlar» e'lon qilinadi. Bu qissada uning qarddon shahri Arakatakani eslatadigan Makondo shaharchasi va Markes ijodining yetakchi mavzusi – yolg'izlik mavzusi ilk bora tilga olinadi. Makondo va yolg'izlik mavzusi keyinchalik boshqa asarlarida yanada kengroq yoritiladi.

1954-yilda Markes Bogotaga ko'chadi va gazetada ishlay boshlaydi, siyosiy hayotda ishtirok etadi. 1955-yilda «El Espektador» gazetasining muxbiri sifatida yevropaga boradi. Rimda ishlaydi, ayni vaqtda, Kinematografiya tajriba markazida rejissyorlik kurslarida o'qiydi. Yozuvchining bu davrda ko'rgan-kechirganlari, taassurotlari «Avliyo» hikoyasida yorqin aks etgan. Hikoyada aqlan cheklangan, go'zallik hissiyotidan mahrum kimsalar, hatto, mo'jizaga ham befarq, loqayd qolishi, inson sha'nini yerga uruvchi byurokratik san-salorlik kishini yolg'izlikka mahkum etishi, ayni chog'da, iroda, adolatga ishonch insonni yuksaltirishi yorqin ochib berilgan. Hikoya qahramoni Margarito Duartening benihoya suluv qizchasi yetti yoshligida vafot etib ketadi. Qabristonning ko'chirilishi munosabati bilan Margarito qizining qabrini ochadi va hayratdan qotib qoladi. Qo'shni qabrda yotgan qizining jasadi esa, o'n bir yil o'tganiga qaramay, o'lganida qanday bo'lsa, shunday turardi. Hatto, shu darajadaki, tobutni ochgan vaqtlarida jasadga qo'shib ko'milgan yangi atirgullar bo'yi ufurardi. Biroq eng hayratlanarlisi – jasad vaznsiz, qushday yengil bo'lib qolgan edi.

Mo'jizani eshitgan yuzlab kishilar qishloqni bosib ketdi. Shubhaga o'rin qolmadi. Jasadning chirimagani qizchaning, shubhasiz, hurligidan dalolat beruvchi belgi ediki, hatto, mahalliy yeparxiyaning yepiskopi bu mo'jizani Vatikanga havola qilish lozim, degan fikrga qo'shildi.

Margarito mo'jizani Papaga ko'rsatish uchun Rimga ketadi. Boyaqish yigirma ikki yil kutsa-da, Papaning huzuriga kira olmaydi, Papaning amaldorlari bo'lsa, bu mo'jizaga e'tibor ham bermaydilar. Yozuvchining xulosasi: «Agar avliyolar haqiqatan ham bor bo'lsa, avliyo – Margaritoning xuddi o'zi ekaniga shak-shubham qolmadi. U hayotining yigirma ikki yilini qizchasining qanday bo'lsa, shundayligicha turgan jasadini ko'tarib, o'z aqidasini – o'zining muqaddas ishini himoya qilishga sarfladi. Lekin muqaddas ish qilayotgani uning xayoliga ham kelgani yo'q», deb yozadi adib hikoya xulosasida.

1956–1957-yillarda Kolumbiya diktatori Roxas Pinilya «El Espektador» gazetasini yopib qo'ygach, Markes Parijda yashay boshlaydi. Markes bu yerda «Polkovnikka hech kim yozmaydi» qissasini yozadi. Qissaning birinchi varianti 1956-yilda yozilgan, lekin muallif uni 11 marta qayta yozadi va nihoyat, u 1961-yilda dunyo yuzini ko'radi. Qissada Ernest Xemingueyning ta'siri sezilib turadi. Bu haqda Markesning o'zi bir necha bor ta'kidlagan va o'zining reportyorlik tajribasi ham qo'l kelganini qayd qilgan. Asarda real va afsonaviy voqealar uyg'unlashib ketgan. Insonning qashshoqlik, ochlik va chorasizlik, byurokratik loqaydlikka qarshi kurashi, adolatga qat'iy ishonchi mahorat bilan tasvirlangan.

Markes yevropaning ko'pgina mamlakatlarini kezib chiqqan, Venesuela, Meksikada ancha vaqt yashagan. Ko'rganlari hayot haqiqatini badiiy haqiqatga aylantirishda qo'l kelgani asarlaridan yaqqol ko'rinib turadi. Har bir konkret adabiy qahramon xarakterida muayyan tarixiy davr, muayyan millatga mansub kishilarning hayoti, tashvishlari, orzu-umidlari, muammolari aks etadi. Markes roman va hikoyalarida ham XX asrdagi Kolumbiya hayoti badiiy tadqiq etilgan. Markes mamlakati hayotidagi fikrlar, g'oyalar kurashini chuqur his qilgan hamda bu hissiyot unda o'zini to'lqinlantirayotgan hodisani kitobxonga yetkazishdek ichki zaruriy ehtiyojga aylangan. Uning asarlari ana shu ehtiyojning mevasi bo'lgani

sezilib turadi. Lekin Markesning Kolumbiya hayotidan olib yozgan asarlari dunyoning turli o'lkalarida yashayotgan o'quvchilar uchun birday qiziqarli, birday qadrlidir. Shu tariqa Kolumbiya milliy adabiyotining jahon, umuminsoniy ahamiyat kasb etishi Markesning buyuk xizmatidir. Dunyo qirg'iz adabiyotini Chingiz Aytmatov, Kolumbiya adabiyotini Markes tufayli tanidi.

Markes ijodida mavzular rang-barang, lekin ular orasidan bir nechta mavzuni alohida ko'rsatish mumkin. Chunonchi, Markes ijodida zo'ravonlikka qarshi nafrat asosiy mavzudir.

«Yolg'izlikning yuz yili», «Oshkora qotillik qissasi» romanlari, «Ulug' Onaning janozasi», «Men telefonda qo'ng'iroq qilish uchungina kelgandim», «Tramontana», «Senora Forbesning baxtli yozi» hikoyalarida zo'ravonlik, uning shaxsga yemiruvchi ta'sir o'tkazishi, ijtimoiy oqibatlari badiiy jihatdan chuqur tahlil qilingan. «Ulug' Onaning janozasi» hikoyasida zo'ravonlik va yolg'izlik o'rtasidagi bog'liqlik, qariyb yuz yil davomida Ulug' Ona cheksiz hukmfarmolik qilgan kichkina Makondo shohligida adolatning toptalishi, erkinlikka yo'l yo'qligi, jamiyat inqirozi yorqin detallarda ochib berilgan. Hikoyada zo'ravonlik tegirmoniga suv quyadigan illatlar – qullarcha itoatkorlik, mo'minlik, tobelikning ijtimoiy oqibatlari yoritilgan. Ulug' Onaga iqtisodiy jihatdan qaram ahvolda ekanliklari, mo'min-qobilligi sababli kishilarda befarqlik, loqaydlik illati paydo bo'lgan. Qullarcha hayot kechirayotgani ularning xayoliga ham kelmaydi. Hukmdor cheksiz istibdodga asoslangan hukmronligini barqaror qilishning zo'r yo'lini topgan – u fuqarolarini arang kun kechiradigan ahvolga solib qo'ygan. Qorin to'ydirish asosiy tashvishiga aylangan odam fikrlashi, o'z qadr-qimmatini uchun bosh ko'tarishi mumkin emas. Ular qorin bandalariga aylanib ulgurgan va Ulug' Ona goho berib turadigan ziyofatlarda kayf-safot qilish ular uchun katta bayram. Turmush tashvishlari, adolatsizliklardan ezilgan odamlarga Ulug' Onaning hukmronligi

abadiy bo'lib tuyuladi, lekin u o'lganida hammasi yashirincha bo'lsada, xursand bo'ladi. Adibning bu hikoyasi jahon miqyosida shoh asarlardan biri deb e'tirof etilgani bejiz emas.

«Senora Forbesning baxtli yozi» hikoyasi qahramoni bolalarga zulm qiladigan mustabid shaxs, uning so'zi boshqa, ishi boshqa – aytadigan gapi bilan qiladigan ishi tamoman teskari. «Tramontana» hikoyasining qahramoni esa, zo'ravonlik qurboni bo'ladi. «Men telefondan qo'ng'iroq qilish uchungina kelgandim» asari qahramoni Mariya tasodifan jinnixonaga tushib qoladi va uning soppa-sog' ekaniga hech kim, hatto, eri ham ishonmaydi. O'quvchi hikoyani o'qib, Mariya emas, zo'ravon jamiyatning o'zi sog'lom emasligi haqidagi xulosaga keladi.

Adibning 1967-yilda nashr etilgan «Yolg'izlikning yuz yili» romanida jamiyat va yolg'izlik muammosi yanada kengroq va chuqurroq yoritilgan. Bu roman g'oyat katta muvaffaqiyat qozondi. Adabiyotshunoslar o'sha vaqtlarda romanchilik va realizm tarixida yangi davr boshlanganligini bashorat qildilar. Ayni o'sha yillari Lotin Amerikasining kuchli iste'dodlari, jumladan, Markes ijodini «fusunkor realizm» atamasi bilan tavsiflashdi. Turmush va ong, shuurni o'zaro bog'liqlik, uyg'unlikda tasvirlash bu uslubga xosdir.

Markes adolatsizlik, bosqinchilik, zo'ravonlik, istibdoddan ezilgan millatining kelajagi uchun qattiq qayg'urgan yozuvchidir. Ma'lumki, Kolumbiyaning mahalliy aholisi XVI asrda ispan bosqinchilari tomonidan qisman qirib tashlangan, qolganlari asoratga solingan. Mustaqillik urushi natijasida Kolumbiya 1813-yilda ozod bo'lgan va respublika deb e'lon qilingan. Biroq, mamlakatga 1856-yildan 1903-yilgacha AQSh yetti marta bosqinchilik urushlari qilgan, keyinchalik davlat to'ntarishlarini amalga oshirgan. So'nggi davrlarda esa, qashshoqlik, ochlik ichida yashagan Kolumbiya xalqi hokimiyat tepasida o'tirgan hukmronlarning cheksiz istibdodidan ko'p zulm ko'rgan. Markes asarlarida cheklanmagan hokimi-

yat, istibdod va ma'naviyat mavzusi asosiy o'rinlardan birini egallashi tasodifiy emas. Yozuvchi 1972-yilda «Sodda Erendire va uning shafqatsiz buvisining g'aroyib va qayg'uli tarixi» hikoyalar to'plamini nashr ettiradi. Bu to'plamdan boshlab Markes hukmronlik va ma'naviyat masalasini atrofficha badiiy tadqiq qilishga kirishadi. «Buzrukning kuzi» romani (1975) bu nuqtai nazardan uning shoh asaridir. Mazkur romanda Markes zo'ravonlik va istibdod mavzusini mubolag'ali tarzda bo'rttirib tasvirlagan. Roman markazida zo'ravonlik, o'zboshimchalikni yashashning yagona qonuniga aylantirgan kuchli shaxs tarixi yoritilgan. Yozuvchining o'zi «Buzrukning kuzi»ni «o'zining eng qaltis va og'ir ishi» deb aytgan. Xalqini, adolatni sevmaganida Markes bunday qaltis ishga aslo qo'l urmagan bo'lardi.

Markesning buyukligi – xalqini, adolatni sevganida va adabiyot vositasida boshqalarni ham sevdira olganidadir!

Shuning uchun ham Markes 1982-yilda romanlari va hikoyalari uchun Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan.

Tasvirning nihoyatda aniqligi va jozibadorligi Markes uslubiga xos xususiyatdir. Adib, ayniqsa, qahramonlar holatini, manzaralarni shunchalik aniq tasvirleydiki, kitobxon xuddi kino ko'rayotgandek bo'ladi. Bu, avvalo, yorqin iste'dod, qolaversa, tinimsiz mehnat mevasidir. Yuqorida adib «Polkovnikka hech kim yozmaydi» qissasini 11 marta qayta yozganini aytib o'tgandik.

Markes o'z asarlari ustida qayta-qayta ishlagan mehnatkash yozuvchidir. Bu jihatdan yosh, faqat yosh emas, hatto, ba'zi o'zini yetuk sanaydigan yozuvchilar undan o'rnak olsalar arziydi. Xususan, qo'lingizdagi to'plamdan joy olgan so'nggi o'n ikkita hikoyani Markes o'n sakkiz yil davomida qayta-qayta, to'k'ngli to'lmaguncha yozavergan. Bu haqda adibning o'zi bunday deydi: «Bu gal hikoyalarni bir o'tirishda yozdim va goho menga hikoya qilishdan lazzatlanish uchungina yozayotganimdek tuyulardi. Ehtimol, insonning bu ru-

hiy holati ruhan osmonu falaklarga parvoz qilishiga ko'proq o'xshasa kerak. Bundan tashqari, bir vaqtning o'zida barcha hikoyalar ustida ter to'kar va bit-tasidan ikkinchisiga erkin sakrar ekanman, men voqelikni keng ko'rishga erishdim, bu esa meni charchoqdan hamda quruq so'zamolik va halokatli ziddiyatlardan qutqardi. Agar har bir hikoyani alohida-alohida boshlaganimda qattiq charchagan bo'lardim. Menimcha, orzuimdagi kitobimga juda yaqin bo'lgan kitobni yozishga muvaffaq bo'ldim». Umuman, «O'n ikki sayyoh hikoya» to'plamiga yozilgan so'zboshi Markesning ijod laboratoriyasini o'rganish nuqtai nazaridan boy material bo'lib xizmat qiladi.

Markes qaysi janrda, qaysi mavzuda yozmasin, har doim adolatga sodiq qoldi, so'z va qalamga xiyonat qilmadi. Uning asarlarining umrboqiyligi siri ham shundadir.

Boboxon Muhammad Sharif





«ULUG' ONANING JANOZASI» KITOBIDAN

SHAHARCHAMIZDA O'G'RI YO'Q

Damaso xo'roz qichqirgan paytda qaytib keldi. Homiladorligiga yetti oy bo'lgan xotini Ana yechinmagan, to'shakda o'tirgancha, uni kutayotgan ekan. Kerosin lampa o'chayo'chay deb turardi. Damaso xotini tuni bilan bir lahza mijja qoqmay uni kutganini, hatto, hozir ham ko'rib turganiga qaramay, kutayotganini tushundi. U xotinini tinchitish uchun bosh silkib ishora qildi, lekin xotini javob bermadi, balki eri keltirgan qizil matodan qilingan bo'xchaga qo'rqib tikildi, lablari burildi, yig'lamaslikka urinib, titradi. Jahldan joni halqumiga kelgan Damaso hech narsa demay, ikki qo'li bilan xotinining belidan olib, azot ko'tardi. Damasodan kuyindi hidi keldi.

Ana indamay turib berdi, so'ngra o'zini erining ko'ksiga tashladi, yuzini to'q qizil yo'lli ko'ylagiga bosib, o'krab yubordi. To o'zini bosib olmaguncha erini qattiq quchoqlab turaverdi.

– Kechasi bilan o'tirib chiqdim va ko'zim ilinibdi, dedi u hiqillab yig'lar ekan, – bir vaqt tush ko'rdim, eshik ochildi, seni qonga belangan holda eshikdan uloqtirishdi.

Damaso indamay xotinining quchog'idan chiqdi va uni o'zi kelmasidan oldin o'tirgan joyiga, to'shak ustiga o'tqazdi, so'ngra bo'xchani uning tizzasiga tashlab, hojatxonaga ketdi. Xotin bo'xchani yechdi va ikkitasi oq, bittasi qizil, xiralash-

gan, zarbalardan kertik-mertik bo'lgan bilyard zo'ldirlarini ko'rdi.

Damaso qaytib kelganida, xotini zo'ldirlarni hayratlanib tomosha qilayotgan edi.

– Bular nimaga kerak? – so'radi u.

U yelkasini uchirdi:

– Bilyard o'ynash uchun kerak.

Damaso zo'ldirlarni yana qizil bo'xchaga tugdi va qo'lbo-la ochqich, cho'ntak fonari, pichoqqa qo'shib, sandiq tubiga yashirib qo'ydi. Ana yechinmasdan, devorga qarab yotdi. Damaso shimini yechdi, xolos. To'shakka uzandi, qorong'ida yotgancha chekdi, qilib qo'ygan ishining oqibati to'g'risida tong g'ira-shirasida nimadir eshitishga urinib, qulog'ini ding qildi. Birdan xotini bedor ekanini payqadi.

– Nima haqda o'ylayapsan?

– Hech narsa haqida o'ylayotganim yo'q.

Alamzada Damasoning ovozi bo'g'iq va odatdagidan past edi. U sigaretani so'nggi marta tortdi va qoldig'ini yerga tashlab, o'chirdi.

– Boshqa hech narsa yo'q ekan, – uf tortdi u. – Behudaga bir soat daydib yurdim.

– Afsuski, seni otib o'ldirishmabdi.

Damaso cho'chib tushdi.

– Tilingga kuydirgi chiqsin, – deb to'ng'illadi yog'och karavotning chetini taqillatarkan. So'ng polni paypaslab, sigareta va gugurt qidira boshladi.

– Sen qip-qizil eshaksan! – dedi xotin. – Seni kutdim, mijja qoqmadim, har safar ko'chadan shovqin-suron eshitsam, o'ligingni olib kelishayotgandek tuyulaverdi. Sen buni hech o'yladingmi? – u xo'rsindi va qo'shimcha qildi: – Uchtagina bilyard zo'ldirini deb, shuncha azob tortibman-a.

– Stol g'aladonida bor-yo'g'i yigirma besh sentavo bor ekan, xolos.

– Unda hech narsani olmaslik kerak edi.

– U yerga kirishning o‘zi bo‘lgani yo‘q. Shunday ekan, bo‘sh qo‘l bilan qaytsam bo‘lmasdi-da.

– Unda boshqa biron narsa olgin edi.

– Boshqa narsaning o‘zi yo‘q ekan.

– Bilyardxonada mingta mayda-chuyda tiqilib yotadi-ku.

– Shunday deb o‘ylashadi, – dedi Damaso. – Lekin ichkarriga kirib diqqat bilan qarasang, arziqli hech vaqo yo‘qligini ko‘rasan.

Ana indamadi. Damaso xotining bilyardxonaga kirib, qorong‘ida ko‘zlari ochiq holda, qandaydir qimmatli narsa axtarayotganini tasavvur qildi.

– Balki, shundaydir, – bosh irg‘adi xotin.

Damaso yana chekdi. Kayfi tarqalib, asta-sekin tanasining og‘irligi, hajmini seza boshladi, tanasini boshqarish qobiliyati tiklandi.

– U yerda mushuk bor ekan, – qo‘shimcha qildi u. – Kattakon, oq mushuk.

Ana berigi yonboshiga ag‘darildi, qappaygan qorni erining qorniga tiraldi va oyog‘ini erining tizzalari orasiga tiqdi. Ayoldan piyoz hidi kelardi.

– Juda qo‘rqinchli bo‘ldimi?

– Kimga, mengami?

– Kimga bo‘lardi? Erkaklar ham qo‘rqadi, deyishadi-ku.

U xotini kulayotganini sezdi va jilmaydi.

– Ha, bu bor gap, – dedi Damaso. – Ishtonimni ho‘llab qo‘yishimga oz qoldi.

Xotini uni o‘pdi, lekin u bo‘saga javob qilmadi. So‘ngra, boshdan kechirgan xatarni to‘la anglagan, biroq hech afsuslanmagan holda, xuddi sayohat taassurotlarini so‘zlayotganday, hammasini batafsil hikoya qildi.

Ayol anchagacha churq etmadi.

– Ahmoqona ish qilding.

– Asosiysi – ishni boshlash, – dedi Damaso. – Umuman, birinchisi yomon bo‘lgani yo‘q.

Peshin vaqti bo'ldi. Quyosh ayovsiz qizdirardi. Damaso uyg'onganida, Ana allaqachon oyoqda edi. Damaso boshini favvoraga tiqdi va uyqusi tamoman o'chmaguncha, suvdan olmadi. Ular yashaydigan xona katta uyning boshqa xonalari bilan bir xil edi. Bu xonalarning peshayvoni umumiy bo'lib, kir quritiladigan dor bilan o'zaro bo'lib olingandi. Ularning xonasiga kirish yo'lagi peshayvondan tunuka taxtalar bilan ajratilgan bo'lib, bu yerda ovqat pishirish va dazmol qizdirish uchun pechka, ovqat yeyiladigan va dazmol qilinadigan stol turardi. Erini ko'rgan Ana stol ustidan dazmollangan kiyimni oldi, qahva qaynatish uchun pechka ustidagi dazmolni olib qo'ydi. Xotini Damasodan ancha gavdaliroq, terisi bug'doyrang bo'lib, turmushda hech narsadan qo'rqmaydigan kishilar singari, ohista va aniq qadam tashlar edi.

Bosh og'rig'i jonini o'rtayotgan Damaso birdan xotini ko'z qarashi bilan nimadir demoqchi bo'layotganini sezib qoldi va, nihoyat, peshayvondan eshitalayotgan ovozlarga e'tibor berdi.

– Ertalabdan beri shu gap, – deb shivirladi Ana unga qahva uzatar ekan. – Erkaklar allaqachon o'sha yoqqa ketishdi.

Damaso atrofga alanglab, haqiqatan ham kattalar va bolalar qayoqqadir g'oyib bo'lganiga ishonch hosil qildi. Qahva ho'plar ekan, dorga kir osayotgan xotinlarning gap-so'zlariga quloq soldi. Keyin sigareta tutatdi va oshxonadan chiqdi.

– Teresa! – deb chaqirdi.

Ho'l ko'ylagi badaniga chippa yopishgan qiz o'girilib qaradi.

– Ehtiyot bo'l, – pichirladi Ana.

Qiz yaqinlashdi.

– Nima gap? – so'radi Damaso.

– Bilyardxonaga o'g'ri tushib, ship-shiydam qilib ketibdi, – javob berdi qiz.

Qiz hammasini o'z ko'zi bilan ko'rganday. ikir-chiki-rigacha hikoya qila ketdi. Birin-ketin ashyolarni, eng oxirida bilyard stolini qanday olib chiqishganini aytib berdi. Qiz

shunchalik ishonch bilan gapirardiki, Damasoga ham hodisalar shu tarzda yuz berganday tuyula boshladi.

Ko'rgulik, – deya g'ulduradi u Ananing yoniga qaytar ekan.

Ayol past ovozda xirgoyi qila boshladi. Bezovta qila-yotgan xavotir hissini bosish uchun Damaso kursini devorga taqadi. Uch oy oldin u yigirma yoshga to'lgandi. Yashirincha matonat va, hatto, mehr-muhabbat bilan parvarish qiladigan ingichka mo'ylovi chechakdan cho'tir yuziga mardonavorlik baxsh etardi. Mo'ylov qo'ygan kundan boshlab u o'ziga yetuk va tajribali bo'lib ko'rina boshladi, lekin bugun ertalabdan tungi xotiralar boshini qaqshatib og'rita boshlaganida, Damaso nima qilarini bilmay, gangib qoldi.

Dazmollashni tugatgan Ana kir-chirlarni ikkita teng qismga ajratdi va ketishga chog'landi.

– Tezroq qaytib kel, – dedi Damaso.

Har doimgiday.

Xotiniga ergashib, xonaga kirdi.

– Manavi katak ko'ylakni kiyvol, – dedi Ana. – Endi matroscha ko'ylakda ko'rinmaganing yaxshi. – So'ngra erining mushuknikiga o'xshash tiniq ko'zlariga tikilib, izoh berdi: – Kim biladi, balki seni kimdir ko'rgan bo'lishi mumkin.

Damaso terlagan kaftini shimiga artdi.

– Meni hech kim ko'rgani yo'q.

– Qayerdan bilasan? – takrorladi Ana, ich kiyimlarni qo'ltiqlar ekan. – Sen hozir ko'chaga chiqmay turganing yaxshi. Oldin o'zim chiqib, u yoq-bu yoqni aylanib kelay. Qiziqayotganimni bildirmayman ham.

Shaharchada hech kim anig'ini bilmas edi. Anaga bir necha bor ayni voqeani har gal boshqacha qilib, qo'shib-chatib gapirib berishdi. Kiyimlarni tarqatib bo'lgach, Ana har shanbada bo'lganiday bozorga emas, aksincha, maydonga yo'ldi.

Bilyardxona eshigi oldida odamlar u kutganiday ko'p emas ekan. Bir nechta kishi bodom daraxti soyasida so'zlashib tu-

rardi. Boshini quyoshdan rangdor ro‘mollar bilan pana qilib olgan suriyaliklar ovqatlanmoqda. Ularning brezent bostirma ostidagi do‘konlari mudrayotganga o‘xshaydi. Mehmonxona ayvonidagi tebranma kursida bir kishi og‘zini ochib, yalpayib yotganча uxlayapti. Peshingi jazirama hammani lohas qilib tashlagan.

Ana bilyardxonani chetlab o‘tdi. Eshik oldidagi yalanglikda bir nechta kishi turardi. Shunda u Damasoning, bilyardxonа ortidagi yalanglikdan orqa eshikka kiriladi, buni hamma biladi-yu, faqat mijozlar aniq eslaydi, degan gapini esladi. Bir daqiqadan so‘ng u qornini qo‘llari bilan ushlagan holda olomon orasida buzilgan eshikka qarab turardi. Osmа qulf but, lekin halqalardan biri qo‘porilgan. Ana anchagacha yakka o‘g‘rining kamtarona mehnati mevalari to‘g‘risida o‘ylab turdi, Damasoga rahmi keldi.

– Buni kim qilibdi? – so‘radi u hech kimga boqmay.

– Noma‘lum, – javob qildi kimdir. – Kelgindi o‘g‘ri bo‘lsa kerak, deyishyapti.

– Albatta, bizniki emas, – dedi orqasida turgan xotin. – Shaharchamizda o‘g‘ri yo‘q. Hamma bir-birini taniydi.

Ana unga o‘girildi va kulimsirab dedi:

– Bu to‘g‘ri gap.

Juvonni ter bosdi. Uning yonida munkillagan chol turardi. Cholning kal boshini qalin ajinlar qoplagandi.

– Ko‘p pul olishibdimi? – qiziqsindi Ana.

– Ikki yuz peso va bilyard sharlarini o‘marib ketishibdi, – javob berdi chol, unga sinchkovlik bilan tikilarkan. – Bu ketishda yaqinda uxlamay chiqadiganga o‘xshaymiz.

Ana o‘girildi.

Bu to‘g‘ri gap.

U boshiga ro‘mol o‘radi va nari ketdi. Juvonga chol orqasidan kuzatib turgandek tuyulardi.

Yalanglikdagi kishilar chorak soatdan beri, xuddi buzilgan eshik orqasida murda yotganday, churq etmay turishardi. So‘ngra xaloyiq qimirlab qoldi, barcha maydonga yo‘l oldi.

Bilyardxona egasi alkald va ikkita politsiyachi bilan eshik oldida turar edi. U pakana va xo'ppasemiz kishi bo'lib, kattakon qorni kamarsiz shimini yorib yuboray deb turardi, ko'zoynagi o'yinchoq ko'zoynakka o'xshardi. U sha'ni yerga urilgan odamni eslatardi.

Uni o'rab olishdi. Ana devorga suyangancha, uning hikoyasiga quloq berdi, odamlar siyraklasha boshlaguncha eshitdi. So'ngra issiqdan bo'g'riqqancha uyiga yo'l oldi va bo'lgan voqea haqida qizg'in gaplashayotgan qo'shnilar yonidan o'tib, uyiga kirdi.

Xotini borib-kelguncha karavotda ag'anab yotgan Damaso uni kechasi bilan kutib chiqqan Ana qanday qilib chekmaniga qayta-qayta hayron bo'lardi. Xotining tabassum qilib kirganini va terdan ho'l bo'lgan ro'molini yechayotganini ko'rib, endigina tutatgan sigaretani yerga tashlab, oyog'i bilan ezib o'chirdi. Pol sigareta qoldiqlariga to'la edi. Damaso yuragini hovuchlab so'radi:

– Xo'sh?

Ana karavot yoniga cho'nqayib o'tirdi.

– Sen faqat o'g'ri emas, yolg'onchi ham ekansan-ku.

– Nega endi?

– Sen menga g'aladonda hech vaqo yo'q ekan, deb aytuvding.

Damaso qoshlarini chimirdi.

– To'g'ri, u yerda hech vaqo yo'q edi.

– U yerda ikki yuz peso bor ekan-ku.

– G'irt yolg'on gap! – dedi Damaso ovozini balandlatib. U qaddini ko'tarib o'tirdi va davom etdi: – Bor-yo'g'i yigirma besh sentavo edi.

Xotini unga ishondi.

– Qari tullak, – dedi Damaso mushtini tugib. – Nima balo, basharasini bejatgisi kelib qolganmi uning?

Ana qah-qah otib kuldi.

– Ahmoqona gaplarni vaysama.

Er ham o'zini tuta olmay, xoxolab kulib yubordi. U soqolini qirtishlar ekan, xotini eshitganlarini so'zlay boshladi.

– Politsiya kelgindi o'g'rini izlayotgan ekan. O'g'ri payshanba kuni keluvdi, deyishyapti. Kecha kechqurun u o'sha yerda o'ralashib yurgan ekan. Uni haligacha topishmadi, deyishyapti.

Damaso o'zi hech ko'rmagan-bilmagan o'sha begona odam haqida o'ylab qoldi, oniy tarzda haqiqatan ham o'sha begona kishi o'g'irlik qilganday tuyuldi.

– Balki, u ketib qolgandir, – dedi Ana.

Har doimgiday, Damasoning o'zini tartibga keltirishi uchun uch soat kerak bo'ldi. U diqqat bilan mo'ylovini tekisladi, favvorada yuvinib oldi. Nikohdan keyingi birinchi kechadan beri o'tgan vaqt ichida hech narsa ularning jo'shqin ehtirosini so'ndira olmagan. Qizil katak ko'ylak kiygan eri ko'chaga chiqishdan oldin o'zini oynaga solayotganini ko'rgan Anaga o'zi qarimsiq va isqirt bo'lib ko'rindi. Damaso professional bokschilarga xos yengil sakrab, uning oldida jangovar holatga kirdi. Ana uning qo'lidan ushlab oldi.

– Puling bormi?

– Men boyvachchaman, – dedi u kulimsirab, – axir cho'ntagimda ikki yuz peso bor-ku.

Ana teskari o'girildi, siynabandidan dumaloq qilib o'ralgan pulni oldi va bir pesolikni chiqarib, eriga uzatdi.

– Ma ol, Xorxe Negrete.

* * *

Kechqurun Damaso do'stlari bilan maydonda edi. Qo'shni qishloqlardan bozorga kelgan kishilar tunash uchun yegulik sotadigan do'konchalar va lotereya stollari orasiga joylashib olishar va qorong'i tushdi deguncha chor tarafdan xurрак to'vushlari eshitilar edi. Damasoning do'stlarini, aftidan, bilyardxonaga o'g'ri tushgani emas, beysbol chempionatidan olib berilayotgan radioeshittirish qiziqtirayotgandi. Bilyard-

xona yopiq bo'lgani uchun bundan mahrum bo'lgandilar. Do'stlar chempionat haqida qizg'in bahslashib, kinoteatr yoniga borib qolganini sezmay qolishdi. Kelishib ham, hatto, qanday film ko'rsatishayotganini so'rab ham o'tirmay, chipta olishdi.

Kantinflas o'ynagan filmni ko'rsatishayotgandi. Damaso ayvonning birinchi qatorida o'tirar, vijdoni zarracha qiynalmay, qah-qah otar edi. U tashvishlardan forig' bo'layotganini his qilardi. Iyunning fusunkor kechalaridan biri edi. Filmdagi dialoglar orasidagi jimlikda kinoapparatning baayni yomg'ir shivalaganiga o'xshash shitirlashi eshitilardi. Kinoteatr ustidagi ochiq osmonda yulduzlar qovog'ini uyub turardi.

Qo'qqisidan ekrandagi tasvir o'chdi va zal to'ridan shovqin eshitildi. Chiroq yondi, Damasoga uni topib olishgandek va hamma unga qarayotgandey tuyuldi. U o'rnidan irg'ib turdi, lekin tomoshabinlar joylaridan qo'zg'almay o'tirganini ko'rdi, qo'lga kamar o'rab olgan politsiyachi bo'lsa, katta mis to'qa bilan kimnidir shiddat bilan savalayotgan edi. U bahaybat negrni urayotgandi. Xotinlar qiy-chuv ko'tarib qichqirishdi, poli-siyachining baqirig'i ularning sasini bosib ketdi:

– O'g'ri! O'g'ri!

Negr qator oralab qochdi, ikki nafar politsiyachi uni quvib, yelkasiga musht yog'dirib borishardi. Nihoyat, ular negrni tutishga muvaffaq bo'lishdi. Kamarli politsiyachi negrning qo'llarini orqasiga qayirib, kamar bilan bog'ladi va uchovlon uni tepa-tepa eshik tomonga haydashdi. Bu voqealar bir lahzada bo'lib o'tdi va Damaso negrni zaldan olib chiqib ketishgandagina nima gapligini angladi. Negrning ko'ylagi yirtilgan, terlagan yuzini chang va qon bosgan edi. U faryod urib takrorlardi:

– Qotillar! Qotillar!

Chiroq o'chdi va yana kino ko'rsatila boshlandi.

Damaso boshqa hecham kulmadi. U ustma-ust sigareta tutatar, ekranga baqrayib o'tirar, ko'ziga allaqanday uzuq-yuluq

lavhalar ko'rinardi. Yana chiroq yondi va tomoshabinlar bir narsadan qo'rqqanday vahima aralash bir-biriga qarashdi.

– Juda qoyilmaqom bo'ldi-da, – dedi yonida o'tirgan tomoshabin.

– Kantinflas zo'r o'ynaydi, – javob qildi Damaso unga qaramasdan.

Odamlar oqimi uni eshikdan olib chiqdi. Mayda-chuyda yegulik to'la xaltalarini orqalagan xotinlar uylariga tarqalishdi. Soat o'n ikki bo'lsa-da, ko'chalarda odam ko'p – negrni qanday tutishganini bilish uchun tomoshabinlarni kutib turishardi.

Damaso xonaga shunchalik pisib kirdiki, Ana uyqusirab, uning kelganini sezganida, u chalqancha yotib, ikkinchi sigaretani tugatayotgandi.

– Ovqating o'choq ustida turibdi, – ming'illadi u.

– Ovqat yegim yo'q.

Ana tin oldi.

– Tushimda Nora moydan bolalarning haykalchasini yasayotganmish, – dedi hanuz uyqu aralash. Shundagina o'zi ham sezmay ko'zi ilinganini payqadi va dovdirab, ko'zlarini ishqadi, so'ngra Damasoga yuzlandi. – Kelgindini ushlab shibdi.

– Kim aytdi?

– Kinoteatrdan ushlab shibdi. Hozir hamma o'sha yoqqa ketdi.

Shundan keyin Ana kinoteatrdan bo'lgan voqeani rosa ko'pirtirilgan tarzda aytib berdi. Damaso e'tiroz bildirib o'tirmadi.

– Bechoragina, – uf tortdi Ana.

– Nima, bechoragina deysanmi?! – baqirdi qoni qaynab ketgan Damaso. – Nima, uni emas, meni ushlab shibdi istayotganmiding?

Ana erini yaxshi bilgani uchun gap qaytarmadi. Erining xo'roz qichqirgunga qadar xirillab nafas olgancha, chekib

chiqqanini payqadi. So'ngra o'rnidan turib, xonadan chiqqanini, qandaydir ishga unnaganini eshitdi. Eri karavot ostini kovlaganini (bu chorak soatdan ko'proq davom etdi), undan keyin qorong'ida yechinganini, bu vaqt ichida xotini unga xalaqit bermaslik uchun o'zini uxlaganga solib yotganini, hatto, xayoliga ham keltirmay, barcha ishni imkon boricha shovqinsiz qilishga uringanini eshitib yotdi. Ayol qalbining to'rida nimalardir sodir bo'ldi va u Damasoning kinoga borganini payqadi, bilyard zo'ldirlarini nega karavot ostiga yashirganini fahmladi.

Bilyardxonada dushanba kuni ochildi va shu zahoti hayajonlangan mijozlarga to'ldi. Bilyard stoli ustiga kattakon binafsharang mato tashlashdi, natijada xona motam tusiga kirdi. Devorga e'lon osig'liq edi: «Zo'ldirlar yo'qligi sababli bilyardxonada ishlamaydi». Kirganlar bu e'lonni xuddi bir yangilikday diqqat bilan o'qir edilar. Ba'zilar e'longa uzoq tikilib, hayratda qolar darajada qat'iyat bilan qayta-qayta o'qir edilar.

Damaso birinchilar qatorida kirdi. U o'z hayotining ko'p qismini ishqibozlar o'tiradigan o'rindiqlarda o'tkazgan edi va bilyardxonada eshigi ochilishi bilanoq, yana shu yerda paydo bo'ldi. Hamdardlik bildirish garchi juda qisqa davom etgan bo'lsa-da, ko'p qiyin kechmadi. Damaso peshtaxta orqasida turgan xo'jayinning yelkasiga qoqib qo'yar ekan, xitob qildi:

– Qanday xunuk ish bo'ldi-ya, don Roke!

U achchiq kulimsirab, bosh irg'adi.

– Nima ham qilardik, – deya xo'rsindi-da, mijozlarga xizmat qilishda davom etdi.

Damaso peshtaxta oldidagi kursiga chiqib o'tirdi va binafsharang kafan ostidagi stolga tikilib qoldi.

– G'alati, – deb g'ulduradi.

– To'ppa-to'g'ri, – qo'shildi qo'shni kursida o'tirgan kishi. – Buning ustiga Pasxa arafasida-ya!

Barcha mijozlar tushlik qilgani uylariga tarqalgan paytda Damaso musiqa chaladigan avtomatning tirqishiga tanga

tashladi va Meksika balladasi tugmasini bosdi. Tugmaning joyini u yoddan bilardi. Don Roke bu vaqtda stol va stullarni zal to'riga tashiy boshlagandi.

– Nega bunday qilyapsiz? – so'radi Damaso.

– Qarta tashlab qo'ymoqchiman. Zo'ldirlar kelguncha nimadir qilish kerak-ku.

Har qo'lida bittadan kursi ko'targancha ko'rga o'xshab qat'iyatsiz, turtinib-surtinib qadam tashlayotgan don Roke yaqinda beva qolgan kishiga o'xshardi.

– Yangilarini qachon yuborishadi?

– Bir oydan keyin.

– Ungacha eskilari topilib qolar, – dedi Damaso.

Don Roke qator tizilgan stollarga mamnuniyat-la nazar tashladi.

– Topilmaydi, – e'tiroz bildirdi u qo'li bilan peshonasi-ni artar ekan. – Negrnga shanbadan beri bir tishlam non ham berishgani yo'q, lekin u baribir bo'yniga olmayapti, zo'ldirlar qayerda ekanini aytmayapti. – U terlagan ko'zoynagidan Damasoga qaradi. – Har holda, zo'ldirlarni daryoga tashlagan bo'lsa kerak.

Damaso lablarini tishladi.

– Ikki yuz peso nima bo'ldi?

– Pul ham yo'q. Uning yonidan o'ttiz pesogina chiqdi, xolos.

Ular bir-birining ko'zlariga tikilishdi. Bu nigohlari xuddi sheriklarning ko'z urishtirishiga o'xshab tuyulganining sababini Damaso tushuntirib berolmagan bo'lar edi. Kun oxirlaganda kirxonada turgan Ana crining uyga qanday qaytayotganini ko'rdi: u boksyorchasiga sakrab, ko'rinmas raqibiga musht yog'dirib kelardi. Juvon xonaga kirdi.

– Hammasi guldek, – dedi Damaso. – Qariya zo'ldirlardan umidini uzibdi, yangilariga buyurtma beribdi. Endi bu gapni hamma unutishini kutish qoldi, xolos.

– Negrnga nima bo'libdi?

– Qo‘rqinchli bir gap yo‘q, – yelkasini qisdi Damaso. – Agar zo‘ldirlarni topishmasa, uni qo‘yib yuborishga majbur bo‘lishadi.

Kechki ovqatdan keyin Ana bilan Damaso ko‘cha eshigi oldida o‘tirib, kinoning ovozi o‘chib, hammayoq suv quygan-dek bo‘lgunga qadar qo‘shnilar bilan gap sotishdi. Uyquga yotishdan oldin Damasoning kayfiyati chog‘ edi.

– Men qoyilmaqom foydali ish o‘ylab qo‘ydim, – dedi u.

Ana Damaso kechgacha o‘ylab pishirgan fikrni o‘rtoqlash-gisi kelayotganini tushundi.

– Shaharchalarni kezaman, biridan o‘g‘irlagan zo‘ldirlarni ikkinchisida sotaman. Hamma joyda bilyardxonalar bor.

– Kezasan-a, kezasan, oxiri tumshug‘ingdan ilinasan, seni otishadi!

– Otishmaydi. Bunaqa gaplar faqat kinoda bo‘ladi, xolos.

U xona o‘rtasida turar, qoyilmaqom rejalaridan boshi osmonda edi. Ana yechina boshladi, tashqi ko‘rinishidan befarqday bo‘lsa-da, bor vujudi quloqqa aylangan edi.

– Mana shuncha kostyum sotib olaman. – Shunday derkan Damaso tasavvuridagi javonning o‘lchamlarini ko‘rsatish uchun butun devorga ishora qildi. – Mana bu yerdan ana u yergacha. Bundan tashqari, ellik juft poyabzal sotib olaman.

– Seni Xudoning o‘zi qo‘llasin!

Damaso qovog‘ini soldi.

– Mening ishlarim seni qiziqitirmaydi, shekilli.

– Bu ishlarga mening aqlim yetmaydi, – Ana lampani o‘chirdi, devorga taqalib yotdi va alam bilan davom etdi: – Sen o‘ttizga to‘lganingda men qirq yettiga kiraman.

– Ahmoq, – miyig‘ida kuldi Damaso. U gugurt qidirib, cho‘ntaklarini paypasladi. – U vaqtda sen kir yuvmaysan.

Ana unga yonib turgan gugurtni uzatdi. Ayol olov o‘chgun-ga qadar tikilib turdi, so‘ngra kulga aylangan gugurtni bir chetga uloqtirdi. Damaso to‘shakka uzandi va yana dedi:

– Bilasanmi, bilyard zo‘ldirlarini nimadan qilishadi?

Ana indamadi.

– Fil suyagidan yasashadi. Shuning uchun ham ularni topish qiyin va bu yerga olib kelgunlariga qadar hech bo'lmaganda bir oy o'tadi. Tushundingmi?

– Uxla. Men ertalab beshda turishim kerak.

Damaso odatdagi tabiiy holatiga qaytdi. U kunning birinchi yarmini to'shakda chekish bilan o'tkazar, tushuki uyqudan keyin ko'chaga chiqishga tayyorgarlik ko'rib, u yoq-bu yog'ini tartibga keltirar, oqshomlari bilyardxonada beysbol chempionatidan radioeshittirishlarni tinglardi. Uning nechog'liq zavq-shavq bilan topgan o'z g'oyasini shunchalik tez unutishdek maqtovga arzirli xususiyati bor edi.

– Puling bormi? – deb so'radi u Anadan shanba kuni.

– O'n bir peso pulim bor, - dedi Ana va yumshoqqina qilib ilova qildi: - Bu ijara haqiga to'lanadigan pul.

– Mening bir taklifim bor edi.

– Nima ekan?

– Ularni menga qarzga berib tur.

– Xo'jayinga to'lash kerak.

– Keyin to'larsan.

Ana «yo'q» ma'nosida bosh chayqadi. Damaso uning qo'llaridan ushlab, stol orqasidan turishiga yo'l qo'ymadi. Bu stolda ular nonushta qilayotgan edilar.

– Bor-yo'g'i bir necha kunga, – dedi u erkalatgan ohangda va bir vaqtning o'zida uning qo'llarini parishonxotirlarcha silab, – zo'ldirlarni sotsam, hamma narsaga pulimiz yetadigan bo'ladi.

Ana ko'nmadi.

Damaso shu kechasi, hatto, do'stlari bilan suhbatlashayotganida ham xotining yelkasidan qo'lini olmadi. Filmni e'tiborsizlik bilan tomosha qilishdi. Nihoyat, Damasoning toqati toq bo'la boshladi.

– Unday bo'lsa, qayerdandir pul o'g'irlashimga to'g'ri keladi, – deb so'z qistirdi u.

Ana yelkasini qisdi.

– Duch kelgan odamni bo'g'aman, – tahdid qildi Damaso xotinini kinodan chiqayotgan olomon orasidan olib o'tar ekan. – Qotilligim uchun meni turmaga tiqishadi.

Ana kulimsiradi, lekin gapidan qaytmadi.

Ular kechasi bilan janjallashib chiqishdi. Damaso ertalab namoyishkorona va tahdidli ravishda tezda kiyindi va Ananing yonidan o'tar ekan, to'ng'illadi:

– Kutib o'tirma, endi men qaytib kelmayman.

Ana titrog'ini bosa olmadi.

– Oq yo'! – baqirdi orqasidan.

Damaso eshikni qarsillatib yopdi. Uning uchun uchi-keti ko'rinmagan ma'nosiz yakshanba boshlandi. Ertalabki soat sakkizdagi ibodatdan so'ng bolalari bilan cherkovdan chiqqan yaltiroq ko'ylak kiygan ayollar turfa ranglarga to'la bozor va maydonni shovqin-suronga to'ldirdi. Havo tobora qizib bordi.

Damaso uzzukun bilyardxonada o'tirdi. Ertalab bir nechta kishi qarta o'ynadi, tushga yaqin mijozlar ko'paydi, lekin bilyardxona ilgarigi jozibasini yo'qotgani besh qo'lday ayon edi. Faqat kechqurun, beysbol chempionatidan radioeshittirish boshlangan vaqtdagina bilyardxona jonlanib, qandaydir darajada eski vaqtlarni eslatar edi.

Bilyardxona yopilgandan so'ng Damaso qayoqqa borishini bilmay, qaysidir maydonda bemaqsad tentirab yurganini birdan payqab qoldi. Damaso qirg'oqqa parallel uzangan ko'cha bo'ylab uzoqlardan eshitalayotgan sho'x musiqa ovozi tomonga qarab ketdi. U qorayib ketgan qog'oz gulchambarlar bilan bezatilgan kattakon va bo'm-bo'sh raqs maydoniga chiqdi. Maydonning to'rida, taxta sahnada chog'roq orkestr musiqa chalardi. Havodan ufurayotgan lab bo'yog'i hidi nafasni bo'g'ardi.

U peshtaxta oldida to'xtadi. Musiqa to'xtagach, orkestr dastasida likopcha urishtirgan yigitcha raqs tushayotgan er-

kaklar yoniga borib, pul to'play boshladi. Allaqanday bir qiz sherigini tashlab, Damasoga yaqinlashdi:

– Xorxe Negrete, ishlar qalay?

Damaso uni yoniga o'tqazdi. Yuziga upa surgan, qulog'ining orqasiga chinnigul taqqan bufetchi baland ovozda so'radi:

– Nima ichasiz?

Qiz Damasoga o'girildi:

– Nima ichamiz?

– Hech narsa.

– Mening hisobimga.

– Gap pulda emas, – dedi Damaso. – Ovqat yegim kel-yapti.

– Attang, – uf tortdi bufetchi. – Shunday ko'zlari bo'latirib-a!..

Ular zal to'ridagi oshxonaga o'tishdi. Qaddi-qomatiga qaraganda qiz tamoman boshqacha, lekin yuziga qalin upa-elik surgani va lablarini qip-qizil qilib bo'yagani uchun yoshi nechadaligini aytish qiyin. Ovqatlanib olgach, Damaso qiz bilan qorong'i peshayvon to'rida joylashgan xonaga kirdi. Bu yerda uyqudagi hayvonlarning nafas olishi eshitilib turardi. Karavotda rangdor lattaga o'ralgan chaqaloq bor edi. Qiz latta-puttalarni taxta qutiga yoydi va bolani qutiga solib, polga qo'ydi.

– Chaqaloqni sichqonlar yeb qo'yishi mumkin, – dedi Damaso.

– Sichqon bolani yemaydi.

Qiz qizil ko'ylagini yechib, ancha ochiq, kattakon sariq gullar tasviri tushirilgan ko'ylakni kiyib oldi.

– Bolaning otasi kim? – so'radi Damaso.

– Kim ekanini o'zim ham bilmayman, – tirjaydi qiz. Shunday deya eshik tomon yurdi va qo'shimcha qildi: – Tezda kelaman.

Damaso qiz eshikni qulflaganini eshitdi. U kiyim-boshini kursiga ildi va ketma-ket bir nechta sigareta chekdi. Karavot

mambo ohangida tebranar edi. Damaso uxlab qolganini sez-madi ham. Uyg'onganida musiqa tovushlari tingandi, shu tu-fayli xona unga kattaroq bo'lib tuyuldi.

Qiz karavot yonida yechindi.

– Soat necha bo'ldi?

– To'rt bo'lay deb qoldi. Bola yig'lamadimi?

– Yig'lamadi shekilli, – javob qildi Damaso.

Qiz Damasoning yoniga cho'zildi va biroz xiralashgan ko'zlari bilan unga boshdan-oyoq tikilganicha, ko'ylagining tugmalarini yecha boshladi. Damaso qizning bo'kkuncha ich-ganini sezdi. Chiroqni o'chirmoqchi bo'ldi.

– Tegma, – dedi qiz. – Ko'zlaringga tikilish menga juda yoqadi.

* * *

Tonggi tovushlar xonani to'ldirdi. Chaqaloq yig'ladi. Qiz bolani to'shakka oldi, ko'kragini tutdi va og'iz ochmasdan allaqanday qo'shiqni xirgoyi qila boshladi. Nihoyat barchasi uyquga toldi. Damaso qiz ertalab soat yettida uyg'onganini va xonadan chiqqanini eshitmadi. Qiz bolani tashlab, qay-tib keldi.

– Hamma sohilga ketyapti, – dedi u.

Damaso o'zini kechasi bilan uxlamay chiqqan odamday his qilardi.

– Nega?

– Zo'ldirlarni o'g'irlagan negrni ko'rgani ketishyapti. Uni bugun jo'natib yuborisharkan.

Damaso chekdi.

– Bechora, – xo'rsindi qiz.

– Bechora?! – baqirib yubordi Damaso. – Kim unga o'g'ir-lik qil dedi.

Qiz boshini xam qilganicha o'ylab qoldi, keyin ovozini pa-saytirib dedi:

– Bu ishni u qilgani yo'q.

– Kim aytdi?

– Men buni aniq bilaman. Bilyardxonani urib ketishgan kechasi negr Gloriyaning yonida edi va keyingi kuni kechgacha u bilan bo‘ldi. Keyin kinodan qaytib kelishdi va uni qamashganini aytishdi.

– Gloriya bu haqda politsiyaga aytib berishi mumkin.

– Bu haqda negrning o‘zi aytgan. Alkald Gloriyanikiga keldi, xonasini ag‘dar-to‘ntar qildi va uni ham sherik sifatida turmaga tiqishini aytib qo‘rqitdi. Oxir-oqibat Gloriya yigirma peso to‘lab qutuldi.

Damaso soat sakkizga yaqin o‘rnidan turdi.

– Qolaqolgin, – taklif qildi qiz, – tushlikka tovuq so‘yaman.

Damaso qo‘lidagi taroq bilan sochini taradi, so‘ngra taroqni shimining orqa cho‘ntagiga tiqib qo‘ydi.

– Qololmayman.

Qizni qo‘lidan ushlab, o‘ziga tortdi. Qiz allaqachon yuvinib ulgurgani uchun haqiqatan ham juda yoshligi yaqqol ayon bo‘lib turardi. Kattakon qora ko‘zlari uni juda ma’suma qilib ko‘rsatardi. Qiz uni quchoqladi va takrorladi:

– Qolgin.

– Butunlaymi?

Qiz biroz qizarib, uni qo‘yib yubordi.

– Yolg‘onchi.

Ana shu kuni ertalabdan o‘zini horg‘in his qilayotgandi, lekin umumiy hayajon unga ham yuqdi. Mijozlaridan kir-chirlarni odatdagidan ertaroq yig‘ib oldi-da, negrni qanday jo‘natishlarini ko‘rish uchun sohilga yo‘l oldi. Kemalar jo‘nashga shay turgan bandargohda olomon toqatsizlanib g‘ala-g‘ovur ko‘tarayotgan edi. Damaso ham shu yerda ekan.

Ana ko‘rsatkich barmog‘i bilan uning biqiniga turti.

– Bu yerda nima qilyapsan? – deb xitob qildi kutilmagan turtkidan cho‘chib ketgan Damaso.

– Sen bilan vidolashgani keldim.

Damaso simyog‘ochni taqillatdi.

– Tilingga kuydirgi chiqsin, – dedi u.

Sigaretani tutashtirgach, bo'sh qutini daryoga uloqtirdi. Ana belbog'idan boshqa qutini oldi va erining ko'krak cho'ntagiga soldi. Damaso o'zini tuta olmadi va kulib yubordi.

– G'irt tentaksan-a, – dedi u.

Ana kuldi.

Ko'p o'tmay negr paydo bo'ldi. Uni maydon o'rtasidan olib o'tishdi. Qo'llari arqon bilan orqasiga bog'langan, arqon uchini politsiyachi ushlab borardi. Negrning ikki yonida miltiq ko'targan ikkita politsiyachi. Negrning ko'ylagi yo'q, pastki labi yorilgan, qoshi boksyorlarnikiday shishib ketgan. Jafo-kash odamday mag'rur bosh ko'tarib, xaloyiqqa qaramasdan o'tib borardi. Bilyardxonada eshigi oldida tomoshabinlar juda ko'p edi. Bilyardxonada xo'jayini indamay unga qarab turar, ta'naomuz bosh chayqar edi. Odamlar negrga yeb qo'yguday bo'lib tikilishardi.

Barkas langar ko'tardi. Negrni palubadan olib o'tib, oyoq va qo'llarini neft solingan sisternaga bog'lashdi. Daryo o'rtasiga borgan barkas burilib, so'nggi gudok berganida negrning yelkasi yaltirab ko'rindi.

– Bechoragina, – shivirladi Ana.

– Jallodlar, – dedi yonida turgan kishi. – Bu holda shu jaziramaga kishi qanday bardosh berishi mumkin?

Damaso o'girilib, bu gapni haddan tashqari semiz xotin aytganini ko'rdi. Damaso olomon orasidan maydonga yorib o'ta boshladi.

– Ko'p vaysaysan, – pichirladi u xotining qulog'iga. – Butun maydonni boshingga ko'tarib qichqirsang bo'larmidi.

Ana uni bilyardxonagacha kuzatib bordi.

– Hech bo'lmasa, egningni almashtirsang bo'larmidi? – dedi Ana ketishga chog'lanarkan. – O'zingga bir qara, devonaning o'zi bo'libsan-qolibsan.

Yangilik tufayli bilyardxonaga odam to'lib ketgan. Bar-

chaning ko'nglini olishga urinayotgan don Roke bir yo'la bir nechta stolda o'tirganlarga xizmat qilardi. Damaso uning yonidan o'tishini kutib o'tirdi.

– Istasangiz, ko'maklashaman.

Don Roke uning oldiga boshiga stakan ag'darib qo'yilgan oltita pivo shishasi qo'ydi.

– Rahmat, bo'tam.

Damaso shishalarni stollarga tarqatdi, buyurtmalar oldi va shu tariqa mijozlar tushlik qilgani uylariga tarqalgunga qadar shisha tashidi. Tongga yaqin uyga kelganida, Ana u g'irt mast ekanini ko'rdi. U erining qo'lini olib, qorniga qo'ydi.

– Paypasla, – dedi u. – Eshityapsanmi?

Damasoning yuzida hech qanday xursandchilik alomati sezilmadi.

– Qimirlayapti, – davom etdi ayol. – Kechasi bilan tepib chiqdi.

Lekin, ko'rinishiga qaraganda, Damaso befarq edi. O'yga botgan Damaso uydan erta chiqib ketdi va yarim kechadan so'ng qaytib keldi. Bir hafta shu tarzda o'tdi. Kamdan-kam hollarda u to'shakka cho'zilib yotgancha chekar, gaplashishdan o'zini olib qochar edi. Ana unga yanada g'amxo'rroq bo'lib qoldi. Birga yashay boshlaganlaridan keyin dastlabki vaqtlari ham Damaso xuddi shunday odamovi bo'lib qolgan edi. U vaqtlari Ana uning fe'l-atvorini yaxshi bilmas va joniga tegib ketardi. Shunda Damaso to'shakda uning ustiga chiqqan bo'lib o'lasi qilib do'pposlagan edi.

Endi bo'lsa, u sabr qilishga o'rgangan. Oqshom tushgandan oq chiroq yoniga bir quti sigareta qo'yib qo'ydi. Ayol eri ochlik va tashnalikka oson bardosh berishini, lekin chekmay turolmasligini bilardi. Iyul oyining o'rtalarida bir kuni Damaso oqshom tushishi bilan uyga qaytdi. Ana bunchalik erta qaytganiga qaraganda rosa bo'kib ichgan bo'lsa kerak, deb xavotirlandi. Damaso ko'rinishidan qandaydir gangigan va adoyi tamom bo'lganga o'xshardi. G'iq etmay ovqatlanishdi,

lekin uyquga yotishlaridan oldin qo‘qqisidan Damaso bo‘kibrub yubordi:

– Ketaman!

– Qayoqqa?

– Boshim oqqan yoqqa.

Ana xonani ko‘zdan kechirdi. U xonaning to‘rt devoriga jurnal muqovalarini yopishtirib tashlagan edi. Bu suratlar eskirib sarg‘aygan va yirtilib ketgandi. Karavotida yotib kinoaktyorlarning portretlariga tikilgan va ularning rangi ro‘yini o‘zlashtirgan erkaklarning hisobini Ananing o‘zi ham bilmasdi.

– Men bilan yashash senga zerikarli bo‘lib qoldimi?

– Gap bunda emas, gap shaharchada.

– Shaharchamizning boshqa shaharchalardan farqi yo‘q.

– Zo‘ldirlarni sotish imkoni yo‘q.

– Zo‘ldirlarni unut. Hozircha Xudo kir yuvish uchun menga kuch berib turgan ekan, allaqanday qaltis ishlar bilan shug‘ullanishingning hojati yo‘q. – Biroz jim qoldi, so‘ng ehtiyotkorona ravishda qo‘shimcha qildi: – Bu gap kallangga qanday kelganiga hozirgacha hayronman.

Damaso sigaretani chekib tugatdi va javob berdi:

– Bu ish juda oson ko‘chdi, lekin nega hech kim shu choqqacha bu haqda o‘ylamaganini tushunolmayman.

– Pul ma‘nosida gaping to‘g‘ri, – uning fikriga qo‘shildi Ana. – Lekin zo‘ldirlarni o‘g‘irlashday ishga bironta ahmoq qo‘l urmagan bo‘lardi.

– Kallam ishlamay qoldi-da. Peshtaxta ortidagi qutida turgan zo‘ldirlarni ko‘rgan chog‘imda bu yerga shuncha mashaqqat bilan kirdim, endi bo‘sh qo‘l bilan ketaveramanmi, degan fikr kallamga urildi.

– Toleing yo‘q ekan, – uf tortdi Ana.

Damaso yengil tortdi.

– Yangilarini yuborishmayapti, – dedi u. – Zo‘ldirlar qimmatlashdi, deyishibdi. Don Roke, bu zararga tushadi, deyapti.

U yana sigareta tutatdi, so‘zlar ekan, qalbi poklanayotgandek bo‘ldi.

Damaso xo‘jayin bilyard stolini sotib yubormoqchi ekanini aytdi. Holbuki, endi uni arzimagan pulga sotish mumkin xolos. O‘yinni endi o‘rganayotganlarning uquvsizliklari oqibatida mato ilma-teshik bo‘lgan, rangba-rang yamoqqa to‘lib ketgan va uni yangisiga almashtirish darkor. Hozircha sobiq bilyard ishqibozlari uchun yagona ermak – beysbol chempionatidan olib beriladigan radioeshittirish xolos.

– Nima qilaylik, o‘zimiz xohlamagan holda barchaga fririb berdik, – deya gapini tugatdi Damaso.

– Buning ustiga bu ishdan bir chaqa foyda olmadik, – qo‘shimcha qildi Ana.

– Kelasi hafta chempionat ham tugaydi.

– Bu holva. Hammasidan yomoni – negrning qamalgani bo‘ldi.

Ayol bir vaqtlardagidek, boshini erining yelkasiga qo‘yib yotardi va eri nima haqda o‘ylayotganini his qildi. Erining sigaretani chekib bo‘lishini kutdi, so‘ngra dedi:

– Damaso!

– Nima deysan?

– Ularni qaytarib ber.

Damaso yangi sigaretani tutatdi.

– O‘zim ham bir necha kundan beri shu haqda o‘ylayapman. Faqat buni qanday qilsam ekan, deb boshim qotyapti.

Ular oldiniga zo‘ldirlarni odam ko‘p joyda qoldirish fikriga kelishdi, lekin keyinchalik Ana bu bilyardxonaga muammo-sini hal qilsa-da, negr masalasida befoyda ekanini fahmladi. Politsiya negrning bo‘ynidan aybni soqit qilmagan holda, zo‘ldirlarning paydo bo‘lishini turlicha sharhlashi mumkin. Boshqacha ham bo‘lishi mumkin: zo‘ldirlarni topgan odam ularni qaytarib bermasligi, balki keyinchalik sotish niyatida olib qo‘yishi mumkin.

– Biron ishga qo‘l urdingmi, uni ko‘ngildagiday bajarish kerak, – deb xulosa qildi Ana.

Zo'ldirlarni kovlab olishdi. Ana ularni shakli bilinmaydigan qilib gazetaga o'radi va sandiqqa soldi.

– Endi qulay fursatni poylaymiz, – dedi u.

Ammo ikki hafta o'tib ketsa-da, qulay fursat bo'lmadi. O'g'irlikdan roppa-rosa ikki oy o'tgach, yigirmanchi avgust kuni kechki payt Damaso bilyardxonaga kelib, peshtaxta ortida turgan don Rokeni ko'rdi, u palmadan qilingan yelpig'ich bilan pashshalarni haydayotgan edi. Radio jim turar va bu don Rokening yolg'izligini yanada bo'rttiribroq ko'rsatardi.

Senga nima degan edim?! – xitob qildi don Roke, xuddi bashorati ro'yobga chiqqanidan xursandday. – Hammasi rasvo bo'ldi!

Damaso musiqa avtomatiga tanga tashladi. Baland ovoz va lipillagan rang-barang nurlar unga bilyardxonaga sadoqatini namoyish etayotganday tuyuldi. Biroq don Roke, aftidan, buni sezmayotgan edi. Damaso uning yoniga o'tirdi va tasalli berishga urindi, biroq uzuq-yuluq dalillari ishonarli chiqmadi.

Don Roke yelpig'ichni dangasalarcha yelpir ekan, loqaydlarcha quloq solib o'tiraverdi.

– Nima ham qilardik, – uf tortdi u. – Axir, beysbol chempionatining ham oxiri bor-da.

– Lekin zo'ldirlar topilib qolishi mumkin.

– Topilmaydi.

– Axir, negr ularni yeb qo'ymagandir.

– Politsiya hamma joyni axtarib chiqdi, – dedi don Roke zardasi qaynab. – U zo'ldirlarni daryoga tashlab yuborgan.

– Birdan mo'jiza ro'y berib, zo'ldirlar topilib qolsa-chi?

– Uydirma to'qishni bas qil, bo'tam. Bu bo'lmaydigan ish. Nima balo, sen mo'jizaga ishonasanmi deyman?

– Goho ishonaman.

Damaso bilyardxonani tark etganida, tomoshabinlar hali kinodan chiqmagan edilar. Kinozaldan eshitilayotgan nihoyatda kuchli gulduragan tovushlar uyqudagi shaharcha ustida goh aks sado berar, goh tinib qolar, ochiq qolgan bir nechta

eshiklar ham endi yopiladiganga o'xshab tuyular edi. Maydonda biroz tentiragan Damaso raqs zali tomonga yo'l oldi.

Zalda faqat bittagina mijoz bor edi. Orkestr maxsus uning uchun musiqa chalayotgan, u bo'lsa birvarakayiga ikkita ayol bilan raqs tushayotgan edi. Boshqa xotinlar xuddi biron xabar kutayotgandek devor tagida odob saqlab o'tirishardi. Damaso bir stol yoniga o'tirdi, qo'li bilan bufetchiga ishora qilib, pivo berishini so'radi. U to'g'ridan-to'g'ri shishaning og'zidan pivo icha boshladi, faqat nafas rostlash uchungina oraliqda bir to'xtab qo'yardi, shishasi orqasidan ikkita ayol bilan raqs tushayotgan erkakni kuzataverdi. Har ikkala ayol erkakdan novcha edi.

Yarim kechasi kinoga chiqqan ayollar paydo bo'ldi, ulardan so'ng erkaklar kelishdi. Ayollar orasida Damasoning o'ynashi ham bor edi. O'ynashi uning yoniga kelib o'tirdi.

Damaso unga qaragani ham yo'q. U olti shisha pivo ichib ulgurgan va hanuz raqqosdan ko'z uzmayotgandi. Raqqos endi uchta ayol bilan raqs tushishga o'tgan, lekin ularga zarracha e'tibor bermayotgan, fikri-zikri oyoq o'yinda edi. U juda baxtiyor ko'rinar, agar qo'l-oyoqlaridan tashqari dumi ham bo'lsa, bundan ham baxtliroq bo'lishi ko'rinib turardi.

– Bu nusxa menga yoqmayapti, – dedi Damaso.

– Unday bo'lsa, unga qarama, – maslahat berdi qiz.

Qiz bufetchidan ichkilik olib kelishini iltimos qildi. Maydoncha raqs tushayotgan juftlarga to'ldi, ammo uchta xotin bilan raqs tushayotgan erkak o'zini oldingiday, zalda faqat o'zi borday tutayotgan edi. Qandaydir bir muqom chog'i uning ko'zlari Damasoning ko'zlari bilan to'qnashdi. Erkakning oyoq o'yini tezlashdi va u tabassum qilarkan, mayda tishlari ko'rinib ketdi. Damaso ko'zini olib qochmasdan uning nigohiga dosh berdi, pirovardida raqqos tirjayishdan to'xtadi va boshqa tomonga yuz burdi.

– O'zini xushchaqchaq odam deb o'ylaydi bu, – zaharxanda qildi Damaso.

– U haqiqatan ham xushchaqchaq odam, – dedi qiz. – Har kelganida, barcha gumashtalar singari o‘z hisobidan musiqa buyurtiradi.

Damaso unga bejo nigoh bilan tikildi.

– Unday bo‘lsa, o‘shaning yoniga boraqol, – dedi u. – Uchtasi yem yegan joyda to‘rtinchisi ham to‘yadi.

Qiz hech narsa demadi, faqat boshini raqs maydonchasi tomonga burdi va stakandagi sharobni mayda qultumlar bilan ho‘play boshladi. Och sariq ko‘ylakda qiz yanada tortinchoq va qat‘iyatsiz bo‘lib tuyulardi.

Ular raqs tushgani turishdi. Damaso borgan sari ma‘yuslashaverdi.

– Men ochimdan o‘lay deyapman, – dedi qiz va uning qo‘ltig‘idan olib, peshtaxta tomonga sudradi. – Sen ham ulbul yeb olishing kerak.

Xushchaqchaq erkak uchta ayol bilan ularning oldidan chiqdi.

– To‘xtang, – dedi Damaso.

Erkak tirjaydi, lekin qadamini sekinlashtirmadi. Damaso bir silkinib, hamrohining qo‘lidan qutuldi va uning yo‘lini to‘sdi.

– Menga tishlaringiz yoqmayapti.

Erkakning rangi bo‘zardi, lekin iljayib turaverdi.

– O‘zimga ham yoqmaydi, – dedi u.

Qiz Damasoni to‘xtatishga ulgurmay turiboq, u erkakning yuziga musht soldi va u maydoncha o‘rtasida o‘tirib qoldi. Hech kim ularga aralashmadi. Uchta xotin qiy-chuv ko‘targancha, ajratib olish uchun Damasoga yopishdi, qiz bo‘lsa, uni zal to‘riga torta boshladi. Yuzi qontalash bo‘lgan erkak oyoqda qalqib, maymunga o‘xshab bir sakrab, maydoncha o‘rtasiga chiqdi va qichqirdi:

– Chalinglar!

Tungi soat ikkilarga borganda maydoncha deyarli huvillab qoldi va mijozi yo‘q ayollar o‘vqatlana boshladilar. Havo issiq

edi. Qiz bir likopcha loviyali va guruchli qovurilgan go'sht olib keldi, stol yoniga o'tirib, bularning hammasini faqat qoshiq bilan yeya boshladi. Damaso unga ma'nosiz tikildi. Qiz unga bir qoshiq guruch uzatdi.

– Og'zingni och.

Damaso iyagini ko'kragiga qo'yib, bosh chayqadi.

– Buni xotinlar yeydi, – dedi u. – Biz erkaklar, yemaymiz.

O'rnidan turish uchun qo'llarini stolga tirashiga to'g'ri keldi. Nihoyat, muvozanatini to'g'rilab olganida, qo'llarini ko'kragiga chalishtirgan bufetchi oldida turganini ko'rdi.

– To'qqiz-u saksontani to'lab qo'y, – dedi u. – Bu yer xudoyixonona emas.

Damaso uni qo'li bilan chetlatdi.

– Bachchalarni ko'rgani ko'zim yo'q, – deb g'ulduradi u.

Bufetchi uni qo'llaridan ushlab oldi, lekin qizga nazar tashlab qo'yib yubordi va orqasidan dedi:

– Qanchalik ko'p narsa yo'qotganingni keyin bilasan.

Damaso gansiraklagancho ko'chaga chiqdi. Oy ostidagi daryoning sirli kumush yog'dusi unga yaxshi ta'sir qildi, lekin bu uzoq cho'zilmadi. Shaharning narigi yog'ida joylashgan uyining eshigini ko'rganida Damaso yo'lni tushida bosib o'tgani haqida qasam ichishga tayyor edi. U boshini sarak-sarak qildi. Xira, lekin kuchli bir sezgi shu lahzadan boshlab o'zining har bir xatti-harakatini nazorat qilishi lozimligini shipshidi. G'ijirlatmaslikka urinib, eshikni ohistagina ochdi.

Ana uyg'ondi va uning sandiqni kovlashtirayotganini eshitdi. Cho'ntak fonarning nuridan ko'zi qamashdi va devor tomonga o'girildi, lekin Damasoning yechinmayotgani birdan xayoliga urildi. To'satdan aqli ravshanlashganday, to'shakda qaddini ko'tardi. Damaso qo'lida tugun va cho'niak fonari bilan ochiq sandiq yonida turar edi. U barmog'ini lablariga bosdi. Ana to'shakdan irg'ib turdi.

– Sen aqldan ozibsan, – shivirladi u va yugurib eshik yoniga bordi-da, tezda uni tambaladi.

Damaso fonar, pichoq va uchi o'tkir egovni shimining cho'ntagiga soldi, bo'xhani qo'ltig'iga qistirdi-da, to'ppa-to'g'ri Ananing ustiga bostirib bordi. Ana gavdasi bilan eshikni to'sdi.

– Men tirik ekanman, sen bu yerdan chiqmaysan.

Damaso uni itarib tashlashga urinib ko'rdi.

– Qoch, – xirilladi u.

Ana ikki qo'li bilan eshik kesakisiga yopishib oldi. Ular kiprik qoqmay, bir-birlariga tikilib turishardi.

– Sen eshak ekansan-ku, – shivirladi Ana. – Parvardigor senga maftunkor ko'z bergan, lekin aqldan qisgan.

Damaso Anani sochidan tutamladi, qo'lini qayirdi va egilishga majbur qilar ekan, tishi orasidan vishilladi:

– Senga qoch dedim!

Ana unga yon tomondan bo'yinturuq ostidagi ho'kizday olayib qaradi. Bir lahzaga o'ziga har qanday og'riqqa dosh beradiganday, eridan kuchliroqday bo'lib tuyuldi, lekin eri uning qo'lini tobora kuchliroq qayiraverdi. Oxiri ayol bardosh berolmadi, ko'z yoshlari bostirib keldi.

– Bolani o'ldirib qo'yasan, – dedi u.

Damaso uni ko'tarib, karavotga olib bordi. O'zini salgina erkin his qilgan zahoti Ana bir sakrab uning yelkasiga chiqdi va ikkovlon to'shakka ag'darildi. Ikkalasi ham hansirar edi.

– Hozir baqiraman, – shivirladi Ana uning qulog'iga. – Qimir etdingmi, tamom, baqira boshlayman.

Damaso qattiq g'azablanib, xotining tizzalariga zo'ldir solingan bo'xcha bilan ura ketdi. Qattiq ingragan Ana oyoqlarini ochdi, lekin shu zahoti, eshikka yo'latmaslik uchun, uni qattiq quchoqladi va yolvora boshladi.

– Chin so'zim, zo'ldirlarni ertaga o'zim olib boraman, – va'da qila boshladi u. – Homilador bo'lganim uchun meni, bari bir, qamashmaydi.

Damaso yulqinib, uning quchog'idan chiqdi.

– Bu kecha to'lin oy chiqib turibdi, hammayoq oydin, –

dedi Ana. – Seni hamma ko‘radi-ku! Sen kaltafahmning shunga ham aqling yetmaydi.

Ana yana uni ushlab qolishga, eshik tambasini ko‘tarishiga yo‘l qo‘ymaslikka urindi, so‘ngra ko‘zlarini yumib, yuz-ko‘ziga musht yog‘dirdi va qichqira boshladi:

– Hayvon, hayvon!

Damaso o‘zini mudofaa qilmoqchi bo‘lib ko‘rdi, shunda Ana kattakon va og‘ir yog‘och tambani Damasoning qo‘lidan yulib oldi va boshini mo‘ljallab urdi. Damaso chap berdi, zarba yelkasiga tushdi, yelka suyagi qarsillab ketdi.

– Fohisha! – bo‘kirib yubordi u.

U shovqin ko‘tarmaslik kerakligini endi o‘ylamay qo‘ydi. U Ananing qulog‘iga qulochkashlab tushirdi, ayolning tanasi devorga qattiq urildi va kuchli ingroq ovozi eshitildi, lekin u xotiniga qayrilib ham qaramay, xonadan chiqib ketdi. Eshik ochiq qolaverdi.

Og‘riqdan o‘zini yo‘qotgan Ana yerda cho‘zilib qoldi, u shu onda qornida nimadir sodir bo‘lishini kutib yotardi. Devor orqasidan bo‘g‘iq tovushda kimdir uni chaqirdi. Ho‘ngrab yubormaslik uchun lablarini tishladi. Keyin o‘rnidan turdi va kiyindi. O‘tgan safardagidek, ya‘ni zo‘ldirlarni olishga ketgan galdagidek, rejasining bo‘lmag‘ur ekanini tushungan va yo‘ldan qaytarish uchun xotinining qichqirishini yoki orqasidan yugurib chiqishini kutayotgan Damaso eshik orqasida poylab turgani Ananing xayoliga ham kelgani yo‘q. Ana yana oldingi xatosini takrorladi: crining orqasidan quvib yetish o‘rniga, kiyinib oldi, eshikni yopdi va karavotga o‘tirib, crini kuta boshladi.

Eshik yopilgach, Damaso orqaga yo‘l yo‘qligini tushundi. Hurigan itlar uni ko‘cha oxirigacha kuzatib qo‘ydi, lekin keyin qandaydir mudhish sukunat cho‘kdi. U tovush chiqarmaslikka urinib, yo‘lkadan ketib borardi, uyqudagi shahar sukunati qo‘ynida o‘zining qadam tovushlari o‘ziga begona va qattiq eshi- tilayotganday tuyulardi. Bilyardxonaning sharti

ketib parti qolgan eshigi oldidagi yalanglikka chiqmaguncha, Damaso hech qanday ehtiyot chorasini ko'rmadi.

Bu gal fonarni yoqishning keragi bo'lmadi. Eshikning o'tgan gal u sirtmoq tashlagan joyigina mustahkamlangan edi.

Qolgani ilgariydek. Qulfni bir tomonga itarib, o'ng qo'li bilan o'tkir egov uchiga boshqa sirtmoq tashladi va qattiq hayajonlanmasdan, kuch bilan egovlashga kirishdi, nihoyat chirigan yog'och parchalari qo'pdi.

Eshik tavaqasini ochishdan oldin, polga terilgan g'ishtlarga tegmasligi uchun uni ohistagina yuqoriga ko'tardi. Oldiniga eshikni salgina ochib, botinkasini yechdi va uni tugunga qo'shib, ichkariga tiqdi, so'ngra cho'qinib oldida, oy nuri charog'on qilgan xonaga kirdi.

Damaso bo'sh shishalar va qutilar qalashtirib tashlangan qorong'i dahlizdan o'tdi. To'rda, derazadan yog'ilayotgan oy nurlari ostida bilyard stoli, uning ortida Damasoga teskari qaragan javonlar, to'rda, asosiy eshikning orqa tomonida stol va kursilardan ko'tarilgan g'ov. Oy nuri va sukunatni hisobga olmaganda, hammasi birinchi galdagidek. Shu lahzagacha iroda kuchi bilan tanglikdan ustun kelgan Damaso qandaydir g'alati jodu ta'siriga tushib qoldi.

Endi u poldan turtib chiqqan g'ishtlarga e'tibor bermay qo'ydi. Eshikni botinkasi bilan qisib qo'ydi-da, oy nuri tushib turgan yo'lakdan o'tdi va peshtaxta ortida turgan zo'ldir qutisini topish uchun fonarni yoqdi. Hushyor bo'lish kerakligi esidan chiqdi. Fonar nuri o'ng-u chapga o'ynayverdi, u chang bosgan shisha uyumi, temir tepkili uzangilar, mashina moyiga belangan o'rog'liq ko'ylakni va, nihoyat, zo'ldir solinadigan qutini ko'rdi. Qutini oldin qayerda qoldirgan bo'lsa, o'sha yerda turardi. Lekin fonar nuri yana ilgari sirg'aldi va Damaso mushukni ko'rdi.

Jonivor fonar yog'dusi ostida unga befarq qarab turardi. Damaso ham unga fonar nurini tushirishda davom etar ekan, kunduzlari bilyardxonada hech qachon mushuk ko'rmaganini

eslab, birdaniga seskanib ketdi. U fonarni mushukka yaqinlashtirib, «pisht!» dedi, ammo mushuk unga e'tibor ham qilmadi. Biroq shu onda Damasoning kallasi g'ovladi va u mushukni butunlay unutdi. Damaso nima bo'lganini tushunib yetganida fonar qo'lidan tushgan, o'zi esa zo'ldir solingan tugunni ko'kragiga qattiq bosgan holda serrayib turardi. Biyardxona birdaniga nurafshon bo'lib ketgandi.

– Hoy!

U don Rokening ovozi tanidi va yelkasida qattiq horg'inlik his qilgancha, asta-sekin qaddini rostladi. Faqat kalta ish-ton kiygan va temir tayoq ko'targan, nurdan ko'zlari qamashgan don Roke xona to'ridan u tomonga yaqinlashib kelaverdi. Damaso haligina yonidan o'tgan shishalar va qutilar uyumi orqasida osma belanchak bor edi. Damaso bu yerga birinchi marta kelganida osma belanchak yo'q edi.

Ular orasida o'n qadamcha masofa qolganda don Roke bir sakrab, mudofaaga shaylandi. Damaso bo'xchani orqasiga yashirdi. Don Roke bo'ynini cho'zdi, ko'zlarini qisib qaradi, kelguvchining kim ekanini bilish uchun uzoqdan yaxshi ko'rmaydigan ko'zoynaksiz ko'zlariga zo'r berib, diqqat bilan tikildi.

– Iye, bu sen ekansan-da, yigit! – deya hayrat aralash xitob qildi u.

Damasoga cheksiz davom etgan allaqanday narsaga chek qo'yilganday tuyuldi. Don Roke temir tayoqni tushirdi, hayratdan og'zini lang ochgancha, u tomonga qadam tashladi. Ko'zoynagi va taqma tishlari bo'lmaganida u ayolga o'xshab qolar ekan.

– Bu yerda nima qilyapsan? – so'radi don Roke.

– Hech nima, – dedi Damaso, bildirmay holatini o'zgartirar ekan.

– Qo'lingdagi nima?

Damaso orqaga tislandi.

– Hech nima.

Don Rokening yuziga qon tepdi va jahldan titray boshladi.

– Qo‘lingdagi nima dedim?! – baqirdi u, tayoqni ko‘targancha bir odim olg‘a qadam tashlarkan.

Damaso unga tugunni uzatdi. Don Roke hamon ehtiyotkorlik qilib, bo‘xchani chap qo‘li bilan oldi va paypaslab ko‘rdi. Shundagina gap nimadaligini tushunib yetdi.

– Bo‘lishi mumkin emas, – deya g‘o‘ldiradi u.

U shunchalik dovdirab qolgan ediki, beixtiyor temir tayoqni peshtaxtaga qo‘ydi va qog‘oz tugunni ocha boshladi, Damasoni butunlay unutganga o‘xshardi. U g‘iq ctmay, zo‘ldirlarni ko‘zdan kechira boshladi.

– Men bularni allaqachon opkelib bermoqchi edim, – dedi Damaso.

– Ishonaman, – javob qildi don Roke.

Damaso bo‘zday oqarib ketgandi. Kayf allaqachon uchib ketgan, og‘zida achchiq ta‘m qolgan, o‘zini yolg‘iz his qilardi.

– Mo‘jiza deganing shu ekan-da, – dedi don Roke yana zo‘ldirlarni aylantirar ekan. – Sening shunchalik ahmoq ekaningga ishongim kelmaydi.

U boshini ko‘targanida yuz-ko‘zi tamoman boshqacha ekani ma‘lum bo‘ldi.

– Ikki yuz peso-chi?

– Qutida hech narsa yo‘q edi, – dedi Damaso.

Don Roke lablarini chaynagancha, unga o‘ychan tikildi va og‘zi qulog‘iga yetib, tabassum qildi.

– Hech narsa yo‘q edi degin, – takrorladi u. – Demak, hech narsa bo‘lmagan. – Shunday derkan, qo‘liga yana temir tayoqni oldi va qo‘shimcha qildi: – Endi buni sen hozir alkaldga aytasan.

Damaso terlagan kaftlarini shimiga artdi.

– U yerda hech narsa bo‘lmaganini o‘zingiz bilasiz-ku.

Don Roke hanuz iljayib turaverdi.

– U yerda ikki yuz peso bor edi, – dedi u qat‘iy qilib. – Endi o‘g‘ri bo‘lganing uchun emas, ahmoq bo‘lganing uchun po‘stagingni qoqib, bu pulni undirib olishadi.

SHANBADAN KEYINGI KUN

Iyul oyida, derazalarning simto'rlari xuddi ko'chadan tosh otishgani uchun o'pirilganday bo'lganini ko'rganida ikkita timi va to'qqizta xobxonasi bo'lgan kattakon uyda yashaydigan motamzada beva senora Rebekaning odatdagi hayot tarziga darz ketdi. Avvaliga u o'zi dam olayotgan yotoqxonaning derazalaridagi simto'rlar bukilib qolganini ko'rdi va bu haqda oqsochi Arxenida bilan gaplashib olish kerak, deb o'yladi. Eri vafot etganidan buyon Arxenida uning ishonchli kishisiga aylangan edi. Keyin eski-tuskilarini kovlashtirar ekan (senora Rebeka ko'pdan beri shundan boshqa ish bilan shug'ullanmasdi), faqat yotoqxonasi emas, balki barcha derazalarning simto'rlari shikastlanganini ko'rdi. Beva o'z qadr-qimmatini bilishdek an'anaviy tuyg'u sohibasi edi, kim bilsin, bu tuyg'u balki unga ota tomonidan bo'lgan katta bobosidan meros qolgandir. Bu kreol Mustaqillik uchun urush vaqtida qirol tarafdorlari tomonida jang qilgan, keyinchalik Karl III tomonidan bunyod etilgan San-Ildefonso saroyini ziyorat qilishdek birdan-bir maqsad uchungina Ispaniyaga mashaqqatli sayohat qilgan edi. Muxtasar qilib aytganda, senora Rebeka uyidagi barcha derazalarning simto'rlari shunday ahvolga tushganini ko'rib, bu haqda Arxenida bilan gaplashib olishni o'ylamay ham qo'ydi; u duxoba chechaklar taqilgan somon shlyapasini kiydi-da, uyiga hujum qilishgani haqida arz qilish uchun munitsipalitetga yo'l oldi. Lekin, hokimiyat uyiga kelganida, ko'ylaksiz, jundor, devqomat (bu ayolga hayvoniylik ibtidosi bo'lib tuyular edi) alkaldning o'zi munitsipalitetning xuddi uniki singari shikast yetgan simto'rlarini ta'mir qilish bilan band ekanini ko'rdi.

Senora Rebeka isqirt imorat ichiga kirdi, u yerda hamma narsa ostin-ustun bo'lib yotar, ko'zga birinchi tashlanadigan narsa – yozuv stoli ustidagi ko'pdan-ko'p o'lik qushlar edi. Shunda ayol bo'g'ilayotganini his qildi – bu qisman jazira-

ma issiq, qisman simto'rlarga shikast yetganidan g'azablanish natijasi edi. Garchi yozuv stoli ustida yotgan qushlar murdasini har kuni ko'rish mumkin bo'lmasa-da, u hatto qo'rqqani ham yo'q. Narvonga chiqib olib, derazalarning metall simto'rlarini simg'altak va otvyortka yordamida yamayotgan hokimiyat vakilining uni ochiqdan-ochiq kamsitishi ham ayolni zarracha xijolatga sololmadi. Senora Rebeka shu pallada faqat simto'rlariga qilingan hujum natijasiga yerga urilgan sha'nini himoya qilishni o'ylar edi, xolos. Bundan shunchalik g'azablangan ediki, u hatto o'z derazalariga qilingan hujum bilan munisipalitet derazalariga qilingan hujum o'rtasida bog'liqlik borligini ham unutdi. Kamtarona ulug'vorlikni qo'ldan boy bermagan holda ostonadan ikki qadam narida to'xtadi va shamsiyaning uzun, naqshinkor dastasiga suyangan holda dedi:

– Men shikoyat qilmoqchi edim.

Narvonning yuqori pog'onasida turgan alkald issiqdan qizargan yuzini unga burdi. Garchi bevaning kabinetiga kelishi odatdan tashqari hodisa bo'lsa-da, uning yuzida hech qanday o'zgarish sodir bo'lmadi. U qovog'ini solgan holda shikastlangan simlarni sovuqqonlik bilan sug'urishda davom etdi va so'radi:

– Nima gap?

– Gap shundaki, bolalar derazalarimning simto'rlariga shikast yetkazishdi.

Shunda alkald yana unga tikilib qaradi. U ayolga shlyapasidagi mohirona tayyorlangan duxoba chechaklaridan boshlab, kumushrang eski tufllariga qadar, xuddi birinchi marta ko'rayotganday, boshdan-oyoq razm soldi. Ayoldan ko'z uzmagani holda ehtiyotkorlik bilan narvondan tushdi va oyoqlari yerga tekkach, qo'llarini beliga tirab, otvyortkani stol ustiga uloqtirdi.

– Buni bolalar qilgan emas, senora, – dedi u. – Buni qushlarning o'zi qilgan.

Shundagina ayol hammasini – yozuv stoli ustidagi o‘lik qushlarni, narvon ustidagi odamni va yotoqxonasi derazasi-ning shikastlangan simto‘rlarini o‘zaro bog‘ladi. Uyi o‘lik qushlarga to‘la ekanini tasavvur qilgan ayol seskanib ketdi.

– Qushlarning o‘zimi?! – xitob qildi u.

– Ha, qushlarning o‘zi, – tasdiqladi alkald. – Bu narsani tushunmaganingiz hayratlanarli: axir, uch kundan beri oldimizda mana shu muammo – uy ichida o‘lish uchun oynalarni sindirib kirayotgan qushlar muammosi turibdi.

Senora Rebeka munitsipalitetdan chiqar ekan, uyatdan o‘zini qo‘yishga joy topolmayotgandi. Ko‘cha mish-mishlarini yetkazib turadigan Arxenida qushlar haqida hech narsa demagani unga biroz alam qildi. Avgust quyoshining yorqin nurlari ko‘zlarini qamashtirdi va shamsiyasini ochdi. Qizib yotgan, kimsasiz ko‘chadan ketib borar ekan, barcha uylarning yotoqxonalaridan o‘lik qushlarning qo‘lansa hidi kelayotgandek bo‘ldi.

Iyul oyining oxirgi kunlaridan biri edi. Haligacha shaharchada hech qachon bunchalik issiq bo‘lmagan. Biroq shaharcha ahli issiqqa e‘tibor qilmayotgandi: qushlarning yopasiga halok bo‘layotgani odamlarga tinchlik bermayotgan edi. Bu hayratda qolarli hodisa shaharcha hayotiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatmagan bo‘lsa-da, shaharcha ahlining ko‘pchiligi avgust oyining boshidan beri bu voqeaning davomi qanday bo‘lar ekan, deb tashvishlanayotgan edi. Biroq, shaharcha qavmining ruhoniysi, mo‘min-qobil Antonio Isabel del Santissimo Sakramento del Altar Kastaneda va Montero hazratlari ular toifasidan emasdi. U to‘qson to‘rt yoshida uch marta iblisni ko‘rgan. O‘lgan qushlarni ko‘rib, dastavval bunga hech qanday ahamiyat bermagan yagona kishi ham uning o‘zginasi edi. Birinchi marta u rizaxonada o‘lik qushni ko‘rgan – bu seshanba kuni, tushki ibodatdan keyin sodir bo‘lgandi va qandaydir ko‘cha mu-shugi, hatto, shu yerga ham qush sudrab kelish yo‘lini topibdi-da, deb o‘ylagan edi. Ikkinchi marta u

o'lik qushni chorshanba kuni uyida, dahlizda ko'rdi, botinkasining uchi bilan qush murdasini ko'chaga itqitib yubordi va «Bu mushuk degani bo'lmasa, qanday yaxshi bo'lardi», deb o'yladi.

Lekin juma kuni u temir yo'l stansiyasiga kelganida o'zi o'tirishga chog'langan taxta o'rindi ustida yotgan uchinchi o'lik qushni ko'rdi. Uni yashin urgandek bo'ldi, u qushni oyoqlaridan ushlab yuqori ko'tardi, ko'zlariga yaqin keltirdi, aylantirib razm soldi, ko'zdan kechirdi, so'ngra tashvishlanib o'yladi: «Jin ursin, axir bu shu hafta ichida uchinchi-ya». O'shandan boshlab u shaharda nimalar yuz berayotgani haqida o'ylay boshladi, lekin qisman shunchalik ulug' yoshga yetgani uchun, qisman uch marta iblisni ko'rganman deb hammani ishontirishga uringani uchun (shaharchada bu bo'lishi mumkin emas deb hisoblashardi, chunki Antonio Isabel ota o'z qavmi orasida oqko'ngil, mo'min-qobil va xizmatga shay, lekin xayolparast kishi sifatida nom qozongan edi) o'ylari tarqoq va juda dudmol edi.

Shunday qilib, Antonio Isabel ota qushlarga nimadir bo'lganini angladi, ammo shunda ham bu favqulodda jiddiy hodisa ekanini va bu masalaga bag'ishlab maxsus va'z o'qish lozimligini tushunib yetmadi. U hidni birinchi bo'lib sezdi. Jumaga o'tar kechasi tunda bu hidni sezdi – dimoqni yoradigan, ko'ngil aynitadigan hiddan uyquasi o'chib ketdi. Ammo u bu hidni nimaga – aloq-chaloq bosinqirash yoki uyqusini buzish uchun iblis ishlatgan yangi va o'ziga xos vositaga – yo'yishini bilolmadi. U iskay boshladi, boshqa yoniga ag'darilib yotdi va bu hid uning uchun va'z mavzusi bo'lishi mumkinligi haqida o'yladi. «Bu iblis besh sezgidan biridan foydalanib, inson ruhiga osongina kirib olishi mumkinligi haqida juda zo'r va'z bo'lardi», – deb o'yladi ruhoniy.

Keyingi kuni ertalab ibodat boshlashdan oldin cherkov eshigi oldidan o'tar ekan, u birinchi marta o'lik qushlar haqidagi gaplarni eshitdi. U bu vaqtda o'qimoqchi bo'lgan va'zi,

iblis to'g'risida va hidlash tufayli ham odam gunohga botishi mumkinligi haqida o'ylayotgan edi. Shunda tungi sassiq hid shu hafta ichida o'lgan qushlardan kelayotgani haqidagi gaplar birdaniga qulog'iga chalindi va miyasi g'ovladi. Injildan keltiriladigan hikmatli kalimalar, badbo'y hid va o'lik qushlar miyasida aralash-quralash bo'lib ketdi. Shunday qilib, yakshanba kuni rahm-shafqat to'g'risida nutq irod qilishiga to'g'ri keldi – bu nutqni o'zi ham yaxshi anglab yetmadi, qolaversa, iblis va beshta sezgi orasidagi bog'liqlik masalasini unutib qo'ydi.

Lekin bu voqealar uning shuurida saqlanib qolmasligi mumkin emasdi. Hamisha, faqat yetmish yildan ko'proq vaqt oldin seminariyada o'qiganidagina emas, balki endilikda, to'qson yoshidan o'tganidan keyin ham, o'ziga xos tarzda shunday bo'lib turardi. Bir kuni, o'sha vaqtda u seminariyada o'qiyotgandi, oqshom pallasi (yomg'ir yog'ayotgan, lekin shamol esmayotgandi) Sofokl asarini asliyatdan o'qiyotgan edi. Yomg'ir to'xtagach, derazadan mungli dalalarga, yomg'irdan so'ng pokizalangan va yangilangan kechki borliqqa nazar tashladi, yunon teatri va klassiklarni butunlay unutdi-qo'ydi. U bu klassiklarni chalkashtirib yuborar va ularga «O'tmish davrlar qariyalari», – deb umumiy nom bergan edi. O'ttiz-qirq yildan keyin, bu voqea ham oqshom payti sodir bo'lgan, lekin yomg'ir yog'mayotgan edi. Bir qishloqqa kirdi, tosh to'shalgan maydondan o'tib borar ekan, birdan o'zi ham kutmagan holda Sofokl tragediyasidan parchani yoddan o'qiy boshladi. Bu kitobni u o'shanda, seminariyada o'qigan vaqtlari xatm qilgandi. O'sha haftasi u Papaning yordamchisi vikariy bilan «O'tmish davrlar qariyalari» haqida uzoq suhbatlashdi. Vikariy bilimdonlarga mo'ljallangan murakkab boshqotirmalarni sevadigan, sergap va hassos qariya edi, bu boshqotirmalarni uning o'zi o'ylab topgan bo'lsa kerak, yillar o'tgandan keyin bu boshqotirmalar krossvordlar nomi ostida keng tarqaldi.

Vikariy bilan uchrashuv tufayli bizning ruhoniymizning qalbida qadimgi yunon klassiklariga bo'lgan eski otashin sevgi qaytadan gurilladi. O'sha yili, Yangi yil bayramida u rasmiy maktub oldi. Gap borayotgan o'sha vaqtlarda haddan tashqari xayolparast, matnlarni sharhlashda jasur, va'z o'qishda biroz mantiqsizlikka yo'l qo'yadigan kishi sifatida nom chiqarmaganida, uni yepiskop rutbasiga ko'targan bo'lishardi.

Lekin u o'zini 85-yil urushidan ancha oldinoq mana shu shaharchada nom-nishonsiz yo'q bo'lib ketishga mahkum etdi. Qushlar o'zlarini uylarga urib o'la boshlagan vaqtdan bir necha yil oldinoq qavmidagilar Antonio Isabel otani boshqasiga, yoshroq ruhoniya almashtirish to'g'risida yeparxiyaga murojaat qilgan edilar; bizning ruhoniylar iblisni ko'rdim, deb da'vo qila boshlagach, bu iltimoslar ko'paydi. O'shandan beri uning gaplariga e'tibor bermay qo'yishdi, lekin qavmidagilarning munosabatidagi o'zgarishni u deyarli sezmasdi va hech narsani parvoyiga ilmay, endilikda ham mayda harfda bosilgan ibodatlar to'plamini ko'zoynaksiz o'qishda davom ettaverdi.

Odatlari o'zgarmay qolaverdi. Ko'rinishdan u jikkak, ko'rimsiz, suyagi yo'g'on, ohista harakat qiladigan kishi; o'zaro suhbat chog'ida ovozi kishiga tinchlantiruvchi ta'sir o'tkazadi, lekin minbardan so'zlaganida uyqu bostiradi. U, odatda, sarja matodan tikilgan, to'pig'idan bog'langan shim kiyganicha, tushgacha yotoqxonasida buklama kanop stul suyanchig'iga o'zini tashlab, tufugidan pufak chiqarib o'tirardi.

U ibodat qildirar, butun xizmat vazifasi deyarli shundan iborat edi. Haftasiga ikki marta tavba qabul qilinadigan xonada o'tiradi, lekin ko'p yillardan buyon hech kim uning huzuriga tavba-tazarru qilishga kelmaydi. U soddalik bilan qavmidagilar hozirgi davr odatlariga mos ravishda e'tiqodini boy bergan deb o'ylar edi. Binobarin, uch marta iblisni ko'rganini nihoyatda o'z vaqtida yuz bergan hodisa, deb hi-

soblashi mumkin edi. Lekin odamlar rivoyatlariga unchalik ishonmasliklarini sezar, iblis to'g'risidagi so'zlari unchalik ishonarli chiqmayotganini o'zi ham bilardi. Agar o'zining vafot etganini ko'rsa, ya'ni so'nggi besh yil emas, balki, hatto, dastlabki ikkita qush murdasini ko'rgan o'sha g'aroyib kunda o'lganini ko'rsa, o'zi ham hayratga tushmagan bo'lardi. Faqat uchinchi o'lik qushni ko'rgan chog'dagina u haqiqiy hayotga biroz yaqinlashdi, stansiya o'rindig'idan topgan o'lik qush haqida o'ylay boshladi.

U cherkovdan ikki qadam naridagi kichkina uyda istiqomat qilardi. Uyning derazalariga simto'r tutilmagan, devor bo'ylab peshayvon ko'tarilgan, ikki xonaning bittasidan kabinet, ikkinchisidan xobgoh sifatida foydalanar edi. Balki, aqli biroz xiralashgan lahzalari u faqat jazirama issiq bo'lmagan vaqtdagina yer yuzida baxt-saodatga erishish mumkin, deb hisoblar va bu fikr uning qalbiga biroz g'ulg'ula solardi. Antonio Isabel ota metafizikaning xavfli so'qmoqlarida sandiroqlashni yaxshi ko'rardi. Bu ish bilan u ertalablari, eshigi yarim ochiq tim ostida ko'zlarini yumgan va o'zini bo'sh qo'yib bergan holda shug'ullanardi. Biroq kamida uch yildan buyon mushohadaga berilgan chog'lari hech narsa haqida o'ylamasligini o'zi ham bilmas edi.

Roppa-rosa soat o'n ikkida peshayvonda patnis ko'targan bola paydo bo'ldi. Patnisda nuqul bir xil ovqat – loviya sho'rva, guruch, piyozsiz dimlab pishirilgan go'sht, qovurilgan qo'y go'shti yoki makkajo'xori unidan yopilgan kulcha va ozgina yasmiq bo'lardi. Antonio Isabel ota hech qachon yasmiqqa qo'l ham urmasdi.

Bola patnisni ruhoniy o'zini orqaga tashlab o'tirgan stul yaqiniga qo'ydi, lekin qariya uzoqlashayotgan bolaning qadam tovushlari eshitilmay qolguncha ko'zlarini ochmadi. Shuning uchun ham shaharchaliklar Antonio Isabel ota tushlik oldidan uxlab oladi, deb o'ylashardi. Holbuki, to'g'risini aytganda, u hatto, kechalari ham yaxshi uxlamas edi.

Bu voqealar yuz berayotgan vaqtda kundalik hayoti juda oddiy o'tardi. Kanop stuldan qo'zg'almay, idishlarni patnisdan olmay, likopcha, pichoq, sanchqi ishlatmay, faqat sho'ruva ichgan qoshig'idan foydalanib, ovqatlanib olardi. Ovqatlanib bo'lgach, o'rnidan turar, boshini suv bilan sal-pal ho'llab olar, kattakon, to'rtburchak yamoqlarga to'la uzun ridosini kiyar va butun shahar ahli ayni peshin uyqusiga yotgan mahalda stansiyaga yo'l olardi. Bir necha yildan beri u shu yo'ldan iblis unga so'nggi bor ko'rinish berganidan keyin o'zi to'qigan duoni pichirlab o'tib-qaytar edi. Bir shanba kuni qushlar o'la boshlaganiga to'qqiz kun bo'ldi deganda, Antonio Isabel ota stansiyaga ketayotganida bexosdan oyog'ining tagiga o'layotgan qush tushdi, bu senora Rebekaning uyi ro'parasida sodir bo'ldi. Qushning boshi yaltirab turar va ruhoniy boshqa qushlardan farqli ravishda, uni qutqarish mumkinligini tushundi. U qushni qo'liga oldi va senora Rebekaning eshigini qoqdi. Bu pallada senora Rebeka peshin uyqusiga yotish uchun yechinayotgan edi.

Yotoqxonasida o'tirgan beva eshikni kimdir taqillatayotganini eshitdi va g'ayrushuriy ravishda simto'rga nazar tashladi. Ikki kun o'tgan bo'lsa-da, bironta qush xobgohga o'zini urmagandi. Lekin simto'r yirtiligicha turardi. Senora Rebeka shikastlangan joyni tuzatishga pul sarflashni ortiqcha deb topdi va asablarini qaqshatgan qushlar xuruji o'tib ketguncha kutishga qaror qildi. Elektr parrak shovqini orasidan u eshikni taqillatishganini eshitdi va peshin uyqusi vaqtida Arxenida dahlizga chiqiladigan eng uzoq yotoqda uxlayotganini eslab g'ijindi. Senora Rebeka bu mahalda uni kim bezovta qilishi mumkinligini o'ylab ham ko'rgani yo'q. U bo'shatgan tugmalarini taqdi, simto'rli eshikni itarib ochdi, tantanavor yurish qilib, dahlizdan o'ngga o'tdi, mebellar va turli-tuman ashqol-dashqollarga to'la zaldan o'tdi va eshikni ochishdan oldin simto'r orqasidan qo'lida qush ushlagan, ma'yus Antonio Isabel otani ko'rdi. Beva eshikni ochishga ulgurmay turib, u dedi:

– Agar boshini suv bilan ho‘llasak va ustini o‘rab qo‘ysak, bu qush tiriladi.

Eshikni ochar ekan, senora Rebeka dahshatdan madori ketganini his qildi.

Ruhoniy uning uyida besh daqiqa o‘tirdi, xolos. Senora Rebeka tashrifning bunchalik qisqa bo‘lishi o‘zining sharofati deb o‘yladi, lekin aslida ruhoniyning bu yerda ko‘p qolgisi kelmagandi. Agar beva bu lahzada biron narsa haqida o‘ylaganida, shaharchadagi o‘ttiz yillik umri davomida ruhoniy uning uyida hech qachon besh daqiqadan ko‘p qolmaganini eslagan bo‘lardi. Ashyolarga tiqilib ketgan zal ruhoniyyga bekaning ochko‘zligini ochiqdan-ochiq namoyon etayotgandek tuyuldi. Holbuki, beva yepiskopning uzoq qarindoshi edi. Qarindoshlik uzoq bo‘lishidan qat’i nazar, hamma tomonidan e‘tirof etilgandi. Bundan tashqari, senora Rebeka oilasi to‘g‘risida bir rivoyat (yoki bo‘lgan voqea) tafsiloti og‘izdan-og‘izga o‘tib yurardi: yepiskop rezidensiyasidagilar senora Rebekani ko‘rishni aslo istamasdilar, bunisiga ruhoniyning ishonchi komil, shuning uchun bevaning amakivachchasi bo‘lgan polkovnik Aureliano Buendia bir vaqtlar o‘z qarindoshini ko‘rishdan qochgani uchun yepiskop bu asrda ushbu shaharchaga biron marta ham qadam bosmadi, degan edi. Bu hikoya rostmi, yolg‘onmi yoki shunchaki uydirmami – hech kim bilmasdi; haqiqat shundaki, Antonio Isabel del Santasimo Sacramento del Altar ota o‘zini senora Rebekaning uyida juda noqulay his qilardi. Bu xonadonning yagona sohibasi mehr-shafqatdan yiroq, yiliga bir martagina tavba-tazarru qilar, ruhoniy uning erining sirli o‘limi tafsilotlari haqida biror aniqroq gap bilishga uringan vaqtlari mujmal javoblar berar edi. Hozir Antonio Isabel ota vaziyat qat’iy chora ko‘rishni taqozo qilgani uchungina bu uyda o‘tiribdi va o‘layotgan qush boshini ho‘llash uchun bevaning bir stakan suv olib kelishini kutayotir.

Beva suv olib kelgunga qadar, ruhoniy o‘yma naqshlar bilan bezatilgan hashamatli tebranma kursida o‘tirar ekan,

uyda qandaydir g'alati rutubat borligini sezdi. Bu rutubat qirq yildan ko'proq vaqt oldin to'pponchadan o'q uzilib, yuqorida nomi tilga olingan polkovnikning ukasi Xose Arkadio Buendia yuztuban yiqilgan vaqtdan buyon hech ko'tarilmagan. O'shanda tipirchilayotgan Xose Arkadio Buendia endigina yechgan va tanasining issig'i ko'tarilib ulgurmagan getrlarini to'qalari va temir tepkilari bilan tepib tashlagan edi.

Senora Rebeka mehmonxonaga qaytib, Antonio Isabel tebranma kursida hanuz xo'mrayib o'tirganini ko'rdi. Ruhoniyning qovoq solib o'tirishidan senora Rebeka qattiq qo'rqar edi.

– Parvardigor xuddi insonga umr berganidek, har qanday jonivorga ham hayot bag'ishlaydi, – dedi ruhoniy.

Shunday der ekan, ruhoniy Xose Arkadio Buendiani tilga olmadi. Beva ham uni eslamadi. Ruhoniy iblis uning huzuriga uch marta tashrif buyurganini minbardan aytganidan buyon beva ruhoniyning so'zlariga ishonmay qo'ygandi. Beva unga e'tibor bermay, qushni qo'liga oldi, suvga botirdi, keyin silkitdi. Ruhoniy beva bu ishlarni shafqatsizlik bilan, pala-partish qilayotganini, qushga mutlaqo loqayd ekanini ko'rdi.

– Siz qushlarni yaxshi ko'rmas ekansiz, – dedi u yumshoqqina, lekin qat'iy qilib.

Beva unga toqatsizlanib, dushmanlarcha qaradi.

– Agar men qushlarni ilgari yaxshi ko'rgan bo'lganimda ham, – dedi u, – endilikda, uyda o'lgisi kelib qolganlari uchun yomon ko'rgan bo'lardim!

– Ha, ko'pgina qushlar halok bo'ldi, – tasdiqladi ruhoniy. Uning sasidagi murosa ohangi, faqat nomigagina murosa bo'lib tuyulishi mumkin edi.

– Menga desa, hammasi o'lib ketmaydimi! – javob qildi beva. Qo'lidagi qushni jirkanib ushlar va o'rab qo'yar ekan, qo'shimcha qildi: – Agar simto'rlarimni yirtmaganlarida, umuman, ularga tupurgan bo'lardim.

Ruhoniy bunchalik toshbag'ir kishini shu choqqacha hech ko'rmaganini o'yladi. Bir lahzadan keyin qushni qo'liga olgan

ruhoniyl bu kichkinagina, himoyasiz jonzot o'lganini tushundi. Shunda u hamma narsani – uydani ufurayotgan rutubatni ham, bu xonadonda hukmron bo'lgan ochko'zlikni ham, Xose Arkadio Buendaniing murdasidan anqiyotgan porox hidini ham unutdi va shu hafta boshidan beri og'ushida yashayotgan ilohiy haqiqatni tushunib yetdi. Mana, beva uning orqasidan boqqan vaqtda qariya qo'lida o'lik qushni ko'tarib borar, yuzko'zidan qattiq jahli chiqqani ko'rinib turardi. Antonio Isabel ota mo'jiza shohidiga, payg'om guvohiga aylandi: shahar boshiga o'lik qushlar yomg'iri yog'moqda, u Parvardigor yorlaqagan va jazirama issiq yo'q vaqtdagina saodatga erishadigan ma'bad xizmatchisi esa qiyomatni tamoman esdan faromush qo'yibdi.

Shu kuni u hamishagidek, xatti-harakatlarining oqibatini o'ylab ham o'tirmay, stansiyaga yo'l oldi. Ruhoniyl bu olamda nimalardir sodir bo'layotganini g'ira-shira anglar, lekin miyasi g'ovlaganini, esini yeb qo'yganini, yuz berayotgan hodisalarni tushunishga qodir emasligini his qilar edi. Stansiyadagi taxta xarrakda o'tirar ekan, qiyomat-qoyim bo'lganida qushlarning o'ligi yomg'ir bo'lib yog'ishi haqida muqaddas kitoblarda bir narsa aytilganmi-yo'qmi eslashga urindi, lekin ma'lum bo'ldiki, hammasini butunlay esdan chiqarib qo'ygan ekan. Senora Rebekanikida ushlanib qolganini va shuning uchun poezdni o'tkazib yuborganini qo'qqisidan tushundi; bo'ynini cho'zib, vokzalning chang bosgan va darz ketgan oynasi ortidan stansiya boshlig'ining kabinetidagi soat o'n ikki daqiqasi kam birni ko'rsatayotganini ko'rdi. Xarragiga qaytib o'tirar ekan, nafasi siqayotganini his qildi. Shu lahzada bugun shanba ekanini eslab qoldi. Qora o'ylar girdobiga botib o'tirar ekan, palma yaproqlaridan to'qilgan yelpig'ich bilan yelpina boshladi. Undan keyin ridosi va poyabzalining tugmalariga, shuningdek, uzun, chippa yopishib turgan sarja shimiga nazar tashladi va umrida hech qachon bunchalik issiq ko'rmaganini tushunganida butun borlig'ini xavotir tuyg'usi qamradi.

Xarrakda o'tirgancha ridosining yoqasini bo'shatdi, yengidan ro'molcha chiqardi va qizargan yuzlarini artidi. Shu onda, fikr-u zikri ravshanlashgan damda miyasiga yalt etib bir fikr keldi: ehtimol, bu ko'rib turganlarining barchasi zilzila darakchisidir. Qachondir, qaysidir kitobda bu haqda o'qigan. Ammo ko'kda bulut yo'q, musaffo moviy osmondagi barcha qushlar sirli ravishda g'oyib bo'lgan edi. U jazirama issiqni ham, musaffo osmonni ham his qildi, lekin o'lik qushlarni shu zahotiyoyq unutdi-ko'ydi. Endi u boshqa narsa, momaqaldiroqqa nima sabab bo'lishi haqida o'ylay boshladi. Ammo ko'k ochiq va musaffo edi, go'yo bu osmon uzoqdagi, hech qachon jazirama bo'lmaydigan boshqa shaharcha ustida osmonga o'xshardi, yana ko'kka tikilgan ko'zlari ham o'ziniki emas, boshqa birovnikiga o'xshab tuyulardi. Shundan keyin u palma va zanglagan rux tomlar osha shimolga boqdi va axlat uyumi ustida astagina, jim va bamaylixotir aylanayotgan quzg'unlar to'dasini ko'rdi.

His-tuyg'ular orasidagi g'alati bog'liqlik tufayli shu daqiqalarda bir vaqtlar seminariyada birinchi mukofot olishidan oldin, yakshanba kuni boshdan o'tkazgan hissiyotni qayta his qila boshladi. Rektor unga o'z kutubxonasidan foydalanishga ruxsat etgan va u mog'or hidi anqib turadigan, hoshiyalariga rektor lotinchada mayda, jimjimador yozuvlar bitgan kitoblarni (ayniqsa, yakshanba kunlari) soatlab muk tushib o'qir edi. Bir yakshanbada u uzzukun kitob o'qidi, kutilmaganda xonaga rektor kirib keldi va biroz xijolat bo'lib, Antonio Isabel ota o'qiyotgan kitob orasidan tushib qolgan otkritkani shosha-pisha oldi. Amaldor shaxsning xijolatpazligiga u o'zini tavoze bilan befarq ko'rsatdi, lekin otkritkadagi yozuvni o'qishga ulgurdi. Otkritkada binafsha siyohda ravn va aniq-ravshan qilib: «Madame Ivette est morte cette nuit», – deb yozib qo'yilgan edi. Endi, yarim asrdan ko'proq vaqt o'tganidan keyin, u tashlandiq shahar ustidagi quzg'unlarni ko'rib, g'ira-shira mahali ro'parasida hayajondan tin olgancha jim o'tirgan rektor qoldirgan taassurotni esladi.

Mana shu o'xshashlik ta'siri ostida u endi haroratni sezmay qo'ydi; tamoman aksincha, chovi va tovonni sovuqdan titrayotganini his qildi. Borlig'ini dahshat qamradi, buning boisini o'zi ham tushunmadi; u to'zgi'gan fikrlar va hissiyotlar girdobida adashib qoldi, bu hissiyotlar orasida balchiqqa botgan iblisning tuyoqlari va yerga qulab tushayotgan ko'pdan-ko'p qushlarni, lekin o'zining bu hodisaga befarq turganini o'ylaganida paydo bo'ladigan jirkanch hissiyotni farqlamaslik aslo mumkin emasdi. U o'rnidan turdi, xuddi kimgadir salom bermoqchi bo'lganday, qo'lini hayrat bilan yuqoriga ko'tardi va dahshat aralash hayqirdi:

– Dajjol!

Xuddi shu onda parovoz hushtak chaldi. Necha yillar mobaynida ruhoniy parovoz hushtagini birinchi marta eshitmadi. U faqat quyuq bug' bulutiga o'ralgan poyezd stansiyaga yaqinlashayotganini ko'rdi va ko'mir do'li zanglagan rux taxtalar ustiga qanday to'kilayotganini eshitdi, xolos. Lekin bularning hammasi xuddi uzoq, tushunib bo'lmaydigan tushda yuz berayotganga o'xshardi. U kun bo'yi, hatto, soat to'rt-dan, qo'ng'iroq chalib bo'lganidan keyin ham bu uyqudan uyg'onolmay garangsib yurdi. Bu qo'ng'iroq yakshanba kuni irod qilishi lozim bo'lgan dahshatli va'zdan darak berayotgan edi. Sakkiz soatdan keyin uning huzuriga kelib, o'layotgan ayol ustida tilovat qilib, xushbo'y zaytun yog'i bilan moylab qo'yishini iltimos qilishdi.

Shunday qilib, ruhoniy o'sha kuni poezdga kim kelganini bilolmay qoldi. U qachonlardan buyon rangi unniqqan, sharti ketib parti qolgan to'rtta vagon qanday o'tib ketishini tomosha qilar, lekin keyingi yillari kimdir tushib qolganini hech eslamasdi. Oldinlari boshqacha bo'lgan: banan ortilgan poezdni kechasi bilan kuzatishi mumkin edi, bir yuz qirq vagon birin-ketin o'taverar, o'taverardi, nihoyat qorong'i tushganda oxirgi vagon ham o'tar, uning pillapoyasida yashil fonar ushlagan kishi turardi. Poezd o'tib ketganidan so'ng temir yo'l-

ning narigi tomonidagi shaharcha ko'rinar, u yerda chiroqlar yongan bo'lardi va garchi poezdni faqat tomosha qilib turgan bo'lsa-da, poyezd uni boshqa shaharchaga olib ketayotganday tuyulardi. Ehtimol, shuning uchun ham u har kuni stansiyaga borishga odatlangan bo'lsa kerak, banan plantatsiyalarining ishchilarini otib tashlashganidan keyin bir yuz qirq vagonli poezdlar ham yurmay qo'yganidan va faqat hech kimni olib kelmaydigan va olib ketmaydigan chang bosgan sariq poyezd qolganidan keyin ham ruhoniy stansiyaga qatnashni kanda qilmadi.

Ammo bu shanba kuni, baribir, kimdir tushib qoldi. Antonio Isabel ota stansiyadan ketayotganida ochlikdan jovdirayotgan ko'zlaridan boshqa e'tiborga loyiq hech vaqosi bo'lmagan bir yosh yigit kechadan beri tuz totmaganini eslagan lahzada oxirgi vagon derazasidan ruhoniyni ko'rdi. U: «Modomiki, bu yerda ruhoniy bormi, demak mehmonxona ham bo'lishi kerak», deb o'yladi. Yigitcha vagondan sakrab tushdi, avgust quyoshi qizdirayotgan ko'chani kesib o'tdi va stansiya ro'parasidagi salqin, nimqorong'i binoga kirdi. Binodan eski patefon sasi eshitalayotgandi, ikki kundan beri tuz totmagan yigitchanning hid sezgisi bu yer mehmonxona ekanini aniq topgan edi. Yigit bu yerga kirar ekan, imorat ustidagi «Makondo mehmonxonasi» yozuvini ko'rgani ham yo'q.

Mehmonxona bekasi olti oylik homilador edi. Ayolning terisi xantalrang bo'lib, u ikki tomchi suvday onasiga o'xshardi. Onasi unga homilador bo'lganida xuddi shu rangda edi. Yigitcha unga zudlik bilan ovqat keltirishni iltimos qildi, lekin beka shoshilishni xayoliga ham keltirmay, quruq suyakdan boshqa narsasi bo'lmagan sho'rva va ko'k banan ezmasi olib kelib qo'ydi. Xuddi shu chog'da parovoz hushtak chaldi. Sho'rva solingan likopchadan ko'tarilayotgan issiq, mazali hovur endigina dimog'iga urgan yigit birdan stansiyadan qancha uzoqda ekanini payqab qoldi va shu ondayoq vahimaga tushdi. Hammamiz ham poezdga kech qolsak, ana shunday vahimaga tushamiz.

Yigit stansiyaga chopdi. Ko'cha eshigiga yetib bordi, biroq ostonadayoq poezdga kech qolganini angladi. Qaytib joyiga o'tirdi, ochligini ham unutdi; grammofon yonida unga qarab turgan qizga ko'zi tushdi; qizning ko'zlarida achinishdan darak yo'q edi – u quyruq'idan tortilgan itdek g'azab bilan qarab turardi. Ertalabdan beri birinchi marta shlyapasini yechdi, uni tizzalari orasiga qistirib, ovqat yeyishga tutindi. Dasturxondan turganida poezddan kech qolgani ham, hafta oxirini nomini so'rashni xayoliga ham keltirmagan bu shaharchada o'tkazish istiqboli ham endi uni tashvishlantirmay qo'yganga o'xshardi. Yigitcha zal burchagida, qattiq stulning suyanchig'iga o'zini tashlab o'tirdi. U shu holatda uzoq o'tirdi, plastinka sasi qulog'iga ham kirmadi, nihoyat plastinka qo'yayotgan qiz dedi:

– Ayvonga chiqsangiz, biroz salqinroq.

Uning tabiati tirriq bo'lgandi. U hamisha notanish kishilar bilan so'zlashishga qiynalardi. Birov bilan suhbatlashishga majbur bo'lib qolsa, ko'ziga qarashga toqati bo'lmas, o'ylangani emas, boshqa narsalar haqida gapirardi.

– Ma'qul, – deb javob berdi u.

Eti uvishganday bo'ldi. U ostidagi tebranma kursi emasligini esdan chiqarib, tebranmoqchi bo'ldi.

– Bu yerlik kishilar stullarini ayvonga olib chiqishadi, u yer salqinroq, – dedi qiz.

Yigit unga quloq solar ekan, g'ussaga botdi, qizning judayam so'zlashgisi kelayotganini sezdi. Qiz grammofonni burayotgan chog'da unga qarashga jur'at qildi. Qiz bu yerda bir necha oydan, balki bir necha yildan beri o'tirganday va hecham o'z joyidan qimirlagisi yo'qday tuyulardi. Qiz grammofonni burayotgan bo'lsa-da, butun fikru zikri yigitda edi. U jilmaydi.

– Rahmat, – dedi yigit o'rnidan qo'zg'alarkan, o'zini erkin tutishga urinib. Qiz undan ko'z uzmay tikilib turardi.

– Shlyapani ilgichda qoldirishadi, – qo'shimcha qildi u.

Shunda yigitcha quloqlariga qadar qizarib ketganini his qildi. Ayollar shunaqa yo'llar bilan niyatiga erishishi mumkinligini o'ylab, seskanib ketdi. U o'zini juda noqulay his qilganча dovdiradi va poyezd ketganini eslab, yana vahimaga tushdi. Lekin shu chog'da zalga beka kirib keldi.

– U bu yerda nima qilyapti? – so'radi beka.

– Barcha esli-hushli odamlar singari, stulini ayvonga olib chiqmoqchi, – dedi qiz.

Yigitga qiz bu so'zlarni masxaraomuz tarzda aytganday tuyuldi.

O'zingizni urintirib o'tirmang, – dedi beka, – o'zim sizga kursi olib chiqaman.

Qiz kuldi va yigit o'sal bo'ldi. Kun juda issiq edi. Quruq va bir maromdagi issiqdan yigit terlab ketdi. Beka charm sirilgan yog'och kursini ayvonga olib chiqdi. Yigit unga ergashmoqchi bo'ldi, lekin qiz yana unga gap qotdi:

– Bu qushlar hammani dahshatga solayotgani ko'p yomon bo'ldi-da, – dedi u.

Yigit bekaning qizga ta'naomuz qaraganini sezib qoldi. Oniy davom etgan bu nigoh ma'nodor edi.

– Sen ovozingni o'chirib o'tir, – dedi beka va yigitga o'girilib tabassum qildi. Shunda yigit o'zini unchalik yolg'iz his qilmadi va so'zlashgisi keldi.

– Nima haqda gapiryapsiz? – so'radi u.

– Men shu pallada ayvonga o'lik qushlar yog'ilayotganini aytyapman, – dedi qiz.

– Bu qiz qachon qarasang nimalarnidir to'qib-bichadi, – dedi beka.

Beka zal o'rtasidagi stol ustida turgan sun'iy gullarning novdasini to'g'rilab qo'yish uchun egildi. Uning barmoqlari titrar edi.

– Hecham unaqa emas, – javob berdi qiz. – O'zingiz kecha ikkita o'lik qushni chiqarib tashladingiz-ku.

Beka unga jahl bilan qaradi. Beka ayanchli ahvolga tushib

qoldi, u hamma gapni shubhaga o'rin qoldirmaydigan yo'sinda tushuntirib berishni xohlayotgani yaqqol ko'rinib turardi.

– Gap shundaki, senor, bolalar bu qizni qo'rqitish uchun kecha ayvonga ikkita qushning o'ligini tashlab ketishibdi, so'ngra osmondan o'lik qushlar yog'moqda, deyishgan. Bu qiz esa, yolg'onlarga laqqa tushadigan xilidan.

Yigit kulimsiradi. Bu izoh unga ajib tuyuldi; u qo'llarini ishqaladi va unga ma'yus tikilib turgan qizga yuzlandi. Gram-mofonning ovozi o'chdi. Beka boshqa xonaga chiqdi. Yigit ayvonga yo'nalgan chog'da qiz ovozini pasaytirib dedi:

– Qushlarning o'lib tushayotganini o'z ko'zim bilan ko'rdim. Menga ishonaver! Buni hamma ko'rdi.

Qizning grammofon savdoyisi ekanining ham, bekaning jizzakiligining sababini ham endi tushunganday bo'ldi.

– Gap bu yoqda ekan-da, – dedi u murosa ohangida.

Ayvonga chiqar ekan qo'shimcha qildi:

– Ularni men ham ko'rdim.

Bodom daraxtlarining soyasi ancha salqin edi. U kursini eshik kesakisiga tirab qo'ydi, boshini orqaga tashlab o'tirdi va onasini esladi: onasi tebranma kursida o'tirgancha, uzun supurgi bilan tovuqlarni haydab solar edi – shunda yigit birdaniga uyidan birinchi marta safarga chiqqanini ich-ichdan his qildi.

Bir hafta burun yigitcha butun hayoti – so'nggi fuqarolar urushidan keyingi yomg'irli erta tongda paxsadan ko'tarilgan qishloq maktabi binosida dunyoga kelgan vaqtdan bu yilning iyul oyi tongigacha tekis va ravon bo'lgan, deb o'ylashi mumkin edi. Bu iyul tongida u yigirma ikki yoshga to'ldi va onasi uning osma hayinchagi yoniga kelib: «Aziz o'g'lim, tug'ilgan kuning muborak bo'lsin», deb yozilgan otkritka qistirilgan shlyapa sovg'a qildi. Yigitcha goho bekorchilikdan bezib, maktabini, toshtaxtani, pashshalar bulg'atib tashlagan qandaydir mamlakat xaritasini va devorga osib qo'yilgan qator ko'zalarni sog'inardi. Bu ko'zalar ustiga har bir o'quvchining

nomi yozib qo'yilgan bo'lardi. U yer issiq emasdi. U tinchgina, yam-yashil shaharcha edi, u yerda uzun, kulrang panjali tovuqlar bo'lar, ular maktab dahlizida yugurishar va qaznoqqa yashirinar edilar. Uning onasi o'sha vaqtlari ma'yus, odamovi xotin edi. Oqshom pallasi u qahva plantatsiyasidan kelayotgan sof havodan nafas olish uchun o'tirib olar va «Manaure – dunyodagi eng yaxshi shaharcha» der, keyin unga yuzlanar hamda kunini osma hayinchakda o'tkazadigan o'g'lining kundan-kunga voyaga yetayotganidan xursand bo'lib: «Hali katta bo'lganingda buni bilib olasan», derdi. Lekin u hech narsani tushunmasdi. O'n besh yoshga kirganida ham buni tushunmadi; bu vaqtda u yoshiga nisbatan katta ko'rinar va sog'lig'i tashqi ko'rinishi havas qilgudek bo'lsa-da, aslida xiyla zaif edi. Yigirma yoshga yetguncha hayoti o'zgarishsiz, osma hayinchakda o'tdi. Lekin ayni shu vaqtga kelib revmatizm sababli onasi o'n sakkiz yil ishlagan maktabini tark etishga majbur bo'ldi. Ular oldida kattakon peshayvoni bo'lgan ikki xonali uychada yashay boshladilar. Bu yerda ham maktab dahlizida chopib yuradiganga o'xshash kulrang panjali tovuqlarni boqishardi.

Tovuq boqish uning hayotida ilk ish bo'ldi. To iyul oyigacha bu uning birinchi va yagona mashg'uloti bo'lib keldi. Shunda onasi pensiyaga chiqishni o'ylab qoldi va o'g'li onasining pensiyasini rasmiylashtirishni uddalashi mumkin bo'lgan darajada ulg'ayib qoldi degan qarorga keldi. O'g'il darhol yeng shimarib ishga kirishdi, zarur hujjatlarni tayyorlab, hatto o'z qavmining ruhoniysiga onasining cho'qintirilganligi haqidagi ma'lumotnomani ko'rsatib, onasining yoshiga olti yil qo'shishga erishdi. Holbuki, boshqa hujjatlarga qaraganda onasi hali pensiya yoshiga yetmagan edi. Payshanba kuni pedagogik tajribasiga suyanadigan onasidan miridan-sirigacha o'ylab qo'yilgan pand-nasihatlarini eshitdi va yoniga o'n ikki peso, qo'shimcha ich kiyimlari va bir to'da hujjatlarni olib, poytaxtga yo'l oldi. U «pensiya» haqida ibtidoiy tushuncha-

ga ega edi; soddaligi uchun pensiya hukumat unga cho'chqa boqishi uchun berishi lozim bo'lgan ma'lum miqdordagi pul deb o'ylar edi.

Issiqdan miyasi gangib, mehmonxona ayvonida mudrar ekan, naqadar jiddiy vaziyatga tushib qolgani to'g'risida o'ylab ham ko'rmadi. U ko'rguliklari ertaga, poyezd kelgan vaqtda barham topadi deb o'ylar va shuning uchun ham qilishi mumkin bo'lgan yagona ish – yakshanbani kutishdan iborat edi: yakshanba kuni istagan joyiga ketadi va jazirama issiq kuydirayotgan bu shaharchani qaytib eslamaydi ham. Soat to'rtlarga yaqin u uyquga ketdi, lekin uyqusi behalovat kechdi, osma hayinchagini olib kelmaganiga, hatto tushida ham o'kindi. Xuddi shu chog'da ich kiyimlari va pensiya olish uchun kerakli hujjatlar solingan tugunchakni poezdda qoldirgani miyasiga urdi. Yigitcha shu zahoti uyg'onib ketdi, o'rnidan irg'ib turdi, onasini esladi va uni yana vahima bosdi.

Yigitcha kursini zalga olib kirganida, shaharcha chiroqlari yongan edi. U hech qachon elektr chiroqlarini ko'rmagan edi, shuning uchun mehmonxonaning xira va kir-chir elektr chiroqlari unga kuchli ta'sir qildi. Shundan keyin u onasining elektr haqida aytib bergan gaplarini esladi va o'zini oyna-ga o'qday urayotgan so'nalardan qochib, kursini oshxonaga olib o'tdi. O'zi tushib qolgan vaziyatni aniq-ravshan tasav-vur qilayotgani, dahshatli issiqdan gangigani, hayotida ilk bor yolg'izlik ala-mini tortayotganidan esankirab qolgan yigitcha kechki ovqatni ishtahasiz yedi. Soat to'qqizdan keyin uni uy to'rida joylash-gan xonaga olib borishdi. Xonaning yog'och devorlariga gazeta va jurnallar yopishtirilgan edi. Yarim tunda u og'ir va behalovat uyquga ketdi. Bu vaqtda undan besh ko'cha narida Antonio Isabel ota buklama karavotida chalqancha yotganicha bu tundagi mushohadalar ertalab soat yettida irod qilishi lozim bo'lgan va'zini qanday boyitishi mumkinligi haqida o'ylardi. Iskabtoparlarning quloqni qomatga keltirguday zing'illashi ostida ruhoniy o'zining uzun, chippa yopish-

gan sarj shimida yotib dam olayotgan edi. Yarim kechga yaqin u o'layotgan ayol ustida o'tirib tilovat qildi, kaftini moylab qo'ydi va shunchalik asabiylashib, hayajonlandiki, uyga qaytgach, tabarruk ehsonlarni karavoti yoniga qo'ydi, uzandi va ertalabki va'zini fikran takrorlay boshladi. Tonggacha, uzoqdan ko'lbuqa qichqirig'ini eshitguncha bir necha soat shu taxlit chalqancha yotdi. Shunda qaddini ko'tardi, to'shakdan zo'rg'a turdi, qo'ng'iroqchani turtib yubordi va polga yuztuban yiqildi.

Biqinidagi shiddatli og'riqdan hushiga keldi. Shu lahza da u neki og'irlik bo'lsa, hammasini – gavdasining og'irligini ham, gunohlarining og'irligini ham, yoshining zalvorini ham his qildi. Chakkasi polga yotqizilgan toshlarning notekis yuzasini sezdi. Antonio Isabel ota va'zga tayyorlanar ekan, bu tosh pol necha martalab jahannam yo'lini aniq tasavvur etishiga xizmat qilgan.

– Yo, Iso Masih! – shivirladi va dahshat aralash o'yladi: «Endi o'rnimdan turolmasam kerak, bu oyday ravshan».

Polda hech narsa haqda o'ylamay, qancha vaqt yotganini bilmadi, hatto, o'lim oldidan kalima qaytarish ham esiga kelmadi. U haqiqatan ham bevaqt o'lib qolganday, qimirlamay yotaverdi. Lekin hushiga kelganida na og'riq, na qo'rquv sezdi. Eshik ostidagi tirqishdan tushayotgan oqish, xira nurni ko'rdi; uzoqda galma-gal ma'yus qichqirayotgan xo'rozlar ovozi eshitdi va tirik ekanini, va'zini a'lo darajada eslashini angladi.

Eshik tambasini tushirganida atrof yorishgan edi. U hanuz og'riq sezmas va, hatto, unga sanchqi xuruji qarilik jafolaridan xalos etganday tuyulardi. Saharmardonda xo'rozlar qichqirayotgan pallada ilk bora sof havo simirganida shaharchasining barcha ezguliklari, barcha ishtibohlariyu uqubatlari qalbining to'ridan joy olgandi. So'ngra u xuddi yolg'izligiga tan bermoqchiday, atrofga alangladi va tong g'ira-shirasida peshayvonda yotgan bir... ikki... uchta qush murdasini ko'rdi.

U roppa-rosa to'qqiz daqiqa davomida qushlarning jasadini ko'zdan kechirdi va o'qiydigan va'zi esiga tushdi-da, qushlarning bunaqa yoppasiga ajal topishi gunohlardan forig' bo'lishni taqozo etishi haqida o'yladi. Shundan keyin har uchala o'lik qushni qo'liga oldi, peshayvonning narigi tomoniga o'tdi, kattakon sopol xumga yaqinlashdi, qopqog'ini ochdi va nimaga shunday qilayotganini o'zi ham anglamay, qushlarni birin-ketin ko'kintir sassiq suvga tashladi. «Uch bo'lsa, uchda – bir hafta ichida ancha bo'lib qoladi», deb o'yladi va shu chog'da ilohiy payg'om unga hayotida buyuk kun boshlanayotganidan darak berdi.

Ertalab soat yettidanoq kun qizib ketdi. Mehmonxonada yagona mijoz nonushta berishlarini kutib o'tirardi. Grammofon yonida o'tiradigan qiz hali uyqudan uyg'onmagan. Beka mijozning yoniga keldi, shu lahzada yigitga bekaning kattakon qorni soat yettiga zang urgandek tuyuldi.

– Qachon qarama, kimdir poczdga kech qoladi, – dedi beka befoyda hamdardlik bilan.

Shundan keyin nonushta – sutli qahva, quymoq va yetilib pishmagan banan bo'laklarini keltirdi.

Yigitcha taomga qo'l urishga chog'landi, lekin yegisi kelmadi. U issiq borgan sari kuchayib borayotganidan tashvishlana boshladi. Terlab-pishib ketdi. Bo'g'ila boshladi. U yechinmasdan, behalovat uxlagan va endi bo'lsa, eti sal junjikayotgan edi. Yigitcha yana qo'rquvdan vahimaga tushdi va katta, yashil gullar tasviri tushirilgan yangi ko'ylak kiygan beka idish-tovoqni olib ketish uchun tepasiga kelgan pallada onasini esladi. Bekaning ko'ylagini ko'rib, bugun yakshanba ekani esiga tushdi.

– Bugun cherkovda ibodat o'tkaziladimi? – so'radi u.

– O'tkaziladi, – javob qildi ayol. – Lekin o'tkazmasa ham bo'laveradi, chunki baribir, u yerga deyarli hech kim bormaydi. Buning boisi shuki, bizga yangi ruhoniy yuborishni xohlashmayapti.

– Hozirgisiga ne bo‘ldi?

– U yuzga kiray deb qoldi, buning ustiga miyasi suyulgan, – dedi ayol va qo‘lida likopcha ushlaganicha, o‘yga botib qoldi.

Birozdan keyin yana dedi:

– Bir kuni u minbardan turib iblisni ko‘rganini aytib qoldi, ana o‘shandan buyon uning yoniga bormay qo‘yishdi.

Shunday qilib, yigitcha, bir tomondan, tushkunlikka tushgani, ikkinchi tomondan, qariyb yuz yoshga kirgan kishini ko‘rgisi kelgani uchun cherkovga bordi.

Yigitcha shaharcha huvillab yotganini ko‘rdi, chang ko‘chalarning uchi-keti yo‘q, rux tunuka tomli yog‘och uylarning ko‘rinishi g‘amgin, bu uylar kimsasizdek tuyulardi. Yakshanba kungi shaharcha: ko‘chalarda dov-daraxt yo‘q, uylar simto‘r bilan o‘rab olingan, tubsiz, joduli falakdan yog‘ilayotgan issiq nafasni qaytaradi. Yigitcha bu shaharchada yakshanba istalgan bir begim kunidan hech qanday farq qilmas ekan, deb o‘yladi va kimsasiz ko‘chadan ketib borar ekan, onasining: «Barcha shahar ko‘chalari so‘zsiz ravishda yo cherkovga yoki qabristonga olib boradi», degan so‘zlarini esladi. Shu daqiqada u tosh yotqizilgan chog‘roq maydonchaga chiqdi; maydonchada devorlari oqqa bo‘yalgan, minorachali cherkov bor edi. Minorachaning uchiga yog‘och xo‘roz o‘rnatilgan, soati esa, o‘n daqiqasi kam beshda to‘xtab qolgan edi.

Yigitcha maydonni shoshilmay kesib o‘tdi, eshik oldidagi zinaning uchta pillapoyasidan yuqoriga chiqdi va deyarli bo‘m-bo‘sh, nimqorong‘i, salqin cherkovga kirdi; shu zahoti dimog‘iga xushbo‘y tutatqi aralash o‘tirib qolgan ter hidi urildi.

Antonio Isabel ota endigina minbarga ko‘tarilgan edi. U va‘zini boshlamoqchi bo‘lib turgandi, birdan shlyapa kiygan yosh yigit ma‘badga kirganini ko‘rib qoldi. Ruhoniy yigitcha katta, tiniq va ravshan ko‘zlari bilan deyarli kimsasiz ibodatxonani boshdan-oyoq ko‘zdan kechirayotganini ko‘rdi.

Yigitchaning oxirgi qatorda o'tirib, boshini quyi solganini, qo'llarini tizzalari ustiga qo'yganini ham ko'rdi. Ruhoniy yigit bu yerlik emasligini angladi. U bu shaharchada yigirma yildan ko'proq vaqtdan beri yashar va shaharliklarni, hatto hididan tanib olishi mumkin edi. Shuning uchun ham hozirgina cherkovga kirgan kishining bu yerlik emasligini bildi. Bu yigitchaning ming'aymas va biroz ma'yus kishi ekanini bilib olish uchun oniy jiddiy nazar tashlash kifoya bo'ldi. Yigitchaning kiyim-boshi g'ijim va isqirt edi. «Ust-boshini yechmasdan uxlaganga o'xshaydi», deb o'yladi Antonio Isabel ota jirkanch aralash achinish bilan. Sal o'tmay yigitchaning o'rindiqqa cho'kkanini ko'rib, ruhoniy qalbi minnatdorlik tuyg'usi bilan limmo-lim to'lganini his qildi va umridagi eng muhim va'zni irod qilishga shaylandi. «Yo, Iso Masih, — dedi u ichida, — shunday qilginki, u boshida shlyapasi borligini eslasin, men uni cherkovdan quvib chiqarmay». Shunday qilib, u va'zni boshlab yubordi.

Yotoqxonasida o'tirgan senora Rebeka hushini yo'qotayotganini his qildi va yana bir daqiqadan so'ng issiqqa dosh berolmasligini angladi. Agar u bu shaharchada nimadir sodir bo'lishidan qattiq qo'rquv hissi qaror topganini his qilmaganida, ashqol-dashqolini kuya dori solingan jomadoniga joylab, hayyo-hay deb bosh olib ketgan bo'lardi; aytishlaricha, katta bobosi shunday qilgan ekan. Lekin senora Rebeka peshonasiga shu shaharchada, son-sanoqsiz dahlizlari, to'qqizta xobgohi, simto'rlari bo'lgan shu uyda vafot etish yozilganini ich-ichdan bilar edi. Ayol issiq pasaygach, simto'rlarni tikanakli oynaga almashtirish darkor, degan fikrda edi. Shunday qilib, u shu yerda qoladi, bu haqda uzil-kesil qarorga kelingan (ayol hamisha kiyim javonidagi ust-boshlarini tartibga keltirganida shunday qarorga kelardi), bundan tashqari, o'zining «ulug' martabali hazrati oliylariga» bu yerga yosh ruhoniy yuborishni so'rab, maktub yozishga qaror qilgan, shunda u yana duxoba gullar taqilgan shlyapasini kiyib, cherkovga borishi, ibodat qilishi mumkin. Yangi ruhoniy butun qoidalarga

rioya qilgan holda ibodatni o'tkazgan, u bo'lsa, dono fikrlarga to'lib- toshgan, ibratli va'zlarni tinglagan bo'lardi. «Ertaga dushanba», – deb o'yladi u va yepiskopga maktub yozish kerakmi-yo'qmi, deb taraddudlana boshladi (polkovnik Buendia bir vaqtlar bu ishni yengiltaklik va hurmatsizlik nishonasi, deb atagan edi), lekin shu chog'da Arxenida simto'rli eshikni ochib, baqirdi:

– Senora! Ruhoniyimizni aqldan ozdi, deyishyapti!

Beva u tomonga o'girildi, yuz-ko'zida, odatdagidek, xo'mraygan, ranjigan ifoda aks etib turardi.

– U bundan kamida besh yil oldinoq aqldan ozgandi, – ta'kidladi u va kiyim-boshini diqqat bilan tekshirishda davom etar ekan, dedi: – U yana iblisni ko'rgandir-da.

– Yo'q, bu gal iblisni ko'rmabdi, – javob qildi Arxenida.

– Unda kimni ko'ribdi? – kalondimog'larcha loqaydlik bilan so'radi senora Rebeka.

– Bu gal Dajjolni ko'rdim, deyapti.

Beva butun badani jimirlab ketganini his qildi. Uzoq bolaligidan beri esiga tushmagan «Dajjol» so'zini eshitganida shikastlangan simto'rlar, jazirama issiq, o'lgan qushlar va vabo to'g'risidagi fikrlar miyasida g'ujg'on o'ynadi. Shunda yuzlari murdanikidek oqarib ketgan, borlig'i muzlagan senora Rebeka xonada u yoqdan-bu yoqqa yugura boshladi. Arxenida bo'lsa, og'zini ochgancha, hayrat bilan baqrayib turardi.

– To'ppa-to'g'ri, – bo'g'iq tovushda dedi beva. – Qushlar nega o'la boshlaganini endi tushundim.

Borlig'ini dahshat qamragan beva boshiga qora to'rt ro'molini tashladi va shosha-pisha uzun dahlizdan, turli no-kerak ashqol-dashqollarga to'la zaldan oshiqib o'tdi, uydan otilib chiqdi, uyidan cherkovgacha bo'lgan ikki ko'chadan chopib o'tdi. Cherkovda Antonio Isabel del Santisimo Sacramento del Altar bashoratdan payg'om berayotgan edi:

– ...Sizga qasam ichib aytayki, men uni ko'rdim. Qasam ichib aytamanki, bugun erta tongda duradgor Ionanikidan

marhumasi haqiga duo o'qib qaytayotganimda u yo'limni kesib o'tdi. Sizga qasam ichib aytamanki, Parvardigorning la'natiga giriftor bo'lgani uchun uning afti qop-qora edi, orqasidan buruqsigan kul izlari qolayotgandi.

Uning uzuq-yuluq so'zlari havoda aks-sado berar edi. Ruhoniy qo'llarining qaltirog'ini to'xtatishga qodir emasligini, a'zoyi badani titrayotganini va yelkasidan sovuq ter sekin oqib tushayotganini his qildi. Ruhoniyning ahvoli yomonlashdi, suv ichgisi keldi, qalbida allaqanday bo'shliq borligini his qildi, qulog'iga qattiq sur tovushi eshitilganday bo'ldi. Shu topda unga haqiqat ayon bo'ldi.

U cherkovdagi odamlarni aniq ko'ra boshladi, o'rta qatordan minbar tomonga hayajonga tushgan, yuz-ko'zida musibat va so'niqlik ifodasi aks etgan, boshini yuqori ko'targan senora Rebeka qo'llarini paxsa qilganicha, oshiqib kelayotganini ko'rdi. U nima bo'lganini g'ira-shira payqadi va bu hodisani mo'jizaga yo'yish maqtanchoqlik bo'lishiga aqli yetdi. Ruhoniy ojizona ravishda qaltiragan qo'llari bilan minbarning yog'och tutqichiga tayandi va va'zini qayta boshladi.

– Shundan keyin u mening yonimga keldi, – davom etdi u. Ovozining jo'shqin va ishonarli chiqayotganini endi o'zi ham sezdi. – U yonimga keldi, ko'zlari zumradga o'xshash yashil, terisi esa, g'adir-budur, o'zidan taka hidi anqir edi. Men Parvardigor nomi bilan uni haydab solish uchun qo'limni ko'tardim va unga: «To'xta! Yakshanba kuni qo'zichoqni qurbon qilib bo'lmaydi», dedim.

Va'zini tugatganida cherkov juda isib ketgan edi. Esdan chiqmaydigan bu avgust oyining eng shiddatli, turg'un, jazirama kuni edi. Lekin Antonio Isabel ota issiqni hecham his qilmayotgandi. U bu yerda, uning yonida va'zini eshitib, yana g'ussaga botgan, larzaga tushgan odamlar turganini bilalar, ammo qaqragan tomog'ini sharob bilan ho'llab olganida bo'lganidek, qalbida zarracha quvonch his qilmasdi. O'zini g'arib va o'ksik his qilardi. Fikri tarqoq ekanini, mo'jizakor ibodatning avj nuqtasiga kelganida fikrlarini jamlay olma-

ganini his qilardi. Bu uning hayotida ilgarilari ham bir necha bor yuz bergan, lekin bu galgi parishonxotirlik boshqacha, qandaydir alag'da xavotir boshqa tuyg'ularni bosib ketayotgan edi. Xuddi shunda o'z umrida birinchi marta g'urur neli-gini anglab yetdi. O'zi qanday tasavvur qilgan bo'lsa, shunday va o'z va'zlarida ta'riflaganidek, g'urur tashnalikka o'xshash tuyg'u ekanini his qildi. U ehson qutisini kuch bilan yopdi va sas berdi:

– Pifagor!

Xizmatkor – ustarada qirilgan boshi yaltirayotgan bola (Antonio Isabel ota uni cho'qintirgan va Pifagor deb ism qo'ygan edi) mehrobgga yaqin keldi.

– Xayr-ehsonlarni yig'ib ol, – dedi unga ruhoni-y.

Bolaning ko'zlari pirpiradi, o'girildi va shivirladi:

– Taqsimcha qayerda qolganini bilmayman.

U rostini aytayotgan edi. Necha oylardan beri xayr-ehson yig'ilmayotgandi.

Rizaxonadan xaltacha olib chiq, faqat kattaroq bo'lsin va imkon boricha ko'proq sadaqa yig'ib ol, – dedi ruhoni-y.

– Nima deyishim kerak? – so'radi bola.

Ruhoni-y bolaning ko'kimtir rangli qirilgan boshiga, qimir-layotgan lablariga o'ychan tikilib turdi. Endi uning ko'zlari pirpiradi.

– Dajjolni daf qilish uchun degin, – dedi u. Shunday de-di-yu, ko'ksini toshday og'ir yuk bosganini his qildi.

Ko'p o'tmay cherkov sukunati qo'ynida qulog'iga kat-takon mum shamlarning shitirlashi va o'zining uzuq-yuluq, hansirab nafas olishidan boshqa narsa eshitilmay qo'ydi. Shundan keyin katta ko'zlari cho'chinqirab boqayotgan bola-ning yelkasiga qo'lini tashladi va dedi:

– Pullarni yig'ib bo'lgach, ularni bu yerga birinchi bo'lib kelgan va dastlab yolg'izgina o'zi o'tirgan yigitchaga bergin va bu pullarni yangi shlyapa sotib olishingiz uchun ruhoni-y berib yubordi degin.

SUN'IY ATIRGULLAR

Tong g'ira-shirasida Mina kechqurun karavoti yoniga ilib qo'ygan yengsiz ko'ylagini paypaslab topdi, kiydi va taqma yengliklarni axtarib, sandiqning tit-pitini chiqardi. Topmagach, shu xonada uxlayotgan so'qir buvisini uyg'otib yubormaslikka harakat qilib, devor va eshikka qoqilgan mixlarni tekshira boshladi. Minaning ko'zlari qorong'iga o'rgangach, buvisining to'shakda yo'qligini ko'rdi va undan yengliklari qayerda ekanini so'rash uchun oshxonaga yo'naldi.

– Yengliklaring hammomda, – dedi so'qir. – Kecha kechqurun ularni yuvib qo'ygandim.

Yengliklar hammomda dorga ikkita yog'och qisqich bilan osib qo'yilib, yengliklar hali qurimagandi. Mina ularni oldi, oshxonaga qaytdi va pechka chetiga yoyib qo'ydi. Buvi pechka yonida o'tirib, so'qir ko'zlarini peshayvonga olib chiqadigan dahliz devori bo'ylab tortilgan g'ishtin karnizlarga tikkancha, qo-zonchadagi qahvani aralashtirayotgandi. Karniz ustida dorivor o'simliklar ekilgan guldonlar qatorlashib turardi.

– Bundan keyin mening narsalarimga tegma, – dedi Mina. – Hozir quyoshga ishonib bo'lmaydi.

– Bugun pasxa arafasidagi juma ekani butunlay esimdan chiqibdi.

Havoni hidlab ko'rib, qahva pishganiga amin bo'lgan so'qir qozonchani olovdan oldi.

– Yengliklaringning ostiga qog'oz qo'y, toshlarni chang bosgan, – maslahat berdi u.

Mina barmoqlarini toshlarning ustida yuritdi. Toshlarni haqiqatan ham chang bosgan ekan, lekin tosh sirtidagi qurum qotib qolgandi, yenglik bilan tosh artilgan taqdiridagina unga kir yuqishi mumkin edi.

– Agar kir bo'lsa, bunga sen aybdor bo'lasan, – deb qo'ydi Mina.

So'qir o'zining finjoniga qahva quyib bo'lgandi.

– Achchig'ing chiqayotir, – javob qildi u dahlizga stul sudrab chiqar ekan. – Jahl chiqqanda ibodat qilish gunoh bo'ladi.

U qo'lida finjon bilan dahliz etagida, peshayvondagi atirgullar yonida o'tirdi. Ibodatga chaqirib uchinchi marta qo'ng'iroqlar darangladi. Mina yengliklarini pechkadan oldi. Ular hali nam bo'lishiga qaramay, baribir kiyib oldi. Qo'li yalang'och bo'lsa, Anxel ota uni ibodat qildirishdan bosh tortgan bo'lardi. Qiz yuvinmadi, faqat ho'l sochiq bilan kechadan qolgan upa-eliklarini artdi, so'ngra to'r ro'moli va duolar kitobini olish uchun xonaga kirdi, keyin ko'chaga chiqdi. Chorak soatdan keyin qaytib keldi.

– Bunaqada Injilni o'qib bo'lgan chog'larida cherkovga yetib borasan, – dedi so'qir. U hanuz atirgullar yonida o'tirardi.

Men u yerga borolmayman, – dedi Mina hojatxonaga yo'nalarkan. – Yengliklarim qurimagan, ko'ylagim dazmollanmagan.

Qizga hamma narsani ko'radigan ko'z uni to'xtovsiz kuzatib turganday tuyulayotgandi.

– Bugun pasxadan oldingi juma, sen bo'lsang ibodat qilgani bormoqchi emassan.

Hojatxonadan qaytib kelgan Mina o'ziga bir finjon qahva quydi va so'qirning yoniga cho'kdi, oqqa bo'yalgan eshik yondoriga suyandi. Ammo qahvani icholmadi.

– Bunga sen aybdorsan, – pichirladi u ko'ziga yosh quyilib kelayotganini his qilar ekan, bo'g'iq ovozda darg'azab bo'lib.

– Nima balo, yig'layapsanmi?! – xitob qildi so'qir.

U qo'lidagi gulchelakni gultuvaklar yoniga qo'ydi va peshayvonga chiqarkan, takrorlay boshladi:

– Sen yig'layapsan! Sen yig'layapsan!

Mina finjonni polga qo'ydi, so'ngra bir amallab o'zini bosib oldi.

– Jahlim chiqqani uchun yig'layapman. – Buvisining yonidan o'tar ekan, qo'shimcha qildi: – Endi sen tavba qilishing kerak, chunki sening dastingdan men jumada ibodat qila olmadim.

So'qir Minaning xobgoh eshigini yopishini kutib turdi, so'ngra dahliz etagi tomon yurdi, barmoqlarini uzatgancha egildi, paypasladi va nihoyat Mina og'zini ham urmagan finjonni topdi. Qahvani axlat chelagiga to'kar ekan, dedi:

– Yaratganning o'zi guvoh, mening vijdonim toza.

Xobgohdan Minaning onasi chiqdi.

– Kim bilan gaplashayapsan? – so'radi u.

– Hech kim bilan, – javob berdi kampir. – Senga allaqachon aytuvdim-ku, aqldan ozyapman deb.

Xonasiga qamalib olgan Mina ko'ylagining yoqasini bo'shatib, ingliz to'g'nog'ichiga ilingan uchta kalitchani oldi. Kalitchalarning biri bilan javonning pastki g'aladonini ochdi va u yerdan nafis yog'och sandiqchani oldi, boshqa kalitcha bilan uni ochdi. Sandiqchada rangli qog'ozga bitilgan va rezina bilan bog'langan maktublar bor edi. U maktublarni ko'ksiga yashirdi, sandiqchani joyiga qo'ydi va g'aladonni yana qulfladi. Keyin hojatxonaga ketdi va maktublarni o'raga tashladi.

– Sen ibodat qilgani bormoqchi eding-ku, – dedi onasi.

– U borolmadi, – gapga aralashdi so'qir. – Men bugun juma ekanini unutilib, kecha yengliklarini yuvib qo'ygan edim.

– Ular haliyam qurigani yo'q, – g'ulduradi Mina.

– Shu kunlarda u ko'p ishladi, – davom etdi so'qir.

– Pasxagacha yuz ellikta atirgul topshirishim kerak, – dedi Mina.

Hali erta bo'lishiga qaramay, quyosh rosa qizdira boshlagan edi. Ertalab soat yettida katta xona sun'iy gullar tayyorlanadigan ustaxonaga aylandi – yaproqlar va sim solingan savat, qatlangan qog'oz solingan katta quti, ikki just qaychi, ip g'altaklari va yelim paydo bo'ldi. Sal o'tmay karton quti

qo'ltiq lab olgan Trinidad keldi va Mina nega ibodatga bormaganini so'radi.

– Yengliklarim yo'q edi, – javob qildi Mina.

– Axir, istagan kishing senga qarzga berib turgan bo'lar-di-ku, – dedi Trinidad.

U stulni surdi va yaproqlar solingan savat yonida o'tirdi.

– Bu gap kallamga kelganida kech bo'ldi, – dedi Mina.

U atirgul yasadi, so'ngra qaychi bilan yaproqlarni chiyrash uchun savat yoniga keldi. Trinidad yaproqlarni undan yaxshiroq chiyar edi va Mina poya yasash uchun sim bo'laklariga yashil qog'oz o'ray boshladi. Ular xonaga tushayotgan quyoshga parvo ham qilmay, indamay ishlayverishdi. Xona devorlariga osoyishta tabiat tasviri tushirilgan rasmlar va oilaviy fotosuratlar osig'liq edi. Poya yasashni tugatgan Mina Trinidadga yuzlandi, yuz-ko'zi parishon ko'rinardi. Trinidad barmoqlarining uchi bilan yengil, hayratda qolarli darajada aniq harakatlar qilardi; u oyoqlarini juftlab o'tirardi. Mina uning oyoqlaridagi erkakcha botinkalarga qaradi. Trinidad boshini ko'tarmayoq, uning nigohini sezdi, oyoqlarini stul tagiga tortdi va ishdan to'xtadi.

– Nima bo'ldi? – so'radi u.

Mina u tomonga egildi.

– U ketdi.

Trinidadning qo'lidagi qaychi tizzalariga tushib ketdi.

– Bo'lishi mumkin emas!

– Ketdi dedim-ku, – takrorladi Mina.

Trinidad unga baqrayib qoldi. Chimirilgan qoshlarining o'rtasida ikkita tik ajin paydo bo'ldi.

– Endi nima bo'ladi?

Minaning ovozi ravon va qat'iy edi:

– Endimi? Hech nima.

Soat o'nga yaqinlashganda Trinidad u bilan xayrlashdi. Mina bu vaqtgacha dardlashib, alamdan chiqqandi. U Trinidadni to'xtatib, o'lik sichqonlarni hojatxonaga tashlash kerakligini eslatdi.

So‘qir kampir atirgulni qaychilayotgan edi.

– Manavi qutimda nima borligini hech qachon topolmay-san, – dedi Mina uning yonidan o‘tayotganida.

U qutini silkitdi. So‘qir quloq soldi.

– Yana bir marta silkit.

Mina qutini ikkinchi marta silkitdi, lekin uchinchi silkitganida ham ko‘rsatkich barmog‘i bilan qulog‘ining solinchagini qayirib, diqqat bilan eshitayotgan kampir, baribir qutida nima borligini bilolmadi.

– Bular kecha cherkovda qopqonga tushgan sichqonlar, – tushuntirdi Mina.

Qaytishda so‘qirning yonidan o‘tarkan, g‘iq etmadi. Biroq so‘qir unga ergashdi. Buvi katta xonaga kirganida, yopiq deraza oldida o‘tirgan Mina atirgul yasab bo‘lgan edi.

– Mina, – dedi so‘qir, – agar baxtli bo‘lay desang, hech qachon siringni begonalarga aytma.

Mina unga tikildi. So‘qir ro‘parasiga o‘tirib ishlamoqchi bo‘ldi, biroq Mina ruxsat bermadi.

– Asabiylashyapsan, – dedi so‘qir.

– Bunga sen aybdorsan.

– Nega ibodatga bormading?

– Nega bormaganimni bilasan.

– Agar bunga yenglik sabab bo‘lsa, sen uydan chiqmagan bo‘larding. Seni birov kutib turgani uchun uydan chiqding va u senga qandaydir xunuk gap aytgan.

Mina go‘yo ko‘rinmaydigan oynaning changini artayotgandek, so‘qirning ko‘zlari oldidan qo‘llarini o‘tkazdi.

– Sen bashoratchisan, – dedi u.

– Bugun ertalab sen ikki marta hojatxonaga borib kelding, eslatdi so‘qir. – Holbuki, ertalablari hech qachon bir martadan ko‘p bormaysan.

Mina ishlashda davom etdi.

– Javonning pastki g‘aladonidagi narsangni menga ko‘rsata olasanmi? – so‘radi so‘qir.

Mina shoshilmay atirgulni deraza romiga sanchdi, yoqasidan uchta kalitchani chiqardi, so'qirning kaftiga qo'ydi va o'zi uning kaftini yopdi.

– O'z ko'zing bilan ko'raqol, – dedi u.

So'qir barmoqlarining uchi bilan kalitlarni paypaslab ko'rdi.

– Lekin axlat o'raga tashlagan narsalaringni ko'zlarim ko'rmaydi-da, – dedi u.

Mina boshini ko'tardi, birdan so'qir uning nigohini seza-yotganday tuyuldi.

– Mening narsalarim seni shunchalik qiziqtirayotgan bo'lsa, o'sha yerga tushaqol.

Biroq so'qir o'zini eshitmaganga soldi.

– Har kuni to'shakda o'tirib, tonggacha bir narsalarni yozasan, – dedi kampir.

– Ie, chiroqni o'zing o'chirasan-ku.

– O'chirdim deguncha, cho'ntak fonarini yoqib olasan. Qolaversa, nafas olishingga qarab, nima haqda yozayotganingni ham aytib berishim mumkin.

Mina g'azabini zo'rg'a bosdi.

– Yaxshi, – dedi u boshini ko'tarmay, – shunday ham bo'lsin, lekin nima qipti?

– Hech narsa. Lekin mana shu sababdan sen pasxa arafasidagi jumada ibodatga bormading.

Mina iplar, qaychi va gullarni bir joyga to'pladi, hammasini savatga soldi va so'qirga yuzlandi.

– Ya'ni, sen nega hojatxonaga borganimni aytishimni istayapsan, shundaymi?

Oraga tang sukunat cho'kdi va nihoyat Mina dedi:

–...gani bordim.

So'qir uning savatiga kalitlarni tashladi.

– Buni rost gap desa bo'lardi, – to'ng'illadi u oshxonaga yo'l olib. – Ha, agar sendan shu choqqacha bir marta bo'lsin beadab so'z eshitanimda, bu gapingga ishonsa bo'lardi.

Dahlizning u tomonidan bir quchoq tikanakli butoq ko'tar-gan Minaning onasi kelayotgan edi.

– Nima bo'ldi? – so'radi u.

– Aqldan ozyapman, dedim-ku, – javob berdi so'qir. – Le-kin, jonga tegmagunimcha meni dorulojizinga jo'natishmaydi, shekilli.

ULUG' ONANING JANOZASI

Barcha turdagi qavlsiz kimsalar, roppa-rosa to'qson ikki yil hukmdorlik qilgan va o'tgan sentyabrning oxirgi seshan-basida jonini Parvardigorga taslim etgan Makondo shohligi-ning yakka hukmdori Ulug' Onaning haqiqiy tarixini eshiting. Janozasiga Vatikandan Oliy Ruhoniy hazratlarining shaxsan o'zi tashrif buyurgan Ulug' Ona haqidagi hikoyaga quloq be-ring.

Endilikda, Ulug' Onaning sodiq tabaalari bunday dahshat-li larzadan nihoyat o'zlariga kelganlarida, endilikda, San-xa-sintolik hushtakchilar, guaxiralik kontrabandistlar, sialik sholi o'roqchilar, Guaka-mayyalyalik fohishalar, sierpelik azayim-xonlar, arakatakilik banan teruvchilar es-hushlarini yig'ib, be-dor o'tkazilgan shuncha tunlardan so'ngra miriqib uxlab olish uchun pashshaxona qurganlarida, endilikda, lozim bo'lgan arboblari, hatto Respublika Prezidenti, qolaversa, insoniyat ta-rixida eng tantanali dafn marosimida nafaqat dunyoviy, balki diniy hokimiyat nomidan vakillik qilish imkonidan foydalanib qolgan barcha kishilarning ko'ngillari xotirjam bo'lib, davlat ishlari bilan shug'ullana boshlaganlarida, endilikda, Oliy Ru-honiy hazratlarining tani va joni baqo olamiga ketganida, chor atrof konserva bankalari, bo'sh shishalar, sigareta qoldiqlari, g'ajilgan suyaklarga, bu tarixiy hodisaga kelgan son-sanoq-siz odamlar to'dasi qoldirgan va allaqachon qurib ulgurgan uyumlarga to'lib ketgani uchun Makondo ko'chalaridan na

yurib, na o'tib bo'lmaydigan paytda, endilikda darvozalar oldiga o'rindiqli qo'yib olib, tarixnavis dono janoblar bostirib kelmasidan oldin, butun mamlakatni hayajonga solgan ayni hodisalar haqida aql-idrok bilan hikoya qilib bermoq darkor.

O'n to'rt hafta muqaddam, uzoq vaqt davomida ketma-ket zuluk solishlar, xantal qog'oz qo'yishlar va dori bog'lashlardan tunlari azob-uqubat tortgan Ulug' Ona o'lim oldi isitmasidan so'ng sindi. O'zi yaxshi ko'radigan to'qima tebranma kursiga o'tqazishlarini buyurdi, chunki nihoyat so'nggi vasiyatini e'lon qilishni xohlab qoldi. Shu bilan u gunohga botgan bu dunyodagi amallariga xotima yasamoqchi edi.

Saharmardondan janozasiga oid barcha ishlarni Antonio Isabel ota bilan maslahatlashib olgan Ulug' Ona merosiga taalluqli ishlarni shuncha kun mobaynida to'shagidan nari ketmagan bevosita merosxo'rlari – o'nta erkak va ayol jiyanlari bilan kelishib olishga kirishdi. Qandaydir mujmal narsalar haqida o'zicha g'oldirayotgan, salkam yuz yoshga kirgan Antonio Isabel ota shu yerda o'tirardi. O'nta norg'ul yigit munkillagan ruhoniyni oldindanoq ikkinchi qavatga, to'ppato'g'ri Ulug' Onaning yotoqxonasiga olib chiqqan va so'nggi daqiqalarda u yoqdan-bu yoqqa tashib yurmaslik uchun shu yerda qoldirishga qaror qilgan edilar.

Jiyanlarning kattasi Nikanor – temirtepkili etik, moshrang kanzul kiygan, ko'ylagi ostiga uzun stvolli o'ttiz sakkizinchi kalibrli to'pponcha taqib olgan davangirday va badqovoq yigit – notariusni olib kelishga jo'nadi. Asal qiyomi va jambil hidlari ufurgan, nimqorong'i yerto'lalarida sandiqlar, qutilar, suyaklari allaqachon chirib bo'lgan to'rt avlodning allaqanday qaqr-ququrlari qalashib ketgan ikki qavatli dang'illama uyidagi to'ralar ikki haftadan buyon qattiq tanglik ichida kutaverib, dong qotgan edi. Dahliz devorlariga qoqilgan changaklarda yaqindagina nimtalanmagan cho'chqa go'shtlari osilib turgandi, avgust oyining yakshanba kunlari issiqdan havo o'ta dim bo'lib ketgan vaqtlarda o'ldirilgan bug'ularning qoni

oqib yotgandi, endi bo'lsa, ishora bo'lishi bilanoq otlarini egarlab, adadsiz Makondoning chor atrofiga qayg'uli xabarni yetkazishga shay, charchagan choparlar tuz to'ldirilgan qoplar, uyulib yotgan ish asboblarining shundoqqina ustida dumalab uxlayotgandilar.

Ulug' Onaning barcha qarindosh-urug'lari zalga yig'ildi. Tungi bedorliklardan, umuman, yaramas irsiyat sabab kamqonlikdan so'lg'in xotin-qizlar, har doimgidek, abadiy, og'ir motamda edilar, chunki ularning hukmfarmosi urug'ida hamisha kimdir vafot etib turardi.

Ulug' Ona qattiqqo'l ayollarga xos qat'iyat ko'rsatib, urug'-aymoqlari va boyliklarini o'tib bo'lmas devor bilan o'rab olgandi va bu o'ramdan bir qadam tashqariga chiqmaydigan jiyanlar xolalariga, amakilar jiyanlariga, akalar kelinlariga uylanar edilar, yaqin qarindoshlarning bunaqa nojoiz oila qurishi shu darajaga borib yetdiki, naslni davom ettirishning o'zi katta muammoga aylandi. Faqat jiyanlarning eng kichigi Magdalenagina bu temir to'siqni yorib o'tishga muvaffaq bo'ldi. U Antonio otadan kechalari tushiga kirib, mudhish bosinqirashlariga sabab bo'layotgan jinlarni haydab solishini o'tindi, so'ngra Apostol prefekturasining ibodatxonalaridan biriga ketdi va sochini qirdirib, dunyo lazzatlari va tashvishlaridan voz kechdi.

Ammo erkak jiyanlar erkaklik sha'niga dog' tushirmadilar va qishloqda, xutorda, yo'l chetidagi buta tagida, xullas, duch kelgan joyda birinchi kecha huquqidan g'ayrat bilan foydalanaverdilar va qonuniy oilalaridan tashqarida beaded valadi zinolarni dunyoga keltirdilar; bu haromzodalar Ulug' Onaning homiyligi ostida qarol-malaylari orasida yashar edilar.

O'lim yaqin qolgani odamlarni oyoqqa turg'azib yubordi. Izzat-hurmat va itoat qilishlariga o'rgangan o'layotgan kampirning ovozi zo'r-bazo'r chiqayotgan bo'lsa-da, aytganlari Makondoning eng chekka go'shalarigacha yetib bordi. Bu o'limga befarq bo'lgan kishining o'zi yo'q edi. Ulug' Ona

butun asr mobaynida Makondoning diqqat markazida bo'lib keldi. Undan ikki asr oldin akalari, ota-onasi, bobo-buvilari bu yerda xuddi shu tarzda hukmfarmolik qilgan edilar.

Makondo shohligining o'zi ularning buyuk urug'i atrofiga kengaygandi. Kampirning mol-mulkining manbai, haqiqiy bahosi, mulklarining hududini hech kim aniq bilmasdi, chunki odamlar oqar va ko'lmak suvlar, yog'ib o'tgan va yog'ayotgan yomg'irlar, yo'llar va so'qmoqlar, har bir simyog'och, qurg'oqchilik va kabisa yillari, umuman, shaksiz meros huquqiga ko'ra, yer yuzida, hayotda nima bo'lsa barchasi uning hukmida ekaniga allaqachon ko'nikib qolishgandi. Ulug' Ona kechki havodan nafas olish uchun aytvonga suzib chiqib, haddan tashqari qappayib ketgan gavdasining qudratli zalvorini ulug'vorlik bilan eski tebranma kursiga tashlagan vaqtlarida haqiqatan ham yorug' olamning eng badavlat va qudratli hukmdoridek bo'lib ko'rinar edi.

Barcha odamlarga o'xshab, u ham o'lishi mumkinligi, albatta, yaqin qarindoshlari va ayniqsa, keksa Antonio Isabel otaning karomatli pand-nasihatlari joniga tegib ketgan soatlarda o'zidan boshqa kimsaning xayoliga ham kelmagan edi. Shunga qaramay, Ulug' Ona ona tomondan buvisiga o'xshab yuz yildan ko'proq umr ko'rishiga ishonardi. Buvisi 1875-yilda oshxonasiga biqinib olib, Aureliano Buendia soldatlariga qattiq qarshilik ko'rsatgan edi. Faqat shu yilning apreliga kelibgina Ulug' Ona Parvardigorning unga marhamati cheksiz ekaniga va federalist masonlar to'dasini shaxsan o'zi ochiq jangda qirib tashlay olishiga shubhalana boshladi.

Ulug' Ona butunlay to'shakka mixlanib qolganida, uy tabibi bir hafta davomida tanasiga xantal qog'ozi yopishtirdi va jun paypoqlarini yechmaslikni buyurdi. Bu tabib kampirga otameros qolgan bo'lib, Monpele universitetini tamomlagan, lekin faylasufona qarashlariga ko'ra, ilmiy taraqqiyotni rad qilar edi. Ulug' Ona vrachlik bilan shug'ullanuvchilarning hammasini Makondodan quvib yuborib, unga cheklanmagan

huquqlar berdi. Raqibi qolmagan doktor bir vaqtlar umrining oxiri ko'rinib qolgan og'ir kasallarni borib ko'rish uchun otga minib, butun o'lkani aylanib yurar edi. Saxiy tabiat diplomli vrachni ko'pdan-ko'p noqonuniy bolalarning otasiga aylantirdi, lekin bir kuni u qayiqda ketar ekan, shafqatsiz bod kasali bexosdan oyoqdan oldi. O'shandan buyon Makondo ahlini davolash ishlari sirtidan, turli tavsiyalar, taxminlar va qisqa yozuvlar orqali amalga oshirib kelinardi.

Ammo Ulug' Ona chaqiruvidan so'ngra doktor ikkita qo'ltiqtayoqqa suyanib, maydondan amal-taqal qilib o'tdi va uy kiyimida to'g'ri kampirning yotoqxonasiga kirib bordi.

Faqat sakkizinchi kuni valine'matining kuni bitganiga aqli yetdi va ustiga lotincha yozuvlar bitilgan shishacha va bankachalar saqlanadigan sandiqchasini olib kelishlarini buyurdi hamda qolgan uch hafta mobaynida daqqiyunusdan qolgan usullarni ishlatib, foydasiz suyuqliklar, shamlar va bog'lamlar bilan o'layotgan kampirning tinkasini quritdi. Beliga zuluk soldi, og'riq juda kuchli bo'lgan joylariga pishirilgan qurbaqa yopdi. Nihoyat, bir tongda mashhur doktorni shubha bosdi, u Ulug' Onadan qon olish uchun sartaroshnimi yoki ins-jinslarni haydash uchun Antonio Isabel otani chaqirish kerakmi, deya ikkilanib qoldi. Ana shunda Nikanor qarollar orasidan o'nta norg'ul yigitni ruhoniyni olib kelishga jo'natdi, ular cherkovning kekxa arbobini g'ijiraydigan, rangi unniqqan guldor, qimmatbaho ipak taxtiravonda Ulug' Onaning yotoqxonasiga keltirishdi.

Taxtiravonning qo'ng'iroqchasining jiringlagan tovushi o'layotgan kampirga oxirgi hadyalar bilan oshiqib kelayotgan Antonio otadan o'zib ketib, Makondo ahliga birinchi mujda bo'lib eshitildi. Quyosh chiqishi bilan Ulug' Onaning uyi oldidagi maydon bamisoli quvnoq g'ala-g'ovurga to'la bozorga o'xshab qoldi.

Ko'p kishilar o'tgan zamonlarni, Ulug' Ona yetmish yoshlik to'yini qanday shodu xurramlik bilan tashkil qilganini,

qanday ziyofat berganini eslardilar. Oddiy kishilar uchun maydondagi chetanga o'ralgan kattakon sharob shishalarini dumalatib olib chiqishgan, shu yerning o'zida mol so'yishgan, baland ko'tarmada uch kecha-kunduz orkestr tinmay musiqa chalgan edi. Asrimizning birinchi haftasida polkovnik Aureliano Bu-endianing qarorgohi o'rnashgan bodom daraxtining siyrak soyasida ichkiliklar, kolbasalar, qovurilgan ichak-chavoqlar, turli-tuman pishiriqlar, kokos yong'oqlari savdosi qizib ketgandi. Lotereya stollari, xo'roz urishtirilayotgan qo'ralar atrofi tirband bo'lgandi. Bu to's-to'polonda, hayajonga tushgan olomon ichida Ulug' Onaning tasviri tushirilgan ko'krak nishonlarini sotishardi.

Odatda, Makondoda barcha bayramlar muddatidan ikki kun oldin boshlanar va hukmfarmoning dang'illama uyida berilgan baldan so'ng mushakbozlik tashkil qilinar edi. Tanlangan mehmonlar va ularning oila a'zolari yangi rusumdagi musiqa sadolari ostida sho'x-shodon raqsga tushardilar. Eski pianinodan bo'g'iq musiqa ovozi yangrardi. Bu mehmonlarga ularning noqonuniy bolalari uchib-qo'nib xizmat qilishardi.

Ulug' Ona nafis matodan tikilgan jildlar sirilgan yostiqlarga suyangan holda oromkursida savlat to'kib o'tirar va beshta barmog'iga ham yaltiroq uzuklar taqilgan o'ng qo'lining kichik bir ishoratiga barcha kiprik qoqmay bo'ysunardi. O'sha kuni Ulug' Ona – ba'zan sevishganlar bilan kelishgan holda, ko'pincha o'z tashabbusi bilan – bu yili qilinadigan to'ylarni e'lon qilib qolardi. Sershovqin bayram yakunida u gulchambarlar va rangli chiroqlar bilan bezatilgan ayyonga chiqib, olomon ustiga bir hovuch tanga sochardi.

Bu shonli an'analar qisman to'xtovsiz motamlar, asosan, Makondoni larzaga solgan siyosiy g'alayonlar sababli allaqachon asfalasofilinga ketgan edi. Yangi avlod bu tantanalar haqida faqat eshitgan, Ulug' Onani bayram marosimi- da ko'rish ularga nasib qilmagan. Bu bayramlarda hokimiyat vakillaridan biri, albatta, kattakon yelpig'ich bilan Ulug' Onani hami-

sha yelpib turar, Muqaddas ehsonlarni olib chiqishganida gollandcha kashtalar bilan bezatilgan ko'ylagi va kraxmallangan etagi g'ijimlanmasligi uchun faqat ungagina tiz cho'kmaslikka ruxsat berilar edi. Hurmatli otasining vafotidan so'ngra «Ulug' Ona» degan yangi va oliy unvonga musharraf bo'lgan yigirma ikki yashar Mariya del Rosario Kastaneda-va-Montero qadimiy dang'illama uydan asosiy mehrobgacha ikki yuz metr masofaga yozilgan gilam-poyondoزدan qanday yurib o'tgani keksalarga yoshligidan elas-elas xotira bo'lib qolgan. O'rta asrlarga munosib bu yorqin hodisa endilikda faqat Ulug' Ona urug'ininggina emas, balki butun millat tarixining mulkiga aylangan.

Ulug' Ona hazratlarining barcha ishlarini katta jiyani Nikanor yuritardi. Oddiy bandalardan yiroqdagi Ulug' Ona bo'lsa, gullagan yorongullar bilan bezatilgan issiqdan dim ayvonda ko'zga chalinmasdan, o'z shon-shuhrati chambariga chulg'anib, oromkursida tebranib o'tirar edi.

Ulug' Ona vasiyati e'lon qilingach, uch kecha-yu uch kunduz ommaviy sayil o'tkazishga va'da berganidan hamma xabardor edi. U vasiyatini faqat o'limi oldidan o'qishini barcha bilar, lekin Ulug' Onaning qazosi muqarrar ekaniga hech kimning ishongisi kelmasdi.

Mana, Ulug' Onaning paymonasi ham to'ldi. Bo'ynigacha shifobaxsh sabur barglari yopishtirilgan Ulug' Onaning bokira va bo'liq ko'ksi chang bosgan markizet ko'ylak, ko'pchigan yumshoq choyshablar ostida sal-pal ko'tarilib tushayotgani uning hali tirik ekanidan dalolat berib turardi. Jo'shqin va qat'iyatli oshiqqlar Ulug' Onani ellik yoshga to'lguniga qadar qiyin-qistovga olaverdi, lekin tabiat uni urug'ining bo'lg'usi barcha avlodlarini boqishga qodir katta ko'kraklar bilan siylaganiga qaramay, barchasini rad qildi, bokira va befarzandligicha boqiy dunyoga rihlat qildi.

So'nggi marta muqaddas zaytun yog'i surishga hamma narsani taxt qilgan Antonio Isabel ota boshqalar ko'makka

kelmasa, Ulug' Onaning kaftiga xushbo'y moyini surishga kuchi yetmasligini tushundi, chunki ajal nafasini his qilgan kampir qo'llarini musht qilib tugib olgan edi. Chaqqonlik va qat'iyat borasida bir-biri bilan musobaqalashgan qiz-jiyalarning barcha urinishlari chippakka chiqdi. O'layotgan kampir qimmatbaho uzuk taqilgan qo'llarini ko'kragiga bosib olganча qattiq qarshilik ko'rsatdi va nursiz ko'zlarini jiyanlariga baqraytirib, g'azab bilan «O'g'rilar!» deya vishilladi. Lekin teshvoray deb qarayotgan ko'zlarini Antonio Isabel ota va idish bilan qo'ng'iroqcha ko'tarib turgan yoshgina xizmatkorga borgan Ulug' Ona asta va holsizgina: «Men o'layotirman...», – dedi. Shunday degach, u ajdodlaridan qolgan nihoyatda go'zal olmos uzukni barmog'idan chiqardi va uni, qoidaga ko'ra, eng kichik jiyani Magdalenaga uzatdi. Shunday qilib, ularning urug'iga xos barqaror an'ana barham topdi, chunki mo'min-qobil Magdalena cherkov foydasiga merosdan voz kechgan edi.

Tong pallasi Ulug' Ona oxirgi topshiriqlarini berishi uchun uni Nikanor bilan yolg'iz qoldirishlarini buyurdi. Aqli-hushi va xotirasi joyida ekan, u Nikanor bilan Makondo shohligidagi ishlarning ahvolini muhokama qildi, so'ngra o'zining dafn marosimi haqida so'zlay boshladi. «Ko'zingga qara! – dedi u. – Hamma qimmatli narsalarni qulflab qo'y. Odamlarni bilib bo'lmaydi. O'lik bor joyda kimdir nimanidir o'marish payida bo'ladi». Nikanorni chiqarib yuborgach, Ulug' Ona ruhoniyni chaqirdi. Ruhoniy uning uzundan-uzoq, batafsil tavba-tazarrusini eshitib bo'lgach, o'layotgan kampirning oxirgi ibodat marosimida ishtirok qilishlari uchun barcha qarindoshlarini yotoqxonaga taklif qildi. Ana shundagina Ulug' Ona to'qilgan tebranma oromkursiga o'tqazishlarini va oxirgi vasiyatini e'lon qilishni xohlab qoldi. Guvohlar Antonio Isabel ota va doktor ishtirokida u qat'iy, burro-burro tovushda ulug'ligi va cheksiz hukmronligining yagona va mustahkam asosi bo'lgan butun boyliklari ro'yxatini notari-

usga aytib yozdirdi. Bu ro'yxatni yozar ekan, Nikanor mayda yozuvi bilan yigirma to'rt sahifa qog'ozni to'ldirdi. Ulug' Onaning haqiqatda mavjud mol-mulkleri uchta ulkan yer-suv maydonini tashkil qilar, ular qirol yorlig'i bilan birinchi kolonistlarga berilgan, lekin keyinchalik qandaydir ustomonlik bilan va hamisha urug'lari foydasiga amalga oshirilgan nikoh shartnomalari natijasida Ulug' Onaning to'la xususiy mulkiga aylangan edi. Beshta viloyatda joylashgan hamda xo'jayinlar loaqal bitta ham urug' ekmagan cheksiz va bo'sh yerlarda uch yuz ellik ikkita oila ijaragir bo'lib yashardi.

Har yili tug'ilgan kunlarida Ulug' Ona bu xo'jaliklardan salmoqli o'lpon yig'ib olar va bu bilan mazkur yerlar davlatga abadiy qaytib berilmasligini ko'rsatib qo'yardi.

Peshayvonga chiqarib qo'yilgan oromkursida gerdayib o'tirgan Ulug' Ona uning mulklarida yashash huquqini berish uchun ijarachilardan haq olardi. Uning ota-bobolari ham o'z vaqtida hozirgi ijarachilarning ajdodlaridan haq olgan edilar. Hukmdorning hovlisi mol-dunyoga to'lib ketardi — odamlar uch kun mobaynida bu yerga cho'chqalar, kurkalar, tomorqa va bog'lardan olingan birinchi hosilni va jami hosilning o'ndan birini olib kelishardi. Qo'pol hisob-kitoblarga qaraganda, yuz ming geklardan oshadigan qo'l urilmagan yerlardan Ulug' Onaning urug'i oladigan haqning miqdori ana shuncha edi. Tarix taqozosi bilan bu maydonlarda poytaxt Makondoni ham qo'shib hisoblaganda, yettita shahar qad ko'tardi, lekin faqat yashaydigan uylarigina shaharliklarniki bo'lib, ular o'z uylarida yashash uchun Ulug' Onaga qurtday qilib to'lashardi. Faqat bugina emas, davlatning o'zi ham ko'chalar va maydonlar uchun unga saxiylik bilan haq to'lardi.

Hukmdorning behisob chorvasi istagan joyida o'tlab yurardi. Tashnalikdan tinkasi qurigan hayvonlar Makondoning eng uzoq go'shalarida sanqib yurishardi. Ammo ularning sag'risiga osig'liq qulf shaklida urilgan tamg'alar Ulug' Onaning qudrati to'g'risidagi afsonaning yanada ko'pirishiga

xizmat qilardi. Hukmdorning otxonasi hali fuqarolar urushi vaqtidayoq xiyla bo'shab qolgan va bora-bora omborga aylangan edi. Bu yerda eski, ishdan chiqqan sholi yanchadigan mashina, buzuq shakarqamish taxtakachi va boshqa ashqol-dashqollar saqlanardi. Buning sabablari to'g'risida bosh qotirish hech kimning xayoliga ham kelmasdi. Ulug' Onaning boyliklari ro'yxatida oltin yombiga to'la uchta mashhur ko'za ham bor edi. Bu ko'zalar allaqachonlar bo'lib o'tgan Mustaqillik urushi vaqtida hukmdor uyining qaysidir maxfiy joyiga ko'mib qo'yilgan va qunt bilan to'xtovsiz olib borilgan qidiruvga qaramay, hanuz topilmagan edi. Ijara-girlardan yer haqini, birinchi hosil, hosilning o'ndan biri va shu singari boshqa to'lovlarni olish huquqini qo'lga kiritgan merosxo'rlar har safar qazuv ishlarining puxta o'ylangan va mukammal rejasini ham olishar va muvaffaqiyat qozonishlariga astoydil ishonishardi.

Makondo shohligidagi barcha ko'zga ko'rinarli boyliklarini sanab adog'iga yetishi uchun Ulug' Onaga roppa-rosa uch soat vaqt kerak bo'ldi. O'lim to'shagidagi kampirning ovozi dim xonada aniq-ravshan eshitilar va tilga olingan har bir narsaning qiymatini alohida ta'kidlab ko'rsatayotganga o'xshardi. Nihoyatda qimmatli qog'ozga Ulug' Ona o'rgimchaksimon imzo chekgach, uning ostiga ikkita shohid qo'l qo'ydi. Shunda Ulug' Onaning uyi oldida, chang bosgan bodom og'ochi ostida kutib turgan tumonat olomon yengil tin oldi.

Shundan keyin Ulug' Ona, o'z axloqiy tushunchalariga ko'ra, o'zining moli deb hisoblaydigan barcha narsalarni batafsil sanashga o'tdi. Mahobatli yonboshlariga tayangan Ulug' Ona aql bovar qilmaydigan iroda kuchi bilan o'zini tiklanib o'tirishga majbur qildi, hatto, o'limi oldidan ham ulug'vorligini unutmaydigan barcha ajdodlari shunday qilar edilar, hamda qat'iy va amirona ohangda burro-burro qilib, behisob xazinalarini yodaki sanay boshladi:

«Yer osti boyliklari, hududiy suvlar, davlat bayrog'ining ranglari, milliy suverenitet, an'anaviy siyosiy partiyalar, in-

son huquqlari, inson erkinliklari, birinchi va ikkinchi bosqich sudlari, hakamlar sudi, tavsiya maktublari, tarixiy taraqqiyot qonunlari, eng muhim nutqlar, erkin saylovlar, go'zallik tanlovlari, umumxalq shodiyonalari, latofatli senoralar, intizomli xushtorlar, oliyjanob zobitlar, Ruhoniy Hazrati Oliylari, Oliy sud, olib kirish taqiqlangan mollar, liberal kayfiyatdagi xonimlar, til sofligi muammosi, go'sht yetishtirishning kelajagi, butun dunyoga o'rnak bo'lishga arzirli xulq-atvor, o'rnatilgan huquq-tartibot, erkin va haq so'zni yozadigan matbuot, Ateneum Janubiy Amerika madaniyat markazi, jamoatchilik fikri, demokratiya saboqlari, nasroniy axloqi, valyuta tanqisligi, siyosiy boshpana huquqi, kommunistik tahdid, dono davlat siyosati, kundan-kunga ortib borayotgan qimmatchilik, respublikachilik an'analari, jamiyatning kambag'al qatlamlari, birdamlik nomasi va...»

Oxiriga yetkazishga muvaffaq bo'la olmadi. Bunchalik uzoq sanoq aql bovar qilmaydigan iroda kuchining so'nggi shiddatini kesdi. Ikki asrdan buyon urug'ining cheksiz hukm-farmoligining negizi bo'lib kelgan axloqiy, binobarin, huquqiy mavhum formulalar va tushunchalar girdobida bo'g'ilgan Ulug' Ona qattiq kekirdi va jon taslim qildi.

Uzoq va bulutli poytaxt ahli o'sha kechasi barcha shoshi- lynch xabarlarida yigirma yashar ayolning suratini ko'rdi va bu yangi go'zallik qirolichasi bo'lsa kerak, deb o'yladi. Gazetalarning to'rtta sahifasini egallagan, kattaytirilgan suratlarda Ulug' Onaning o'tmishdagi yoshligi aks etdi. Shosha-pisha sayqal berilgan suratda u quyuq sochlari suyak terisidan ishlangan taroqda taralgan, chiroyli turmaklangan, ko'ngil sust ketadigan kungurador ko'kraklarining orasi to'g'nog'ich bilan biriktirilgan holda tasvirlangan edi. Ulug' Onaning asr boshida Makondoga kelgan sayyoh-fotograf tomonidan olingan surati gazeta arxivlarida sabr bilan o'z vaqtini kutib yotgan va nihoyat, tole yor bo'lib, kelgusi avlodlar xotirasida qolish imkoniyati paydo bo'lgan edi.

Shalog'i chiqqan avtobuslar, vazirliklarning liftlari, devorlariga unniqqan gilamlar osilgan g'amgin oshxonalarda bezgak yurtida, chidab bo'lmaydigan jazirama o'lkada vafot etgan hazrati oliyalari to'g'risida, Ulug' Ona haqida hurmat bilan shivirlashib gaplashishardi, chunki matbuotning sehri kuchi bir necha soat ichida uning nomini jahonga mashhur qilgan edi.

Maydalab yog'ayotgan yomg'ir siyrak yo'lovchilarning yuzlariga ohista urilardi. Barcha cherkovlarning qo'ng'iroqlari marhumaning sharafiga daranglay boshladi. To'qqizta zabitning o'quv yurtini bitirishiga bag'ishlangan tantanali marosimga tayyorlanayotgan Respublika Prezidenti qo'qqisdan qayg'uli xabar olgach, o'sha zahotiyoq telegrammaning orqasiga o'z qo'li bilan harbiy vazirga bir nechta kalima bitdi va unga yakuniy nutqida bir daqiqalik sukut bilan Ulug' Onaning xo-tirasiga hurmat bajo keltirishni topshirdi.

Bu o'lim shu zahoti mamlakatning siyosiy va ijtimoiy hayotiga ta'sir o'tkazdi. Hatto, millatning qiziqishi-yu kayfiyat-lari haqida tozalovchi suzgichdan o'tgan xabarlar beriladigan Respublika Prezidenti mashina derazasidan sukunat qo'ynida qotib qolgan shaharni tomosha qilayotib, qandaydir achishtiradigan, og'ir hissiyot girdobida qoldi. Shaharda faqat yomon nom chiqargan qovoqxonalar va to'qqiz kunlik tantanali marosimga shay turgan Bosh ma'bad eshiklari ochiq edi, xolos.

Doriy uslubida ishlangan ustunlar va marhum prezident-larning soqov haykallari boshpanasiz, eski gazetalar yopinib yotgan gadolarning uyqusini g'amxo'rlik bilan qo'riqlayotgan Milliy maqbaraning ro'parasidagi Kongress derazalaridan da'vatkorona yorqin yog'du sochilib turardi. Umumxalq motamidan larzaga tushgan birinchi vakil o'z kabinetiga kirar ekan, hammasi birday motam bog'ichi bog'lab olgan, rangi o'chgan va odatdagidan tantanavor ko'rinadigan vazirlar oyoqqa qalqдилar.

Oliy martabali davlat a'yonlari chinakamiga odamgarchilikka rioya qilganlari uchungina emas, balki qarashlari bir- bi-

riga mutlaqo zid. umuman, bir-biriga qarshi tomonlar qahramonona fidokorlik ko'rsatib, umumiy milliy g'oya – Ulug' Onani dafn qilish masalasida o'zaro kelishuvga erishganlari uchun ham vaqti kelib, bu va keyingi kechalari bo'lib o'tgan voqealarni tarixning ulug' saboqlari darajasiga ko'tarishadi. Ulug' Ona soxta saylov byulletenlari solingan uchta quti tufayli Makondo shohligida uzoq yillar mobaynida ijtimoiy tinchlik va siyosiy barqarorlikni ta'minlab keldi. Tabiiyki, bu qutilar ham uning maxfiy mulkining tarkibiy qismi edi.

Hukmfarmoning uyida yashaydigan barcha erkaklar – xizmatkorlar, ijaragirlar, keksayu yoshlar faqat siyosiy saylovlarda ishtirok etibgina qolmay, shu bilan birgalikda keyingi asrda o'lib ketgan vakildorlar huquqlaridan, albatta, foydalanar edilar. Ulug' Ona an'anaviy hokimiyatning yangi, beqaror yo'l boshchilardan, hukmron sinfning qora xalqdan, boqiy dunyo azaliy qadriyatlarining foniy dunyo o'tkinchi aqidalaridan ustunligi ramzi edi. Tinchlik vaqtlari Ulug' Ona odamlarni shaxsan o'zi siylar yoki jazolar, ruhoniylarni mansabga tayinlar yoki bo'shatar, tarafdorlarining farovonligi to'g'risida qayg'urar, maxfiy fitnalar uyushtirar, shu bilan birga, saylov byulletenlarini soxtalashtirishga oliy farmonlar berar edi. Alg'ov-dalg'ovli yillarda Ulug' Ona o'z ittifoqchilariga yashirincha hirincha qurol-yarog' yetkazib berar, o'z qurbonlariga bo'lsa, ochiqdan-ochiq ko'maklashardi. Uning hech ko'rilmagan vatanparvarlik sa'y-harakatlari eng yuksak mukofotlar bilan taqdirlangan edi.

Respublika Prezidenti fuqarolar oldidagi o'z tarixiy mas'uliyati darajasini bu gal maslahatchilarning yo'l-yorig'isiz o'zi belgilashni xohlab qoldi. U sarv daraxtlari qorayib turgan bog'chada qadamlab biroz kezdi. Mustamlaka boshqaruvining oxirlarida bu yerda sevgida tole kulib boqmagan portugaliyalik bir rohib o'zini osib o'ldirgan edi. Prezident shaxsiy tansoqchilariga – ko'ksi nishonga to'la ko'pdan-ko'p zobitlariga unchalik ishonmasdi, shuning uchun ham tosh yot-

qizilgan hovlisi bo'lgan tantanalar zali bilan bog'langan bu bog'chaga qosh qoraygan vaqtlari kirib qolsa, har gal etlari jimirlab ketardi. Tosh yotqizilgan hovlida o'tmish zamonlarda vitse-qirollarning karetsi turardi. Lekin bu kechasi Prezidentning fikri juda ravshanlashdi, chunki u zimmasiga yuklatilgan buyuk vazifaning chuqur mohiyatini anglab yetdi hamda to'qqiz kunlik umumxalq motami e'lon qilish va Ulug' Onaga vafotidan so'ng vatan ozodligi uchun jangda halok bo'lgan Milliy qahramonga ko'rsatiladigan darajada izzat-hurmat bajo keltirish to'g'risidagi farmonga hech ikkilanmay imzo chekdi. Vatandoshlarga ko'tarinki ruhdagi murojaatida (bu murojaat saharmardondan radio va televideniening barcha kanallari orqali berildi) Prezident Ulug' Onaning janozasi tarixiy voqea bo'lishiga ishonch bildirdi. Biroq, bunday ulug' maqsadni amalga oshirishga g'oyat jiddiy to'siq xalaqit berishi ma'lum bo'ldi. Ulug' Onaning uzoq ajdodlari tomonidan barpo etilgan Makondo huquq tizimida bu darajadagi ulkan hodisa nazarda tutilmagan edi. Qonunlarni suv qilib ichib yuborgan tajribali alkimyogarlilar va bag'oyat dono huquq doktorlari fidokorona ravishda Prezidentga Ulug' Onaning janozasida qatnashish imkonini beradigan formulalarni axtarib, sillogizmlar va germenektika changalzorlarida izlana boshladilar. Siyosiy, moliyaviy va diniy martabadagi kishilar uchun mushkul kunlar boshlandi. Milliy ozodlik kurashi qahramonlarining portretlari va buyuk yunon faylasuflarining haykallari savlat to'kib turgan Kongressning keng va yarim doirali zalida mavhum qonunchilikning dim havosida o'tirib, Ulug' Ona sharafiga to'xtovsiz maqtovlar yog'dirildi, holbuki, bu vaqtda Makondoning sentyabrdagi jazirama issig'i ta'sirida murdada behisob pufakchalar paydo bo'la boshlagan edi. Ulug' Ona to'g'risida gapirishar ekan, ilk bora uning to'qima tebranma oromkursisini, tushdan keyin karaxt bo'lishini, badaniga qo'yiladigan xantal qog'ozlarni tilga olishmayotgan edi. Endilikda bu bokira o'tgan yillar yukidan ozod bo'lgan va u haqda yangi afsonalar to'qilayotgan edi.

Tugamaydigan soatlar soʻzlar va soʻzlar bilan toʻlib-toshib borar, bu soʻzlar matbuot dohiylarining saʼy-harakatlari bilan Respublikaning butun hududida joʻshqin aks sado berayotgandi. Voqyelikni toʻgʻri idrok etish tuygʻusi ato etilgan, kimdir harorat soyada qirq darajaga koʻtarilgan bir vaqtda, Ulugʻ Onaning jasadi masala hal qilinishini kutib yotganini oliy mashvaratga eslatmaguncha va bepusht qonunchi otalarning dahanaki janglari boʻlmaguncha bu ishlar davom etaverdi. Ammo, barqaror qonunning pok muhitiga oqilona fikrni olib kirishga urinishlarga hech kim eʼtibor ham bergani yoʻq. Ulugʻ Onaning jasadini moʻmiyolashni buyurishdi xolos va yana yangi formulalar axtarishga kirishib ketishdi, yana muvofiqlashtirishdi, bahslashishdi, Konstitutsiyaga oʻzgartirish kiritishdi, bu oʻzgartirishlar Prezidentga tantanali dafn marosimida qatnashish imkonini berdi.

Yuqori martabali vaysaqilar tomonidan shunchalik koʻp gap sotildiki, bu gaplar davlat sarhadlaridan oʻtib, okean oshib, Kastelgandolfodagi Papa hazratlariga ayon boʻldi. Aloq-chaloq tush vahimasidan zoʻrgʻa xalos boʻlgan Oliy Ruhoniy hazratlari vahshiylarcha oʻldirilgan qizning boshini koʻl tubidan qidirayotgan gʻavvoslarga oʻychan tikilib turardi. Keyingi haftada gazetalar faqat shu dahshatli voqea toʻgʻrisida yozishgan va Oliy Ruhoniy hazratlari uning yozgi rezidensiyasi yaqinida sodir etilgan bu jinoyat siriga befarq qololmasdi. Biroq oʻsha oqshom hammasi birdaniga oʻzgarib ketdi, taxmin etilgan qurbonlarning suratlari gazetalardan birdaniga yoʻq boʻldi va ularning oʻrnida qora hoshiya ichida yigirma yoshli qizning portreti paydo boʻldi. «Ulugʻ Ona!» – xitob qildi Oliy Ruhoniy hazratlari. Qancha zamonlar oldin Avliyo Pyotr taxtiga oʻtirishi munosabati bilan unga sovgʻa qilingan noaniq tasvirni, u shu zahotiyuq tanidi. «Ulugʻ Ona!» – deya bir ovozdan oh urishdi, oʻz idorasida oʻtirgan kardinallar kollegiyasi aʼzolari. Bepoyon nasroniylar imperiyasining boshi ustida yigirma asr ichida uchinchi marta besaranjomlik, chalkashlik, tartibsiz yugur-yugur girdobi charx urdi.

Bu oxir-oqibat Oliy Ruhoniy hazratlarini uzun, qora qayiqqa o'tqazish bilan yakunlandi. Qayiq uzoq safarga, Ulug' Onaning fantastik janozasiga yo'l oldi.

Gullagan shaftoli bog'lari, eski Appiya yo'li orqada qoldi. Bu yerlarda quyosh benihoya qayg'uli voqeadan bexabar qolgan kinoyulduzlarining badanini yayratar edi. Kastelsantanjeloning mahobatli tog'lari, ufqda elas-elas ko'rinayotgan Tibr daryosi ko'zdan g'oyib bo'ldi. Avliyo Pyotr ma'badida tortilayotgan oh-vohlar Makondo cherkovlaridagi xo'rsiniqlarga qo'shilib ketdi.

Rim imperiyasi bilan Ulug' Onaning muqaddas mulklari chegarasida joylashgan gadoy topmas botqoqliklardagi chakalakzorlardan odam hididan bezovtalangan maymunlarning chinqiriqlari eshitila boshladi. Bu chinqiriqlar qalin pashshaxona ichida dimdan azob tortayotgan Oliy Ruhoniy hazratlarining tinkasini quritdi. Tun qorong'isida Papaning kattakon qayig'i turli oziqlar solingan qoplar, ko'm-ko'k banan shodalari, parrandalar solingan qafaslar va tabiiyki, erkaklar va ayollar bilan to'ldi. Ular toleini sinash va Ulug' Onaning janozasi marosimida o'z mollarini sotib foyda ko'rish umidida ishlarini tashlab chiqqan edilar. Xristian cherkovi tarixida birinchi marta Hazrati Oliy- lari uyqusizlik va tropik hasharotlar chaqishi sababli eti uvishib, qaltirayotgan edi. Ammo Hukmdor Kampir zamini ustida otayotgan tongning sehrli ranglari, iguana va gullayotgan xinagulning azaliy go'zalligini ko'rib, barcha sayohat qiyinchiliklari shu zahoti Papaning yodidan ko'tarildi va bunday fidokorligi uchun yaxshiliklari o'ziga ming chandon bo'lib qaytdi.

Nikanor eshikni uch bora taqillatishlaridan uyg'onib ketdi. Bu Hazrati Oliylarining tashrifidan darak edi. Uydan motam havosi ufurardi. Prezidentning bo'yoqdor va jarangdor nutqlari, deputatlarning qizg'in bahslari (ular baqirishaverib allaqachon bo'g'ilib qolgan va bir-biri bilan imo-ishoralar orqali gaplashishayotgandi) tufayli yuzlab odamlar issiq go'shalarini tark etib, kimdir yolg'iz o'zi, kimdir katta gu-

ruhlarga qo'shib, Ulug' Onaning uyiga yetib kelib, yo'sin bosgan zinapoya maydonchalari, dim boloxonalar va qorong'i dahlizlarni to'ldira boshladi. Kechikkanlar bo'lsa, shinaklar, kuzatuv minoralari, tirqishlar, xullas, duch kelgan joyda qo'nim topdilar. Asosiy hashamatli zalda esa, Ulug' Onaning mo'miyolangan jasadi oliy qarorni kutib yotar, ustidagi telegrammalar borgan sari tog'day yuksalib borar edi. Ko'z yoshi to'kaverib holdan toygan ayol va erkak jiyanlar o'zaro badgumonlik jazavasiga tushib, jasaddan bir qadam ham uzoqlashmayotgandilar. Jasad asta-sekin quruqshab borardi.

Xullas, jahon yana anchagacha asabiy kutish holatida yashadi. Munitsipalitet zallaridan birida devor bo'ylab ustiga charm sirilgan kursilar, stol ustiga tozalangan suv solingan grafin qo'yilgan edi. Bu yerda uyqusizlikdan azob chekayotgan Oliy Ruhoniy hazratlari xotira daftarlari va farmoyishlarni o'qish bilan dim kechalarni qisqartirishga urinayotgan edilar. Kunduzlari u deraza ostida uymalashayotgan bolalarga italyan konfetlari ulashar, chirmovuqgullar bilan o'ralgan shiyponchada Antonio Isabel ota, gohida Nikanor bilan uzundan-uzoq tushlik qilar edi. To maydon o'rtasiga Pastor Pastran chiqib, barabanlar sadosi – tram-tararam-tam-pam – ostida Oliy Kengash qarorini e'lon qilgunga qadar u ana shunday, tinkani quritadigan issiq kunlarni tugamaydigan haftalarga, haftalarni oylarga ulab yashayverdi. «Davlat va xavfsizligiga tahdid soluvchi jamoat tartibi buzilishi hollari ko'payganligi munosabati bilan Respublika Prezidentiga – tram-tararam-tam-pam – favqulodda vakolatlar beriladi. – tram-tararam-tam-pam, bu vakolatlar unga Ulug' Onaning janozasida qatnashish huquqini beradi! Tram- tararam-tam-pam!»

Tarixiy kun yetib keldi. Barvasta yoyandozlar tezlik bilan ko'chalardan odamlarni haydab, respublika peshvolariga yo'l ochdilar. Ko'chalardagi do'konchalar, qimor, lotereya o'yin-gohlarining peshtaxtalari oldida odamlar g'ujg'on o'ynar, kichkina maydon uzra pashshaxonalar tortilgan, bu yerda bo'yniga ilon o'ralgan folbinlar o'tirar, ular saramas kasalini

daf qiladigan va ajaldan asraydigan dorivorlar sotar edilar. Sanxorxelik kir yuvuvchi ayollar, Kabo-de-velalik marvarid izlovchilar, sienagilik ov to'ri to'quvchilar, tasaxeralik qisqichbaqa dudlovchilar, moxanalik tabiblar, manualelik tuz qaynatuvchilar, valeduparalik akkordeonchilar, ayyapelyalik ot o'rgatuvchilar, sanpelayolik papayya sotuvchilar, dakuevalik latfago'ylar, Las-Sabanas-de-bolivarlik orkestr musiqachilari, rebololik yuk tashuvchilar, magdalenalik bekorchilar, mompokslik lo'ttibozlar, hikoya boshida tilga olinganlar va yana ko'plab kishilar zavq-shavq bilan oliy lahzalarni qimir-lamay kutib turishardi. Hatto, tantanali forma kiygan, tirnoq va tishlari bo'lgan, yo'lbars terisi yopin-gan polkovnik Aureliano Buendianing veteranlari gersog Malboro boshchiligida Ulug' Ona va uning yaqinlariga bo'lgan yuz yillik alamini ichiga yutib, yetmish yildan beri behudaga kutayotgan harbiy pensiya to'g'risidagi iltimosnomani Prezidentga topshirish uchun dafn marosimiga yetib kelishgan edi.

Ertalabki soat o'n birda jazirama issiqdan jinni bo'layozgan olomon (uning shiddatli siquvini gusarlar kiyimi, jig'ali qalpoq kiygan, saralangan, vazmin tartib posbonlari zo'rg'a ushlab turardi) zavqlanib, birdan bo'kirib yubordi. Telegraf binosi burchagidan qora kostyum-shim, qora silindsimon shlyapa kiygan vazirlar va Prezidentning o'zi, ularning orqasidan – parlament komissiyasi, Oliy sud, Davlat kengashi, an'anaviy siyosiy partiyalarning a'zolari, oliy diniy arboblar, banklarning egalari, savdo va sanoat peshvolarini savlat to'kib, salobat bilan tantanali yurib kelaverdi. Sochlari to'kilgan, pakana, ancha yoshga borib qolgan Respublika Prezidenti qachondir orqavoratdan uni oliy hukmdor qilgan va u haqiqatan ham bor ekanini endigina ko'rib turgan kishilarning hayratomuz nigohlari ostida mayda qadam tashlab borardi. Uning yonida o'z qadr-qimmatini anglashdan yanada og'irlashgan arxiiepiskoplar va ordenlarining ko'pligidan o'q ham teshib o'tolmaydigan ko'kraklarini kergan qo'mondonlar yurib bo-

rishardi, lekin faqat Prezidentdangina oliy hokimiyat yog'dusi yog'ilar edi.

Ipakdan tikilgan motam ko'ylaklarining bir maromdagi shitirlashi ostida bugun va kelajak qirolichalari ikkinchi oqimda suzib borishardi. Dunyo qirolichasi orqasidan birinchi marta yaltiroq, bashang kiyinmagan mango qirolichasi, yashil ayuyama qirolichasi, gvineya banani qirolichasi, unli yukka qirolichasi, guayyava qirolichasi, kokos moyi qirolichasi, qora loviya qirolichasi, iguana tuxumining ikki yuz yigirma olti metrlik bog'lami qirolichasi hamda bu yerda tilga olinmagan va sanab adog'iga yetib bo'lmaydigan boshqa qirolichalari borishardi. Agar bu qirolichalarning hammasini eslaydigan bo'lsak, uzundan-uzoq ro'yxatni o'qib ado qilguncha o'quvchi charchab qolishi turgan gap.

Foniy dunyodan sakkizta mis taglik bilan ajratilgan va boshdan-oyoq abadiyat formaliniga to'yingan holda qizil gajimli tobutda yotgan Ulug' Ona o'z qudratining butun buyukligini anglab yetolmas edi. Dim havoda ayvonda o'tirgan chog'lari orzu qilgan barcha narsalar mana, endi, qirq sakkizta madhiya yangragan paytda ro'yobga chiqdi. Butun bir davrning timsoliga aylangan oliy martabali zotlar uning xotirasiga hurmat bajo keltirdilar. Marhuma o'limi oldidan alahsiraganida ko'ziga Papaning Vatikan bog'lari ustidan oltin aravada uchib o'tayotgani ko'ringan edi. Endi bo'lsa, tropik jazirama issiqdan palma yelpig'ichi yordamida qutulgan Oliy Ruhoniy hazratlarining o'zlari mo'tabar tashriflari bilan jahonda eng tantanali janozada hozir bo'lib, marhumaning ruhini shod qildilar.

Misli ko'rilmagan marosim shohidi bo'lgan oddiy odamlar garangsib, hukmfarmo uyi ostonasida sodir bo'layotgan ochko'zlarcha talashishlarni ko'zdan qochirdilar. Bu yerda eng mashhur zotlar talashib, dahanaki jang qilishdi, pirovardida ularning eng zo'rlari Ulug' Onaning tobutini ko'tarib chiqish sharafiga muyassar bo'ldi. Makondoning tandirdek qizib yotgan ko'chalaridan ilgarilayotgan motam korteji orqasidan

suzib kelayotgan quzg'unlarning qo'rqinchli soyasiga hech kim e'tibor qilmadi. Marosimdan keyin barcha ko'chalar-da qo'lansa chiqindilar qolganini hech kim ko'rmadi. Ulug' Onaning ayol-u erkak jiyanlari, sig'indilari va erkatoylari, shuningdek, qarollari ham jasadni olib chiqishdi deguncha, pollarni, devorlarni buzib, eshiklarni ko'chira boshladilar, bir so'z bilan aytganda, qadrdon uyni bo'lishib olishga kirishdilar. Lekin ikki haftalik tilovat qilishlar, madhiya o'qishlardan so'ngra kattakon qo'rg'oshin taxta bilan qabrning ustini yopishgan chog'larida olomonning qattiq uh tortib, yengil tin olganini ularning hammasi eshitdi.

Yangi davr boshlanganining guvohi bo'layotganliklariga bu yerda hozir bo'lgan ba'zi kishilarning fahm-farosati yetdi.

Gunohlarga botgan bu dunyoda o'zining buyuk vazifasini o'tab bo'lgan Oliy Ruhoniy hazratlari endi narigi dunyoga rihlat qilsa ham bo'laverardi. Endi Prezident davlatni o'zi xohlaganday boshqarishi mumkin edi, bugun va o'tmish qirolchalari endi sevgan kishilariga turmushga chiqishlari, bola tug'ishlari, oddiy odamlar bo'lsa, bundan keyin Ulug' Ona mulkining istalgan joyida pashshaxona qurishi mumkin edi. Chunki bandalar orasida bunga qarshi chiqishi mumkin bo'lgan va buning uchun cheksiz hokimiyatga ega bo'lgan Ulug' Onaning o'zi qo'rg'oshin taxta og'irligi ostida chiriy boshlagan edi.

Endilikda uy oldidagi o'rindiqda o'tirib olib, hammasini qanday bo'lgan bo'lsa, shundayicha aytib beradigan odamni zudlik bilan qidirib topish vaqti keldi. Uning hikoyasi kelgusi avlodlarga saboq bo'lsin va kuldirsin, qavlsiz kimsalarning bari bitta ham qolmay bu tarixni bilib olsinlar, bo'lmasa bir falokat yuz beradi-yu, chorshanba kuni ertalab serg'ayrat farroshlar keladi-da, Ulug' Onaning tarixiy janozasidan qolgan barcha axlatlarni supurib tashlaydilar.



«O'N IKKITA SAYYOH HIKOYA» KITOBIDAN

PROLOG

NIMA UCHUN O'N IKKITA, NIMA UCHUN HIKOYALAR VA NEGA SAYYOH?

Ushbu to'plamga kirgan o'n ikkita hikoya keyingi o'n sakkiz yil davomida yozildi. Bu shaklga kirgunga qadar ulardan beshtasi jurnalist qaydi, kinossenariy, bittasi televizion serial ssenariysi shaklida edi. Yana bittasini esa, o'n besh yil avval bir muloqotda so'zlab bergan, suhbatdosh do'stim uni magnitofonga yozib olgan va keyinchalik e'lon qilgandi, endi bo'lsa, men o'sha naqlga asoslangan holda uni yangidan yozib chiqdim. Bu g'ayriodatiy ijodiy tajriba edi va hech bo'lmaganda, yozuvchi bo'lishga harakat qilayotgan yoshlar bu illat – tinkani quritadigan yozish ishtiyoqini aslo qondirib bo'lmasligini bilib qo'yishlari uchun bu haqda so'zlab bersa arziydi.

Ijodiy niyat birinchi marta yetmishinchi yillarning boshida, bashoratli tush ko'rganimda tug'ilgan edi. O'sha vaqtda Barselonada yashayotganimga besh yil bo'lgandi. Tushimda, go'yo

o'zinning dafn marosimida ishtirok etayotgan emishman. Tantanali dafn marosimiga mos kiyingan do'stlarim bilan ketib borayotgan emishman, lekin hammamizda bayram kayfiyati hukmron emish. Taassurot shundayki, birga ekanimizdan hammamiz baxtiyormiz. O'lim Lotin Amerikasidagi eng eski, eng suyuqli do'stlarim bilan yana birga bo'lishdek ajoyib imkoniyatni bergani uchun hammasidan baxtiyori – men emishman. Do'stlarim bilan uzoqlarga ketmoqchi bo'larmishman, lekin ulardan biri men uchun bayram tugaganini menga qat'iy va keskin qilib tushuntirib qo'yar emish. «Endi biz bilan keta olmaydigan yagona kishi – sensan», der emish u. Shundagina men, o'lim – do'stlar bilan hech qachon birga bo'lolmaslik, degani ekanini tushunib yetdim.

Negadir men bu ibratli tushni o'zligimni, o'z mohiyatimni anglash tarzida ta'birladim va bu – yevropaga kelgan Lotin amerikaliklarning boshiga tushadigan g'alati hodisalar to'g'risida yozish uchun yaxshigina zamin bo'ladi, deb o'yladim. Bu umid baxsh etadigan topildiq edi; men yaqindagina «Patriarxning kuzi»ni, balki, o'zinning eng qaltis va og'ir ishimni bitirgan hamda endi nima qilishimni bilolmayotgan edim.

Kallamga kelgan mavzularni ikki yil davomida qoralab bordim, lekin ularni nima qilish kerakligi to'g'risida hali bir qarorga kelmagandim. Yozishga kirishgan oqshomim qog'ozim yo'q edi va bolalarim menga maktab daftarini berishdi. Keyinchalik bizning tez-tez bo'lib turadigan safarlarimiz vaqtida yo'qolib qolishidan cho'chib, daftarni o'zlarining papkalarida olib yurishdi. Shunday qilib, oltmish to'rtta mavzuni shunchalik batafsil qoralab chiqdimki, o'tirish va kitobni yozish qolgan edi, xolos.

1974-yilda Barselonadan Meksikaga qaytib kelganimda bu kitob oldin o'ylaganimday roman emas, jurnalistik dalillarga asoslangan kichik hikoyalar to'plamidan iborat bo'lishi kerakligi menga ayon bo'ldi. Nafosatli poeziya san'ati tu-

fayli ular badiiylashib, unutilishdan qutulib qolgan bo'lardi. O'shangacha men uchta hikoyalar to'plamini yozgandim. Biroq, uch kitobdan loaqal bittasi ham bir butun asar tarzida o'ylanmagan, har bir hikoya o'z-o'zicha mustaqil va tasodifiy edi. Shuning uchun ham oltmish to'rtta hikoyani o'quvchi ongi-shuurida chambarchas bog'lanadigan yo'sinda, ohang va uslubning ichki birligiga rioya qilgan holda bir o'tirishda yozib tashlay olsam, juda g'aroyib ish bo'lgan bo'lardi.

Dastlabki ikkita hikoya – «Qorda qolgan qon izlaring» va «Senora Forbesning baxtli yozi»ni men 1976-yilda yozdim va darhol turli mamlakatlarning adabiy jurnallarida e'lon qildim. Bir kun ham dam olmasdan qattiq ishlay boshladim, lekin uchinchi, ya'ni mening dafn marosimim haqidagi hikoyaning yarmiga kelganda roman yozgandagiga qaraganda ko'proq charchaganimni his qildim. To'rtinchi hikoyani yozayotganimda ham shunday bo'ldi. Qisqasi, ishni oxiriga yetkazish uchun menda na mador, na ishtiyoq qoldi. Nega shunday bo'lganini endi tushunaman: katta roman yozishga kirishganda qancha kuch kerak bo'lsa, kichik hikoya yozganda ham shuncha kuch sarflaysan. Romanning ilk satrlaridanoq hamma narsani: qanday, qaysi ohangda, maromda yozish kerakligini belgilab olish, asar qanchalik uzun bo'lishini bilish, ko'p hollarda esa, hatto, qaysidir personajning xarakterini tasvirlash kerak bo'ladi. Qolganlarining hammasi – yozish jarayonining o'zidan lazzatlanishdir. Bu esa tasavvurga sig'dirish mumkin bo'lgan darajada o'z dunyosiga chuqur g'arq bo'lishni, yolg'izlikni taqozo qiladi. Agar umringning oxiriga qadar romanni tuzatish va qayta yozishni davom ettirmasang, buning yagona sababi shuki, kitob yozishni boshlash uchun kerak bo'lgan o'sha temir kuch seni asarga nuqta qo'yishga majbur qiladi. Hikoya yozishga kirishganda esa, uning boshi ham, oxiri ham bo'lmaydi: ish darhol qovushadi yoki qovushmaydi. Agar darhol qovushmasa, unda, buni o'z tajribam va o'zgalarning tajribasiga ko'ra bilaman, ko'p hollarda hikoya-

ni yangidan va boshqacha qilib yozgan yoki yozganingni axlat qutisiga tashlab yuborgan yaxshiroq. Kimdir (kimligi esimda yo'q) bu holatni kishiga tasalli beradigan quyidagi ibora bilan juda o'xshatib ifodalagan edi: «E'lon qilgan asaridan ko'ra, yirtib tashlagan asariga qarab yozuvchining qanchalik zo'r ekanligi bilinadi». To'g'risini aytganda, men qoralama va xomaki nusxalarimni yirtib tashlagan emasman, undan ham batarroq ish qilganman: ularni, umuman, unutib qo'yganman.

Bu daftar 1978-yilgacha Meksikada yozuv stolim ustidagi qog'ozlarga qorishib yotganini eslayman. Bir kuni boshqa narsani qidira boshladim va daftarga anchadan buyon ko'zim tushmayapti, deb o'yladim. Avvaliga tashvishlanganim yo'q. Lekin daftar haqiqatan ham stol ustida yo'qligini ko'rib, chinakamiga qo'rqib ketdim. Uyda men qidirmagan tirqish qolmadi. Mebellarni u yoqdan-bu yoqqa surdik, javondagi kitoblar orqasiga tushib qolmagan bo'lsin deb ularni oldik, uyalmay-netmay xizmatchilar va do'stlarimizni savolga tutdik. Bari behuda ketdi. Mumkin yoki maqbul bo'lgan yagona izoh shuki, stolimning ustini tozalayotgan vaqtimda, men bu ishni tez-tez qilib turaman, daftarni boshqa qog'ozlarga qo'shib, chiqindi qutisiga tashlab yuborgan bo'lsam kerak.

Bu hodisaga javoban qilgan xatti-harakatimdan o'zim hayratda qoldim: to'rt yildan beri tushimga ham kirmagan mavzularni eslash men uchun shon-sharaf ishiga aylandi. Men nima qilib bo'lsa ham, xuddi yozayotgan paytdagidek zo'r berib, ularni eslashga urina boshladim va pirovardida ulardan o'ttiztasining qoralamasini tiklashga muvaffaq bo'ldim. Mavzularni eslar ekanman, ayni chog'da, ularni jiddiy saraladim, shu boisdan bir ish chiqmaydigandek ko'ringanlarini ko'pam afsuslanib o'tirmay, tashlab yubordim, natijada o'n sakkiztasi qoldi. Bu safar ularni tin olmay, bir o'tirishda yozib tashlash niyatida edim, lekin ko'p o'tmay ilhomim so'nganini angladim. Biroq boshlovchi yozuvchilarga hamisha beradigan maslahatimga zid o'laroq, qoralamalarni axlat o'rasiga tash-

lab yuborganim yoʻq, balki yana chetga olib qoʻydim. Har chetimolga qarshi.

1979-yilda «Oshkora qotillik qissasi»ni yozayotganimda kitoblar orasida tanaffus qilib, yozish koʻnikmasini yoʻqotib qoʻyishimni tushundim, har gal yangi ish boshlashim tobora mushkul boʻlardi. Shuning uchun ham 1980-yil oktabridan 1984-yil marti oraligʻida har hafta tartib-intizomga rioya qilish va qalam oʻtmaslashib qolmasligi uchun turli mamlakatlarning gazetalariga maqolalar yozib turdim. Ayni oʻsha vaqtda bu daftar ustidagi ishning yurmayotgani boisi qoralamalarning adabiy janrini belgilamaganim bilan bogʻliq boʻlsa kerak va ular, baribir, hikoya emas, gazeta ocherklari boʻlishi darkor, deb oʻyladim. Daftardagi qoralamalar asosida beshta ocherk eʼlon qilganimdan keyin yana fikrimni oʻzgartirdim, bu mavzular koʻproq kinobop. Shunday qilib kino uchun beshta va televizion serial uchun bitta ssenariy yozildi.

Bir narsani oldindan koʻra olmadim – gazeta va kino uchun qilingan ish hikoya haqidagi tasavvurlarimni oʻzgartirib yuborishi mumkin edi. Binobarin, bu hikoyalarni hozir eʼlon qilinayotgan tarzda yozayotgan vaqtimda oʻz qarashlarimni ssenariylar ustida ishlayotganda rejissyorlar kiritgan oʻzgartirishlardan aniq-puxta, bamisoli jarrohning pinseti bilan ajratib olishimga toʻgʻri keldi. Bundan tashqari, bir vaqtning oʻzida besh nafar har xil ijodiy shaxs bilan birga ishlash yangi uslub kashf etishimga yordam berdi: boʻsh qoldim deguncha hikoya yozishga kirishardim va charchagan yoki koʻzda tutilmagan qandaydir bir ish chiqib qolganida, hikoya yozishni keyinga qoldirardim, soʻngra boshqa ishni boshlardim. Shunday qilib, bir yildan oʻtib-oʻtmay oʻn sakkizta qoramalardan oltitasi axlat qutisiga tushdi. Oʻzimning dafn marosimim haqidagi hikoya ham ular orasida edi, chunki tushimda boshimdan oʻtkazgan quvonchli bayram kayfiyatini tasvirlashning uddasidan chiqqan olmagan edim. Qolgan hikoyalar boʻlsa, uzoq yashaydiganga oʻxshaydi.

Mana, o'n ikkita hikoya kirgan kitob qo'lingizda turibdi. Ora-sira tanaffuslar qilingan ikki yillik mehnatdan keyin, o'tgan yili sentyabr oyida ular nashrga tayyor bo'ldi. Shu tariqa bu hikoyalarning stoldan axlat qutisiga, u yerdan stolga qilayotgan so'ngsiz safarlari, chtimol, oxiriga yetganday bo'ldi, lekin so'nggi lahzada ko'nglimga yana birdan shubha oraladi. Hikoyalarimda voqealar yevropaning turli shaharlarida bo'lib o'tadi. Men bu yerlar haqida xotiramga suyanib yozgandim va oradan ancha vaqt o'tganini hisobga olib, deyarli yigirma yildan keyin bu joylarni aniq eslaganmanmi yoki yo'qligini tekshirish uchun Barselona, Rim va Parijga qisqa tanishuv safariga yo'l oldim.

Ularning biron-tasi ham xotiramda qolgan shaharlarga hech o'xshamas edi. Bugungi butun yevropa singari, shaharlarning hammasi nazarimda ajib tarzda aralash-quralash bo'lib ketdi: haqiqiy xotiralarim menga xayolot mahsuli bo'lgani yolg'on, to'qigan voqealarim esa shunchalik ishonchli bo'lib tuyulardi-ki, ularning rostligiga shubha qilib bo'lmasdi. Shu tariqa qaytgan ixlosni o'tmishni qo'msashdan ajratadigan chegarani topish mumkin emasday tuyulardi. Bu hammasini hal qildi. Men, nihoyat, kitobni tugatish uchun o'zimga yetishmayotgan eng muhim narsani – vaqt istiqbolini topdim, faqat o'tgan yillargina menga bu imkoniyatni berdi.

Sayohat ko'ngildagiday o'tdi. Qaytganimdan so'ng sakkiz oy bosimda o'tirib, barcha hikoyalarni boshdan-oyoq qayta yozib chiqdim. Endi haqiqiy hayot qayerda tugab, qayerda xayolot boshlanishini o'ylab bosh qotirishimga hojat yo'q edi, chunki yigirma yil oldin yevropada boshdan o'tkazganlarimning biron-tasi chin bo'lmagan bo'lsa kerak, degan gumon menga ko'makka kelgan edi. Bu gal hikoyalarni bir o'tirishda yozdim va goho menga hikoya qilishdan lazzatlanish uchunгина yozayotganimdek tuyulardi. Ehtimol, insonning bu ruhiy holati ruhan osmonu falaklarga parvoz qilishiga ko'proq o'xshasa kerak. Bundan tashqari, bir vaqtning o'zida barcha

hikoyalar ustida ter to'kar va bittasidan ikkinchisiga erkin sakrar ekanman, men voqealikni keng ko'rishga erishdim, bu esa, meni charchoqdan hamda quruq so'zamolik va halokatli ziddiyatlardan qutqardi. Agar har bir hikoyani alohida-alohida boshlaganimda qattiq charchagan bo'lardim. Menimcha, orzuimdagi kitobimga juda yaqin bo'lgan kitobni yozishga muvaffaq bo'ldim.

Mana, nihoyat, beqaror shubha-gumonlarni barham toptirish uchun rosa kurashib, u yoqdan-bu yoqqa tinimsiz sayohat qilganlaridan so'ng hikoyalar kitob holiga keldi va endi uni qo'lingizga olishingiz mumkin. Bu hikoyalar daftarda qanday bo'lsa, o'shanday tartibda joylashtirildi.

Men hamisha hikoyaning oxirgi varianti oldingisidan yaxshi bo'ladi, deb hisoblab kelganman. Lekin oxirgisi qanday bo'lishi lozimligini qayerdan bilish mumkin? Bu – kasb siridir va u aql-idrok qonunlariga emas, xuddi oshpaz ayol sho'rvaning qachon pishganini bilganidek, sezgi sehriga bo'ysunadi. Har holda, nechog'lik shubhalansam-da, o'zimni azobga qo'ymaslik uchun, bu hikoyalarni qayta o'qimayman. Zero, men o'z kitoblarimni hech qachon qayta o'qimaganman. Ularni o'qigan kishi nima qilish kerakligini o'zi biladi. Mazkur o'n ikkita sayyoh-hikoyaning qismatiga oxir-oqibat axlat qutisiga tushish yozilgan bo'lsa, bunga ham shukr qilish kerak, chunki ular o'z uyiga qaytgan bo'ladilar.

Gabriel Garsia Markes.

OQ YO'L, JANOB PREZIDENT!

U kimsasiz bog'da, sarg'aygan yaproqlar ostidagi taxta o'rindiqda hassasining kumush tutqichiga tayangan holda, chang bosgan oqqushlarga tikilganча, o'lim haqida o'ylab o'tirardi. Jenevaga ilk bor kelgan vaqtida ko'l osuda va shaf-

fof edi. qo'lga o'rgatilgan chaykalar uchib kelar va kaftdagi yegulikni cho'qib yerdi. Burma ko'ylak va ipak shlyapa kiyib olgan ayollar esa, oqshom soat oltida arvoonga o'xshab ko'rinardi. Ularni pulga yollash mumkin edi. Endi bo'lsa, bo'm-bo'sh sohilda gul sotuvchi ayoldan boshqa kimsa yo'q. Vaqt faqat uning hayotinigina emas, tevarak-atrofnini ham ana shunday ostin-ustun qilishga qodir ekaniga zo'rg'a ishonish mumkin.

Noma'lum kimsalarga to'lib-toshgan bu shaharda u ham bir noma'lum kishi edi. Oq chiziqli to'q ko'k kostyum, zarbof nimcha va iste'fodagi sudyalalar kiyadigan dag'al shlyapada, mo'ylovi kalondimog' mushketyorlarnikiga o'xshab ko'kish tovlanadi, qalin, jingalak sochlari parishon, qo'llari baayni arfa cholg'uvchi ayollarnikidek, chap qo'lining nomsiz barmog'ida bevaligini ko'rsatadigan uzuk, ko'zlari masrur. Faqat biroz tirishgan terisigina sog'lig'ini yo'qotganini ayon etib turadi. Shunday bo'lsa-da, u yetmish yoshida ham o'ta po'rim. Ammo o'sha tongda unda manmanlikdan asar ham yo'q edi. Shuhrat va hukmronlik davri qaytmaydigan darajada ortda qolib ketgan, endi faqat o'lim zamoni kelgandi.

Martinikadagi vrachlar hecham aniqlay olmagan kasalligining sababini nihoyat bilib olish uchun ikkita jahon urushidan keyin Jenevaga qaytib kelgandi. U bu yerda ikki haftadan ko'p qolmoqchi emasdi, lekin mana, qariyb olti hafta bo'ldiki, tinkani quritadigan tekshiruvlarga giriftor qilishdi. Bu tekshiruvlarning oxiri yo'qday tuyular, ular aniq natija bermayotgan edi. Jigari, buyragi, oshqozon osti bezi va prostata bezini tekshirib ko'rishdi, holbukini, bu yerlarda ishkali yo'q edi. Nihoyat, uni tekshirgan bir to'da doktordan eng mashhuri mash'um payshanba kunlarining birida asab xastaliklari bo'limiga ertalab soat to'qqizga kelishni tayinladi.

Kabinet rohiblarning hujrasiga o'xshardi. Pakana va g'amgin doktorning o'ng qo'li bosh barmog'i singani uchun gipslangan edi. Chiroq o'chgach, ekranda umurtqaning su-

rati paydo bo'ldi. Doktor tayoqcha bilan beldan pastroqdagi ikki bo'g'in birlashgan joyni ko'rsatmaguncha, u bu umurtqa o'ziniki ekanini tan olmadi.

– Og'riq mana shu joyda. – dedi doktor.

U bu darajada oddiy bo'lmasa kerak, deb hisoblardi. Chunki og'riqni tushunib bo'lmas, u kezib yurar, goh o'ng biqinida, goh qornining ostida paydo bo'lar, to'satdan chovi sanchib qolardi. Doktor uning so'zlarini tayoqchani ekrandan olmasdan jimgina eshitdi.

– Shuning uchun ham uni shuncha vaqt topolmadik-da, – dedi u. – Lekin endi bilib oldik, u xuddi mana shu joyda. – Shundan keyin u ko'rsatkich barmog'ini chakkasiga tiradi-da, aniqlik kiritdi: – Qat'iy aytamanki, janob prezident, butun og'riq xuddi mana shu joyda.

Tekshiruvlarda shu darajada azob tortgandiki, oxirgi hukm muruvvatli bo'lib tuyuldi: prezident muqarrar suratda va tavakkaliga operatsiya qilinishi lozim edi. Prezident tavakkal darajasi nechog'liq ekanini so'radi, keksa doktor mutlaqo norma'lum bo'lgan bu masalaga mujmal javob berdi.

– Har holda buni aytish qiyin, – dedi u.

Shunday bo'lsa-da, yaqin-yaqinlargacha bunaqa operatsiyalarda natijaning mash'um oqibat bilan tugash ehtimoli juda katta bo'lganini, lekin ish ko'pincha turli darajadagi falaj bilan yakunlanganini ilova qildi. Biroq keyingi ikki jahon urushida meditsina erishgan yutuqlar tufayli bunday tahlikal-ar ortda qolib ketgan.

– Xotirjam ketavering, – dedi u so'zini yakunlar ekan. – Yaxshilab tayyorlaning va bizga xabar bering. Shuni unut-mangki, qancha erta bo'lsa, shuncha yaxshi.

Bunday yomon yangilikni hazm qilish uchun bu erta juda bexayr edi. Buning ustiga havo ham aynib turgan bo'lsa. U mehmonxonadan juda barvaqt, palto kiymay chiqqan, chunki derazadan quyosh charaqlab turganini ko'rgan edi. Ohista yurib, shifoxona joylashgan Shmen-de-Bo-Soley ko'chasidan

ingliz bog'idagi yashirin sevishganlar boshpanasiga qadar bo'lgan yo'lni bosib o'tdi. U bog'da bir soatdan ko'proq to'xtovsiz o'lim haqida o'ylab o'tirdi. Shu pallada birdaniga kuz izg'irini esdi. Ko'l bo'ronda qolgan okeanga o'xshab to'lqinlandi, qattiq esgan shamol chaykalarni to'zitib yubordi, daraxtlardagi so'nggi yaproqlarni uchirib ketdi. Prezident oyoqqa qalqdi va gulchi ayoldan gul sotib olish o'rniga, bog'dagi tuvaklarda o'sayotgan dastorguldan bittasini uzib, ko'kragiga taqib oldi. Gulchi hayron bo'ldi.

– Bu gullar tangrining moli emas, – dedi u norozi bo'lib. – Bu gullar poshsholikniki.

U pinagini ham buzmadi. Hassasining o'rtasidan tutib, biroz oliftalarcha o'ynatgancha katta-katta va shaxdam qadam tashlab uzoqlashdi. Mon-Blansh ko'prigi ustiga osilgan Konfederatsiya bayroqlarini shamol yirtmasin, deya shosha-pisha yig'ishtirib olishgan, ko'pirib yotgan baland favvorani oldindanoq bekitishgan edi. Prezident sohilda joylashgan o'ziga yaxshi tanish qahvaxonani tanimay qoldi – yashil matodan qilingan bostirmaning avvalboshdanoq yig'ishtirib olishgan, endi bo'lsa, gultuvaklar joylashtirilgan ayvonni bekitayotgan edilar. Kuppa-kunduz bo'lishiga qaramay, zalda chiroqlar yonib turardi, cholg'uchilar allaqachon Motsart kuylarini ijro etishga kirishgandilar. Prezident peshtaxtada mijozlarga atab qo'yilgan gazetalardan bittasini oldi, hassasi va shlyapasini ilgichda qoldirdi, stulga o'tirib o'qishga chog'lanarkan, tilla gardishli ko'zoynagini taqdi va shundagina kuz kirganini tushundi. U xalqaro sahifadan boshlab o'qiy boshladi. Bu yerda Lotin Amerikasi mamlakatlari haqidagi xabarlar juda kam edi. U ofitsiant qiz, odatdagidek, unga bir shisha «Evi-an» mineral suvi keltirguncha, shu tariqa oxirgi sahifadan to birinchi sahifagacha o'qiyverdi. Mana, o'ttiz yil bo'libdiki, u vrachlar tayinlagani uchun qahva ichish odatidan voz kechgan. Lekin o'ziga-o'zi: «Qachon o'lishimni aniq bilganimdan keyinoq yana qahva ichishni boshlayman», derdi. Ehtimol, o'sha vaqt kelgan ham bo'lsa kerak.

– Menga qahva ham keltirsangiz, – deb buyurdi u fransuzchani qoyillatib. Tortinmay qochirim ham qilib qo‘ydi, – o‘liklarni ham tiriltiradigan italyanacha xilidan bo‘lsin.

U qahvani shakar aralashtirmasdan, qultumlab uzoq ichdi, so‘ngra finjonni taqsimchaga to‘nkardi. Necha yillardan beri qilmagan ishini qilib, qahva quyqasiga qarab, taqdirida nimalar borligini bilmoqchi bo‘ldi. Qahvaning tanish mazasini yana his qilganicha, bir lahzaga og‘ir xayollardan chalg‘idi. Ko‘p o‘tmay, xuddi o‘sha afsungarlik davom etayotganday, kimdir unga tikilib turganini his qildi. U go‘yo ittifoqo qilganday sahifani ag‘dararkan, ko‘zoynak ustidan qaradi va sportchilar qalpog‘i, ag‘darma teri kurtka kiyib olgan, soqoli olinmagan rangpar yigitni ko‘rdi. Yigit ko‘zlari to‘qnash kelmasligi uchun shu zahotiy oq boshqa tomonga qaradi.

Uning yuzi tanish edi. Ular kasalxonada ayvonida bir necha bor to‘qnash kelishgandi. Bundan ta‘shqari, oqqushlarni tomosha qilib o‘tirganida, bu yigitning Promenad-dyu-Lak ko‘chasidan yengil mototsikl haydab o‘tganini ko‘rgandi. Lekin biron marta bu yigit uni tanishini his qilmagan edi. Biroq u shunchaki xomxayolga, quvg‘in tufayli paydo bo‘lgan ta‘qib vasvasasiga berilgan bo‘lishi ham ehtimoldan yiroq emasdi.

U Bramsning nafis kuylaridan huzurlanib, og‘riq musiqaning uyushtiruvchi kuchidan ustun chiqqunga qadar shoshilmay gazeta o‘qidi. Shundagina u nimchasining cho‘ntagida olib yuradigan zanjirli oltin soatini olib qaradi va tush payti ichishi lozim bo‘lgan ikkita habdorini «Evian» ning qolganqutgan qultumi bilan yutdi. Ko‘zoynagini olishdan oldin u qahva quyqasiga qarab, fol ochmoqchi bo‘ldi va seskandi: tamoman mavhum!

Nihoyat, hisob-kitob qildi, gadoga berayotganday ozgina choychaqa tashladi, ilgichdan hassasi va shlyapasini olib, ko‘chaga chiqdi. Orqasidan kuzatayotgan odamga qayrilib ham qaramadi. U shaxdam qadamlar bilan nari ketdi, shamolda singan gultuvaklarni aylanib o‘tdi va shayton vasvasasidan qutulishga muvaffaq bo‘ldim, deb o‘yladi. Biroq orqasidan

kimdir kelayotganini qoʻqqisdan sezdi: muyulishga qayrildi, toʻxtadi va xiyol oʻgirildi. Taʻqib qilib kelayotgan kishi unga urilib ketmaslik uchun birdan toʻxtadi va shundoqqina roʻparasida prezidentga baqraygancha qoʻrquvdan qotib qoldi.

– Sinor prezident, – gʻuldiradi u.

– Sizni yollaganlarga borib ayting, xomxayolga berilib yurmasinlar, – dedi prezident jilmaygancha maftunkor ovozdada. Sogʻligʻim aʻlo.

– Buni mendan yaxshiroq biladigan odamning oʻzi yoʻq, – dedi notanish kishi prezidentning salobati ostida ezilib. – Men kasalxonada ishlayman.

Uning lahjasi ham, soʻzlash ohangi ham, hatto, jurʻatsizligi ham sof karibcha edi.

– Nahotki, vrach boʻlsangiz? – soʻradi prezident.

– Endi bunga yetti qovun pishigʻi bor, – dedi yigit. – Men «Tez yordam» shofyoriman.

– Hamdardlik bildiraman, – dedi prezident yanglishganiga ishonch hosil qilib. – Koʻp ogʻir ish.

– Siznikichalik ogʻir emas, senor.

Prezident uning koʻzlariga tik qaradi, ikkala qoʻli bilan hassasiga suyandi va samimiy qiziqish bilan soʻradi:

– Siz qayerdانسiz?

– Karibdanman.

– Buni allaqachon sezdim, – dedi prezident. – Qaysi mamlakatdan?

– Sizning mamlakatingizdan, senor, – dedi yigit va qoʻlini uzatdi. – Mening ismim Omero Rey.

Hayratga tushgan prezident uning qoʻlini qoʻyib yubormay, soʻzini boʻldi:

– Jin ursin! Bu qanday sharaffli ism!

Omero tin oldi.

Bu hali hammasi emas, – dedi u. – Omero Rey-de-la-Kasa.

Koʻcha oʻrtasida ochiqda qolgan suhbatdoshlarni izgʻirin zabtiga oldi. Prezident suyak-suyagigacha qaqqshab ketdi va

paltosi bo'lmagani uchun ikki kvartal naridagi arzon oshxonaga piyoda yetib borishga kuchi yetmasligini tushundi. U odatda o'sha yerda ovqatlanardi.

– Tushlik qildingizmi? – deb so'radi Omerodan.

– Men hech qachon tushlik qilmayman, – javob berdi Omero. – Faqat bir marta, kechqurun uyda ovqatlanaman.

– Bugun istisno qilaqoling, – dedi prezident, imkon qadar samimiylilik bilan. – Sizni birga ovqatlanishga taklif qilaman.

Shunday dedi-yu, uni qo'ltiqlagancha ko'chaning narigi tomonidagi restoranga boshladi. Restoranning kanop bostirmasi ustiga «e BoeciG' Soigoppe»l degan nom zarhal harflar bilan yozig'liq edi. Ichkari tirband va issiq, aftidan bironta ham bo'sh joy qolmagandi. Prezidentni hech kim tanimayotganiga hayron qolgan Omero ko'mak istab, zal to'riga yo'naldi.

– Amaldagi prezidentmi? – deb so'radi restoran xo'jayini.

– Yo'q, – deb javob berdi Omero. – Ag'darilgani.

Xo'jayin ma'qullash ohangida kulimsiradi.

– Bundaylar uchun, – dedi u, – men doim joy olib qo'yaman.

Xo'jayin ularni zalning uzoq burchagiga o'tqazdi. Bu yerda

ular xohlagancha suhbatlashib olishlari mumkin edi. Prezident xo'jayinga minnatdorchilik bildirdi.

– Quvg'indagilarni sizga o'xshab hurmat qilish hamma-ning ham qo'lidan kelavermaydi, – dedi u.

Ko'mir cho'g'ida pishirilgan buqa qovurg'asi restoran-ning xos taomi edi. Prezident va mehmoni atrofga qarab, stol-larning ustida nafis yog'ga belangan katta go'sht bo'laklarini ko'rishdi. «Zo'r go'sht, – g'udrandi prezident. – Lekin uni yeyish menga taqiqlangan-da». So'ng, Omeroga diqqat bilan tikilib, endi boshqacha ohangda dedi:

– To'g'risini aytganda, menga hamma narsa taqiqlangan.

– Sizga qahva ham man qilingan, – dedi Omero, – lekin, shunday bo'lsa-da, qahva ichyapsiz-ku.

– Ko‘rib qoldingizmi? – dedi prezident. – Lekin bu istisnoli bir kun. deb qilingan istisno edi.

Bu kun faqat qahva uchun istisno qilingani yo‘q. U buqa qovurg‘asi, faqat zaytun moyi solingan yangi sabzavot salatini buyurdi.

Uning mehmoni ham shularni va yana yarim ko‘za qizil sharob keltirishlarini iltimos qildi.

Go‘sh t kelguncha Omero cho‘ntagidan ichi pul emas, turli qog‘ozlarga to‘lib ketgan hamyonini chiqardi va prezidenta sarg‘ayib ketgan bir fotosuratni ko‘rsatdi. Prezident o‘zini tanidi: u yangi kalta ko‘ylakda, hozirgisidan bir necha funt ozg‘inroq, sochi va mo‘ylovi hozirgisidan ancha qora, nima qilib bo‘lsa ham suratga tushishga uringan yosh yigitlar qurshovida turardi. U bu joyni darhol tanidi, o‘sha la‘nati saylovoldi kompaniyasining ramzini va o‘sha baxtsiz kunni ham esladi. «Jin ursin, – deb g‘ulduradi u. – Men hamisha odam hayotdagiga qaraganda tezroq sur‘atda qariydi deb aytardim». So‘ngra fotosuratni, hamma narsaga chek qo‘ygan odamdek, keskin harakat bilan egasiga qaytardi.

– Juda yaxshi eslayman, – dedi u. – Bu ming yillar oldin San-Kristobal-de-las-Kasas degan ovulda bo‘lgandi.

– Bu mening ovulim, – dedi Omero va suratdan o‘zini ko‘rsatdi. – Mana bu menman.

Prezident uni tanidi.

– Hali bolakay ekansiz!

– Shunday desa bo‘ladi, – dedi Omero. – Men janub safarida doimo sizning yoningizda yurgandim, universitet brigadalariga rahbarlik qilgandim.

Prezident ta‘naning oldini oldi:

– Men bo‘lsam, albatta, sizga e‘tibor qilmaganman, – dedi u.

– Aksincha, siz bizga juda yaxshi munosabatda bo‘lgansiz. Endi, biz ko‘pchilik edik, hamma esda qolmaydi.

– Undan keyin-chi?

– Buni mendan yaxshiroq biladigan bormi? – dedi Omero. – Harbiy to'ntarishdan keyin siz bilan bu yerda buqaning yarmini yemoqchi bo'lib turganimizning o'zi bir mo'jiza. Bunaqa omad hammaga ham kulib boqqani yo'q.

Ularga likop keltirishdi. Prezident, xuddi so'lakay bolalar-day, bo'yniga sochiq osdi va mehmonning sal-pal hayron qolganini sezdi. «Shunday qilmasam, har gal ovqatdan keyin bir galstukdan kechishga to'g'ri keladi», – deb g'ulduradi. Taomga qo'l urishdan oldin go'sht pishgan-pishmaganini tekshirib ko'rdi, so'ng ma'qullab, bosh irg'adi va mavzuga qaytdi.

– Lekin bir narsani tushunolmayotirman, – dedi u. – Mening ketimda ayg'oqchiday izg'ib yurmay, nega oldinroq ro'para bo'lmadingiz?

Shunda Omero prezident kasalxonaning alohida hollarda ochiladigan eshigidan kirgan zahotiyoyq uni taniganini aytdi. Yoz avjida edi. Prezidentning egnida oppoq kanop kostyum, oyog'ida oq-qora tufli, kamzulining qaytarma yoqasida dastorgul, chiroyli sochlarini shamol to'zg'itib yuborgandi. Omero prezident Jenevada yolg'iz ekanini, unga hech kim yordam bermayotganini, Jenevani yuristlikka o'qigan vaqtlaridan buyon besh qo'lday bilishini bilib oldi. Kasalxona direksiyasi, prezidentning iltimosiga ko'ra, unga maxfiylikni ta'minlash uchun tegishli farmoyish bergandi. O'sha oqshomda xotini bilan maslahatlashib olgan Omero prezident bilan uchrashishga qaror qildi. Shunday bo'lsada, qulay fursatni kutib, orqasidan rosa besh hafta poylab yurdi, ehtimol, agar prezidentning o'zi u bilan yuzma-yuz bo'lmaganida, salomlashishga ham yuragi betlamay yuravergan bo'lardi.

– Shunday qilganimdan xursandman, – dedi unga prezident. – Lekin to'g'risini aytganda, yolg'izlik meni ezolmaydi.

– Bu adolatdan emas.

– Nega? – chinakamiga hayron bo'ldi prezident. – Meni unutishlariga erishganim – hayotimdagi eng katta g'alabamdir.

– Biz sizni siz o‘ylagandan ko‘proq eslaymiz, – dedi Omero hayajonini yashirmay. – Sizni mana shunday sog‘lom va yosh ko‘rib turganimizning o‘zi katta gap.

– Holbuki, – dedi prezident bamaylixotir, – hamma narsa yaqinda o‘lishimdan dalolat bermoqda.

– Axir, siz har qanday vaziyatdan chiqa olasiz-ku, – dedi Omero.

Prezident hayratdan sapchib tushdi, bu harakatni u juda nafislik bilan qildi.

– Jin ursin! – xitob qildi prezident. – Nima, go‘zal Shveysariyada vrachlarning sir saqlash qoidasi bekor qilindiganmi?

– Dunyoning bironta kasalxonasida «Tez yordam» shofyorining bilmaydigan siri yo‘q, – dedi Omero.

– Buni atigi ikki soat oldin bu gapni bilishi lozim bo‘lgan yagona odamdan eshitdim.

– Nima bo‘lgandayam, siz bekorga o‘lib ketmaysiz, – dedi Omero. – Sizni yuksak shon-sharaf namunasi sifatida munosib o‘ringa qo‘yadiganlar topiladi.

Prezident o‘zini hayratlanganga soldi.

– Tasalli uchun rahmat, – dedi u.

U ovqatni, hamma ishlarni qanday qilsa shunday, shoshilmay yeyayotgandi va tanovul qilarkan, Omeroning ko‘zlariga tik boqardi. Bundan Omeroga prezident uning fikrlarini ko‘rib bilayotganday tuyulardi. Qo‘msashdan iborat xotiralarga to‘la uzoq suhbat so‘ngida prezidentning yuzida masxaraomuz tabassum zohir bo‘ldi.

– Men jasadimning qismati haqida tashvish tortmaslik haqida bir qarorga kelganday bo‘luvdim, – dedi u. – Lekin endi ko‘ryapmanki, murdamni hech kim topolmasligi uchun detektiv romanlarda yozilganiga o‘xshatib, ba‘zi ehtiyot choralari ko‘rishimga to‘g‘ri keladi, shekilli.

– Befoyda, – deb g‘ulduradi Omero. – Kasalxonalarda bir soat o‘tmay oshkora bo‘lmaydigan birorta sir yo‘q.

Qahvani ichib bo'lishganidan keyin prezident finjon tubida qolgan quyqaga nazar soldi va yana seskandi: quyqadan yana o'sha majhul ma'no chiqqan edi. Shunday bo'lsa-da, pinagini buzmedi. U naqd to'ladi, lekin oldiniga hisobni bir necha bor tekshirib ko'rdi va pulni qattiq diqqat bilan qayta-qayta sanadi, shunchalik arzimagan choychaqa berdiki, ofitsiant qovog'ini solib, to'ng'illab qo'ydi.

– Men haqiqatan ham juda maza qildim, – dedi u yakunida Omero bilan xayrlasharkan. – Operatsiya qachon bo'lishini hozircha bilmayman, operatsiya qildirishga jur'atim yetadimi, yo'qmi, buni ham hozircha bilmayman. Lekin hammasi yaxshi o'tsa, biz yana ko'rishamiz.

– Nega endi undan oldinroq emas? – so'radi Omero. – Xotinim Lasara boylarnikida oshpazlik qiladi. Qisqichbaqali guruch taomini hech kim unchalik zo'r pishira olmaydi. Bir kuni kechki payt mehmonimiz bo'lishingizni biz juda xohlaymiz.

– Dengiz ne'matlari menga man etilgan, lekin shunday bo'lsa-da, zo'r mamnuniyat bilan yegan bo'lardim, – dedi u. – Qachon borishim kerak?

– Payshanba kuni bo'shman, – dedi Omero.

– Juda zo'r, – dedi prezident. – Payshanba kuni kechki soat yettida siznikiga boraman, – mamnuniyat bilan.

– Sizni olib ketgani kelaman, – dedi Omero. – Manzilingiz Oteleri Damedagi Industri ko'chasi, o'n to'rtinchi uyda. Vokzal ortida. To'g'rimi?

– To'g'ri, – dedi prezident va tavoze bilan o'rnidan turdi. – Ko'ryapmanki, hatto, tuflimning razmerini ham bilasiz.

– Albatta, senor, – dedi Omero mamnun bo'lib, – qirq birinchi.

Lekin Omero Rey prezidentga bir gapni aytmadi. Keyinchalik u uzoq yillar mobaynida eshitgisi kelgan har bir kishiga bu gapni takrorlab yurdi: dastlab uning niyati unchalik yaxshi bo'lmagandi. Kasalxonaning barcha haydovchilari singari, u dafn idoralari va sug'urta kompaniyalari bi-

lan bemorlar, ayniqsa, kambag'al ajnabiylar haqida kelishib qo'ygan edi. Bundan keladigan daromad aytishga arzigulik emasdi, buning ustiga bu pulni og'ir bemorlar to'g'risidagi maxfiy ma'lumotlarni og'izdan-og'izga yetkazadigan boshqa xizmatchilar bilan baham ko'rishga to'g'ri kelardi. Lekin shunga qaramay, hech qanday istiqboli yo'q va xotini hamda ikkita bolasi bilan arzimagan maoshga amal-taqal qilib kun kechiradigan qochoq uchun bu biroz madad edi.

Uning xotini Lasara Devis ancha tadbirli edi. U San-Xuandan chiqqan tipik Puerto-rikolik duragay ayol bo'lib, to'ladan kelgan, past bo'yli, terisi jigarrang, quturgan qanjiqnigiga o'xshagan ko'zlari fe'l-atvorgiga juda mos edi. Ular bemorlar shafqat yuzasidan tekin davolanadigan bo'limda tanishgandilar. Qizni vatandoshi bo'lgan bir sudxo'r Jenevaga egnalilik qilishga olib kelgan, keyin tashlab ketgandi. Shundan keyin u navbatchi sanitar bo'lib ishga kirgan edi. Garchi qiz yoruba qabilasiga mansub malika bo'lsa-da, ular katolik marosimiga ko'ra turmush qurishgandi. Ular afrikalik muhojirlar yashaydigan liftsiz to'qqiz qavatli uyning sakkizinchi qavatida joylashgan ikki xona va bir mehmonxonadan iborat xonadonda istiqomat qilishardi. Ularning to'qqiz yoshli Barbara ismli qizi, yetti yashar Lasaro ismli o'g'li bo'lib, o'g'lida aqliy zaiflik alomatlari bor edi.

Lasara Devis aqlli, badfe'l, lekin botinan mushfiq ayol edi. U o'zini aniq-tiniq Buqa burjiga mansub deb hisoblar va yulduzlar bashoratiga ko'r-ko'rona ishonardi. Biroq uning millionerlarga fol ochib pul ishlash orzusi amalga oshmagandi. Aksincha, u boyvuchcha xonimlarga taom pishirib, tasodifan ishlab topgan pullari hisobiga ro'zg'or tebratib, ba'zan bu daromadlar tuzukkina bo'lardi. Bu boyvuchchalar mehmonlarini ishtaha qitiqlovchi antilcha ovqatlar bilan siylashar, ularni o'zim pishirganman, deb maqtanar edilar. Omero risoladagidan chetga chiqmaydigan tortinchoq odam bo'lib, qilayotgan ishidan boshqa narsa qo'lidan kelmasdi. Shun-

day bo'lsa-da, Lasara hayotini usiz tasavvur qilolmas, pokiza qalbli va to'shakda ayg'irdek bo'ladigan erini qadrlar edi. Yil o'tgan sayin hayot og'irlashib borayotgan, bolalar voyaga yetayotgan bo'lsa-da, qiyin- chiliklarga qaramay, ular totuv yashashardi. Prezident paydo bo'lgan vaqtga kelib, ular besh yil davomida yiqqan pullarini oz-ozdan sarflashga kirishgan edilar. Shuning uchun ham Omero Rey prezidentni kasalxonada maxfiy kasallar orasida ko'rdi deguncha, ishtahalari karnay bo'lib ketgandi.

Ular prezidentdan bu ishni qanday va qaysi huquqqa asosan iltimos qilishlarini aniq bilmasdilar. Avvaliga jasadni mo'miyolash va vatanga jo'natishni ham hisobga olgan holda butun dafn ishlarini taklif qilmoqchi bo'lishdi. Keyinchalik asta-sekin prezident dastavval tuyulganidek, tez orada o'lmasligini tushunishdi. Mehmon chaqirishgan kuni ular gumonlar girdobida qolishgandi.

To'g'risini aytganda, Omero universitet brigadalarining boshlig'i bo'lmagandi, bunaqa gap asti bo'lmagan ham, saylov kompaniyasida ham atigi bir marta, mana shu fotosurat olingan kuni ishtirok qilgan edi, xolos. Fotosuratni javonda qalashib yotgan eski qog'ozlar orasidan zo'rg'a qidirib topishgandi. Lekin uning hissiyotlari qizg'in va samimiy edi. U haqiqatan ham harbiy to'ntarishga qarshi ko'chalardagi qarshilik harakatida qatnashgani uchun mamlakatdan qochishiga to'g'ri kelgan, lekin Jenevada bunchalik uzoq yashashining sababi bor-yo'g'i quyonyurakligi edi, xolos. Yolg'on kattaroq bo'ladimi, kichikroq bo'ladimi, nima farqi bor, prezidentning mehrini qozonish yo'lini topsa bo'ldi-da.

Har ikkalasi uchun ham birinchi kutilmagan yangilik: mashhur qochoq ko'rimsiz Grott dahasidagi to'rtinchi toifa mehmonxonada, osiyolik muhojirlar va fohishalar orasida yashar hamda arzon oshxonalarda ovqatlanardi. Vaholanki, quvg'inga uchragan siyosatchilar uchun Jenevada munosib rezidensiyalar tiqilib yotibdi. Omero prezident ular tanish-

gan kunda nima qilgan bo'lsa, har kuni shunday qilganini o'z ko'zi bilan ko'rdi. Prezident eski shaharning vahimali, sariq qo'ng'iroqgullar chirmashgan devorlari orasida qiladigan sayrlarida Omero uni kuzatib borar, ba'zan ehtiyotsizlik qilib, masofani qisqartirib qo'yardi. U prezidentning Kalvin haykali poyida soatlab o'yga cho'mib turishlarini ko'rdi. Uning orqasidan yasminlarning issiq bo'yidan nafasi tiqilay-tiqilay deb, tosh zinapoyalardan Bur-de-Fur tepaligiga qadam-baqadam ko'tarilar, yozgi quyoshning asta-asta botishini tomosha qilardi. Bir kuni kechki payt uni paltosiz va shamsiyasiz, yomg'ir ostida Rubinshteyn konsertiga bilet olmoqchi bo'lib turgan talabalar orasida ko'rdi. «Shamollab qolmaganiga hayronman», dedi Omero xotiniga. Yaqinda, havo ayniy boshlagan shanba kuni prezident quvg'indagi amirlar savdo qiladigan Ryu-de-Ron ko'chasidagi hashamatli magazindan emas, balki eski-tuski bozoridan sun'iy mo'yna yoqali kuzgi palto sotib olganini ko'rdi.

– Demak, bosh qotirib o'tirishning keragi ham yo'q! – xitob qildi Lasara Omero bu haqda so'zlab berarkan. – O'taketgan qurumsoq ekan. U o'zini davlat hisobiga umumiy mozorda dafn qildirsa kerak. Biz hech qachon undan bir chaqa ham undira olmaymiz.

– Balki u haqiqatan ham qashshoqdir! – dedi Omero. – Necha yillardan beri ishsiz!

– Men senga shuni aytayki, Baliq burji ostida tug'ilgan kishilarning hammasi ham unga o'xshab suvdan quruq chiqishni eplasholmaydi, – dedi Lasara. – Davlatning oltinlarini o'marib ketganini va Martinikadan chiqqan eng boy odam ekanini hamma biladi.

Xotinidan o'n yosh katta bo'lgan Omero prezident Jenevada o'qigan vaqtlari qurilishda oddiy ishchi bo'lib ishlaganini bilar va shu taassurot ostida o'sib-ulg'aygandi. Lasara esa, aksincha, prezidentga dushman bo'lgan matbuotning shov-shuvli fosh etishlari muhitida o'sib katta bo'lgandi. Bu

shov-shuvlar u yoshligidan enaga bo'lib ishlagan prezident dushmanining xonadonida yanada bo'rttirilardi. Shuning uchun ham Omero prezident bilan ovqatlanganidan boshi ko'kka yetib qaytgan kuni prezidentning Omeroni qimmat restoranga taklif qilgani Lasara uchun asosiy narsa bo'ldi. Omeroning o'zlari orzu qilgan narsalarning birontasi – na bolalar uchun nafaqa, na o'zi uchun kasalxonada tuzukroq ish so'ramagani unga ma'qul bo'lmadi. Lasaraning gumonlari to'g'ri bo'lib chiqdi: prezident mullajiringlarini jasadini munosib tarzda dafn qilishga va shon-sharaf bilan vataniga qaytarishga sarflashdan ko'ra, murdasini quzg'unlarga tashlashlarini afzal ko'radi, shekilli. Omero gapning so'ngiga asrab qo'ygan xabar – prezidentni payshanba kuni qisqichbaqali guruch tanovul qilishga taklif etgani Lasaraning sabr kosasini toshirib yubordi.

– Bizga shu yetmay turuvdi, – bo'kirdi Lasara, – qisqichbaqa konservasidan zaharlanib shu yerda o'lib qolsa va bolalarga asrab qo'ygan arzimagan pulimizni uni ko'mishga sarflamasak go'rga edi.

Shunday bo'lsa-da, xotinlik burchiga sodiq qoldi. Qo'shni ayoldan uchta melxior qoshiq-pichoq, shisha salatdon, boshqasidan elektr qahva qaynatgich, uchinchisidan kashtali dasturxon va xitoycha qahva finjonlari olib turishga to'g'ri keldi. U eski pardalarni yangisiga almashtirdi, holbuki, ularni faqat bayram kunlari osardi. Mebellarning g'ilofini olib tashladi. Kun bo'yi pollarni yuvib tozaladi, changlarni artdi, narsalarini u yoqdan-bu yoqqa surdi. Xullas, oxir-oqibat natija niyatining tamomila teskarisi bo'lib chiqdi, vaholanki, u halolligi uchun kambag'al yashashlarini ko'z-ko'z qilib, prezidentning ko'nglini yumshatmoqchi edi.

Payshanba oqshomi eski palto va urfdan qolgan shlyapa kiyib olgan, qo'lida Lasaraga atalgan atirgul ushlagan prezident sakkizinchi qavatga ko'tarilib, nafasini rostlab olgach, ostonada hozir bo'ldi. Lasara uning mardonavor qiyofasi va

o'zini zodagonlarga xos tutishidan hayratda qoldi, lekin, bari-bir uni qanday xohlagan bo'lsa, shunday ikkiyuzlamachi va yirtqich deb topdi. Prezident unga qo'pol, beandisha bo'lib ko'rindi, chunki ovqat pishirarkan, uyni qisqichbaqa hidi tutib ketmasin deb, oynalarni lang ochib qo'ygandi, u bo'lsa, ostonadan hatlar-hatlamas, go'yo to'satdan hayratga tushganday ko'zlarini yumdi va qo'llarini yozib: «O'h, dengizimizning bo'ylari!» deya xitob qildi. U Lasaraga xasislarning xasisi bo'lib tuyuldi, chunki atigi bir dona atirgul keltirgan edi. Uniyam, albatta, jamoat bog'idan o'g'irlagan. U takabbur bo'lib tuyuldi, chunki uning sobiq shon-shuhrati haqida gazeta qiy-qimlarini, saylovoldi kampaniyasi vimpellari va bayroqchalarini nafrat bilan ko'zdan kechirdi. Ularni Omero soddadillik bilan mehmonxona devorlariga osib chiqqandi. U Lasaraga bag'ritosh bo'lib tuyuldi, chunki o'z qo'llari bilan prezidentga sovg'a tayyorlagan Barbara va Lasaro bilan, hatto, salomlashgani ham yo'q, buning ustiga ovqat payti gap orasida ikki narsa – itlar va bolalarga toqati yo'qligini qistirib o'tdi. Lasara uni yomon ko'rib qoldi. Biroq karibcha tug'ma mehmondo'stlik taassub ustidan ustun chiqdi. Lasara bayramlarda kiyiladigan afrikacha keng va uzun chophonini egniga ildi, o'zining bor muqaddas taqinchoqlari, bilaguzuklarini taqdi, dasturxon ustida bironta ortiqcha qiliq qilmadi, ortiqcha gap aytmadi. U faqat bekamiko'stlik emas, balki, baayni, mukammallik tim-soli edi.

To'g'risini aytganda, qisqichbaqali guruch uning oshpazlik san'atining shoh asari emasdi, lekin u bor hunarini ishga soldi va natijada taom juda zo'r bo'lib chiqdi. Prezident, garchi uy egalarining qo'msash to'la xotiralariga qo'shilmasa-da, maqtay-maqtay likopchasini ikki marta guruchga to'ldirdi, yetilgan bananlar, qovurilgan bo'laklar va avakado salatidan boshi osmonga yetdi. Lasara shirinlikka gal kelguncha va Omero Parvardigor barhaqligi masalasining mohiyatiga yetib bormasdanoq butunlay chalkashib qolgunga qadar sabr bilan tingladi.

– Men Xudoning borligiga ishonaman, – dedi prezident, – lekin u odamlarning ishiga aralashmaydi. Uning o‘z ishlari bor.

– Men bo‘lsam, faqat yulduzlarga ishonaman, – dedi Lasara prezidentning yuzida zohir bo‘lgan qiziqishdan boshi osmonga yetib. – Tug‘ilgan kuningiz qachonligini ayting.

– O‘n birinchi mart.

– O‘zim ham shunday deb o‘ylagandim, – dedi Lasara shodon ovozda va tavoze bilan so‘radi: – Bir dasturxon ustida ikkita baliq ko‘plik qilmasmikan?

Erkaklar Xudo to‘g‘risida suhbatni davom ettirdilar, Lasara qahva qaynatish uchun oshxonaga ketdi. Dasturxondagi ovqat qoldiqlarini u allaqachon yig‘ishtirib olgan va mehmondorchilik yaxshilik bilan tugashini juda xohlayotgandi. U qahvani ko‘tarib mehmonxonaga kirar ekan, gap davomida prezident aytgan gapdan qotib qoldi:

– Hech shubhalanmang, aziz do‘stim, agar men yana prezident bo‘lsam, badbaxt mamlakatimiz uchun eng katta falokat bo‘lardi.

Omero xitoy finjonlari va qarzga olingan qahva qaynatgichni ko‘targancha ostonada qotib qolgan Lasarani ko‘rdi va u hozir hushdan ketib yiqilsa kerak deb o‘yladi. Prezident ham ayolga qarab qo‘ydi.

– Menga bunaqa qaramang, senora, – dedi u yumshoq-qina qilib. – Men samimiy gapiryapman. – So‘ng Omeroga o‘girilib, so‘zini yakunladi: – Tentakligim bois mana shunday kunlar boshimga tushgani ko‘p yaxshi bo‘ldi.

Lasara qahvalarni tarqatdi, ayovsiz yog‘du suhbatga xalaqit bermasligi uchun, stol ustidagi chiroqni o‘chirdi. Mehmonxonaga farahbaxsh g‘ira-shira qorong‘ulik cho‘kdi. Nihoyat mehmon Lasarada qiziqish uyg‘otdi – gapga chechanligi uning qayg‘u-hasratini pardalay olmayotgandi. Prezident qahvani ichib bo‘lgach, finjonni likopchaga to‘nkarib qo‘yganda Lasaraning qiziqishi yanada ortdi.

Shirinlikni tanovul qilishgach, prezident ularga quvg'inda yashash uchun nega Martinikani tanlaganini aytib berdi: chunki u shoir Eme Sezer bilan do'st edi – u o'sha kunlari «Sahier d'un retour au pays natal» kitobini chop ettirgan va yangi hayot boshlashi uchun prezidentga yordam qilishi mumkin edi. Xotiniga qolgan meros pullariga ular For-de-Frans tepaligidagi qimmatbaho yog'och uyni sotib olishdi. Uyning derazalariga simto'r tutilgan, dengizdan yoqimli shabada esgan, stol ustida shakarqamish romiga to'la stakan turgan, chirildoqlar sayrayotgan vaqtlarda dengizga qaragan va jo'n gullarga to'la ayvonda mudrash juda orombaxsh edi. U bu yerda o'zidan o'n to'rt yosh katta bo'lgan, bor-yo'g'i bir marta tuqqan vaqtdan buyon kasal xotini bilan azaliy nuqsoni – lotin klassiklarini originalda o'qish bilan taqdirdan qochib, o'z umrining oxirgi, yakuniy bosqichini boshidan kechirayotganiga ishonib yashadi. Ko'p yillar mobaynida sanoqsiz vasvasalarga qarshi bardosh berishiga to'g'ri keldi. Tor-mor qilingan tarafdorlari unga qanday qaltis avantyuralarni taklif qilishmadi.

– Men bironta maktubni ochib ko'rganim ham yo'q, – dedi u. – Eng oshig'ich narsalar bir haftadan keyin unchalik oshig'ich bo'lmay qolishi, ikki oydan so'ngra esa, hatto bu xabarni yozgan kishilar ham uni unutishlarini tushunib yetganimdan so'ng bu maktublarni biron marta ham ochganim yo'q.

U olov shu'lasida Lasaraga qaradi. Ayol chekayotgan edi va u ochko'zlarcha sigaretani tortib oldi. Qattiq tortdi va tutunni tomog'ida ushlab turdi. Hayron bo'lgan Lasara sigareta qutisi va gugurtni olib, yangidan tutatmoqchi bo'ldi, lekin u sigaretani qaytarib berdi.

– Siz shunday huzurlanib chekyapsizki, nafs qutqusiga bas kelolmadim, – dedi u. Shunday derkan tutunni chiqarishga to'g'ri keldi va yo'tal tutdi. – Bu qusurdan ko'p yillar oldin voz kechgandim, lekin u mendan kechgani yo'q, – deb qo'ydi u. – Ko'pincha u g'olib keladi. Xuddi hozirgiday.

Yo'taldan uni bir necha bor qaltiroq tutdi. Og'riq paydo bo'ldi. Prezident chog'roqqina cho'ntak soatiga qaradi va oqshomgi ikkita hab dorisini ichdi. So'ngra qahva finjoni tubini diqqat bilan tekshirdi: yana hech narsa o'zgarmagan, biroq u endi seskanmadi.

– Sobiq tarafdorlarimning ba'zilari mendan keyin prezident bo'lishdi. – dedi u.

– Sayago, – dedi Omero.

– Sayago va boshqalari, – dedi u. – Hammasi menga o'xshab munosib bo'lmagan sharafni, eplay olmaydigan lavozimga qo'shib tortib olishdi. Ayrimlari faqat hokimiyatga, ko'pchilik bo'lsa, bundan ham kamrog'iga, mansabga intilishdi.

Lasaraning jahli chiqdi.

– Siz haqingizda nimalar deyishlaridan xabaringiz bormi? – deb so'radi undan.

Cho'chib ketgan Omero gapga aralashdi:

– Bu gaplarning hammasi yolg'on.

– Ham yolg'on, ham rost, – dedi prezident bamaylixotir. – Prezident haqida gap borganida eng dahshatli ig'vo ayni vaqtda unisi ham, bunisi ham: rost ham, yolg'on ham bo'lishi mumkin.

Quvg'inlik yillarida u rasmiy gazetalardagi kamchil ma'lumotlarni hisobga olmaganda, tashqi dunyo bilan hech qanday aloqa qilmasdan, Martinikada yashadi. Kun ko'rish uchun davlatga qarashli litseyda ispan tilidan dars berdi, goh-goh Eme Sezer berib turgan narsalarni tarjima qildi. Avgust oyining issig'iga chidab bo'lmadi, u yotoqxonasidan chiqmay, osma to'r belanchakda peshingacha shamolparrakning bir maromdagi shovqini ostida o'qib yotardi. Quyoshdan saqlanish uchun sun'iy mevalar va gullar bilan bezatilgan, ayvoni keng somon shlyapa kiyib olgan xotini, hatto, kunning eng jazirama pallasida ham erkin qushlarni boqish bilan shug'ullanardi. Jazirama susaygan vaqtlari salqin ayvonda o'tirish rohat bo'lardi. U qosh qoraygan pallada qimirlamay dengizni,

yirtiq shlyapa kiygan, barcha barmoqlariga yirik toshli uzuklar taqib olgan xotini esa, tebranma to'rt kursiga yastangancha yonlaridan suzib o'tayotgan jahon kemalarini tomosha qilardi. «Bu Puerto-Rikodan kelyapti, – deb qo'yardi u. – To'ldirib banan ortgani uchun zo'rg'a imillab kelayotgan bunisi bo'lsa, Puerto-Santodan». Qadrdon o'lkasidan boshqa mamlakatlarning kemalari ham bu yerdan o'tishi mumkinligi uning xayoliga ham kelmasdi. Prezident hamma narsaga loqayd edi, lekin unutish borasida, harqalay, xotini undan ham o'tib tushdi, u xotirasini yo'qotdi. Quyosh botib, qosh qoraygunga qadar ular shunday o'tirishar, shundan keyin hasharotlar hujumidan qochib, uyga kirishardi. Ana shunday avgust kunlaridan birida gazeta o'qiyotgan prezident hayratdan sakrab turdi:

– Jin ursin, bu qanaqasi?! Men Estorileda o'lgan emishman!

Yaxshigina mudrayotgan xotini qo'rqib ketdi. Shundoqqina biqinlarida, muyulishda bosiladigan gazetaning beshinchi sahifasida olti qator xabar bosilgan edi. Gazetada uning tarjimalari onda-sonda bosilib turar, gazeta mudiri goho ularni ziyorat qilib turardi. Endi shu gazetada uning Lissabonda, Estorileda vafot etgani haqida yozishgandi. Ehtimol, u o'lishni hecham xohlamaydigan yagona joy o'sha yer edi. Xotini esida qolgan yagona xotira – yakka-yu yolg'iz o'g'lining hasratida bir yildan keyin o'ldi. O'g'il otasini ag'darishda qatnashgan va keyinchalik hamtovoqlari tomonidan otib tashlangandi.

Prezident tin oldi.

– Biz ana shundaymiz va taqirdan qochib qutulib bo'lmaydi, – dedi u. – Qit'a dunyoning sevgi nimaligini yetti uxlab tushida ko'rmagan pastkashlaridan homilador, bolalar bo'lsa, hayvoniy yoki qaroqchilarcha zo'rvonlik, bir-birini asti ko'rolmaydigan dushmanlarning og'iz-burun o'pishishlari mevasidir.

U Lasaraning uni ayovsiz tilkalayotgan afrikacha ko'zlariga tik qaradi va ayolni o'zining sinovdan o'tgan quroli – gapga chechanligi bilan maftun qilmoqchi bo'ldi.

– «Metislashtirish», qorishtirish yoki chatishtirish degan soʻz koʻz yoshi bilan qonni aralashtirishni anglatadi. Bunaqa qorishmadan nimani ham kutish mumkin?

Lasara miq etmadi, sukuti bilan uni oʻtirgan joyiga mixladi. Biroq yarim kechga yaqin oʻzini bosib oldi va xayrlashuv oldidan uni tavoze bilan oʻpib qoʻydi. Prezident Omeroning uni mehmonxonagacha kuzatib borishiga yoʻl qoʻymadi, lekin taksi topishga yordam berishiga qarshilik koʻrsatmadi. Qaytib kelgan Omero xotining jahldan jigʻibiyron boʻlganini koʻrdi.

– Uni agʻdarib juda toʻgʻri qilishgan, – dedi xotini. – Borib turgan itvachcha.

Omero xotinini tinchitishga harchand urinmasin, kechani bedor oʻtkazishdi. Lasara prezidentday kelishgan erkakni koʻrmaganini, u oʻta maftunkor va nasldor aygʻirga xos barcha sifatarga ega ekanini eʼtirof qildi. «Qari tullak va tinkasi qurigan boʻlishiga qaramay, hatto hozir ham toʻshakda yoʻlbarsday kuchli boʻlsa kerak», – dedi u. Biroq uning fikriga qaraganda, Xudoning bu neʼmatini u mugʻambirlik yoʻlida isrof qilgan. Uning maqtanchoqligiga, goʻyo mamlakatining eng yomon prezidenti boʻlganman deyishiga toqat qilib boʻlarmidi?! Oʻzini zohid qilib koʻrsatganiga nima deysiz. U Martinikadagi shakar fabrikalarining yarmining egasi ekaniga Lasaraning imoni komil-ku. Hokimiyatni yomon koʻraman deb munofiq-larcha yolgʻonladi, koʻrinib turibdi: dushmanlariga tuproq chaynatish uchun bir lahzaga boʻlsa-da, prezidentlikni qaytarib olish uchun borini beradi.

– Bularning hammasi, – deb xulosa qildi ayol, – bizni oyoqlari ostida koʻrish uchun xolos.

– Bundan unga nima naf? – soʻradi Omero.

– Hech qanday, – dedi Lasara. – Shunchaki noz-firoq – bu illatni toʻydirib boʻlmaydi.

U gʻazabdan shu darajada quturgan ediki, Omero toʻshakda qola olmadi va koʻrpaga oʻralib, divanda uxlab olish uchun

mehmonxonaga ketdi. Uy ichida qip-yalang'och yurishga va uxlashga odatlangan Lasara ham tongga yaqin to'shakdan turdi, qip-yalang'och o'tirgancha, o'ziga-o'zi uzundan-uzoq so'zlandi. Nihoyat, vaqti kelganida u bu istalmagan ziyofatni, zarracha iz qoldirmay, xotirasidan butunlay sidirib tashladi. Ertalab qarzga olingan narsalarni egalariga qaytarib berdi, yangi pardalarni eskilariga almashtirdi, mebellarni o'z joyiga qo'ydi va uy yana kechagi oqshomgacha bo'lgan holatiga, munosib va faqirona ko'rinishga qaytdi. Pirovardida devorlardagi gazeta parchalari va fotosuratlarni, la'nati saylovoldi kampaniyasining bayroqlarini yulib oldi va hammasini axlat qutisiga uloqtirarkan, hayqirdi:

– O'lib ketsin!

Ziyofatdan bir hafta o'tganidan keyin Omero kasalxonaning chiqish eshigi oldida prezidentni ko'rdi. Prezident uni kutib turgan ekan. U Omerodan birga mehmonxonaga borishini iltimos qildi. Ular baland-baland uch qavatni bosib o'tib, yagona derazasi kulrang osmonga qaragan boloxonaga ko'tarilishdi. Xona bo'ylab tortilgan dorda yuvilgan kiyimlar osig'liq edi. Xonaning yarmini ikki kishilik karavot egallagan, bundan tashqari stul, yuz yuvadigan jo'mrak, mo'jazgina bide va oy-nasi tutilgan oddiygina javon ham bor edi. Prezident bularning hammasi Omeroga qanday ta'sir ko'rsatganini ko'rdi.

– Talabalik yillarim o'tgan uy mana shu, – dedi u xuddi kechirim so'raganday. – Men uni oldindanoq, hali For-de-Fransda ekanimdayoq ijaraga oldim.

U duxoba sumkadan qolgan-qutgan zaxiralarini, qimmatbaho toshlar bilan ziynatlangan bir nechta oltin bilaguzuk, uch qator dur shodasi, nodir toshli ikkita tilla zebigardon, avliyolar tasviri tushirilgan tilla zanjirli uchta medal, zumrad isirg'alar, bitta brilliant, bitta yoqut zirak, ikkita ladanli tumor, turli toshlari bo'lgan o'n bitta uzuk, ehtimol qirolichaniki bo'lgan brilliant tillaqoshni olib, to'shak ustiga yoydi. Keyin

maxsus g'ilofdan uch juft kumush zaponka, galstukka qadaldigan ikki juft oltin to'g'nog'ich, yana oq oltin suvi yuritilgan cho'ntak soatini oldi. Nihoyat, poyabzal solinadigan karton qutidan o'zining oltita – ikkita oltin, bitta kumush, qolganlari shunchaki temirdan ishlangan ordenlarini oldi.

– Menda qolgan narsalarning bori shu, – dedi u.

Nima ham qilardi, davolanish haqini to'lash uchun ularni sotishga to'g'ri kelgandi. U Omeroning bu katta sirni saqlagan holda o'ziga yordam berishini xohlayotgan edi. Ammo Omero iltimosni bu narsalarni do'kondan patta olmasdan bajara olmasligini aytdi.

Prezident bu buyumlar xotiniga tegishli ekanini, unga mustamlaka yillaridan, buvisidan meros bo'lib qolganini aytdi. Buvi bo'lsa, o'z navbatida, Kolumbiyadagi tilla konlari hissasini meros tariqasida olgandi. Soat, zaponka va galstuk to'g'nog'ichlari uning o'ziniki. Ordenlar bo'lsa, tabiiyki, oldin hech kimga tegishli bo'lmagan.

– Kimdir bu narsalarga da'vogar bo'ladi deb o'ylamayman, – dedi u.

Omero o'z so'zida turib oldi.

– Unday bo'lsa, – dedi prezident, – hammasini o'zim qilishimdan boshqa choram yo'q.

U xotirjamlik bilan javohirlarni yig'ishtira boshladi.

– O'tinaman, azizim Omero, meni avf eting, faqir prezidentning qashshoqligidan dahshatliroq narsaning o'zi yo'q, – dedi u. – Hatto, tirik yurishning o'zi ham nomaqbul.

Shunda Omeroning qalb ko'zi ochildi va u taslim bo'ldi.

Shu kuni Lasara uyga kech qaytdi. Ostonadan hatlar-hatlamas, mehmonxonada yaltirayotgan javohirlarga ko'zi tushib, to'shagida chayon ko'rganday qotib qoldi.

– Maynabozchilikni bas qil, hoy bola, – dedi u qo'rqa-pisa. Bu narsalar qaerdan kelib qoldi?

Omero hamma gapni tushuntirgandan keyin battar xavotirlandi. U o'tirib olib, javohirlarni go'yo zargardek bitta-bit-

talab sinchiklab tekshira boshladi. Nihoyat, tin oldi. «Aftidan, dunyoning boyligi bo'lsa kerak». Omeroga tikilib qoldi, nima gapligini tushunib yetmoqchi bo'ldi, lekin u gangib qolgandi.

– Jin ursin, – dedi u. – Bu odam to'g'risini aytyaptimi-yo'qmi, qanday tekshirish mumkin?

– Nega endi to'g'risini aytmas ekan? – dedi Omero. – Haligina o'z ko'zim bilan ko'rdim. U kirini o'zi yuvib, xuddi biz singari, xonasida quritar ekan.

– Bu ochko'zlikdan, – dedi Lasara.

– Yoki kambag'allikdan, – dedi Omero.

Lasara yana javohirlarni ko'zdan kechira boshladi, lekin endi oldingiday diqqat qilmayotgandi. Dili vayron bo'ldi. Shunday qilib, ertasiga o'zicha eng qimmat ko'ylaklarini kiygan, bo'yniga taqinchoqlarni osgan, har ikkala qo'lining barmoqlariga, hatto bosh barmog'iga siqqanicha uzuk taqqan, bilaklariga bilaguzuk solgan holda, u javohirlarni sotgani ketdi. «Qani, ko'raylikchi, Lasara Devisdan kim patta so'rar ekan», dedi u gerdayib uydan chiqarkan va kulib qo'ydi. U ataylab hashamatli bo'lmagan odmiroq tilla do'konni tanladi, chunki bu yerda ortiqcha savol berib o'tirmasdan tilla buyum olib-sotishlarini bilardi. Lasarada do'konga kirish uchun qo'rquv bo'lsa-da, shaxdam qadam tashlab kirdi.

Forma kiygan ozg'in va rangpar sarkor uni tavoze bilan kutib oldi, qo'lini o'pib, xizmatga shay ekanini aytdi. Do'konning ichkarisi kunduzgidan yorug' bo'lib, oynalar va yorqin chiroqlardan hammayoq brilliantga to'lib ketganday bo'lib tuyulardi. Lasara hiylasini sezib qolishidan cho'chib, sarkorga deyarli qaramay, do'kon to'riga yo'naldi.

Sotuvchi Lyudovik XV zamonasi uslubiga xos, xususiy peshtaxta sifatida ishlatiladigan uchta stolning biri ortida o'tirishni taklif qildi va oldiga oppoq sochiq yozdi. O'zi bo'lsa uning ro'parasiga o'tirib, kuta boshladi.

– Xo'sh, xizmat?

Lasara uzuklar, bilaguzuklar, dur-u isirg'alarni taqib, osib kelgan javohirlarining barchasini peshtaxta ustida shaxmat

tartibida qo'yib chiqdi. O'zi bu narsalarning haqiqiy qiymatini bilishni xohlayotganini aytdi.

Zargar chap ko'ziga monoklni qistirdi va javohirlarni tekshira boshladi. Tekshirishda davom etar ekan, nihoyat so'radi:

– O'zingiz qayerlik bo'lasiz?

Lasara bunday savolni kutmagandi.

– O senor, – uf tortdi u. – Uzoqdan.

– Men ham shunday bo'lsa kerak, deb o'ylagandim.

Sotuvchi yana jim qoldi, Lasara bo'lsa, sariq ko'zlari bilan unga teshvorguday qilib tikilib o'tiraverdi. Zargar brilliant tillaqoshga alohida e'tibor berdi va uni boshqalaridan ajratib qo'ydi. Lasara xo'rsindi.

– Sizning Parizod ekaningiz ochiq-oydin ayon bo'lib turibdi, – dedi u.

– Bu gapni qayerdan oldingiz?

– Xatti-harakatlaringiz aytib turibdi, – dedi Lasara.

Zargar javohirlarni tekshirib bo'lguncha boshqa hech narsa demadi, so'ngra xuddi oldingiday rasmiy sipolik bilan Lasaraga murojaat qildi:

– Bularni qayerdan olgansiz?

– Buvimdan meros qolgan, – dedi Lasara ovozida betoqatlik ohangi paydo bo'lib. – U o'tgan yili Paramariboda vafo etdi, to'qson olti yoshga kirgandi.

Shunda zargar uning ko'zlariga tikildi.

– Qattiq afsusdaman, – dedi u. – Bu narsalarning yagona qiymati oltinligiga, ya'ni vazniga ko'ra.

U barmoq uchida tillaqoshni ko'tardi. Tillaqosh ko'zni qamashtirguday yaraqlab ketdi.

– Mana shundan boshqasi, – dedi u. – Bu juda qadimiy narsa, balki Misrniki bo'lsa kerak. Agar brilliantlari unniqmanida uning bahosi yo'q bo'lgan bo'lardi. Lekin baribir, u tarixiy ahamiyatga molik. Boshqa taqinchoqlardagi toshlar – safsarlar, zumradlar, opallarning hammasi istisnosiz soxta. Shubhasiz, oldiniga ularning o'rnida haqiqiy toshlar bo'lgan.

– Zargar Lasaraga qaytarib berish uchun javohirlarni yig'ishtira boshladi. – Lekin bu narsalar avloddan-avlodga o'tavergan, haqiqiy toshlar yo'qolib, o'rmini shisha egallagan.

Lasaraning ko'ngli qattiq behuzur bo'lib ketdi, chuqur tin oldi va qo'rquvini bosdi. Sotuvchi unga tasalli berdi:

– Bunaqa ishlar tez-tez bo'lib turadi, senora.

– Bilaman, – dedi Lasara tinchlanib. – Shuning uchun ham ulardan qutulmoqchiman.

Shu chog'da u o'yin tugaganini his qildi va o'zini tutib oldi. Ortiqcha sipogarchilik qilib o'tirmay, sumkasidan zaponka, cho'ntak soatlari, galstuk to'g'nog'ichlari, oltin va kumush ordenlarni, prezidentning barcha qaqir-ququrini olib, stol ustiga qo'ydi.

– Bularni hammi? – so'radi zargar.

– Ha, hammasini, – dedi Lasara.

Unga haqini yap-yangi shveytsariya pullari bilan to'lashdi. Hatto, Lasara pullarning yangi bo'yog'i barmoqlarimni kir qilmasmikan, deb cho'chidi. U pulni sanamay oldi. Zargar bo'sag'ada ayol bilan qanday sipolik bilan salomlashgan bo'lsa, shunday xayrlashdi. Oyna eshikni ochib, uni o'tkazar ekan, xiyol imilladi.

– Oxirgi gapni aytay, senora, – dedi u, – men suvchiman.

Shu oqshomda Omero Lasara bilan birga pulni

mehmonxonaga olib borishdi. Qayta-qayta sanashdan keyin ma'lum bo'ldiki, yana ozroq pul yetmas ekan. Shunda prezident nikoh uzugi, zanjirli cho'ntak soati, zaponka va galstuk to'g'nog'ichini chiqarib, to'shakka qo'ydi.

Lasara nikoh uzugini qaytarib berdi.

– Faqat bu emas, – dedi u. – Xotira sotilmaydi.

Prezident uning vaj-korsonini to'g'ri deb topdi va uzukni barmog'iga taqdi. Lasara cho'ntak soatini ham qaytib berdi.

«Buni ham», – dedi u. Prezident bu gapga qo'shilmadi, lekin Lasara soatni joyiga solib qo'ydi.

– Shveytsariyada kim ham soat sotishi mumkin?

– Biz bittasini sotdik-ku, – dedi prezident.

– Lekin soat bo'lgani uchun emas, tilla bo'lgani uchun olishgan.

– Bunisi ham tilladan, – dedi prezident.

– Ha, shunday, – dedi Lasara. – Lekin siz operatsiya qildir-masangiz ham yashay olasiz, soatsiz yashay olmaysiz.

Garchi prezidentning boshqa, muguz ko'zoynagi bo'lsa-da, Lasara tilla gardishli ko'zoynakni ham olmadi. Ayol buyumlarni kaftida salmoqlab ko'rdi va shubhalarga chek qo'ydi.

– Bo'ldi, – dedi u. – Shular yetadi.

Eshikdan chiqishdan oldin bir og'iz so'zlamay, dorda osig'liq ho'l kiyimlarni yig'ishtirib oldi, quritish va dazmol-lash uchun olib ketdi. Ular mototsiklda, Omero rulda, Lasara orqada uni belidan quchgan holda ketishdi. Oqshom osmon qizg'ish tusga kirganida ko'cha chiroqlari yondi. Shamol daraxtlarning so'nggi yaproqlarini ham uchirib ketdi va ular pati yulingan qushga o'xshab qoldi. Rona daryosi bo'ylab quyiga suzib ketayotgan yuk kemasida radio varanglab, sohil bo'yi ko'chalarini musiqaga to'ldirdi. Jorj Brassen kuylayot-gandi: «Mon amour tient la barre, le temps va passer par la', et le temps est un barbare dans le genre d'Attila, par la' ou' son che`vre passe' l'amour ne repousse pas».

Omero bilan Lasara ashuladan va so'limaydigan sunbul-lar hididan sarmast holda churq etmay ketib borishardi. Biroz vaqt o'tgandan keyin Lasara uzoq uyqudan uyg'onganday bo'ldi.

– Jin ursin, – dedi u.

– Nima demoqchisan?

– Sho'rlik qariya, – dedi u. – Bu hayot degani b...ning o'zginasi!

Keyingi juma kuni, yettinchi oktabrda prezidentni operat-siya qilishdi. Besh soat davom etgan operatsiyadan keyin ham ahvol oldin qanday bo'lsa, shunday muhmalligicha qolaverdi.

Gapning po'stkallasini aytganda, uning tirik qolgani yagona tasalli edi. O'n kundan keyin prezidentni umumiy palataga o'tkazishdi. Endi uni borib ko'rish mumkin edi. U tamomila boshqa: parishon, ozib-to'zgan, siyrak sochlari yostiqa tegishi bilan to'kiladigan odamga aylangandi. Uning birinchi marta bir juft maxsus ortopedik qo'ltiqtayoq yordamida yurishga uringanini ko'rib, kishining yuragi ezilib ketardi. Lasara kechki sanitarkaga pul ketkazmaslik uchun palatada tunab qoldi. Kasallardan biri o'limdan qo'rqib, kechasi bilan baqirib chiqdi. Bedor o'tgan bu kechalar Lasaraning qalbidagi prezidentga nisbatan so'nggi g'azab qoldiqlarini tag-tomiri bilan quritdi.

Prezidentga kasalxonadan chiqishga ruxsat berishganda uning Jenevaga kelganiga roppa-rosa to'rt oy to'lgandi. Prezidentning taqchil mablag'larining tejamkor boshqaruvchisi bo'lgan Omero kasalxona xarajatlarini to'ladi, o'zining «Tez yordam» karetasida uni o'z uyiga olib bordi va ko'makka kelgan hamkasblari bilan uni sakkizinchi qavatga olib chiqdi. Ular prezidentni bolalarning xobxonasiga joylashtirdilar va prezident asta-sekin tuzala boshladi. U harbiylarcha muntazamlik bilan tiklovchi mashqlar qilardi, so'ngra asta-sekin hassasiga suyanib yura boshladi. Lekin endilikda, hatto po'rim kiyimida u tashqi ko'rinishi bilan ham, xulq-atvori bilan ham oldingisiga hecham o'xshamadi. Qish sovug'idan cho'chib (qish qattiq keladi deyishgandi, darhaqiqat, bu keyingi yuz yil ichida eng qahraton qish bo'ldi) vrachlarning yana biroz vaqt kuzatuvda tutish niyatiga qaramay, o'n uchinchi dekabrda Marseldan jo'neydigan kemada uyga qaytishga qaror qildi. Oxirgi lahzalarda yo'lga pul yetmasligi ma'lum bo'lib qoldi va Lasara eriga bildirmay, bolalar uchun yig'ib qo'ygan pulidan ozroq qo'shmoqchi bo'ldi. Ammo qarasa, o'zi o'ylaganidan kamroq pul qolgan ekan. Shunda Omero unga bildirmay, bu pullarning bir qismini kasalxona xarajatini to'lashga sarflaganini tan oldi.

– Mayli, – yon berdi Lasara. – Uni bizning katta o‘g‘limiz deb hisoblab qo‘yaqolamiz.

Qorbo‘ron quturib turgan o‘n birinchi dekabr kuni ular prezidentni Marselga boradigan poyezdga o‘tqazishdi. Uyga qaytib kelishganida esa bolalar xonasidagi kichik javon ustida uning yidolashuv maktubini topishdi. O‘zining nikoh uzugini va marhum xotining sotishni hech qachon xayoliga ham keltirmagan uzugini Barbaraga, zanjirli soatni esa, Lasaraga shu yerda qoldirgan edi. Prezidentning ketadigan kuni yakshanbaga to‘g‘ri keldi va sirdan allaqachon voqif bo‘lgan kariblik ba‘zi qo‘shnilar arfa chaladigan verakruslik sozandalar bilan Kornaven vokzaliga kelishdi. Prezident unniqib ketgan palto va ilgari Lasaraniki bo‘lgan uzun, rangdor sharfda hansirab nafas olayotgan bo‘lsa-da, oxirgi vagonning ochiq tamburida turgan cha bo‘ralab yog‘ayotgan qor ostida birin-ketin kuzatuchilarga shlyapasini silkitib ketdi. Omero qo‘lida prezidentning hassasi qolganini to‘satdan sezib qolganda, poyezd tezlikni oshirgandi. Omero platforma oxirigacha chopib bordi va prezidentning ilib olishi uchun hassani bor kuchi bilan otdi, lekin hassa g‘ildirak tagiga tushib, bo‘lak-bo‘lak bo‘lib ketdi. Bu juda ayanchli manzara edi. Lasaraning eng oxirida ko‘rgani – hassani tutishga uringan, lekin tutolmay qaltiragan qo‘llar va havoda muallaq qolgan, boshdan-oyoq qorga belangan qariyani sharfidan ushlab qutqarib qolgan yo‘l boshlovchi bo‘ldi. Ko‘zlari yoshga to‘la bo‘lsa-da, kulishga uringan Lasara dahshatga tushib, eri tomonga oshiqdi.

– Yo, Xudoyim-ey, – hayqirdi u. – Uni oladigan ajalning o‘zi yo‘q.

Prezident uzundan-uzoq minnatdorchilik telegrammasida yozganiday, manzilga eson-omon yetib borgandi. Keyin bir yildan ko‘proq vaqt ichida ular u haqda hech qanday xabar eshitishmadi. Undan so‘ngra qo‘lda yozilgan olti sahifalik maktub keldi. Bu xatni tamomila boshqa odam yozganga o‘xshardi. Yana ilgari yozilganiga o‘xshash qattiq va ketmas

og'riqlar boshlangan, lekin u bunga parvo qilmay, boriga shukur qilib yashashga qaror qilgan edi. Shoir Eme Sezer unga yaltiroq qadama naqshli hassa sovg'a qildi, lekin u hassa ishlatmaslikka qaror qildi. Mana olti oy bo'ldiki, u muntazam sur'atda go'sht iste'mol qiladi, kuniga yigirma finjon eng achchiq qahva ichadi. Lekin qahva quyqasiga qaramaydigan bo'ldi, chunki ochilgan follarning teskarisi bo'lib chiqdi. Yetmish besh yoshga to'lgan kuni u bir necha qadah zo'r martini-ka romi ichdi va o'zini juda yaxshi his qildi va yana chekishni boshlab yubordi. Albatta, uning ahvoli yaxshilangani yo'q, lekin yomon ham bo'lmadi. Biroq maktub yozishdan asosiy maqsadi adolat va vatan shon-shuhrati uchun yangidan boshlangan harakatga boshchilik qilishdir, balki. Ehtimol, keksalik to'shagida o'lib ketmaslikdek mag'rurona istak uchungi-na vatanga qaytishga harakat qilayotganini ularga bildirish bo'lgandir. Shu ma'noda, deb yakunlagandi u maktubini, Jeneva safari uning uchun tub burilish bo'lgandi.

AVLIYO

Men Margarito Duarteni yigirma yildan keyingina ko'rdim. U hech kutilmaganda Trastevere dahasining sirli tor ko'chalaridan birida paydo bo'ldi. Uni zo'rg'a tanidim: u ispanchani ilgarigiday ravon gapirmas, o'zini qadimgi rimliklardek tutardi. Sochlari siyraklashgan va oqargan. And adabiyot- chilariga xos g'ambodaligidan asar ham qolmagan, motamsaro ust-boshini tashlagan edi. Bir vaqtlar u Rimga ana shunday qop-qora libosda kelgandi. Lekin u bilan suhbatlashar ekanman, asta-sekin xiyonatkor yillar qa'ri ostida pinhon ko'ringan asl qiyofasini, oldin qanday bo'lsa, shunday odamovi, tutumi betayin va toshyo'nuvchi kabi qat'iyatli holda ko'rdim. Bir vaqtlari doim borib turadigan barlarning birida ikkinchi finjon qahva ichishdan oldin ichimni tatalayotgan savolni berishga qaror qildim:

– Hur qiz nima bo‘ldi?

– Hur qiz shu yerda, – dedi u. – Haliyam kutib yotibdi.

Faqat xonanda Rafael Ribero Silva bilan mengina uning so‘zlari zamirida naqadar kuchli tanglik borligini tushunishimiz mumkin edi. Biz uning mojarosini yaxshi bilardik va uzoq yillar mobaynida Margarito Duarte yozuvchilar umr bo‘yi axtaradigan personajning xuddi o‘zi deb hisoblar edik. Uning tarixining intihosi tasavvurimga sig‘magani boisidan shu choqqacha u haqda yozmagan edim.

U Rimga Papa Piy XII hiqichoqqa yo‘liqqan o‘sha fusunkor bahorda kelgandi. Hech narsa – na vrachlar, na duoxonlar va na jodugarlarning mahorati Papaga foyda bermagandi. Duarte Kolumbiyadagi And tog‘lari cho‘qqisida joylashgan Tolima qishlog‘idan ilk bora chetga chiqqandi. Uning butun turish-turmushidan, hatto uxlash tarzidan ham qishloqiligi yaqqol sezilib turardi. Ajoyib kunlarning birida u ertalab qarag‘aydan yasalgan, loklangan, shaklan va hajman violonchel g‘ilofini eslatadigan jomadonini ko‘targan holda bizning konsulxonamizga kirib keldi va konsulga bu g‘aroyib tashrifining boisini bayon qildi. Konsul shu zahotiy o‘zining hamshahari tenor Rafael Ribero Silvaga telefondan qo‘ng‘iroq qildi va Margarito Duarte uchun pansiondan joy ijaraga olishni o‘tindi. Rafael bilan men shu pansionda yashayotgan edik. Margarito Duarte bilan shu tariqa tanishgandim.

Margarito Duarte, hatto boshlang‘ich maktabni ham tugatmagan, lekin badiiy adabiyotga ishtiyoqi, to‘xtovsiz o‘qish unga ancha chuqur ma‘lumot olish imkonini bergandi. Margarito qo‘liga nima tushsa, hammasini, har qanday bosma nashrni bitta qoldirmay o‘qirdi. O‘n sakkiz yasharligida, mahalliy munitsipalitetda mirza bo‘lib ishlayotgan vaqtida u juda suluv qizga uylandi. Ammo xotini ko‘p o‘tmay, tug‘uruq paytida vafot etdi, undan bir qiz dunyoga keldi. Onasidan ham go‘zalroq bo‘lgan qizaloq yetti yoshga kirganida bezgakdan o‘ldi. Biroq Margarito Duartening asl mojarosi u Rimga ke-

lishidan yarim yil ilgari boshlandi. O'shanda to'g'on ko'tariladigan joyga to'g'ri kelgani uchun qishloq qabristonini ko'chira boshlashdi. Barcha hamqishloqlari singari, Margarito yangi qabristonga ko'chirish uchun xesh-aqrabolarining xoklarini kovlashga kirishdi. Xotining jasad chirib yo'q bo'lib ketgandi. Qo'shni qabrda yotgan qizining jasad esa, o'n bir yil o'tganiga qaramay, o'lganida qanday bo'lsa shunday turardi. Hatto, shu darajadagi, tobutni ochgan vaqtlarida jasadga qo'shib ko'milgan yangi atirgullar bo'yi ufurdi. Biroq eng hayratlanarlisi, jasad vaznsiz, qushday yengil bo'lib qolgan edi.

Mo'jizani eshitgan yuzlab kishilar qishloqni bosib ketdi. Shubhaga o'rin qolmadi. Jasadning chirimagani qizchanning, shubhasiz, hurligidan dalolat beruvchi belgi ediki, hatto, mahalliy yeparxiyaning yepiskopi bu mo'jizani Vatikanga havola qilish lozim, degan fikrga qo'shildi. Margarito Duartening shaxsiy ham, hatto mahalliy ham emas, endi umumxalq ishiga aylangan ishini deb Rimga borib jang qilishi uchun mablag' to'plandi.

Osoyishta Parioli dahasida joylashgan pansionda bizga bu haqda gapirib berar ekan, Margarito Duarte o'zining g'aroyib jomadoni burniga osilgan osma qulfni ochdi va qopqoqni ko'tardi. Shu tariqa biz tenor Ribero Silva bilan birga mo'jizaga shohid bo'ldik. Jasad dunyoning ko'pgina muzeylarida ko'rish mumkin bo'lgan burishib-tirishgan mumiyoga mutlaqo o'xshamasdi, kelinchak libosi kiydirilgan qizcha shuncha yil tuproq ostida qolganiga qaramay, osuda uxlayotgandek edi. Qizchanning terisi silliq va sovuq, ochiq ko'zlari tiniq bo'lib, u bizni narigi dunyodan kuzatayotganga o'xshardi. Atlas va boshidagi sun'iy oq gulchambar, teridan farqli ravishda, shafqatsiz vaqt sinoviga dosh berolmagan, lekin qizaloqning qo'liga tutqazilgan atirgullar yap-yangi edi. Jasadni chiqarib olganimizdan keyin qarag'ay jomadonning vazni haqiqatan o'zgarmadi, oldingiday qolaverdi.

Margarito Duarte kelganining ikkinchi kuniyoq yugur-yugurga kirishdi. Oldiniga amaliydan ko'ra ko'proq xayrixohona berilgan diplomatik yordamga suyandi, keyin bo'lsa, Vatikanga kirish yo'lidagi beaded to'siqlarni aylanib o'tish uchun qo'lidan kelgan barcha hiyla-nayranglarni ishlatdi. U xatti-harakatlari to'g'risida gapirishni yoqtirmasdi, lekin ko'p mashaqqatlarni boshdan o'tkazayotganini va harakatlari behudaga ketayotganini bilib turardik. U kirib chiqmagan diniy idora va jamoat fondi qolmadi. Unga diqqat bilan, lekin hayratlanmasdan quloq solishar va darhol vositachilik qilishni boshlashlari haqida va'da berishar, lekin pirovardida hammasi puchga chiqardi. To'g'risini aytganda, bu ishning vaqti emasdi. Muqaddas Minbarga qandaydir aloqasi bo'lgan barcha ishlar keyinga – Papa hiqichoqdan qutulgunga qadar surilgandi. Papaning hiqichog'ini akademik meditsinaning eng taniqli kuchlarigina emas, butun dunyodan yuborilayotgan turli mo'jizaviy vositalar ham tuzata olmayotgan edi.

Nihoyat, iyulning oxirida Piy XII kasaldan forig' bo'lib, Kastelgandolfoga yozgi ta'tilga jo'nab ketdi. Margarito birinchi haftadagi qabul marosimida hur qizni Papaga ko'rsatish umidida o'sha yoqqa jo'nadi. Papa ichkari hovlida, juda pastak balkonda paydo bo'ldi. Margarito, hatto, uning yaxshi bo'yalgan tirnoqlarini ham ko'rdi, Papadan taralayotgan lavanda hidi dimog'iga urildi. Lekin, Margaritoning umidiga xilof ravishda, Papa butun dunyodan kelgan turistlarning yoniga tushmadi, faqat olti tilda ayni nutqni so'zladidi va pirovardida barchani birvarakayiga duo qildi.

Ish paysalga solinavergach, bu bilan Margaritoning o'zi bevosita shug'ullanishga qaror qildi. Shuning uchun ham qariyb oltmish sahifalik maktubni qo'lida yozib, Vatikan devoniga o'zi olib borib berdi, lekin javob olmadi. U shunday bo'lishini kutgan edi, chunki maktubni barcha rasmiyatchiliklarga rioya qilgan holda qabul qilgan amaldor hur qizga ko'z ham tashlagani yo'q, shu yerdan o'tib-ketib yurgan xodimlar

jasadga shunchaki qarab qo'yishdi, xolos. Ulardan biri bultur dunyoning turli joylarida topilgan chirimagan jasadlarni avliyolar safiga qo'shishni iltimos qilib yozilgan sakkiz yuzdan ko'proq maktub olishganini aytib berdi. Shunday bo'lsada, Margarito jasadning vazni yo'q ekanini tekshirib ko'rish va ishonch hosil qilishni undan o'tindi. Amaldor tekshirib ko'rdi, lekin mo'jizani tan olishdan bosh tortdi.

– Bu ommaviy ravishda o'z-o'zini ishontirish hodisasi bo'lishi kerak, – dedi u.

Begim kunlari kamdan-kam bo'sh qolgan vaqtlari va jazirama yakshanba kunlari Margarito xonasida o'tirib olib, kitob ustiga muk tushardi. Unga ketida yurgan ishiga bu kitoblarning nafi tegadigandek bo'lib tuyulardi. Har oyning oxirida uning safariga pul to'plab bergan hamqishloqlariga keyinchalik o'z vaqtida aniq hisobot berish uchun o'z tashabbusi bilan o'quvchilar daftariga qilingan xarajatlar haqida batafsil yozib qo'yardi. Yil oxiriga borib, u xuddi shu yerda tug'ilib o'sganday, Rimning gadoy topmas ko'chalarigacha bilib oldi, ispanchaning and lahjasida so'zlaganday, kam bo'lsa-da, ital-yancha emin-erkin gaplashadigan bo'ldi, cherkov aqidalari, marosimlarini hammadan yaxshiroq bilib oldi. Biroq u sudyalarnikiga o'xshash qop-qora, mash'um ust-boshini, nimchasi va shlyapasini boshqasiga almashtirgunga qadar ancha vaqt kerak bo'ldi. O'sha vaqtlari Rimda maqsad va vazifasi nomalum yashirin jamiyatlarning a'zolarigina ana shunday kiyinguvchi edilar. U hur qiz joylashtirilgan jomadonni ko'targancha kallai sahardan chiqib ketar, kechqurun allamahalda horib-charchagan, to'zgan, g'amgin holda qaytib kelardi. Lekin ko'zlarida hamisha umid uchqunlari porlab turardi. Bu umidvorlik keyingi kunga kuch-g'ayrat bag'ishlard.

– Hur qizlar o'z zamoni va makonida yashaydi, – derdi u.

Men o'sha vaqtlari ilk bora Rimga borgan va Kinematografiya tajriba markazida o'qiyotgan edim. Bu mashaqqatli davrda hayotim mojarolarga to'liq bo'lganini hech qachon unutmay-

man. Biz yashayotgan musofirxona haqiqatan ham zamonaviy bo'lib, Borgeze villasidan ikki qadam narida joylashgandi. Uy be- kasi o'ziga ikkita xona qoldirgan, to'rttasini bo'lsa, chet ellik talabalarga ijaraga bergandi. Biz uni Go'zal Mariya deb atardik. Ayollikning kuz pallasiga qadam qo'ygan juvon hanuz suluv va jo'shqin bo'lib, har kim o'z xonasida o'ziga podsho degan qoidaga qat'iy amal qilardi. Kundalik tashvishlar uning opasi, Antonieta xolaning zimmasiga yuklangan edi. Qanoti bo'lsa, naq farishtaning o'zi bo'lgan bu ayol kun bo'yi tinmay ishlar, chelagi va tuklari qattiq cho'tkasini ko'targancha u yoq- bu yoqqa o'tib qaytaverar, yog' tushsa yalagudek marmar polni qayta-qayta ishqalab yuvaverar edi. Sayroqi qushlar go'shtini yeyishni bizga shu ayol o'rgatdi. Uning eri Bartolino sayroqi qushlarni ovlardi. Bu yaramas odatni u urush vaqtlari orttirgan edi. Pirovardida Go'zal Mariyaning musofirxonasida yashash uchun Margaritoning mablag'i qo'lmaganida bu ayol uni uyiga olib ketdi.

Margaritoning hayot tarzi uchun o'sha sershovqin uydandan batarrog'i topilmasa kerak. U yerda doimo, hatto sahar mardondan nimalardir sodir bo'lib turardi – tong otar-otmas biz Borgeze Villasining hayvonot bog'idagi sherning qattiq o'kirishlaridan uyg'onib ketardik. Tenor Ribero Silva imtiyozga erishdi, rimliklar uning jo'shqin ashula mashqlariga ko'nikishdi. U ertalab soat oltida turib, shifo maqsadida muzday suvga to'latilgan vannada cho'milib olgancha, Mefistofelnikiga o'xshash qoshlari va soqolini tartibga keltirar va o'zini har jihatdan tayyor deb hisoblagandan keyin shotlandcha katak xalatni kiyib, o'zining maxsus atiri sepilgan xitoyi shohi sharfini o'rab olgancha, butun borlig'i bilan, qalban va jisman berilgan holda ashula mashqlarini boshlab yuborardi. U xonasining derazalarini lang ochib qo'yar, u yerdan qish osmonining yulduzlari ko'rinib turardi va ovozi charxlashga kirishardi, oldin eng yaxshi sevgi-muhabbat operalari ariyalaridan parchalarni past ovozda ijro qilar, ovozi asta-sekin kuchayib borar, nihoyat bor ovozi bilan ashula

aytardi. Har kuni ayni hodisa takrorlanardi. U dog'a yetay deb qolganida Borgeze Villasidagi sher o'kirik bilan javob qaytarar, arslonning o'kirigidan yeru ko'k larzaga kelar edi.

– Eh-cy, sen Avliyo Markning o'zi ekansan-ku, figlio mio, – xitob qilardi Antonieta xola chinakamiga hayratga tushib. – Faqat o'sha avliyogina sherlar bilan tillasha olgan.

Lekin bir kuni saharda sher unga javob qaytarmadi. Ribero «Otello»dagi sevgi ductini: «Gia nella notte densa s'estingue ogni clamor»ni kuylay boshladi. To'satdan hovli to'ridan kimdir unga go'zal sopranoda javob qaytardi. Tenor kuylashda davom etdi, har ikkala xonanda shu tarzda ductni oxirigacha to'la-to'kis ijro etishdi. Qo'ni-qo'shnilar zavq-shavqqa to'lishdi, ular tizginsiz sevgining qudratli da'vati uylarini ham tabarruk qilishi uchun derazalarini lang ochib olgandilar. Ribero Silva bu ko'rinmas Dezdemon'a buyuk Mariya Kanilyaning o'zi ekanini eshitgan chog'da, sal bo'lmasa, hushdan ketayozdi.

Menda shunday taassurot tug'ildiki, ayni shu hodisa Margarito Duartening uy hayotiga qo'shilishiga asosiy sabab bo'ldi. O'sha kundan e'tiboran u umumiy dasturxon atrofida hamma bilan birga ovqatlanadigan bo'ldi. Ilgarilari u oshxonada ovqatlanar, Antonieta xola xudoning bergan kuni uni o'zining xos taomi – sayroqi qush go'shtidan pishirilgan qovurdoq bilan siylar edi. Ovqatdan keyingi shirinlik o'rniga italyancha talaffuzni yaxshi o'rganishimiz uchun bizga Go'zal Mariya yangi gazetalarni o'qib berar, o'qir ekan ora-sira zukkolik bilan shunaqangi qo'pol luqmalar tashlab qo'yardiki, kulgidan qotib o'lay derdik. Bir kuni, hur qiz haqida gap ochilganda, u Palermo shahrida katta muzey borligini, u yerda erkaklar, ayollar, bolalarning chirimagan jasadlari namoyish qilinishini, hatto kaputsinlar qabristonidagi bitta mozordan kovlab olingan bir nechta yepiskopning jasadi borligini aytib qoldi. Bu xabar Margaritoni shunchalik hayajonlantirib yubordiki, biz Palermoga yo'l olmagunga qadar tinim bilma-

di. Tasalli beradigan xulosaga kelishi uchun uning odamni dil-gir qilib yuboradigan tasqara mo'amiyolarga to'la zallarga bir nazar tashlashining o'zi kifoya bo'ldi.

– Qilchalik ham o'xshamaydi, – dedi u. – Bularning hammasi jonsiz.

Avgustda tushdan keyin Rim osudalik og'ushiga tushardi. Oftob osmonda qotib qolganga o'xshar, soat ikkilarda ham-mayoqni sukunat bosar, faqat ariqlarda oqayotgan suvning shildirashi eshitalardi, xolos. Buni Rimning haqiqiy sasi desa bo'lardi. Biroq kechki soat oltiga borganda barcha derazalar lang ochilar, u yerdan xonalarga endigina ko'tarilgan shabada bilan sof havo bostirib kirar, shodu xurram olomon faqat bir maqsadda – mushaklar va mototsikllar shovqini, tarvuz sotuv-chilarning baqir-chaqirlari, gullarga burkangan ayvonlardan eshitaladigan sevgi qo'shiqlarini eshitib, hayotdan zavqlanish uchun ko'chalarga toshib chiqar edi.

Xonanda ikkovimiz bunday bayram oqshomlari hecham uxlamasdik. Biz uning «vespa»sida u rulda, men esa orqa o'rindiqda aylanishga chiqib ketardik va muzdekkina badani yozgi oftobda qoraygan fohishalarni olib kelardik. Ular Bor-geze Villasining asriy dafna daraxtlari orasida tentirab yurar, jazirama quyosh ostida ham sandiroqlab yuradigan bedor tu-ristlarni ovlar edilar. Bu kambag'al fohishalar xushro'y va nazokatli bo'lib, o'sha zamondagi ko'pgina italyan ayollari singari harir moviy kofta, pushti ipak ko'ylak kiyar, yashil ro'mol o'rar va yaqinda o'tgan urush yomg'irlaridan ilma-te-shik bo'lgan shamsiyalar bilan o'zlarini oftobdan pana qilar edilar. Ular bilan ko'ngilxushlik qilishdan haqiqatan ham vaqtimiz chog' bo'lardi. Ular o'z kasbining qonun-qoidala-rini hech tap tortmay buzib o'tishar, biz bilan yaqin atrofdagi barga borib, bir finjon qahva ichish bahonasida valaqlashish yoki yollangan foytunga minib park yo'l-kalarida aylanishni, yoxud siri fosh bo'lgan shahzodalari va oqshomlari manejd-a ot o'ynatadigan musibatli jazmanlari ustidan shikoyat qi-

lishni deb yaxshi mijozni qo'ldan chiqarishdan toymas edilar. Yo'ldan adashgan qandaydir amerikalik sayyohlar bilan suhbatlashganlarida biz ularga bir necha bor tarjimonlik ham qildik.

Biz Margarito Duarteni Borgeze Villasiga fohishalarni emas, balki sherni ko'rgani olib bordik. Sher chuqur xandaq bilan o'ralgan kichkina qumloq orolda erkin yurardi. Qarshi qirg'oqda bizni ko'rishi bilanoq, sher bezovtalanib o'kir-di. Bundan qorovul hayron bo'ldi. Bog'da aylanib yurgan kishilar nima gapligini bilish uchun yugurib kelishdi. Tenor tonggi baland dosi bilan o'zini arslonga tanitmoqchi bo'ldi, lekin sher parvo ham qilmadi. Sher barchamizga qarata o'kirayotganga o'xshardi, lekin sher boquvchi xizmatchi u faqat Margaritoga o'kirayotganini aytdi. Haqiqatan ham Margarito qayoqqa o'tsa, sher ham shu tomonga yurar, Margarito ko'zdan g'oyib bo'ldi deguncha o'kirishdan to'xtardi. Sien universitetining mumtoz adabiyot doktori bo'lgan xizmatchi Margarito shu kuni boshqa arslonlarni borib ko'rgan va undan sher hidi kelayotgan bo'lsa kerak, deb xulosa chiqardi. U mutlaqo kurakda turmaydigan ana shu bo'lmag'ur xulosadan boshqa vaj topolmadi.

– Nima bo'lishidan qat'iy nazar, – dedi u, – bu jangovar emas, balki hamdardlarcha o'kirikdir.

Ammo bu g'ayritabiiy hodisa emas, balki bog'da qizlar bilan valaqlashishga to'xtagan payti Margaritoning hayajonlanib ketgani tenor Ribero Silvaga qattiq ta'sir qildi. U bu haqda ovqat mahali gapirib berdi va hammamiz – ayrimlarimiz shumlikka borib, ayrimlarimiz bo'lsa, hamdardlik yuzasidan Margaritoni yolg'izlikdan qutqarish kerak, degan qarorga keldik. Rahmdilligimizdan to'liqlanib ketgan Go'zal Mariya yaltiroq toshli uzuklar bilan bezalgan qo'llarini katta ko'kraklariga mushfiqona bosdi.

– Men bu vazifani azbaroyi rahmdillik yuzasidan bajargan bo'lardim, – dedi u, – lekin baxtga qarshi, nimcha kiygan erkaklarni jinim suymaydi.

Xullas, tenor tushki soat ikkida Borgeze Villasini aylanib, «vespa»sida bir «qushcha»ni olib keldi. Margarito bilan bir soat bo'lishi uchun unga bu qiz juda bopday tuyulgan edi. Tenor qizni o'z xonasiga olib kirib, yechinishni buyurdi, xushbo'y sovun bilan yuvdi, artdi, o'zining xos atirini, soqol olganidan keyin ishlatadigan kamforali kukunni boshdan-oyoq sepdi. Nihoyat, bu yerda ketgan vaqti va Margarito bilan o'tkazadigan bir soati uchun qizga pul to'ladi, keyin nima qilishi lozimligini ikir-chikirigacha tushuntirdi.

Qip-yalang'och parivash yarim qorong'ida, xuddi ro'yo-dagidek, oyoq uchida yurib o'tdi va dahliz to'rida joylashgan yotoqxonaga eshigini ikki marta ohistagina taqillatdi. Oyoq-yalang va yarim yalang'och Margarito Duarte eshikni ochdi.

– Buona sera gionvanotto, – dedi qiz maktab o'quvchisi-ddek shivirlab. – Mi manda il tenore. Margarito zarbani juda munosib qarshi oldi. Eshikni katta ochib, qizni ichkariga kiritdi. Qiz shu zahotiyoq ko'rpaga kirdi, u bo'lsa qizga lozim darajada hurmat bajo keltirish uchun tezda ko'ylagini va tuf-lisini kiyib oldi. Keyin to'shak yonidagi kursiga o'tirib, gap-ga kirishdi. Qiz hayron bo'ldi va bor-yo'g'i bir soat vaqtlari borligi uchun tezroq ishni bitirishi kerakligini aytdi. U o'zini tushunmaganga soldi.

Qiz keyinchalik, baribir u qancha xohlasa, shuncha qol-gan va evaziga bir chaqa ham olmagan bo'lishini, chunki yer yuzida uningday xushmuomala kishi ko'rmaganini e'tirof etdi. O'sha asnoda qiz nima qilarini bilmay, xonani ko'zdan kechirdi va kamin ustida turgan g'ilofni ko'rib qoldi va «Bu saksofon emasmi?» deb so'radi. Margarito hech narsa dema-di, yorug'roq bo'lishi uchun pardani sal ko'tardi, g'ilofni olib, to'shak ustiga qo'ydi va qopqoqni ochdi. Qiz nimadir demoq-chi bo'ldi, lekin tili kalimaga kelmadi. Yoki, u keyinchalik bizga aytganiday: «Mi si gel oil culo». Qiz dahshatga tushib, xonadan otilib chiqdi, lekin dahlizda teskari tomonga qarab yugura ketdi va xonamdagi kuygan lampochkani almashtir-

gani kelayotgan Antonieta xolaga urildi. Har ikkovi ham shu darajada qoʻrqib ketishdiki, tunga dovur tenorning xonasidan chiqishga qizning yuragi betlamadi.

Antonieta xola gap nimadaligini hech qachon bilolmadi. U xonamga qoʻrquvdan qaltiraganicha kirib keldi, hatto lampochkani burashga ham holi kelmadi, qoʻllari titrayverdi. Men nima boʻlganini surishtirdim. «Bu uyni arvoch bosibdi, – dedi u. – Kuppa-kunduzi arvochlar izgʻib yurishibdi». Shundan keyin xola soʻzlarining toʻgʻriligiga qatʻiy ishonch bilan, urush vaqtida bir nemis ofitseri hozir tenor yashayotgan xonada oʻynashining kallasini kesganini aytib berdi. Antonieta xola ish yuzasidan u yoq-bu yoqqa oʻtganida oʻldirilgan goʻzalning arvohi dahlizlarda kezib yurganini koʻp bora koʻrgan.

– Mana, bu arvoch hozirgina qip-yalangʻoch holda dahlizda chopib yurgan ekan, – dedi u. – Xuddi shuning oʻzi.

Kuzga borib shahar hayoti zerikarli boʻlib qolardi. Gullarga burkangan ayvonlar ilk izgʻirindayoq taqa-taq yopilar, biz tenor bilan Trasteverdagi eski restoranimizga qaytar, odatda, Karlo Kalkanining shogirdlari boʻlgan vokalistlar va kinomaktabda men bilan oʻqigan baʼzi sinfdoshlarim bilan birga ovqatlanar edik. Restoranning doimiy mijozlari orasida aqlli va yoqimtoy grek Lakis ham bor edi. Ijtimoiy adolatsizlik toʻgʻrisida uyqu bostiradigan vaʼzlar oʻqishi, uning yagona kamchiligi edi. Yaxshiyamki, tenor va Sopranolar baland ovozda operalardan parchalar ijro etib, uning ovozini oʻchirishardi. Lekin bu xonishlar, hatto, yarim kechasi ham hech kimning gʻashiga tegmasdi. Aksincha, bu yerga adashib kirib qolgan tungi daydilar ularga joʻr boʻlishga kirishar, qoʻshnilar boʻlsa, derazalarini lang ochib, qarsak chalishar edi.

Bir kuni tunda hammamiz shu yoʻsinda joʻr boʻlib kuylayotganimizda, Margarito bizga xalaqit bermaslik uchun oyoq uchida kirib keldi. Qoʻlida qaragʻaydan qilingan gʻilof. U hur qizni San-Xuan-de-Letran cherkovining Muqaddas dargohda nufuzi kattaligi bilan mashhur boʻlgan ruhoniyiga

ko'rsatgan va pansionga bormasdan to'g'ri shu yoqqa kelgandi. Ko'z qirim bilan u g'ilofni bir chekkadagi stolcha ustiga qo'yganini, o'zi bo'lsa, ashula aytib bo'lishimizni kutib o'tirganini ko'rdim. Restoran, odatdagidek, yarim kechga yaqin siyraklasha boshlaganda, biz – ashula aytayotganlar ham, kino haqida suhbatlashayotganlar ham, ularning do'stlari ham stollarimizni surib, birlashtirib olardik. Bu yerdagilar Margarito Duarteni indamas va g'amgin kolumbiyalik deb bilishar, u haqda hech kim hech narsa bilmasdi. Qiziqib qolgan Lakis undan «Violonchel chalasizmi»,– deb so'rab qoldi. Men noqulay vaziyatdan qanday chiqishni bilolmay, dovdirab qoldim. Mendan ham ko'proq o'ng'aysizlangan tenor so'zlagani so'z topmadi. Faqat Margarito savolni mutlaqo tabiiy deb bildi.

– Bu violonchel emas, – dedi u. – Bu hur qiz.

G'ilofni stol ustiga qo'ydi, kalitni burab, qopqoqni ochdi. Restorandagilarning barchasi dong qotib qoldi. Mijozlar, ofitsiantlar va hatto, bog'lagan etaklarini qon dog'lari bosgan oshxona xizmatchilari mo'jizani ko'rish uchun yopirilishdi. Ba'zilar qo'rquvdan cho'qina boshladi. Oshpaz xotin esa, qo'llarini qovushtirganicha, tiz cho'kdi va bezgak tutganday, qaltirab duo o'qishga kirishdi.

Biroq dastlabki hayajon o'tib ketgach, zamonamizda muqaddas narsalarning zig'irchalik qadri qolmagani haqida baqirib-chaqirib bahslasha ketdik. Tabiiyki, Lakis keskinlikda hammamizdan o'tib tushdi. Pirovardida Lakis hur qiz to'g'risida tanqidiy film olish g'oyasini o'rtaga qo'ydi.

– Aminmanki, – dedi u, – qariya Chezare bu mavzuni qo'ldan chiqarmagan bo'lardi.

U bizga syujet va ssenariydan saboq bergan, kino tarixida buyuklardan biri va maktabdan keyin ham biz bilan doimo muloqotda bo'lgan ustozimiz Chezare Dzavattinini nazarda tutayotgan edi. U bizga kasbnigina emas, balki hayotni boshqacha nazar bilan ko'rishni o'rgatishga harakat qilardi. U syujet to'qishga ustasi farang edi. Syujetlar uning ixtiyori-

dan qat'iy nazar, o'zidan-o'zi quyulib kelayotganga o'xshardi. Buning ustiga syujetlar shunchalik shiddat bilan yopirilib kelardiki, yo'l-yo'lakay ularni obdan pishirib bayon etishi uchun doimo unga kimdir ko'makka kelishi kerak bo'lardi. Ish nihoyasiga yetganda, ma'yus bo'lib qolardi. «G'oyat afsuski, bu endi suratga olinadi-da», – derdi. Chunki ekran-ga ko'chirilganida dastlabki schrning ko'p qismi yo'q bo'lib ketadi, deb hisoblardi. U o'z g'oyalarini otkritkalariga yozib yurar, ularni mavzulariga ko'ra tartibga solar va devorga yopishtirib qo'yardi. Otkritkalar shunchalik ko'payib ketdiki, xobxonasining devorlarida joy qolmadi.

Keyingi shanba kuni biz Margarito Duarte bilan unikiga yo'l oldik. Biz unga g'oyani telefon orqali bayon qildik. Yangilik desa o'zini tomdan tashlaydigan odam bo'lgani uchun ham sabrsizlikdan toqati toq bo'lganicha bizni Anjelo Merichi ko'chasidagi uyi eshigi oldida kutib turgan ekan. U, hatto odaticha sertakalluflik bilan salomlashgani ham yo'q, darhol Margaritoni oldindan tayyorlangan stol yoniga boshladi va o'zi g'ilofni ochdi. Lekin yetti uxlab tushimizga kirmagan voqea sodir bo'ldi. Aqldan ozadigan darajada hayajonlanish o'rniga, u serrayganicha qotib qoldi.

– Ashshagga! – deb shivirladi u qo'rquv aralash.

U hur qizga ikki yoki uch daqiqa churq etmay tikilib turdi, so'ngra qopqoqni yopdi va hech narsa demay, Margaritoni xuddi atak-chechak qilayotgan yosh bolani yetaklaganday, eshik tomonga boshladi. Yelkasiga astagina qoqib, u bilan xayrlashdi. «Rahmat, bo'tam, katta rahmat», – dedi. Orqasidan eshikni yopgach, bizga yuzlandi va hukm chiqardi.

– Kinoga yaramaydi, – dedi u. – Hech kim ishonmaydi.

Tramvayda uyga yetib kelguncha, ustozning bizni larzaga solgan xulosasi haqida so'zlashdik. Modomiki, ustoz shunday dedimi, demak bosh qotirishning hojati yo'q, bu kinoga yaramaydi. Lekin Go'zal Mariya bizni kutib olarkan, Dzavattini zudlik bilan bugunoq yetib borishimizni iltimos qilganini aytdi. Ammo yonimizda Margarito bo'lmasligi kerak ekan.

Biz uni avj pardaga chiqqan holda uchratdik. Lakis ikki nafar shogirdini birga olib kelgandi, lekin ustoz eshikni ochar ekan. aftidan ularni ko'rgani ham yo'q.

– Topdim! – hayqirdi u. – Agar Margarito mo'jizaning ud-dasidan chiqsa, qizchani tiriltirolsa, bu bomba bo'ladi.

– Filmdami yoki hayotdami? – so'radim men.

U taajjubimni bosdi.

– Tentaklik qilma, – dedi u menga. Shunda uning ko'zlari bosib bo'lmaydigan g'oya alangasida porlayotganini ko'rdik.

– Agar u qizaloqni real hayotda tiriltirishga qodir bo'lmasa...

– dedi u va chuqur o'yg'a toldi: – Har holda, urinib ko'rish kerak.

Bir lahzagina chalg'idi, so'ngra hikoya qila ketdi. Ustoz baxti kulgan tentaklarga o'xshab, qo'llarini silkitganicha, xona bo'ylab u yoqdan-bu yoqqa yurib, bor ovozi bilan film mazmunini so'zlayverdi. Biz hayratlanib quloq solar va u aytayotgan voqealarni o'z ko'zimiz bilan ko'rayotgandek edik: obrazlar o'zidan nur chiqaradigan qushlar kabi, nur sochib, butun xonani to'ldirdi.

– Uni qabul qilmagan yigirmata Papaning barchasi olamdan o'tib ketganidan so'ng, nihoyat bir kuni oqshom pallasi ozib-to'zgan va qartaygan Margarito uyga qaytadi, g'ilofni ochadi, hur qizning yonoqlarini silaydi va misli ko'rilmagan darajada mehr-muhabbat bilan deydi: «Qizginam, otang haqqi, o'rningdan tur va yuringin».

U bizga boshdan-oyoq tikildi va tantanavor ohangda yakun-ladi:

– Va qizaloq o'rnidan turib, yurib ketadi!

U bizdan nimanidir kutayotganga o'xshardi. Lekin biz nima deyishimizni bilolmay, serrayib turardik. Faqat grek Lakis xuddi maktab bolasiday, qo'lini ko'tarib, so'z so'radi.

– Hamma balo shundaki, men bunga ishonmayman, – dedi u va bizni hayron qoldirib, to'g'ridan-to'g'ri Dzavattiniga murojaat qildi. – Meni kechiring, ustod, lekin men bunga ishona olmayman.

Hayratga tushish navbati Dzavattiniga keldi.

– Nega?

– Qayoqdan bilay? – dedi Lakis gangib. – Bunaqa bo‘lishi mumkin emas, tamom vassalom.

– Ashshagga! – bor ovozi bilan hayqirdi ustod. Bu hayqiriq, aftidan, butun dahadagilarga eshitilgan bo‘lsa kerak. – Stalinchilarning ayni shu fe‘li qonimni qaynatib yuboradi-da, ular real hayotga aslo ishonmaydilar.

O‘zi menga aytganiday, Margarito shundan keyin hur qizni Papaga ko‘rsatish umidida o‘n besh yil davomida Kas-telgandolfoga qatnagan. Ioann XIII Lotin Amerikasidan kelgan ikki yuzta ziyoratchini qabul qilgan vaqtida yon-veridagilarning tirsaklari bilan turtishlariga, itarishlariga dosh berib, xayrixoh Papaga hur qiz haqida so‘zlab bergan. Lekin qizchani ko‘rsata olmagan. Chunki u g‘ilofni ostonada qoldirishga majbur bo‘lgandi. Suiqasddan cho‘chiganlari uchun ziyoratchilarning qoplari va ashqol-dashqollarini eshik yonidaqoldirishga majbur qilishgandi. Papa olomon orasida uni mumkin qadar diqqat bilan eshitdi, yuzini silab, ko‘nglini ko‘tarib qo‘ydi.

– Bravo, figlio mio, – dedi Papa unga. – Parvardigor senga qat‘iyatingga yarasha mukofot bergusidir.

Sertabassum Albino Luchianining qisqa muddatlik hukmronligi vaqtida uning orzusi sal bo‘lmasa, amalga oshay dedi. Papaning bir qarindoshi Margaritoning hikoyasidan qattiq ta’sirlandi va ko‘maklashishga va‘da berdi. Hamma bu va‘dani shunchaki gap deb o‘yladi. Ammo ikki kundan keyin musofirxonadagilar tushlik qilishayotgan vaqtda kimdir telefon qilib, Margaritoga Rimdan hech qayoqqa ketmasligi. chunki payshanbaga qadar uni Vatikanga xususiy qabulga chaqirishlari to‘g‘risidagi qisqa xabarni yetkazishni tayinladi.

Bu hazilmidi, chinmidi, hech kim hech qachon bilolmadi. Margarito bunga chippa-chin ishonib, doimo shay holda kuta boshladi. U uydan chiqmasdi. Hojatxonaga ketayotganida esa baland ovozda: «Men hojatxonaga ketyapman».

– deb baqirardi. Bostirib kelayotgan keksalik ostonasida turgan bo‘lishiga qaramay, doimo xushchaqchaq bo‘lgan Go‘zal Mariya erkin ayollarga xos qah-qah otib kulardi.

– Bilamiz, bilamiz, Margarito, – deb qichqirardi u. – Senga Papa qo‘ng‘iroq qilishi kerak.

Keyingi haftasi, va‘da qilingan kundan ikki kun oldin eshik ostiga tashlab ketilgan gazetaning «Morto il Papa»

sarlavhasini ko‘riboq Margarito yiqilib tushdi. Bu gazeta eskidir, uni yangilishib olib kelishgandir, degan oniy umid uchquni yilt etdi, chunki Papalarning har oyda o‘lishiga ishonish qiyin-da. Lekin bu haqiqat edi, o‘ttiz uch kun muqaddam saylangan sertabassum Albino Luchianini ertalab to‘shagida jonsiz topishgandi.

Margarito Duarte bilan tanishganimdan yigirma ikki yil o‘tgandan keyin men Rimga qaytib keldim, agar tasodifan ko‘rib qolmasam, balki uni eslamagan ham bo‘lardim. Zamoning yomon o‘zgarishlaridan shunchalik qattiq ezilgandimki, umuman, hech kim haqida o‘ylagim kelmasdi. Yovg‘on sho‘rvaga o‘xshash iliq-miliq, ahmoqona yomg‘ir to‘xtamay yog‘ar, o‘tgan yillarning billurdek yog‘dulari xira tortgan, avvallari menga qadrdon bo‘lgan va sog‘ingan joylarim boshqacha va begona bo‘lib qolgan edi. Pansion joylashgan uy hanuz o‘sha joyda, lekin Go‘zal Mariya haqda hech kim, hech narsa bilmasdi. Bir necha yillardan keyin tenor Ribero Silva menga yozib yuborgan oltita telefon raqamidan bittasiga ham hech kim javob bermadi. Kinochilarning yangi avlodi bilan tushlik qilar ekanmiz, ustozimni esladim, xonaga birdaniga jimlik cho‘kdi, nihoyat kimdir og‘iz ochishga jur‘at qildi: «Zavattini? Mai sentito».

Haqiqatan ham u haqda hech kim eshitmagan edi. Borgeze Villasidagi daraxtlar yomg‘ir ostida shalvirab yotardi, bir vaqtlar ma‘yus malikalar ot o‘ynatib yuradigan maydonlarni yovvoyi o‘t bosgan, ular orasida gullar ko‘rinmas, oldinlari tun malaklari tentirab yuradigan joylarni qo‘ltig‘ida yasan-tu-

san qilgan jononlari bo'lgan mushakdor atletikachi sportchilar egallagan edi. Ilgarigi tabiat barbod bo'lgan, faqat qo'tir ochgan va xirillagan shergina omon qolgandi. Sher hanuz ko'lmak suv bilan o'ralgan orolchasida yashardi. Endi hech kim ashula aytmasdi. Ispaniya maydonida joylashgan va devorlariga plastik yopishtirilgan restoranlarda sevgidan o'layozgan oshiqlar ham yo'q edi. Endi Rim bizning o'tmishni qo'msagan xotiralarimizda Sezarlar zamonidagi ko'hna Rim ichidagi qadimiy Rimga aylanib ulgurgandi. Trastever dahasidagi bir ko'chada to'satdan qadim zamonlar qa'ridan kelgan bir sas meni to'xtashga majbur qildi:

– Shoirga salomlar!

Bu qartaygan, ozib-to'zgan Margarito edi. Beshta Papa o'lib ketgan, asriy Rim abgorlikka yuz tutgani nishonalari namoyon bo'layotgan edi. U bo'lsa, hali-hanuz umidvor edi. «Men uzoq kutdim, endi oz qoldi, – dedi u to'rt soat hasratlashganimizdan so'ng, – yana bir necha oy, xolos». Shunday dedi-yu, oyog'ini sudrab bosgancha, ko'cha o'rtasidan yurib ketdi. Oyog'ida soldatcha etik, boshida esa, kekxa rimliklar kiyadigan unniqqan qalpoq. Nur tushib yaltirayotgan halqob-larga e'tibor qilmay ketib borardi. Agar avliyolar haqiqatan ham bor bo'lsa, avliyo Margaritoning xuddi o'zi ekani-ga shak-shubham qolmadi. U hayotining yigirma ikki yilini qizchasining qanday bo'lsa, shundayligicha turgan jasadini ko'tarib, o'z aqidasini, o'zining muqaddas ishini himoya qilishga sarfladi. Lekin muqaddas ish qilayotgani uning xayoliga ham kelgani yo'q.



SAMOLYOTDA UXLAYOTGAN GO‘ZAL

U juda go‘zal, xipchabel, bug‘doyrang terisi silliq, ko‘zlari bamisoli yashil bodomga o‘xshar, silliq qora sochlari yelkasi-ga tushib turardi. Unda qandaydir antiqiylik, balki indoneziyalik yoki andliklarga xos nimadir bor edi. Kiyim-kechagi ham nozik dididan dalolat berib turardi. Egnida silovsin terisidan tikilgan kamzulcha, tabiiy ipakdan ochrang kofta, xom surp shim va poshnasiz tuffi. «Umrimda ko‘rgan ayollar-ning eng chiroylisi ekan», – deb o‘yladim Parijning Sharl de Goll aeroportida Nyu-Yorkka uchadigan yo‘lovchilar orasida samolyotga chiqishga navbat kutib turarkanman, moda sher-ga o‘xshab sirli qadam tashlab yonimdan o‘tayotganida unga suqlanib qaradim. Bir lahzadan so‘ng bu mo‘jizaviy xilqat ko‘zdan yo‘qoldi.

Ertalabki soat olti bo‘lgandi. Kechadan buyon qor bo‘ralardi. Ko‘chalarda mashinalar odatdagiga qaraganda ancha tirband, katta yo‘llarda qatnov kamaygan, qor bosgan yuk mashinalari yo‘l chekkasida to‘xtab turar, yengil mashinalardan hovur ko‘tarilar edi. Lekin aeroport binosida hech narsa bo‘lmaganday, bahor nafasi ufurardi.

Men chiptamni ro‘yxatdan o‘tkazish uchun bir golland kampirning orqasida navbatda turgandim. Kampir deyarli bir soatdan beri o‘n bitta jomadonining og‘irligi masalasida talashib-tortishayotgan edi. Men zerika boshladim, lekin shu chog‘da bu xilqat yonimdan o‘tib qoldi-yu, damim ichimga tushib ketdi, hatto bahs qanaqa yakunlanganini ham sezmay qoldim. Xodima meni parishonxotirlikda ayblab, hushimni joyiga keltirdi. Men kechirim so‘rash o‘rniga undan bir ko‘rishda sevib qolish mumkinligiga ishonasizmi, deb so‘radim. «Albatta ishonaman, – dedi u. – Boshqachasi bo‘lishi mumkin emas». Kompyuter ekranidan ko‘z uzmagan holda menga qanday – chekuvchilar yoki chekmaydiganlar o‘rindig‘idan joy berish kerakligini so‘radi.

– Menga baribir, – dedim rostiga ko‘chib, – faqat o‘n bir jomadonlik kampirning yonida o‘tirmasam bo‘ldi.

Xodima yorug‘ ekrandan ko‘z uzmagani holda xizmatchilarga xos tabassum ila menga minnatdorchilik bildirdi.

– Siz uch raqamdan birini tanlashingiz mumkin, – dedi u, – uch, to‘rt yoki yetti.

– To‘rt.

U mamnun jilmaydi.

– Men shu yerda o‘n besh yildan beri ishlayman, – dedi u, – lekin yetti raqamini tanlamagan odamni birinchi marta ko‘rib turishim.

U minish taloniga joyimning raqamini yozdi va uni boshqa qog‘ozlar bilan birga uzatar ekan, birinchi marta boshini ko‘tarib, ko‘m-ko‘k ko‘zlari bilan menga boqdi. Haligi go‘zal ko‘zdan g‘oyib bo‘lgani uchun shu bilan kifoyalanishga majbur bo‘ldim. Lekin xodima birdan aeroport yopiq va barcha parvozlar kechiktirilganini aytdi.

– Xo‘sh, qachon uchamiz?

– Unisini Xudo biladi, – dedi u kulib. – Ertalab radiodan bu yilgi eng kuchli qor yog‘ishini aytishgandi.

Xato qilishgan ekan, bu keyingi yuz yil ichidagi eng kuchli qor bo‘ldi. Lekin birinchi toifa yo‘lovchilariga ajratilgan kutish zalida bahor havosi hukmron edi, guldonlarda yangi atirgullar turar, dinamiklardan ulug‘vor va allalovchi musiqa yangrar edi. Bastakor ham shunday bo‘lishini xohlagan bo‘lsa kerak. Bir vaqt mening go‘zalimga mana shu go‘sha juda munosib, degan fikr kallamga kelib qoldi va zallar oralab uni qidira boshladim. O‘z jasoratimga o‘zim qoyil qolayotgan edim. Biroq kutayotganlarning ko‘pchiligi odatiy turmushning odatiy erkaklari bo‘lib chiqdi, ular inglizcha gazetalarni o‘qiyotgan edilar. Holbuki, bu vaqtda ularning xotinlari katta derazalardan qor bosgan jonsiz samolyotlar, muz qoplagan fabrikalarni tomosha qilganicha, o‘zga erkaklar haqida o‘ylayotgan edilar. Peshindan keyin zallarda bironta bo‘sh joy

qolmadi, zallar issiqdan dimiqqani uchun chidash mumkin bo'lmay qoldi va men nafas olgani tashqariga chiqdim.

Ko'z oldimda qo'rqinchili manzara namoyon bo'ldi. Zallar har xil irq va mazhabga mansub turli-tuman olomonga to'lib ketgan, odamlar diqqinafas dahlizlarda, hatto, zina pillapoyalarida o'tirishar, bolalari, hayvonlari va qaqir-ququri bilan polga uzala tushib yotishar edi. Shahar bilan aloqa uzilgan va plastikdan ko'tarilgan saroy bo'ronda qolgan ulkan kosmik stansiyaga o'xshab borayotgan edi. Go'zal mana shu yerda, sukunatga cho'mgan xaloyiq orasida bo'lishi kerak, degan fikr menga tinchlik bermas va bu bema'ni fikr meni izlashga undar edi.

Tushlik paytida biz o'zimizni halokatga uchragan odamlarday his qila boshladik. Yettita restoran, qahvaxona va barlar eshigi oldida odamlar uzundan-uzoq navbatga turib oldilar. Navbatda turganlarning keti ko'rinmasdi. Lekin uch soat o'tmay barcha oshxonalar yopildi, chunki yeydigan-ichadigan hech vaqo qolmagan edi. Dunyoning barcha bolalari shu yerga yig'ilganga o'xshardi. Ular baravariga yig'lay boshlashdi, olomondan podanikiga o'xshagan sassiq hidlar anqiy boshladi. G'ayriixtiyoriy kezish vaqti kelgandi. Qalashib ketgan olomon orasida yurib topishga muvaffaq bo'lgan yagona yeguligim – bolalar do'konchasida qolgan oxirgi ikki stakan muzqaymoq bo'ldi. Ofitsiantlar kursilarni yig'ishtirib, stollar ustiga taxlay boshlagani sababli, muzqaymoqni peshtaxta yonida turib yer ekanman, qahvaxona to'ridagi ko'zgudagi aksimni tomosha qildim: qo'limda oxirgi karton stakan va oxirgi karton qoshiqcha tutganman, kallamda bo'lsa, go'zal haqidagi o'y-fikrlar g'ujg'on o'ynaydi.

Nyu-Yorkka ertalab soat o'n birda uchishi kerak bo'lgan samolyot kechki sakkizda parvoz qiladigan bo'ldi. Men samolyotga chiqqanimda birinchi toifa yo'lovchilar o'z joylarini egallab bo'lishgandi. Styuardessa meni joyimga boshlab bordi. Birdan nafasim tiqilib qolay dedi: yonimdagi

o'rindiqda tajribali sayyohlardek xotirjam mening go'zalim o'tirardi. «Bu haqda yozsam, hech kim ishonmagan bo'lardi», – deb o'yladim men. Men taraddudlanib salom berdim, lekin u buni sezmedi. Qiz bu oromkursida uzoq yillar yashamoqchi bo'lgandek bamaylixotir o'tirib olgan, o'tirgan joyi ashyolar qo'l uzatsa yetadigan darajada joylashtirilgan ideal xonaga o'xshab ketardi. U narsalarini taxlayotganida katta styuard yo'lovchilarni tabriklar ekan, hammani shampan vinosi bilan siylay boshladi. Men unga taqdim qilish uchun bir qadah oldim, lekin vaqtida fikrimdan qaytdim. Ma'lum bo'ldiki, u faqat bir stakan suv so'rayotgan ekan. Qiz oldiniga anglash mushkul bo'lgan fransuz tilida so'ngra inglizchani undan ham chalkashroq gapirib, manzilga yetgunga qadar mutlaqo uyg'otmasliklarini styuarddan iltimos qildi. Uning ohista va muloyim so'zlash tarzida sharqona g'ussa ohanglari sal-pal sezilib turardi.

Suv olib kelishganida u qirralariga mis go'niya qoqilgan, bamisoli buvilarning sandiqchasiga o'xshaydigan kichkina pardoz qutichasini tizzasiga qo'ydi va uni ochib, zarhal qog'ozga o'rog'liq ikkita habdori oldi. Qutichada rang-barang habdorilar bisyor edi. Qiz bu ishlarni olamdagi barcha ishlarni oldindan, tug'ilganidanoq rejalashtirib qo'ygandek, bir maromda va puxta bajardi. Nihoyat, illyuminator pardasini tushirdi, oromkursining suyanchig'ini oxirigacha tushirdi, tufisini yechmadi, beligacha odeyalga o'raldi, ko'ziga niqob tutdi, menga teskari o'girilib oldi-yu, shu zahoti uyquga ketdi. U shu tariqa biron marta uyg'onmay, xo'rsinmay, holatini ham o'zgartirmay sakkiz soat-u o'n ikki minut uxladi. Nyu-Yorkka yetib olishimiz uchun shuncha vaqt ketdi.

Parvoz ancha qiyin kechdi. Men hamisha tabiatda chiroyli ayoldan go'zalroq narsaning o'zi yo'q, deb hisobladim, shuning uchun ham yonginamda uxlayotgan afsonaviy xilqat sehridan bir daqiqa ham ayrila olmادim. Yerdan oyoq'imiz uzilar-uzilmas, katta styuard ko'zdan g'oyib bo'ldi,

uning o'rniga boshqa styuardessa paydo bo'ldi va pardozi ashyolari solingan xaltacha va radio quloqlikni berish uchun qizni uyg'otmoqchi bo'ldi. Men go'zalimning katta styuardga qilgan iltimosini takrorladim, lekin styuardessa nima qilib bo'lsa-da, ovqat ham yemasligini qizning o'zidan eshitishni xohlayotgan edi. Katta styuard ham go'zalning iltimosini takrorladi, so'ngida qiz uni bezovta qilmasliklari to'g'risidagi qog'ozchani bo'yniga osib olmaganini uchun menga ta'na qildi.

Yolg'iz ovqatlanar ekanman, bu go'zal bedor bo'lgan vaqtda unga aytishim mumkin bo'lgan gaplarni ichimdan o'tkazdim. Go'zal shunchalik qattiq uxlayotgan ediki, bir vaqt u uyqu dori o'rniga zahar ichib qo'ymaganmikan, deya tashvishlana boshladim. Har gal qadah ko'tarar ekanman, qadah-so'z aytardim:

– Sening sog'liging uchun, go'zal.

Kechki ovqatdan so'ng chiroqlarni o'chirishdi va film qo'yib yuborishdi va ikkovimiz zulmat dunyosida qoldik. Butun yuz yillik ichidagi eng dahshatli qorbo'ron orqada qolgan, Atlantika ustidagi kecha tubsiz va tiniq bo'lib, samolyot yulduzlar orasiga tiqilib qolganga o'xshardi. Shunda uzundan-uzoq mushohadaga berildim: men qizni boshdan-oyoq, qarichma-qarich ko'zdan kechira boshladim va yagona hayot alomatini – xuddi suzayotgan bulutlar suvda aks etgandek, ko'rayotgan tushi peshonasiga ko'lanka tashlayotganini sezdim, xolos. Bo'yniga osilgan nozikkina zanjircha badani bug'doyrang bo'lgani uchun qariyb ko'rinmasdi, bejirim quloqlari teshilmagan, pushti timoqlari soppa-sog'lom ekanidan dalolat berib turardi. Chap qo'lida esa, silliq uzuk ko'rinib turardi. Yoshi nari borsa yigirmalarda bo'lgani uchun bu nikoh uzugi emas, hech qanday ahamiyatga ega bo'lmagan unashtirish nishonasi bo'lsa kerak, degan fikr bilan o'zimni ovutdim. «Koshkiydi bir bilsang, yonginamda uxlamoqdasan, hech narsadan xabaring yo'q, ko'zlarim erkalar seni, lekin mehrlig'ingdan yiroqsan», – shampan vinosining kayfi

ostida Xerardo Diegoning misralari- ni ichimda qayta-qayta takrorlay boshladim. Shundan keyin oromkursimning suyançig'ini tushirdim va biz to'shakdagi er-xotindan ham yaqinroq bo'lib qoldik. Issiqqina nafasi sasi singari yoqimli, badanidan taralayotgan bo'y bo'lsa, shubhasiz, uning go'zalligiga mos edi. Aql bovar qilmasdi, o'tgan bahorda men Yasunari Kavabataning Kioto shahrida yashaydigan ikki nafar boy chol haqidagi ajoyib qissasini o'qigandim. Ular uxlatuvchi modda berib uxlatib va yalang'ochlab qo'yilgan eng go'zal yosh qizlar yonida tunni mushohada bilan o'tkazishlari uchun juda katta pul to'laydilar. Chollar qizlar bilan bir to'shakda yonma-yon yotishadi, ehtiros azobidan o'lib qolishlariga oz qoladi, lekin ular qizlarni uyg'otishlari, hatto, ularga qo'l tegizishlari ham mumkin emas. Chunki ular totadigan butun lazzatning mohiyati qizlar ko'rayotgan tushni mushohada qilishdan iborat. O'sha bedor o'tkazilgan kechada uxlayotgan go'zalga tikilib yotar ekanman, men ham chollar totgan g'aroyib lazzatni aqlan tushunib qolmay, balki to'la-to'kis his qildim.

«Men lazzat og'ushida boshi ko'klarga yetgan o'sha qariyaning xuddi o'zi bo'lsam kerak, – deb shivirlardi shampan-dan sarxush bo'lgan nafsoniyatim. – Bu yetti uxlab tushimga kirmagan bo'lardi».

Shundan keyin shampan vinosi va ovozsiz o'tayotgan kinokadrlar ta'sirida meni uyqu elitdi. Bir necha soatdan keyin uyg'onganimda boshim og'rir edi. O'rnimdan turib, hojatxona tomonga ketdim. Mendan ikki qator orqada o'n bitta jomadon egasi bo'lgan kampir, bamisoli jangdan keyin maydonga tashlab ketilgan murda kabi oromkursida xunukdan-xunuk yalpayib yotardi. O'rindiqlar orasidagi yo'lka o'rtasida zanjirining halqalari rang-barang ko'zoynagi yotardi va o'zimning pastkashligimdan, ko'zoynakni olmaganimdan oniy mamnuniyat his qildim.

Shampan vinosi xizmatidan qutulgach, o'zimni yengil his qilib, bexosdan ko'zguna ko'zim tushdi va sevgi izti-

roblari odamni shunchalik razil va xunuk holga solishi mumkinligidan hayratga tushdim. Hech kutilmaganda samolyot keskin pastladi, so'ngra amal-taqal qilib to'g'rilandi va sakrab-sakrab uchishda davom etdi. Hamma o'z joyiga qaytishi lozimligi to'g'risidagi buyruq chirog'i yondi. Men joyimga shoshildim. Qaytarkanman, Parvardigor yuborgan uyurma silkinishlari uxlayotgan go'zalni uyg'otib yuborishini va u qo'rquvdan o'zini quchog'imga tashlashini orzu qilardim. Shoshilinchda golland kampirning ko'zoynagini bosib olishimga sal qoldi, shunday qilsam, ehtimol, bir maza qilgan bo'lardim. Lekin o'zimni vaqtida bosdim, egilib ko'zoynakni oldim, uni kampirning tizzasiga qo'ydim va mendan oldin chaqqonlik qilib to'rtinchi joyni tanlamagani uchun ichimda unga minnatdorchilik bildirib qo'ydim.

Go'zal hanuz qattiq uyquda edi. Samolyot yana tekis ucha boshlagach, men qandaydir bahona topib uni uyg'otishdan o'zimni zo'rg'a tiydim, chunki parvozimizning shu oxirgi soatida birgina istak – uni uyg'ongan, jahli chiqqan holda bo'lsayam, mayliga, faqat uyg'oq holda ko'rish istagi meni qisti-bastiga oldi. Chunki shu yo'l bilangina men yana ozodlikka erishgan, balki, hatto, yashargan bo'lardim. Lekin jur'at qilmadim. «Jin ursin, – deb o'yladim men. – Men nega endi Buqa belgisi ostida tug'ilmagan ekanman?!» Samolyot qo'nishga hozirlanayotgani haqidagi chiroq yongan lahzada uning o'zi uyg'ondi va u xuddi bog'da, atirgullar orasida uxlab olgandek, tetik va go'zal edi. Faqat shu vaqtdagina men samolyotda uyqudan uyg'ongan qo'shnilar, baayni ming yillardan beri birga yashaydigan er-xotin singari bir-biriga salom bermasligidan afsuslandim. Bu go'zal ham xuddi shunday qildi. Ko'zlari ustidagi niqobni oldi, porlayotgan ko'zlarini ochdi, oromkursi suyanchig'ini ko'tardi, jun ro'molni bir tomonga tashladi, qalin jingalak sochlarini silkidi, sochlar o'z og'irligi ostida o'zidan-o'zi taralib qoldi, tizzalariga yana pardoq qutichasini oldi va tezgina sal-pal bo'yangan bo'ldi.

Bu ishda menga bir nazar tashlashga qancha vaqt sarf qilgan bo'lsa, shunchalik vaqti ketdi. Samolyot eshiklari ochildi deguncha, silovsin nimchasini kiyib oldi-da, sof Lotin Amerika ispanchasida, bunaqa paytlarda qilishganiday, kechirim so'rab, deyarli ustimdan suzib o'tdi. Xayrlashgani ham, hatto, kechani bunchalik baxtiyor o'tkazishimiz uchun qilgan zo'r sa'y-harakatim uchun bir og'iz rahmat ham aytmay, chiqib ketdi va Nyu-Yorkning changalzorlarida g'oyib bo'ldi va bu-gungacha qorasini ko'rsatgani yo'q.

«MEN TUSH KO'RISH UCHUN YOLLANAMAN»

Ertalabki soat to'qqizda, Gavananing «Abana Rivera» mehmonxonasi peshayvonida o'tirib nonushta qilayotgan vaqtimizda garchi quyosh porlab turgan bo'lsa-da, dahshatli dengiz to'lqini bu vaqtda sohil yoqalab ketayotgan yoki yo'lkada turgan avtomashinalardan bir nechtasini ko'tarib ketdi, bittasini esa, tosh to'siqqa zarb bilan urib pachaqlab, parchinlab qo'ydi. Kuchli bomba portlashiga o'xshagan suv qasirg'asi binoning barcha yigirma qavatida yashayotganlarning yuragiga qo'rquv soldi va pastki qavatlarning oynalarini kunpayakun qildi. Bu yerdagi ko'psonli turistlarni havotir to'lqini mebellar bilan birga itqitib tashladi, ba'zilar do'lday yopirilgan shisha siniqlari ostida qolib, yarador bo'ldi. Aftidan, po'rtana juda kuchli bo'lgan, chunki to'lqin sohil panjarasi bilan mehmonxona o'rtasidagi keng ko'chadan oshib o'tgandan keyin ham mehmonxonaning oynavand deraza, eshiklarini chilparchin qilgan edi.

Xushchaqchaq kubalik ko'ngillilar o't o'chiruvchilar yordamida olti soatga qolmay, barcha qaqir-ququrlar, shisha siniqlarini yig'ishtirib olishdi, dengizga qaragan eshiklarni zichlab bekitishdi, boshqalarini ochib qo'yishdi va yana hammasi o'z joyiga tushdi. To'lqin to'siqqa parchinlagan mashina

hech kimning esiga ham tushmadi – bu yo‘lkada turgan avtomobillardan biri bo‘lsa kerak, deb o‘ylashdi. Lekin ko‘tarma kran mashinani ko‘tarib olganida haydovchi o‘rnida xavfsizlik kamari bog‘lagan ayol murdasini ko‘rishdi. Zarba shunchalik qattiq bo‘lgan ediki, uning biron joyi sog‘ qolmagandi. Yuz-ko‘zining dabdalasi chiqqan, tuflisi yirtilgan, ko‘ylagi tilka-pora bo‘lgan. Barmog‘ida ilon tasviri tushirilgan tilla uzuk. Ilonning ko‘zlari zumraddan qilingan. Politsiya bu ayol Portugaliyaning yangi elchisining uy boshqaruvchisi ekanini aniqladi. Haqiqatan ham u elchi va uning rafiqasi bilan Gavanaga ikki hafta oldin kelgan va o‘sha kuni ertalab yangi avtomobilda bozorga chiqqan ekan. Hodisa tafsilotlari haqida gazetadan o‘qiganimda uning ismiga e‘tibor ham bermadim, lekin zumrad ko‘zli ilon tasviri tushirilgan uzuk diqqatimni tortdi. To‘g‘ri, bu uzuk ayolning qaysi barmog‘iga taqilganini hech bilolmadim.

Bu juda muhim edi. Men dahshatga tushib, bu haqiqiy ismini bilmaganim, o‘ng qo‘lining ko‘rsatkich barmog‘iga xuddi shunaqa uzuk taqib yuradigan o‘sha unutilmas ayol emas-mikan, deb o‘yladim. O‘sha vaqtlari uzukni bunaqa yo‘sinda taqish mutlaqo g‘ayriodatiy edi. Men bu ayol bilan o‘ttiz to‘rt yil oldin Venada, qovoqxonada qaynatilgan kartoshkali sosiska yeb, pivo ichayotgan vaqtimda tanishgandim. Bu qovoqxonaga Lotin Amerikasidan kelgan talabalar tanda qo‘ygan edilar.

O‘sha kuni ertalab Rimdan kelgandim va ayolning ko‘krakdan chiqadigan baland ovozi, palto ustidan bo‘yniga tashlab olgan momeiq tulki mo‘ynasi va bu ilonsimon misr uzugi menga qanchalik qattiq ta‘sir qilganini hozirgacha eslayman. Ispanchani zo‘rg‘a, kuchli aksentda betinim gapirishiga qarab, men uni uzun yupqa taxta stol atrofida o‘tirganlar orasida yagona avstriyalik ayol bo‘lsa kerak, deb o‘ylagandim. Yo‘q, bunday emas ekan: u Kolumbiyada tug‘ilgan bo‘lib, musiqa va ashula aytishni o‘rganish uchun hali qizaloqligidayoq ikki

urush orasida Avstriyaga kelgan ekan. Biz tanishgan vaqtda u allaqachon o'ttiz yoshga kirgan va mashaqqatli hayot kechirgani bilinib turardi. U, aftidan hech qachon chiroyli bo'lgan va vaqtidan oldin qartaya boshlagan. Shunga qaramay, u hali maftunkor edi. Ammo, negadir, kishida qo'rquv tuyg'usi uyg'otardi.

U vaqlari Vena hali imperiyaning qadimiy shaharlaridan biri edi. Ikkinchi jahon urushidan keyin paydo bo'lgan ikki murosasiz dunyo o'rtasida joylashgani sababli shahar chayqov bozori va jahon josusligi uchun jannatga aylangan. Men qochoq vatandoshim uchun bundan yaxshiroq sharoit bo'lishi mumkinligini tasavvur ham qilolmasdim. Bu ayolning mol-dunyosi, garchi bu qovoqxonani butun lash-lushlari-yu xo'randalari bilan qo'shib sotib olishga bemalol yet-sa-da, azbaroyi vatandoshlariga sadoqat yuzasidan, bu talabalar qovoqxonasida ovqatlanishda davom etar edi. U o'zining haqiqiy ismini hech qachon aytmagan. Biz uni talaffuz qilish qiyin bo'lgan nemischada Frau Frida deb chaqirardik. Bu ismni Venada o'qiyotgan Lotin amerikalik talabalar qo'yishgandi. Bizni tanishtirishdi deguncha, men sal beandishalik qilib qo'ydim, shamollar bag'ridagi Kindo qoyalaridan bunchalik uzoq va tamomila farqli bu dunyoga moslashishga qanday muvaffaq bo'lganini so'radim. U o'ylab ham o'tirmay javob berdi:

– Men tush ko'rish uchun yollanaman.

Haqiqatan ham bu uning yagona ishi edi. U ko'hna Kaldas shahrining omadi chopgan attori oilasidagi o'n bir farzandning uchinchisi bo'lib, tili chiqdi deguncha, oilada och qoringa, nonushtaga o'tirmay turiboq, ko'rgan tushini aytib berishdek yaxshi odatni joriy qildi. Chunki tushlar bu vaqtda esda turgan va bashoratlilik xususiyatlari saqlangan bo'lardi. yetti yasharligida ukalaridan birini suv olib ketganini tushida ko'rdi. G'irt xurofotchi bo'lgan onasi bolaga eng sevimli ermagi – soyda cho'milishni shu zahotiyoyq taqiqladi. Lekin Frau Fridaning o'z ta'bir yo'li bor edi.

– Bu tush ukamning g'arq bo'lishini emas, balki shirinlik yemasligi kerakligini anglatadi, – dedi u.

Tushni bunaqa ta'bir qilish, odatda, yakshanba kunlari beriladigan shirinlikni o'lguday yaxshi ko'radigan besh yashar bolaga nisbatan pastkashlikdan boshqa narsa emasdek ko'rinardi. Lekin qizining karomatli tush ko'rish qobiliyati borligiga ishonch hosil qilib ulgurgan ona ogohlantirishga rioya qilinishi ustidan qattiq nazorat o'rnatdi. Lekin ona bir gal nazoratni ko'zdan qochirganida bolakay yashirincha shirinlik olib yedi va bo'kib qoldi. Uni qutqarishning iloji bo'lmadi.

Frau Frida Venaning qahraton qishida qorin tashvishi giribonidan olmagunga qadar bu qobiliyati tufayli pul topishi mumkinligini xayoliga ham keltirmagan edi. O'shanda u ko'ziga yaxshi ko'ringan duch kelgan birinchi uydagilardan ish berishlarini iltimos qildi. Qo'lidan nima kelishini so'rashganida, u bor haqiqatni aytdi: «Men karomatli tushlar ko'raman». Bu narsaning nimaligini uy bekasiga qisqacha tushuntirishining o'zi yetarli bo'ldi va beka ozgina maosh evaziga uni ishga oldi, lekin tuzukkina xona berdi va kuniga uch martadan ovqatlantirdi. Eng muhimi, nonushta edi, chunki yaqin kelajakda uni nima kutayotganini bilib olish uchun oilaning barcha a'zolari sudxo'r bo'lgan sertavoze oila boshlig'i, romantik kamer musiqasini o'larday yaxshi ko'radigan xushchaqchaq ona hamda o'n bir va to'qqiz yashar ikkita bola nonushta vaqtida dasturxon atrofiga jam bo'lishardi. Ularning hammasi xudojo'y bo'lib, xurofotga moyil kishilar edilar. Shuning uchun ham Frau Fridani faqat birgina vazifa – har kuni oila a'zolarining tushlarini ta'bir qilib berishi uchun mamnuniyat bilan yollagan edilar.

U tushlarni juda yaxshi, ayniqsa, voqealik dahshatli tushdan ham qo'rqinchliroq bo'lgan urush yillarida yanada yaxshiroq va uzundan-uzoq ta'birlar edi. Nonushta ustida kun davomida kim nimani qanday qilishi kerakligini faqat u hal qilardi. Shu tariqa u, ta'birchiligi tufayli, bora-bora uyda ya-

gona hukmfarmoga aylandi. Oila ustidan u mutlaq hukmron edi, uning ko'rsatmasi bo'lmasa, hech kim qilt etolmasdi. Men Venaga kelgan kezlarimda uyning egasi endigina vafot etgan va birgina shart – oila a'zolari uchun to oxiriga qadar tush ko'rishda davom etish sharti bilan mulkidan keladigan foydaning bir qismini unga vasiyat qilgan edi.

Men Venada bir oydan ko'proq bo'ldim va talabalar bilan birga faqirona kun kechirdim. Pul kelishini kutayotgandim, lekin qancha kutmay pul kelmadi. Frau Frida oshxonaga doimo kutilmaganda kelar, saxiyligi tutib ketar edi. Och-nahor o'tirgan bizlar uchun uning har bir tashrifi bayramga aylanib ketardi. Ana shunday oqshomlardan birida, barcha pivo ichaverib bo'shshagan bir lahzada u qulog'imga shiviray boshladi. Uning qat'iyat bilan aytayotgan so'zlaridan vaqt kutib turmasligi ayon bo'lgandi.

– Bu yerga kecha seni tushimda ko'rganimni aytish uchungina keldim, – dedi u. – Sen zudlik bilan bu yerdan ketishing va besh yilgacha Venaga qaytib kelmasliging lozim.

Aytayotgan gaplariga ishonchi komil ekani yaqqol ko'rinib turardi, shu bois o'sha kechasiyoq Rimga ketayotgan oxirgi poezdga chiqdim. Uning so'zlari meni qattiq qo'rqitgan edi va hozirgacha menga noma'lum allaqanday balodan qutulib qoldim, deb o'ylayman. Shundan keyin men Venaga qaytib bormadim.

Gavanada yuz bergan falokatdan oldin men Frau Fridani Barselonada hech kutilmaganda va tasodifan uchratib qolgandim. Mazkur uchrashuv men uchun sirli jumboq bo'lib qolaverdi. Bu Pablo Neruda fuqarolar urushidan so'ng, dengiz orqali Valparaisoga uzoq sayohatidan keyin, birinchi marta ispan tuprog'iga qadam qo'ygan kuni yuz bergandi. U biz bilan birga butun kunni eski kitoblar sotiladigan do'konlarni aylanishga bag'ishladi va «Porter» dan bir ko'hna kitobni xarid qildi. Muqovasiz, unniqib ketgan bu kitobni sotib olishga Rangunda konsullik davrida olgan ikki oylik maoshini sarfla-

gan bo'lsa kerak. U xaloyiq orasida beso'naqay filga o'xshab yurib borar, har bir narsaning ichida nima borligiga, uning ishlash mexanizmiga bolalarcha qiziqardi, chunki uning nazdida dunyo ulkan o'yinchoqqa o'xshar, hayot shundan iborat edi.

Uyg'onish davri Papasiga undan ko'proq o'xshaydigan kishi yo'q bo'lsa kerak. Odatda bu Papani nazokatli va lazzatli ovqatlarga o'ch badnafs odam sifatida tasvirlashadi. Hatto, o'zi istamagan vaqtlari ham Pablo dasturxon ustida asosiy xo'randa bo'lib qolaverardi. Xotini Matilda Pabloning yoqasiga dastro'mol bog'lab qo'yar, bu mato dasturxon ustida ko'krakka osiladigan ro'molchaga emas, balki sartaroshxonaning lungisiga ko'proq o'xshardi. Bu Pabloning ust-boshiga ovqat to'kmasligi uchun qo'llaniladigan yagona chora edi. «Karvaleyre»dagi o'sha tushlik juda tipik bo'lgan. U butun boshli uchta qisqichbaqani jarrohlarcha mahorat bilan bo'laklab, paqqos tushirdi. Shu orada boshqalarning li-koplaridagi ovqatlarga harislik bilan tikilib qo'yar, goh-goh har bir ovqatdan shunaqa mamnuniyat bilan tatib qo'yardiki, barchaning ishtahasi karnay bo'lib ketdi. Taomlar orasida Galisiya baliqlari, Kantabriya dengiz o'rdakchalari, Alikante qisqichbaqasi, Kosta-Brava ne'matlari bor edi. Ayni vaqtda, xuddi fransuzlar singari, faqat boshqa ajoyib taomlar, asosan, vatani – Chilining ibtidoiy molluskalari haqida so'zlardi. Chiliga muhabbat hamisha uning yuragining to'ridan joy olgan edi. Birdaniga u ovqat yeyishdan to'xtadi, quloqlarini qisqichbaqanikiga o'xshatib ding qildi va menga astagina shivirladi:

– Orqamda kimdir ko'z uzmay menga tikilib turibdi.

Men yelkam osha nazar tashladim, haqiqatan ham shunday bo'lib chiqdi. Uning orqasida, bizdan uch stol narida udumdan chiqqan fetr shlyapa kiygan va mallarang sharf o'ragan ayol xotirjam o'tirgancha, asta-asta ovqat chaynar va undan ko'z uzmasdi. Men uni darhol tanidim. Ancha keksaygan va semirgan bo'lsa-da, bu o'sha ayolning xuddi o'zi, chunki ko'rsatkich barmog'ida ilon tasviri tushirilgan uzuk bor edi.

U Neapoldan Nerudalar bilan bir kemada suzib kelgan bo'lsa-da, kemada bir-birini ko'rishmagan. Biz bir chashka qahva ichish uchun uni dasturxonimizga taklif etdik. Shoirni hayron qoldirishni xohlaganim uchun gapni aylantirib, ayolni tushdan so'zlashga undadim. Lekin shoir bunga unchalik e'tibor bermadi va shu zahotiyoq hech qanday karomatli tushlariga ishonmasligini aytdi.

– Faqat she'riyatgina g'oyibdan xabar berishi mumkin, xolos, – dedi u.

Tushlikdan keyin, albatta, Ramblas bo'ylab sayrga chiqardik. Bu sayr vaqtida eski xotiralarimizni begona quloqlardan chetda eslash maqsadida biz Frau Frida bilan boshqalardan sal orqaroqda qoldik. U Avstriyadagi barcha mulkini sotganini, ishni yig'ishtirib qo'yganini, Portuda, Portugaliyada, butun okean ko'rinadigan tepalikda joylashgan uyda, o'zining ta'rificha, soxta saroyda yashashini aytib berdi. Garchi buni o'zi ochiq-oydin e'tirof etmagan bo'lsa-da, hikoyasidan ma'lum bo'lishicha, tushlar ta'birini aytaverib, venalik ajoyib xo'jayinlarining butun boyligini asta-sekin o'z qo'lga olgan. Lekin bu meni ko'pam hayron qoldirmadi, chunki men hamisha uning tushlari – ayyorlikdan, kun ko'rish uchun pul topish usulidan boshqa narsa emas, deb hisoblardim. Buni uning o'ziga ham aytdim.

U o'zini tutolmay, xaxolab kulib yubordi. «Sen hanuz o'sha-o'sha, qo'rslingingcha qolibsana», – dedi u. Men hech narsa demadim. Hamrohlarimiz Ramblasning qushlar bo'limida Nerudaning qafasdagi to'tiqushlar bilan chilicha jargonda so'zlashib bo'lishini anchadan beri kutib turishardi. Yana suhbatlasha boshlaganimizda Frau Frida mavzuni o'zgartirdi.

– Aytganicha, – dedi u, – sen endi Venaga borishing mumkin.

Faqat ana shu chog'dagina tanishganimizdan buyon o'n uch yil o'tganini angladim.

– Hatto, barcha tushlaring g'irt yolg'on bo'lsa-da, men

endi u yerga hech qachon bormayman, – dedim men. – Har ehtimolga qarshi.

Soat uchda biz ayrilishdik va Neruda bilan bizning uyimizda uning muqaddas ishini – peshin uyqusini tashkil qilgani ketdim. U uyquga yotishdan oldin yaponlarning choy marosimini eslatadigan bir qancha tantanali tadbirlarni amalga oshirishni talab qilardi. Muayyan darajadagi issiqlikni, yorug'lik o'ziga xos bo'lishi va kerakli yo'nalishda tushishini ta'minlash uchun bir derazani ochish, boshqasini yopishga to'g'ri kelardi. Hammayoq suv quygandek sukunat qo'ynida bo'lishi lozim edi. Neruda shu zahotiyoy uyquga ketdi va bolalarga o'xshab hech kutilmaganda, o'n daqiqadan keyin uyg'ondi. U zalga tetiklashgan, chakkasida yostiqjild naqshining izi qolgan holda kirib keldi.

– O'sha tush ko'radigan xotin tushimga kiribdi, – dedi u.

Matilda tushini aytib berishini iltimos qildi.

– U tushida meni ko'rayotgani tushimga kirdi, – dedi u.

– Bu Borxes asarlarini eslatadi, – dedim men.

U hafsalasi pir bo'lib, menga yuzlandi:

– Nima, bu haqda yozilganmi?

– Hozircha yozmagan bo'lsa bordir, lekin u qachondir bu haqda, albatta, yozadi, – dedim men. – Yana bir jumboq asar dunyoga keladi.

Soat oltida kemaga ko'tarildi deguncha Neruda biz bilan xayrlashdi, chekkadagi stol yonida o'tirib, yashil siyohda she'r bitishga kirishdi. U gullar, baliqlar va qushlarni doimo yashil siyohda chizar, kitoblariga yashil siyohda dastxat yozib berardi. Jo'nash haqida birinchi signal chalingach, Frau Fridani qidirishga tushdik va, nihoyat, xayr-xo'shlashmasdan ketishga shaylangan vaqtimizda uni turistlar palubasida ko'rib qoldik. U ham tushki uyqudan endigina uyg'ongan edi.

– Shoir tushimga kirdi, – dedi u bizga.

Hayratdan tong qotdim va tushini so'zlab berishini so'radim.

– Tushida meni ko‘rayotgani tushimga kirdi, – dedi u.
– Hayratga tushganim uni chalg‘itdi. Nima ham qilardik? Bu-naqa minglagan tushlar orasida chinakam hayotdan uzoqda bo‘lganlari ham bo‘lishi mumkin.

Shundan keyin men «Abana Rivera» mehmonxonasi yonidagi po‘rtana vaqtida halok bo‘lgan ayolning qo‘lida ilon tasviri tushirilgan uzuk borligini eshitmaguncha uni hech qachon ko‘rmadim va surishtirmadim. Bir necha oydan keyin Portugaliya elchisi bilan diplomatik qabul vaqtida tanishganimizda undan Frau Frida haqida so‘rashdan o‘zimni tiya olmadim. Elchi jonlanib ketdi va u haqida hayajonlanib so‘zlay boshladi. «U naqadar g‘aroyib ayol ekanini tasavvur ham qilolmaysiz, – dedi u. – Bilganingizda bu ayol haqida hikoya yozmasdan turolmagan bo‘lardingiz». Shundan keyin u turli g‘aroyib tafsilotlarni shu yo‘sinda so‘zlay ketdi, lekin men uning aytganlaridan u o‘sha ayolmidi yoki boshqasimidi, buni bilolmadim.

– Xullasi kalom, – dedim men oxir-oqibat aniqlab olish uchun, – u nima qilardi?

– Hech narsa, – dedi u hafsalasi birmuncha pir bo‘lib. – Tush ko‘rardi.

«MEN TELEFONDAN QO‘NG‘IROQ QILISH UCHUNGINA KELGANDIM»

Mariya-de-la-Lus Servantes yolg‘iz o‘zi bahorning yomg‘irli kunida ijaraga olgan avtomobilida Montenegros degan kimsasiz joyga yetgan chog‘da mashina buzilib qoldi.

Ko‘hlikkina va jiddiy, yigirma yetti yashar meksikalik juvon bir necha yil oldin varetening ancha tanilgan artistkasi edi. Keyinchalik u birovlarining uylarida tomosha ko‘rsatadigan ko‘zboyloqchi illyuzionistga turmushga chiqdi. Endi bo‘lsa, Saragosada yashaydigan qarindoshlarini borib ko‘rga-

nidan keyin crinikiga qaytayotgandi. Yomg'ir ostida yo'ldan o'tgan-ketgan yengil avtomobillar va og'ir yuk mashinalariga jizg'anak bo'lib, rosa bir soat behudaga qo'l silkidi. Nihoyat loyga belangan avtobus shofyorining unga rahmi kelib to'xtadi. Lekin uzoqqa bormasligini aytib ogohlantirdi.

– Mayli, – dedi Mariya. – Men telefondan qo'ng'iroq qilib olishim kerak.

Haqiqatan ham u faqat qo'ng'iroq qilib, kechki soat yettiga yetib borolmasligi haqida erini ogohlantirib qo'yishi lozim edi. Talabalar paltochasi va plyaj boshmog'ida u suvga bo'kkan jo'jaga o'xshardi. Boshiga tushgan ko'rgilikdan shu daraja gangib qolgan ediki, hatto mashina kalitini olishni ham unutdi. Haydovchining yonida o'tirgan qaddi-qomati harbiylarnikidek bo'lsa-da, xushmuomala ayol unga sochiq, adyol berdi va yoniga o'tqazish uchun nariroq surildi. Mariya adyolga o'ranib o'tirdi, sigareta chekkisi keldi, lekin gugurt namiqib qolgan ekan. Qo'shnisi gugurt chaqdi va bitta sigareta so'radi. Qutidagi ozgina sigaretaning bir nechtasi quruq qolgandi. Ular sigareta tutatishdi. Mariya ichidagini to'kib solishdan o'zini to'xtata olmadi. Yomg'ir va guvillayotgan motor shovqinini bosadigan darajada baland ovozdagi gapi-ra boshlagan ham ediki, ayol ko'rsatkich barmog'ini labiga bosib, uni to'xtatdi.

– Uxlashyapti, – shivirladi u.

Mariya yelka osha orqaga nazar tashladi va avtobus turli yoshdagi va turli mavqedagi ayollarga to'la ekanini ko'rdi. Ularning hammasi xuddi Mariyanikiga o'xshash adyollarga o'ralgancha uxlayotgan edilar. Qo'shnisining bamaylixtotirligi Mariyaga ham yuqdi va u tuzukroq joylashib oldi-da, yomg'ir shovqini ostida mudray boshladi. Uyg'onganida qorong'i tushgan, jala kuchli ayozga almashgandi. Mariya qancha uxlagani va hozir qaerga kelib qolganidan mutlaqo bexabar edi. Qo'shni xotin jangovar holatga kirganga o'xshardi.

– Qayoqqa keldik? – so'radi Mariya.

– Keldik, – javob qildi xotin.

Avtobus tosh yotqizilgan hovliga kirdi. Bahaybat daraxtlar bilan o‘ralgan katta mudhish bino eski monastirga o‘xshab ketardi. Xira ko‘cha chirog‘i yoritayotgan ayollar qomati harbiylarnikidek xotin bog‘cha opaday oddiy buyruqlar berib, ularni avtobusdan tushishga majbur qilmaguncha qimir etmadilar. Ayollarning barchasi ancha yoshga borib qolgan bo‘lib, g‘ira-shira hovlida shunchalik chtiyotkorona borishardiki, Mariya ularni go‘yo tushida ko‘rayotgandek bo‘ldi. Eng oxirida tushgan Mariya ular rohibalar bo‘lsa kerak, deb o‘yladi. Lekin ayollarni avtobus eshigi oldida kutayotgan formal xotinlar namiqmasliklari uchun ularning boshiga adyol tashlab, safga tizib, bir og‘iz ham gapirmasdan, turnaqator ayollarni bir maromda qarsak urgan holda haydab ketishganida, hatto, nima deb o‘ylashini ham bilmay qoldi. Mariya qo‘shni ayol bilan xayrlashdi, unga adyolni qaytib bermoqchi bo‘ldi, lekin u hovlidan o‘tarkan, boshini yopib olishi kerakligini, so‘ngra adyolni qorovulxonaga topshirishni aytdi.

– U yerda telefon bormi? – so‘radi Mariya.

Albatta, – javob berdi ayol. – Qayerda ekanini sizga ko‘rsatishadi.

U Mariyadan yana bitta sigareta so‘radi. Mariya namiqqan qutidagi sigaretalarning hammasini unga berdi. «Yo‘lda qurib qoladi», – dedi u. Ayol avtobus pillapoyasida turgancha qo‘l silkib xayrlasharkan, «Omadingizni bersin», – deb qichqirdi. Avtobus o‘rnidan qo‘zg‘aldi va bir zumda g‘oyib bo‘ldi.

Mariya kirish eshigi tomonga chopdi. Soqchi xotin qattiq qarsak urib, uni to‘xtatmoqchi bo‘ldi, lekin qat‘iy ohangda baqirishga majbur bo‘ldi: «To‘xta!», – dedim. Mariya adyol tagidan mo‘raladi va muzday nigohni hamda e‘tirozga o‘rin qoldirmay safni ko‘rsatgan ko‘rsatkich barmoqni ko‘rdi. U bo‘ysundi. Dahlizda guruhdan ajralib, darvozabondan telefon qayerda ekanini so‘radi. Soqchilardan biri yelkasiga qoqib, safga qaytishga majbur qilarkan, shirinso‘zlik bilan dedi:

– U yoqda, go‘zal qiz, telefon u yoqda.

Mariya ayollarga ergashib, qorong‘i dahlizdan o‘tdi va kattakon umumiy yotoqqa kirdi. Bu yerda soqchilar adyollarni tortib oldilar va ayollarni karavotga taqsimladilar. Mariyaga boshqalariga qaraganda odamshavanda ko‘ringan va mansabi kattaroq soqchi ayol ro‘yxatni xotinlarning ko‘kragiga tikilgan karton qog‘ozga yozilgan ismlari bilan solishtirib, yotoqni aylanib chiqdi. Mariyaga gal kelganida, uning ismi yozilmaganiga hayron bo‘ldi.

– Gap shundaki, men telefondan qo‘ng‘iroq qilish uchun-gina keldim, – dedi Mariya.

Shundan keyin u yo‘lda mashinasi buzilib qolganini shosha-pisha tushuntira boshladi. Ko‘zboyloqchi-illyuzionist eri uni Barselonada kutyapti, bu oqshom eri uch marta tomosha ko‘rsatadi, Mariya yetib borishga ulgurmaydi va tomoshalar-ga borolmasligi to‘g‘risida erini ogohlantirib qo‘ymoqchi. Hozir soat yetti bo‘lay, deb qoldi. O‘n minutdan keyin eri uydan chiqib ketadi va xotini kechikkani uchun tomoshalarni bekor qilishidan cho‘chimoqda. Soqchi, aftidan, qizni diqqat bilan eshitayotganga o‘xshardi.

– Isming nima? – so‘radi u.

Mariya ismini aytdi va yengil tortdi, ammo ro‘yxatni yana bir necha bor ko‘zdan kechirgan ayol uning ismini topmadi. Tashvishlanib, boshqa soqchi ayoldan nima gapligini so‘radi, u hech narsa demay, yelkasini uchirdi, xolos.

– Gap shundaki, men telefondan qo‘ng‘iroq qilish uchun-gina keluvdim, – dedi Mariya.

– Yaxshi, go‘zal qiz, – dedi kattasi uni karavot tomonga boshlar ekan. – Agar o‘zingni yaxshi tutsang, kimga xohla-sang, shunga telefon qilishing mumkin. Lekin faqat bugun emas, ertaga.

U bu so‘zlarni shunchalik mehribonlik bilan aytdiki, ishonmaslikning iloji yo‘q edi.

Shundagina Mariya hamma gapni tushunib yetdi, xotin-larning avtobusdan nega bu qadar garangsirab chiqqanlarining

sababini angladi. Ularning hammasi asabni tinchlantiradigan ukol qilishgani uchun shu qadar gangib qolgan, qalin devorlari yo'nilgan toshlardan ko'tarilgan, mash'um zinapoyali, zulmatga ko'milgan bu saroy bo'lsa – jinnixonona. Dahshatga tushib, yotoqdan qochib chiqdi, lekin ayvongacha yetib borolmadi. Norg'ul soqchi ayol, xuddi usta polvonlardek uni ushlab oldi, mohirona usul ishlatib yerga yiqitdi va polga bosdi. Mariya ko'z qiri bilan unga qarab, dahshatdan murda bo'lib qoldi.

– Xudo haqqi, – deya oldi, – senga marhum onam haqqi qasam ichib aytayki, men faqat telefondan qo'ng'iroq qilish uchun keldim.

Biroq aql bovar qilmaydigan darajada kuchli bo'lgani sababli Gerkulina deb atashadigan bu quturgan devni hech qanday tavallo bilan yumshatib bo'lmasligini anglash uchun uning yuz-ko'ziga nazar tashlashning o'zi kifoya edi. Uni alohida hollar uchun yollashgandi, ikkita zohid ayol uning yo'l-yo'lakay o'ldirishga o'rgatilgan oq ayiqnikidek kattakon panjalari ostida bo'g'ilib, jon taslim qilgandi. Birinchi hodisa baxtsiz hodisa deb topilgandi. Ikkinchi hodisa sabablari nomalum qolgan, ammo keyingi gal sinchiklab tergov o'tkazilishi xususida Gerkulinani qattiq ogohlantirishgan edi. Podasidan adashgan bu nomdor maxluq Ispaniyaning bir nechta jinnixonalarida qator shubhali baxtsiz tasodiflarga yo'l qo'ygani haqida mish-mishlar yurardi.

Birinchi kechasi Mariyani uxlatish uchun unga uyqu dori-dan ukol qilishga to'g'ri keldi. Sigaret xumor qilgani uchun tong chog'i uyg'onib, o'zini bilaklari va to'piqlaridan karavotga bog'liq holda ko'rdi. Harchand baqirmasin, hech kim kelmadi. Ertalab, eri uni Barselonadan qidirib, izini ham topmagan vaqtda, o'z najasiga bulg'angan holda behush yotgan Mariyani lazaretga o'tkazishlariga to'g'ri keldi.

Behush holatda qancha yotganini bilmaydi. Ammo endi butun olam huzur-halovat va mehrga ko'milgan, karavotining

tepasida bo'lsa, ayiqday lapanglab yuradigan va tabassumi asabni tinchlantiradigan doriday ta'sir qiladigan ulug'vor qariya turardi. U ko'zboylovchilardek mohirona ikkita qo'l harakati bilan Mariyaga xush kayfiyat bag'ishladi. Keksa vrach sanatoriy direktori edi.

Mariya u bilan salomlashmasdanoq, eng avvalo, sigareta so'radi. Qariya unga tutashtirilgan sigareta berdi va deyarli to'la bir quti sigareta sovg'a qildi. Mariya ho'ngrab yubordi.

Ko'p yaxshi, ko'p yaxshi, yaxshilab yig'lab olgin, – dedi vrach allalovchi ovozda. – Yig'i – eng yaxshi doridir.

Mariya uyalib-netib o'tirmay, hasrat to'kishga kirishdi. Holbuki, hatto, tasodifiy jazmanlari bilan to'shakdan keyin zerikish va nafrat lahzalari bostirib kelganida ham u bu daraja yozilib so'zlashishga muvaffaq bo'lolmagandi. Vrach unga quloq solarkan, panjasi bilan juvonning sochlarini taradi, yengil nafas olishi uchun yostig'ini to'g'rilab qo'ydi va Mariyaning shubhalarini shunday ustalik va nazokat bilan tarqatib yubordiki, bunday bo'lishini u hech qachon orzu ham qilmagandi. Juvonning umrida birinchi bor mo'jiza ro'y bergan, erkak unga diqqat bilan quloq solayotgan, butun borlig'i bilan tushunib yetgan, buning uchun mukofot – qiz bilan yotishni kutmayotgan edi. Juvon ichida borini roppa-rosa bir soat to'kib soldi va oxirida eriga telefondan qo'ng'iroq qilishga ruxsat berishlarini iltimos qildi.

Vrach mansabiga yarasha o'ziga munosib ulug'vorlik bilan qaddini rostladi. «Hozircha mumkin emas, malikam, – dedi u Mariyaning yonoqlarini shu choqqacha qiz hech kimdan, hech qachon ko'rmagan nazokat bilan silab qo'yarkan. – Hamma narsaning o'z vaqti-soati bor». Ostonada o'girilib, qizga ruhoniya duo ishorati qildi va shu bilan abadiy gum bo'ldi.

– Menga ishonaver, – dedi u chiqarkan.

O'sha kuniyoq Mariyaning ismi shifoxona mijozlari ro'yxatiga navbatdagi raqam ostida tirkaldi va shosha-pi-

sha quyidagicha ilova qilindi: shaxsi noma'lum, nasl-nasabi aniqlanmagan. Hoshiyaga direktorning o'z qo'li bilan bunday xulosa bitilgandi: asov.

Mariya taxmin qilganidek, eri ularning Orta dahasidagi kamtarona kvartiralaridan yarim soat kechikib chiqdi va tomosha ko'rsatishga jo'nadi. Ularning salkam ikki yillik erkin va totuv ittifoqi mobaynida Mariya ilk bor o'z vaqtida kelmagandi. Eri bunga shanba va yakshanbada tevarak-atrofdagi kuni bo'yi quturib yog'gan jala sababchi bo'lgan, deb o'yladi. Ketish chog'ida Mariyaning o'qishi uchun kechki tomoshalarining jadvalini yozib, eshikka qistirib ketdi.

Barcha bolalar kenguru qiyofasiga kirgan birinchi tomoshada o'zining mashhur ko'rinmas baliqlar fokusidan voz kechdi, chunki Mariyaning yordamisiz bu fokusni ko'rsata olmasdi. Ikkinchi tomoshasi to'qson uch yashar kampirning uyida bo'lishi kerak edi. Kampir so'nggi o'ttiz yilda har bir tug'ilgan ku-nini yangi ko'zboyloqchi ishtirokida nishonlashni o'ziga odat qilgandi. Mariya kechikkani uchun uning dili shu darajada xira bo'lgandiki, hatto, eng oddiy nayranglarni ham uddalay olmadi. Uchinchi tomosha Ramblas qahvaxonasida, kundalik kechki dastur asosida o'tkazildi. Sehrni shunchaki lo'ttibozlik deb o'ylagani uchun ko'rayotganiga hech ishonmayotgan fransuz turistlari oldida hech bir ilhomsiz ishladi. Har bir tomoshadan keyin uyiga qo'ng'iroq qilib, Mariyaning go'shakni ko'tarishini ishonib-ishonqiramay kutdi. Oxirgi qo'ng'iroqdan keyin u ichiga oralagan falokat tuyg'usini bosa olmay qoldi.

Tomoshalar uchun maxsus jihozlangan mo'jaz yuk mashinasida uyga qaytarkan, Pasco-de-Grasia ko'chasida bahorda ko'rkamlashib ketgan ajoyib palmalarga ko'zi tushdi va Mariya bo'lmasa bu shahar naqadar g'arib bo'lishi mumkinligi haqidagi fikrdan larzaga keldi. O'zi yozib ketgan maktubchasi hanuz eshikka osig'liq ekanini ko'rib, oxirgi umidi ham yo'qqa chiqdi.

Ta'bi shu daraja tirriq bo'ldiki, mushukka ovqat berishni ham unutdi.

Faqat shu chog'da, mana shu satrlarni yozayotib, men qo'qqisdan uning haqiqiy ismini hech qachon bilmaganimni tushundim. Barselonada hammamiz uning artistlik laqabinigina bilardik, xolos: Afsungar Saturno. Uning fe'li-xo'yi g'alati, odamovi bo'lib, o'zgaralar bilan chiqisha olmasdi. Unga yetishmagan tavoze va mulozamat degan narsa Mariyada to'lib-toshib yotardi.

Ulkan jumboqlarga to'la xaloyiq olamida Mariya uni yetaklab yurar va bu olamda xotining taqdiridan tashvishlanib, yarim kechasi kimgadir qo'ng'iroq qilish hech qachon hech kimning xayoliga ham kelmasdi. Bir kuni, qachonlardir, Saturno Barselonaga kelib, tun yarmida kimgadir qo'ng'iroq qilgan va shundan buyon bu haqda eslashni ham xohlamay qo'ygandi. Shunday bo'lsa-da, u hoziroq Saragosaga qo'ng'iroq qilishga qaror qildi va uyqusiragan buvi, zarracha tashvishlanmay, Mariya tushdan keyin jo'nab ketganini aytdi. Tongga yaqin Saturnoning ko'zi ilindi va bor-yo'g'i bir soat uxlay oldi, xolos. Alag'da tush ko'rdi: Mariya qonga bo'yalgan, juldur kelin ko'ylakda edi. U dahshatdan uyg'onib ketdi va xotini uni endi abadiy yolg'iz tashlab ketganiga amin bo'ldi, usiz poyonsiz bu olam huvillab qolganday bo'ldi.

Keyingi besh yil ichida xotini uni, o'zini ham qo'shib hisoblaganda, uch nafar erkak bilan uch bora tashlab ketgandi. Tanishganlaridan yarim yil o'tgandan so'ng Ansures tumanidagi mo'jazgina xizmat xonasida telbalarcha ishlari avjiga chiqqan, baxt-saodatdan yorilib o'lay deganlarida Mariya uni tashlab ketgan edi. Bir gal butun kechani tiyiqsiz ishq o'yinlari bilan o'tkazganlaridan keyin sahar mardonda Mariya g'oyib bo'lib qoldi. U o'zining barcha narsalarini, hatto, oldingi nikohidan qolgan uzugini ham bir maktub bilan tashlab ketgandi. Maktubda u bu tiyiqsiz sevgi to'foniga ortiq dosh berolmasligini yozgandi. Saturno u oldingi erining yo-

niga qaytgan bo'lsa kerak, degan xayolga bordi. Ular maktabdosh bo'lib, Mariya voyaga yetmagani uchun yashirincha turmush qurishgan, lekin sevgidan xoli ikki yillik turmushdan keyin Mariya ketib qolgan edi. Yo'q, Mariya sobiq erinikiga emas, ota-onasinikiga qaytgan ekan. Saturno nima qilib bo'lsa ham qaytarib olib kelish uchun uni izlab bordi. Hech qanday shart qo'ymasdan, bajarishi mumkin bo'lganidan ham kattaroq va'dalar berib, rosa yalindi. Biroq qattiq qarshilikka duch keldi. «Uzoq davom etadigan sevgi ham, qisqasi ham bo'ladi, – dedi Mariya unga va shafqatsizlarcha xulosaladi: – Bunisi qisqa bo'lib chiqdi». U oyog'ini tirab oldi va Saturno taslim bo'ldi. Lekin deyarli bir yil muqaddam yetim qolgan kvartirasiga Barcha avliyolar kuni erta tongda qaytib, sun'iy oq gullar bilan bezatilgan gulchambar taqqan va pokiza bokiralarning uzun hilpiroq shaffof ro'molini o'ragan Mariyani mehmonxonadagi karavotda uxlab yotgan holda ko'rdi.

Mariya unga rostini aytdi. Yangi kuyov, deyarli osuda hayot kechirayotgan befarzand beva katolik cherkovida nikohdan o'tib, uylanishga astoydil qaror qilgan, lekin kelin ko'ylak kiygan qizni mehrob oldida tashlab ketgandi. Qizning ota-onasi, shunga qaramay, to'yni o'tkazishga qaror qilishgan, u ham bu o'yinga rozi bo'lgan edi. Raqs tushdi, otarchilarga qo'shilib ashula aytdi, ko'proq ichib qo'ydi va kechikkan vijdon azobida o'rtanib, yarim kechasi Saturnonikiga yo'l oldi.

Saturno uyida yo'q edi, ammo u dahlizdagi gultuvak ostiga qo'yilgan kalitni topdi. Ular kalitni doimo o'sha yerda qoldirguvchi edilar. Ayol bu gal hech qanday shartsiz taslim bo'ldi. «Endi bu qancha davom etadi?» – so'radi Saturno. Mariya Vinnisius di Moraysning so'zlari bilan javob qaytardi: «Davom etgan sevgi – abadiydir». Mana, oradan ikki yil o'tgan bo'lsa-da, sevgilari hanuz abadiyligicha qolayotgandi.

Mariyaning esi kirib qolganga o'xshardi. Aktyorlik orzularidan kechib, ish borasida ham, ishq borasida ham o'zini butunlay eriga bag'ishladi. Yil oxirida ular afsungarlarning

Perpinyandagi kongressiga borishdi, qaytishda Barselonaga kirishdi. Shahar ularga shunchalik yoqib qoldiki, mana, qariyb to'qqiz oydan beri shu yerda istiqomat qilishyapti. Hammasi ko'ngildagiday edi. Tipik katalon dahasi Ortadan kvartira sotib olishdi. Uy sershovqin, qorovuli yo'q, lekin xonalari beshta bolani ham sig'dirsa bo'ladigan darajada keng-mo'l edi. Bundan katta baxt bo'lishi mumkin emasdi. Baxt-saodat Mariya ijaraga mashina olib, qarindoshlarini ko'rib kelgani Saragosaga ketgan o'sha hafta oxiriga qadar davom etdi. Mariya dushanba kuni kechki soat yettida qaytib kelishga va'da bergandi. Payshanba o'tib borayotgan bo'lsa-da, undan darak yo'q.

Keyingi haftaning dushanba kuni ijara avtomobillari sug'urta kompaniyasidan qo'ng'iroq qilishdi va Mariyani so'rashdi. «Hech narsadan xabarim yo'q, – dedi Saturno. – Uni Saragosadan qidiringlar». – shunday deb, go'shakni qo'yib qo'ydi. Bir haftadan keyin uyiga politsiyachi kelib, mashinani Mariya qoldirgan joydan to'qqiz yuz kilometr uzoqda, Kadis yaqinidagi kimsasiz yo'lda ship-shiydam qilingan holda topishganini aytdi. Politsiyachi o'g'irlikning qandaydir tafsilotlarini Mariya bilish-bilmasligini so'ramoqchi bo'lib kelgandi. Saturno bu pallada mushukni ovqatlantirayotgandi, vaqtni behuda o'tkazmasliklari, xotining uydan qochib ketgani, uning kim bilan va qacrdan ckanini bilmasligini piching qilmasdan aytish uchungina o'girilib qaradi, xolos. Aytganlariga uning imoni komil edi. Politsiyachi o'ng'aysizlanib, uzr so'radi. Shu bilan qidiruv to'xtatildi.

Pasxa bayramini o'tkazishga Kadakeshga borganlarida bo'lgan voqeani eslaganida Saturnoni Mariya uni yana tashlab ketgani to'g'risidagi gumon bosdi. U yerga ularni Ros Regas yelkanli kemada sayr qilishga taklif qilgandi. Biz «Maritim»-da, tirband va irkit barda, Franko davrining zavolli davriga xos «a daise ytpca»da temir stol atrofidagi temir kursilarda o'tirgan edik. Garchi stol atrofiga olti kishi zo'rg'a sig'ishi

mumkin bo'lsa-da, biz o'n ikki kishi joylashgandik. Ertalabdan buyon ikkinchi qutini chekib tugatarkan, Mariya gugurt qolmaganini sezib qoldi. Bilagiga romancha jez bilaguzuk taqqan ozg'in, erkakcha jundor qo'l stol ustidagi tiqilinch orasidan tutashtirishi uchun unga olov uzatdi. Kim ekaniga e'tibor ham bermagan juvon minnatdorchilik bildirdi, lekin Saturno yigitga diqqat qildi: yuzi murdanikidek qonsiz, beligacha tushgan uzun ko'kimtir-qora sochini otning dumidek bog'lab olgan mo'ylovsiz bir qoqsuyak. Barning deraza oynalari bahor izg'irini po'rtanasiga zo'rg'a dosh berayotgan bo'lsa-da, u dag'al chitdan tikilgan yengil kostyum kiyib olgandi, oyoqlarida esa, dehqoncha boshmoq.

Kuzda uni Barseloneta dahasidagi mollyuska taomlari restoranda uchratishdi. U hanuz o'sha soddagina kiyimida, lekin bu gal sochini otning dumiday emas, mayda o'rib olgandi. Yigit ularning har ikkovi bilan eski do'stlardek so'rashdi, ammo Mariyani o'pganini va xotini ham unga qanday javob qilganini ko'rib, Saturno o'tgan vaqt mobaynida ular pinhona uchrashib yurgan bo'lishsa kerak, degan gumonga bordi. Bir necha kundan so'ng uydagi telefon daftarida Mariya tomonidan yozilgan yangi raqamni ko'rib qoldi va to'satdan uyg'ongan shafqatsiz rashk bu kimning telefoni ekanini shiphidi. Yo'q yerdan paydo bo'lgan do'st haqida to'plangan ma'lumotlar uni butunlay adoyi tamom qildi: yoshi yigirma ikkida, o'zi boy odamlarning yagona farzandi, hashamatli do'konlar vitrina-sini bezovchi rassom, xotinbozligi bilan tuturiqsiz shuhrat qozongan va erli xonimlarga tasalli berishga ustasi farang deb nom chiqargan bir kimsa. Biroq Saturno o'zini qo'lga oldi va Mariya Saragosadan uyga qaytmagan kungacha chidadi. Shundan keyingina u o'sha raqamga, oldiniga, har ikki yoki uch soatdan keyin, ertalabki soat oltidan keyingi tonggacha, so'ngra telefonni ko'rgan zahoti to'xtovsiz qo'ng'iroq qila boshladi. Hech kim javob bermas va bundan u yanada battar azoblanar edi.

To'rtinchi kuni uy tozalashga kelgan andalus ayol telefonga javob berdi. «Senorita ketdilar», – deb javob berdi u mujmal qilib. Bundan Saturnoning fig'oni falakka chiqdi. U: «Tasodifan seniorita Mariya o'sha yerda yo'qmilar?» – deb so'rashdan o'zini tiya olmadi.

– Bu yerda hech qanaqa Mariya-pariya degani yashamaydi, – javob berdi ayol. – Seniorita so'qqaboshlar.

– Bundan xabarim bor, – dedi u. – Yashamasa yashamas, lekin o'qtin-o'qtin kelib turadi, shunday emasmi?

Ayolning qoni qaynab ketdi:

– Senga nima, aljigan it?

Saturno go'shakni qo'ydi. Andalus ayol bilan bo'lgan suhbat gumonini qat'iy ishonchga aylantirdi. U o'zini qo'yarga joy topolmay qoldi. Keyingi kunlari u Barselonadagi barcha tanishlariga alfavit bo'yicha qo'ng'iroq qila boshladi. Hech kim, hech qanday xabar aytolmas, lekin u har bir qo'ng'iroqdan keyin o'zini yanada baxtsizroq his qilar, bo'lmag'ur rashki «La gauche divine»da tong ottiradigan barcha ashaddiy mijozlar o'rtasida hazil-mazaxga sabab bo'lgan, unga hazil bilan javob qaytarishar, u bo'lsa jizg'anak bo'lar edi. Faqat shundagina Saturno bu go'zal, buqalamun va bag'ritosh shaharda naqadar yolg'iz ekanini tushundi. Bu yerda, aftidan, u hech qachon baxtli bo'lolmasdi. Erta tongda mushukni ovqatlantirib bo'lgach, o'lib qolmaslik uchun yuragiga tosh bog'ladi va Mariyani unutishga qat'iy qaror qildi.

Ikki oy o'tgan bo'lsa-da, Mariya sanatoriy hayotiga ko'nikolmadi. Tarashlangan uzun stolga zanjir bilan bog'lab qo'yilgan pichoq va sanchqi yordamida turma ovqatini azbaroyi yashash uchun cho'qilardi. Ovqatlanarkan, bu mudhish o'rta asr oshxonasida go'yo raislik qilayotgan general Fransisko Fran- koning portretiga tikilib o'tirardi. Avvaliga monastirning mutaassibona ertalabki, kechki va shu kabi diniy ibodatlardan iborat ahmoqona kun tartibiga qarshi turib ko'rdi. Monastirda asosiy vaqt shu ibodatlarga sarf qilindi.

Hovlida to'p o'ynashdan, ustaxonada ishlashdan, sun'iy gullar yasashdan bosh tortdi. Ba'zi zohid ayollar bu mashg'ulotni o'larday yaxshi ko'rardilar. Uch hafta o'tganidan keyin Mariya asta-sekin monastir hayotiga ko'nikdi. Hammasi joyida, deyishardi vrachlar, boshida barcha sarkashlik qiladi, so'ngra ertami, kechmi, boshqalarga qo'shiladi.

Dastlabki kunlari Mariya sigaretani tilla bahosida sotadigan soqchi xotindan olib yurdi. Shundoq ham kamgina puli tugaganidan keyin sigaretasiz qolgani, turgan-bitgani azob bo'ldi. Ancha vaqtgacha u zohid ayollar kir o'radan olgan sigareta qoldiqlaridan gazeta qog'oziga o'rab yasaydigan papirosni chekib, ovunib yurdi. Bora-bora chekish istagi telefondan qo'ng'iroq qilishga o'xshash miyadan ketmaydigan xira fikrga aylandi. Biroz vaqt o'tgach, sun'iy gul yasab, arzimagan chaqa ishlab topadigan bo'ldi, bu chaqalarga oladigan sigaretalari sal bo'lsa-da, o'tkinchi xumorni yozishga yarardi.

Tun pallasidas yolg'iz qolish – hammasidan yomoni edi. Zohid ayollarning ko'pchiligi unga o'xshab qorong'ida bedor yotishar, qimir etishga yuraklari betlamas edi, zanjirband, osma qulf urilgan eshik yonidagi tungi soqchi uxlamay kuzatib o'tirardi. Shunday bo'lsa-da, og'ir o'ylardan qiynalgan Mariya bir tunda yonidagi ayol eshitadigan darajada baland ovozda so'radi:

- Biz qayerdamiz?
- Jahannamning tubida.
- Bu yerni mavrlar yurti deyishadi. – Uzoqroqdan yangragan ovoz butun yotoqqa eshitildi. – Bu gap to'g'ri bo'lsa kerak, chunki yozda oydin kechalari dengiz bo'yidagi itlar oyga qarab uligani eshitiladi.

Eshik halqasidagi zanjir, xuddi kema langari singari, qattiq shaldiradi va eshik ochildi. Qopong'ich it – birdan cho'kkan sukunat ichida yagona tirik maxluqqa o'xshagan soqchi ayol yotoqning u yog'idan-bu yog'iga kezib kela boshladi. Mari-

ya dahshatdan qotib qoldi. Chunki soqchining qanday niyatda kelganini faqat u bilardi.

Kasalxonaga yotqizilganidan keyin bir hafta o'tmasdanoq kechki soqchi xotin Mariyaga shama-pama qilib o'tirmasdan, to'g'ridan-to'g'ri qorovulxonada u bilan yotishni taklif qildi. Oldiniga amaliy taklifdan boshladi, sevgi evaziga sigareta, shokolad, xullas, nima kerak bo'lsa, shu. «Hamma narsang bo'ladi, – dedi u hirsdan qaltirab. – Xuddi malikalarday yashaysan». Soqchi rad javobini olgach, taktikani o'zgartirdi. Xotin Mariyaga ishqiy maktublar yozib, yostig'ining tagiga, xalatining cho'ntagiga solib qo'yadigan, hech kutilmagan joylarda qoldiradigan bo'ldi. Yurakni ezadigan o'tinchlarga to'la maktublar toshni ham eritishi mumkin edi. Bir oy bo'ldiki, u mag'lubiyatni tan olganday tuyulgandi, endi bo'lsa, mana tunda yana izg'ib keldi.

Mariya uni qo'li bilan shunchalik qattiq itarib yubordiki, xotin qo'shni karavotga yiqildi. Uyg'onib ketgan zohidalar sa-rosimaga tushishdi, quturgan soqchi sakrab turdi.

– Sen, – deb bo'kirdi u, – hali ko'rasan, bu cho'chqaxonada chiriysan, hali oyog'imdan o'pasan.

Iyunning birinchi yakshanbasida qo'qqisdan jazirama yoz boshlandi va oshig'ich choralar ko'rishga to'g'ri keldi. Is-siqdan dami qaytgan zohidalar ibodat vaqtida egnidagi yung matodan tikilgan keng, uzun chakmonlarni yechib, uloqtira boshladilar. Mariya bu tomoshadan zavqlandi, soqchi xotinar, go'yo quvlashmachoq o'ynayotgandek, qip-yalang'och mahbuslarni butun ibodatxona bo'ylab quva boshladi. To's-to'polonda bexosdan zarba yeyishdan qochib, Mariya nimadir bo'lib, kimsasiz xizmat xonasiga kirib qoldi. Telefon tinimsiz ayanchli jiringlayotgandi. Mariya g'ayriixtiyoriy ravishda go'shakni ko'tardi va uzoqdan shodon ovoz eshitdi – kimdir telefon orqali beriladigan vaqt xizmatiga taqlid qilib, ko'ngilxushlik qilayotgandi:

– Hozir soat qirq beshdan to'qson ikki minut-u bir yuz yetti sekund o'tdi.

– Eshshak, – dedi Mariya.

Xursand bo‘lib, go‘shakni qo‘ydi. Eshikka yaqinlashganida boshqa takrorlanmaydigan imkoniyatni boy berayotganini to‘satdan angladi. Shunda shu daraja qizg‘inlik bilan shosha-pisha oltita raqamni terdiki, hatto o‘z telefon raqamini to‘g‘ri terganiga ham ishonchi komil emasdi. Kutdi, yuragi qinidan chiqqunday bo‘lib urardi. Tanish g‘amgin gudok eshildi. Bir, ikki, uch gudok va nihoyat, xojasi bo‘lgan, usiz uyg‘i erkakning tovushi yangradi:

– Eshitaman?

Ko‘z yoshlari potirlab, tomog‘iga bir narsa tiqilganday bo‘ldi. Nafasini rostlaguncha biroz kutishga to‘g‘ri keldi.

– Mushukcha, hayotim, – dedi u entikib.

Ko‘z yoshlari shashqator bo‘ldi. Simning u tomonida xatarli sukunat muallaq bo‘ldi, so‘ngra rashkdan bo‘g‘riqqan sas yangradi:

– Fohisha!

Go‘shakni uloqtirishdi.

Kechqurun Mariya g‘azab tutqanog‘i tutib, generallissimusning oshxona devoriga osig‘liq portretini yulib oldi, bor kuchi bilan derazaga otdi va qonga belanganicha polga yiqildi. Shunday bo‘lishiga qaramay, soqchi xotinlarning hujumini daf qilishga kuchi yetdi. Soqchilar harchand urinmasinlar, uni tinchlantirishni eplay olmadilar. Ostonada qo‘llarini ko‘kragida chalishtirib olgan va ko‘zini lo‘q qilib turgan Gerkulinaga ko‘zi tushmaguncha olishaverdi. Mariya taslim bo‘ldi. Shunday bo‘lsa-da, uni asovlarga mo‘ljallangan xonaga olib borishdi, shlangdan sovuq suv urib tinchlantirishdi, soniga ukol urishdi. Ukoldan Mariyaning oyoqlari shunchalik shishib ketdiki, yurolmay qoldi. Shunda u bu do‘zaxdan qutulish uchun hamma narsaga tayyor ekanini angladi. Keyingi haftasi umumiy yotoqqa qaytganida, oyoq uchida yurib, kechki soqchining darchasini taqillatdi.

Mariya ish bahosi va shartlarini aytdi, oldiniga ish bajarilishi, eriga maktub eltib berilishi lozim edi. Soqchi xotin

rozi bo'ldi, lekin bu gaplar mutlaqo sir saqlanishi lozimligi to'g'risida ogohlantirdi. Barmog'ini Mariyaga nuqib, qat'iy dedi:

– Agar sir ochilsa, sen o'lasan.

Shunday qilib, Afsungar Saturno keyingi shanba kuni jinnixonaga yetib keldi. Uning yuk mashinasi Mariyaning tantanali qaytib kelishiga atab yasatilgan edi. Direktorning shaxsan o'zi xuddi harbiy kemalardagidek top-toza va sarishta kabinetida uni qabul qildi va marhamat ko'rgazib, xotini haqida so'zlab berdi. Mariya qanday qilib, qayerdan kasalxonaga tushganini hech kim bilmaydi, u haqidagi ayrim ma'lumotlarni bo'lsa, Mariya bilan suhbatdan keyin shaxsan o'zi yozdirgan. O'sha kuni boshlangan tekshiruv hech qanday natija bermadi. Direktorni hammasidan ham Saturno xotini qayerda ekanini, qanday bilgani qiziqtirayotgandi. Saturno soqchini sotmadi.

– Ijara avtomobillari sug'urtasi kompaniyasidagilar xabar qilishdi, – dedi Saturno.

Direktor qoniqib, bosh silkib qo'ydi.

– Bu sug'urta kompaniyalari hamma narsani bilib oladilar, buni qanday qilishlarini tushunish qiyin, – dedi u. Bo'm-bo'sh stolda yotgan kasallik tarixini yana bir bor ko'zdan kechirdi va xulosa chiqardi: – Bir narsa aniq: uning ahvoli og'ir.

Zarur ehtiyot choralariga rioya qilgan taqdirda ko'rishishlariga ruxsat berishga tayyor edi. Afsungar Saturno rafiqasi-ning baxt-saodati yo'lida direktor nima desa shuni qilishi kerak edi. Mariya bilan favqulodda muloyim gaplashish darkor, aks holda quturish tutqanog'i tutib qolishi mumkin. Holbuki, keyingi vaqtlarda Mariyani tez-tez tutqanoq tutadigan bo'lgan va bu borgan sari xatarli tus olib bormoqda.

– G'alati, – dedi Saturno, – u hamisha kuchli hissiyot egasi bo'lsa-da, o'zini tutadigan ayol edi.

Vrach ko'p narsa biladigan odamga xos ishora bilan uni to'xtatdi.

Ko'pincha kasallik uzoq yillar davomida pinhon yetiladi, ajoyib kunlarning birida portlash shaklida yuzaga chiqadi, –

dedi u. – Nima bo'lgandayam, uning omadi bor ekanki, bu yerga tushdi, chunki biz qattiqqo'llik ko'rsatish talab qilingan hollarda hozir-u nozir mutaxassislarimiz.

So'z nihoyasida u telefondan qo'ng'iroq qilish to'g'risida Mariyaning kallasiga o'rnashib qolgan g'alati fikr to'g'risida ogohlantirdi.

– Unga gap qaytarmang, – dedi u.

– Xotirjam bo'ling, doktor, – dedi Saturno jilmayib. – Bu – mening kasbim.

Uchrashuv zali turma yoki istig'for keltiriladigan xonaga o'xshash bir joy bo'lib, oldinlari monastirda qabulxona vazifasini bajargandi. Saturnoning paydo bo'lishi tufayli har ikkovi quvonchdan yorilay demadi. Holbuki, ikkovi ham shuni kutgan bo'lishlari mumkin edi. Mariya zal o'rtasidagi ikkita stuli bo'lgan stol yonida guldon ushlab turardi, uning kasalxonadan chiqishga hozirlangani ko'rinib turardi. Egnida ko'rimsiz qizil ko'ylak, oyog'ida kimdir unga rahmi kelib bergan tasqara kir boshmoq. Burchakda qo'llarini ko'kragida chalishtirgan Gerkulina ko'zga tashlanmay turardi. Kirib kelayotgan crini ko'rib, Mariya o'rnidan qimirlamadi, deraza oynasi kesib yuborgan, yaralar bitmagan yuzida hech qanday o'zgarish sodir bo'lmadi. Ular astagina o'pishdilar.

– O'zingni qanday his qilyapsan? – so'radi eri.

– Nihoyat kelganingdan baxtiyorman, mushukcham, – dedi Mariya. – Bu yerda ajalning komida edim.

O'tiradigan joy yo'q edi. Mariya yig'idan xo'rsina-xo'rsina unga monastirdagi dahshatli hayot, soqchi xotinlarning shafqatsizligi, it ham yemaydigan ovqat, dahshatdan titrab mijja qoqmay ottiriladigan tonglar haqida so'zlab berdi.

– Bu yerda necha kun, necha oy yoki necha yil o'tirganimni bilmayman, lekin shuni aniq bilamanki, hammasi bir-biridan yomon bo'ldi, – dedi u va entikib, chuqur nafas oldi. – Endi asti o'zimga kelolmasam kerak.

– Endi hammasi o'tib ketdi, – dedi Saturno barmoqlarining uchi bilan uning yuzidagi bitmagan yara izlarini ohista

silarkan. – Har shanba kuni seni ko‘rgani kelib turaman. Agar direktor ruxsat bersa, bundan ham tez-tez kelaman. Mana ko‘rasan, hammasi yaxshi bo‘lib ketadi.

Mariya dahshatdan olaygan ko‘zlari bilan unga baqrayib qoldi. Saturno davralarda sinalgan usulini ishga soldi. Bolalarni laqillatadigan ohangda doktorning shirin taxminini aytib berdi.

– Xullas, gapning po‘stkallasini aytganda, – dedi oxirida, – to‘la sog‘ayib ketishing uchun bor-yo‘g‘i bir necha kun qolgan, xolos.

Mariya gap nimadaligini tushundi.

– Xudo haqqi, mushukcha! – gangib hayqirdi u. – Sen ham go‘yo aqldan ozganimga ishonganingni ayta ko‘rma!

– Qanaqasiga bunday deb o‘ylashing mumkin?! – dedi u jilmayishga urinib. – Sen bu yerda yana biroz vaqt qolsang, hammaga yaxshi bo‘ladi-da. Albatta, yaxshiroq sharoitda.

– Axir men senga aytdim-ku, telefondan qo‘ng‘iroq qilish uchungina bu yerga kelgandim deb! – dedi Mariya.

Bu dahshatli xira fikrga qanday javob berishini bilolmadi. Gerkulinaga qaradi. U fursatdan foydalanib soatni ko‘rsatdi: uchrashuv vaqti o‘tib bo‘lgandi. Mariya crining nigohini sezib qoldi, o‘girilib, jangovarcha shay turgan Gerkulinani ko‘rdi. Birdaniga erining bo‘yniga yopishdi va endi haqiqiy jinnilardek baqira boshladi. Saturno bisotida bor mehribonlik bilan uni o‘zidan ayirdi va yonlariga uchib kelgan Gerkulinaga qoldirdi. Gerkulina Mariyaning o‘ziga kelishiga yo‘l qo‘ymasdan, chap qo‘li bilan uning qo‘llarini buradi, o‘ng qo‘li bilan bo‘ynidan qayirdi va Saturnoga qichqirdi:

– Keting!

Shunga qaramay, boshdan kechirgan qo‘rquvdan so‘ng o‘ziga kelgan Saturno mushuk bilan keyingi shanba kuni yana kasalxonada paydo bo‘ldi. Mushuk unga monand ki-yintirilgandi: buyuk Leotar tomoshalarda kiyib chiqadigan qizil-sariq trikoda, boshida silindsimon shlyapa, egnida parvoz uchun tikilganga o‘xshash bari keng-mo‘l splash. U

monastir hovlisiga bezatilgan yuk mashinasida kirib keldi va uch soat mobaynida ajoyib tomosha ko'rsatdi. Mahbuslar xursand bo'lishdi, ayvondan tomosha qilib, tomoq yirtib bilganicha qichqirishdi, o'rni bo'lmagan hollarda qarsak urishdi. Tomoshaga Mariyadan boshqa barcha keldi. U eri bilan uchrashishdan bosh tortibgina qolmadi, hatto ayvondan ham qaramadi. Saturno o'zini o'ladigan darajada yaralanganday his qildi.

– Odatiy hol, – deya uni yupatdi direktor. – Bu o'tib ketadi.

Lekin o'tib ketmadi. Mariya bilan uchrashishga ko'p bora urinib, uddasidan chiqolmagan Saturno mumkin bo'lmagan ishni qildi - xotiniga maktub kirgazdi. Lekin bu behuda bo'ldi. Mariya to'rt marta uning xatini ochmasdan qaytardi, bir og'iz gap aytmadi. Saturno chekindi, lekin kasalxona qabul bo'limiga sigareta keltirishda davom etdi. Sigaretalar Mariyaga yetib boryaptimi, yo'qmi, buni bilmasdi. Nihoyat, taqdirga tan berdi.

U haqda boshqa eshitishmadi. Ma'lum bo'lgani shu edi-ki, Saturno boshqatdan uylanib, yurtiga ketib qolgan. Barselonadan ketish oldidan ochlikdan eti ustixoniga yopishgan mushukni tasodifan tanishgan ayolga qoldirdi. Buning ustiga bu ayol Mariyaga sigareta olib borib berishni ham o'z ustiga oldi. Biroq ko'p o'tmay u ham g'oyib bo'ldi. Rosa Regas uni o'n ikki yil oldin bir kuni «Korte-Ingles» do'koni oldida uchratganini eslagandi. O'shanda u boshi taqir qirilgan, qandaydir sharqona mazhabdagilar kiyadigan to'q-sariq jubbada bo'lib, haddan tashqari katta qorin qo'ygan ekan. Bu ayol Rosa Regasga qachon yo'li tushsa, o'shanda Mariyaga sigareta olib borganini va boshqa kutilmagan oshig'ich masalalarni hal qilishda yordam qilganini aytib bergan. Nihoyat, ajoyib kunlarning birida kasalxona o'rnida vayrona paydo bo'lganini ko'rguncha shunday qilgan. Vayrona o'sha uqubatli kunlardan yoqimsiz xotiraga o'xsharkan.

Oxirgi marta ko'rganida Mariya unga es-hushi kirib qolgan-day, biroz semirgan va monastirdagi turmushidan mamnunday tuyulgan. O'shanda ayol jonivorni boqish uchun Saturno tashlab ketgan pul allaqachon tugagani uchun mushukni ham Ma-riyaga eltib bergan ekan.

AVGUST DAHSHATLARI

Biz Aretssoga peshindan sal oldin yetib keldik va Uyg'onish davriga oid qasrni izlab, ikki soatdan ko'proq vaqt yo'qotdik. Toskana vodiysining bir go'zal go'shasida joylashgan bu qasrni venesuelalik yozuvchi Migel Otero Silva sotib olgan edi. Avgustning birinchi yakshanbasi bo'lib, havo is-siq, tevarak g'ala-g'ovurga to'la va turistlar to'la ko'chalarda biron narsa biladigan odamning o'zini topish oson ish emas edi. Ko'p urinishlardan bir ish chiqmagach, biz yana ma-shinaga o'tirib, shahardan tashqariga chiqdik. Yo'lning ikki tomonida sarv daraxtlari qad ko'tarib turar, lekin bironta yo'l ko'rsatkichi yo'q edi. Shunda g'oz boqib yurgan bir kampir qasr qayerda ekanini bizga aniq ko'rsatib yubordi. Xayrlashar ekan, u yerda tunash-tunamasligimizni so'radi. Biz u yerga faqat tushki ovqatga ketayotganimizni aytdik.

– Unda yaxshi ekan, – dedi kampir, – chunki bu uyni arvoh bosgan.

Biz, er-xotin kuppa-kunduzi arvoh borligiga ishongimiz kelmadi va xurofotchi kampirning ustidan kuldik. Lekin biri to'qqiz, ikkinchisi yetti yashar o'g'illarimiz tirik arvoh bilan tanishishni o'ylab, boshlari osmonga yetdi.

Yaxshi yozuvchilikdan tashqari mohir oshpaz bo'lgan Migel Otero Silva bizni shohona dasturxon ustida kutib oldi. Kechikib kelganimiz uchun qasrni atroflicha ko'rib chiqish-ga vaqt qolmagan edi. Lekin bir qarashda qasrda hech bir qo'rqinchli narsa yo'qdek tuyuldi, gullarga burkangan peshay-

vonda ovqatlanar ekanmiz, xavotir-u tashvishlar o'z-o'zidan yo'q bo'lib ketdi. Peshayvondan butun shahar ko'rinib turardi. Uylari tog' yonbag'ri bo'ylab qatorlashgan va aholisi nari borsa to'qson ming kishidan oshmaydigan bu shaharchada bunchalik ko'p umrboqiy, daho kishilar tug'ilganiga ishonish qiyin edi. Biroq Migel Otero Silva karibliklarga xos yumor bilan, baribir, ularning orasida bittasi Aretssoda eng mashhur bo'lganini aytdi.

– Eng buyuk kishi Lyudovik bo'lgan, – deb xulosa qildi u.

Shunchaki, oddiygina – Lyudovik. U san'atda va harbiy sohada buyuk bo'lgan, lekin bu qasrni qurib, boshiga balo ortirgan. Butun tushlik davomida Migel Otero Silva bizga shular haqida so'zladi. U Lyudovikning ulug'vor qudrati, tolesiz sevgisi va dahshatli o'limi haqida hikoya qildi. Jahldan aqli ketgan lahzada Lyudovik hozirgina sevgilisini achomlagan to'shak ustida uni xanjar urib o'ldirganini, so'ngra o'zining yirtqich jangovar itlarini o'ziga qarshi olqishlaganini, itlar uni pora-pora qilib tashlashganini so'zlab berdi. Shundan keyin u tamomila jiddiy so'zlab, Lyudovikning arvohi yarim kechadan so'ng qasrda tentirab yurishini, sevgi iztiroblaridan qutulish chorasini izlashini aytdi.

Qasr haqiqatan ham katta va mudhish edi. Lekin kupa-kunduzi ekani, qornimiz to'qligi va xotirjamligimiz tufayli Migelning hikoyasi mehmonlarning ko'nglini ovlash uchun u mohirona to'qiydigan hazillardan biri bo'lsa kerak, deb o'yladik. Tushdan keyin qasrning sakson ikkita xonasini aylanib chiqdik. Hayron qoladigan hech gap yo'q edi. Bu xonalarni qasrga egalik qilgan turli xo'jayinlar o'zlari xohlagancha o'zgartirgan. Migel ham pastki qavatni tamomila ta'mirlatgan. Unga poliga marmar yotqizilgan zamonaviy xobgoh, sauna, jismoniy tarbiya mashqlari o'tkaziladigan zal va gullarga ko'milgan peshayvon qurib berishgan. Biz mana shu peshayvonda ovqatlangandik. Ikkinchi qavatda, asrlar mobaynida eng gavjum bo'lib kelgan joyda turli davrlarga oid mebellarga to'la va taqdir hukmiga tashlab qo'yilgan tussiz xonalar

bor edi. Lekin yuqoridagi bir xonaga qo'l tekkizishmagan va vaqt bu xonani chetlab o'tganday tuyulardi. Bu Lyudovikning xobxonasi edi.

Bu sirli-sehrli lahza edi. Karavot ustida zarrin pashshaxona, g'oyat nafis jiyakli choyshab ustida o'ldirilgan ma'shuqaning qon izlari qotib qolgan. Kaminda sovigan kul va qotib toshga aylangan oxirgi palyon, javonda o'qlangan miltiq, devordagi zarrin romda moybo'yoqda ishlangan o'ychan ritсар portreti – bu suratni florensiyalik qaysidir rassom ishlagan. Bu rassomni keyinchalik unutib yuborishgan. Lekin xobgoh havosida qandaydir saqlanib qolgan tar qulupnay hidi meni eng ko'p hayratga soldi.

Toskanada yoz kunlari uzun va sekin o'tadi va kechki soat to'qqizga qadar ufq yorishib turadi. Qasrni ko'rib bo'lganimizda soat beshdan o'tgan edi. Lekin Migel Petro della Francheskoning avliyo Fransisk cherkovidagi devorsuratlarini birga borib ko'raylik, deb oyog'ini tirab oldi. Undan keyin biz maydondagi tim ostida o'tirib qahva ichdik, dildan suhbatlashdik. Jomadonlarimizni olish uchun qasrga qaytganimizda kechki ovqat uchun dasturxon yozib qo'yilgan ekan. Xullas, kechki ovqatga qoldik.

Biz ovqatlanar ekanmiz, gulxayri rangiga kirgan osmonda bittagina yulduz miltillashi bilan bolalar oshxonada mash'alalar yoqishdi va yuqori qavatlarini tekshirgani chiqib ketishdi. Dasturxon atrofida o'tirar ekanmiz, zinalardan chiqayotgan bolalarning pillapoyalarni otlarga o'xshab dukillatishgani, eshiklarning ayanchli g'ijirlagani, Lyudovikni chaqirgan saslari mudhish xonalarda aks sado bergani eshitilardi. Shu yerda tunash to'g'risidagi bo'lmag'ur g'oya ham bolalardan chiqqan edi. Migel Otero Silva ularni xursandchilik bilan qo'llab-quvvatlagan va uning ra'yini qaytarishga ko'nglimiz bo'lmagan edi.

Xavotirimga qaramay, biz – er-xotin pastki qavatning xobxonasida, bolalar – qo'shni xonada juda yaxshi uxladik.

Har ikki xona ham zamonaviy uslubda pardozlangan bo‘lib, ko‘ngilni g‘ash qiladigan hech narsa yo‘q edi. Uyquga ketar ekanman, mehmonxonadagi bedor soatning o‘n ikki mar-ta zang urganini sanadim va g‘oz boqib yurgan kampirning dahshatli ogohlantirishi esimga tushdi. Lekin biz shuncha-lik charchagan edikki, boshimiz yostiqa tegishi bilan qattiq uyquga ketdik va ertalab soat yettidan o‘tganda, quyoshning ko‘zni qamashtiruvchi nurlari deraza tirqishlaridan yorib o‘tayotgan bir vaqtda uyg‘ondik. Yonimda xotinim haliyam shirin tush ko‘rib yotardi. «Bu qanday safsata o‘zi, – deb o‘yla-dim men, – bizning zamonamizda arvoq borligiga kim ham ishonardi?» Ammo bexosdan tar qulupnay hidi dimog‘imga urilib, seskanib ketdim va sovigan kulga to‘la, so‘nggi palyo-ni toshga aylangan kaminni, zarhal romdan bizga uch asr osha tikilib turgan g‘amgin ritsarning portretini ko‘rdim. Chunki biz kecha uyquga ketgan birinchi qavatdagi xonada emas, balki Lyudovikning xobxonasida, chang bosgan pashshaxo-nasi ostida, la‘nati to‘shagining issiq qonga belangan choy-shablari ustida yotar edik.

MARIYA DUS PRAZERISH

Dafn idorasining xizmatchisi aniq vaqtida keldi, Mariya dus Prazerish hanuz xalatda, boshi esa bigudilarga to‘la edi. Juda ko‘rimsiz ko‘rinmaslik uchun qulog‘ining orqasiga qi-zil atirgul taqib olishga ulgurdi, xolos. Eshikni ochib, o‘zi o‘ylagandek g‘amgin notarius emas, balki katak kamzul kiy-gan, guldor galstuk osgan tortinchoq yigitni ko‘rganida, bun-day qiyofada chiqqaniga qattiq afsuslandi. Ajal tujjorlarini u ma‘yus qariyalar qiyofasida tasavvur qilardi. Barselona bahori o‘zgaruvchan, bir lahzada izg‘irin esib, yomg‘ir shi-valab qolishi, ayozi qishdan qattiqroq bo‘lishi mumkinligiga qaramay, yigitning egnida palto yo‘q edi. Kecha-yu kunduz,

istalgan vaqtda qanchadan-qancha erkaklarni qabul qilgan Mariya dus Prazerish nihoyatda o'ng'aysizlandi. Bunaqasi kamdan-kam bo'lardi. U endigina yetmish olti yoshga kirgan bo'lib, Yangi yildan oldin o'lishiga ishonchi komil edi. Shunday bo'lsa-da, uni munosib qarshilashi uchun kiyinib, yasan-tusan qilgunga qadar ozgina kutishini iltimos qilishiga va eshikni o'lik tujjorning yuziga yopishiga bir bahya qoldi. Lekin yigit qorong'i pillapoyada sovqotishi mumkinligini o'ylab, uni uyga kiritdi.

– Quyib qo'ygandek kalamushning o'ziman, bunaqa qi-yofam uchun kechirim so'rayman, – dedi ayol. – Barselonada ellik yildan beri yashayman, ammo, mana, birinchi marta ayni belgilangan vaqtda kelib turishibdi.

U katalonchada biroz udumdan chiqayotan to'g'ri talaffuzda juda yaxshi gapirardi, ammo so'zlash tarzida unutilgan portugalcha ohanglar sezilib turardi. Keksayganiga va boshidagi sim gajaklariga qaramay, u hanuz sochlari qalin, erkaklarga shafqatdan asar ham qolmagan sariq ko'zlari yonib turadigan xushbichim duragay ayol edi. Ko'cha yog'dusidan ko'zlari qamashgan tujjor hech narsa demadi, faqat ostonadagi kanop lattaga oyog'ini artirdi va ehtirom bilan bekaning qo'lini o'pdi.

– Sen bizning zamonlardagi erkaklarga o'xshar ekansan, – dedi Mariya dus Prazerish va xandon tashlab kuldi. – Qani, o'tir.

Garchi yigit bu ishga endigina kirgan bo'lsa-da, har holda vazifasini yetarli darajada bilardi va ertalabki soat sakkizda, buning ustiga beshafqat kampir uni bunchalik shod-u xurramlik bilan kutib olishini kutmagan edi. Yigitga kampir dastlab Janubiy Amerikadan qochib kelgan jinniga o'xshab ko'rindi. Shuning uchun ham u nima deyarini bilmay, ostonada turib qoldi, bu paytda Mariya dus Prazerish derazalarning og'ir baxmal darpardalarini ochdi. Mayin aprel nuri batartib mehmonxonani biroz yorishtirdi. Mehmonxona antiqa mollar sotiladigan do'konga o'xshab ketardi. Bu yerdagi barcha ashyolar

kundalik ro'zg'or buyumlari bo'lib, har biri o'z joyida turardi. Ashyolar shunchalik did bilan tanlangandiki, Barselona kabi qadimiy va sirli shaharda bundan yaxshiroq jihozlangan uyni topish mushkulga o'xshardi.

– Afv eting, – dedi yigit. – Men yanglishdim shekilli.

– Qaniydi shunday bo'lsa, – dedi Mariya. – Lekin ajal hech qachon adashmaydi.

Tujjor qat-qat buklangan, yo'l xaritasiga o'xshash chizmani tushlik qilinadigan stol ustiga yoydi. Chizmada yer uchastkalari turli rangda ko'rsatilgan bo'lib, ranglarga mos tarzda xoch va raqamlar yozib qo'yilgan edi. Mariya dus Prazerish bu ulkan Monjuik qabristonining tarhi ekanini tushundi va sarguzasht ishqibozlarini bag'riga olgan nomsiz mozorlar va florentina naqshlari bilan bezatilgan maqbaralar orasida oktabr oyining yomg'irlari ostida tapirlar izg'ib yuradigan Manaus qabristonini dahshat bilan esladi. Mariya hali qizaloq ekanida bir kuni ertalab Amazonka toshib, hamma yoqni ko'ngil aynitadigan botqoqlikka aylantirgan va u hovlisida chirigan tobutlar suzib yurganini o'z ko'zi bilan ko'rgan edi. Tobutlarning yoriqlaridan kiyim-bosh parchalari, murdalarning sochlari chiqib turardi. Ayni shu xotiralar narigi dunyoda yotishi uchun uyiga yaqin va o'zi yaxshi biladigan Jervazio qabristonini emas, Monjuik tepaligini tanlashiga sabab bo'lgandi.

– Menga hech qachon suv bosmaydigan baland joy kerak, – dedi u.

– Aytgan joyingiz mana bu yerda, – dedi tujjor buklama tayoqcha bilan kerakli joyni ko'rsatib. U bu tayoqchani po'lat avtoruchka bilan ichki cho'ntagida olib yurardi. – Bu yerga, hatto, dengiz ham chiqolmaydi.

Kampir turli ranglarga bo'yalgan tarhni ko'rishga kirishdi va asosiy darvozani qidirib topdi. Darvoza yaqinida bir xil va nomsiz uchta qabr bor edi. Ularda Buenaventura Durruti va anarxistlarning Grajdanlar urushida halok bo'lgan ikkita dohiysi yotardi. Har kechasi kimdir ularning ismini yalang'och

mozor toshlariga bitib ketardi. Qalam, bo'yoq, ko'mir, qosh bo'yaydigan qalam, tirnoq bo'yog'i bilan yozib ketishardi. Har bir mozordagi marhumning ismi sharifini risoladagidek to'liq yozishar, nazoratchilar gung marmar toshlar ostida kim yotganini bilmasliklari uchun yozuvlarni har kuni tongdanoq o'chirib tashlashardi. Mariya dus Prazerish Durrutining dafn marosimiga qatnashgandi. Barselonada shu choqqacha misli ko'rilmagan darajada qayg'uli marosimda odam juda ko'p bo'lgandi. Mariya ham o'zini Durrutining qabriga yaqin joyda dafn qilishlarini istayotgan edi. Ammo mozorlar tiqilib ketgan bu qabristonda u istayotgan yerda joy yo'q edi. Shuning uchun ham boriga shukr qilishiga to'g'ri keldi.

– Shartim shuki, – dedi u, – meni besh yilda ado bo'ladigan, pochta jo'natmasiga o'xshagan tor qutiga tiqmaysizlar. – So'ngra asosiy shartni eslab, xulosa qildi, – eng asosiysi, jasadimni yotqizgan holda dafn qilasizlar.

Gap shundaki, qabrlarni oldindan sotish haqidagi shovshuvli reklamaga javoban, joy tejash maqsadida tobutlarni tikkasiga ko'misharmish degan mish-mish tarqalgan edi. Tujjor ko'p takrorlayverгани uchun yod bo'lib ketgan izohni bayon eta boshladi: bu mish-mish qabr o'rni oldindan sotiladigan zamonaviy usulni yomonotliq qilish uchun an'anaviy dafn xizmatlari tomonidan badniyatlik bilan tarqatilayotir. Yigit bu gaplarni aytayotganda eshikni astagina uch marta taqillatishdi va u ikkilanib jim bo'ldi, lekin Mariya dus Prazerish davom etaverishi to'g'risida ishora qildi.

– Tashvishlanmang, – dedi u astagina, – bu Noy.

Tujjor gapida davom etdi. Mariya dus Prazerishga izoh maqbul bo'ldi. Biroq eshikni ochishdan oldin, ikir-chikirigacha o'ylagan va Manaosdagi o'sha toshqindan keyin o'tgan uzoq yillar mobaynida ichida pishib yetilgan fikrni qisqacha bayon qilgisi keldi.

– Xullas, – dedi u, – menga suv ostida qolish xavfidan xoli va agar, iloji bo'lsa, yozda daraxtlar soyasida yotadigan

joy kerak, yana ancha vaqt o'tgandan keyin jasadimni kovlab olib, axlatxonaga uloqtirib yurmasinlar.

U eshikni ochdi va yomg'ir ostida shalabbo bo'lgan, o'ta irkit kuchuk kirdi. Uning bu ahvoli xonaning ko'rinishiga mutlaqo zid edi. Kuchuk ertalabki sayrdan qaytib kelgandi va uyga kirdi deguncha, hammayoqni ostin-ustun qildi. Bo'lar-bo'lmasga huridi, stolga sakrab chiqdi va kir panjalari bilan qabriston xaritasini burdalashiga sal qoldi. Lekin uni tinchitish uchun bekaning bir nazar tashlashi kifoya bo'ldi.

– Noy, – dedi u baqirmasdan, – baixa d'aca!

Kuchuk dumini qisdi, atrofga qo'rqa-pisa alangladi va ko'zlaridan ikki tiniq tomchi burniga oqib tushdi. Mariya dus Prazerish tujjorga yuzlandi va uning sarosimaga tushib qolganini ko'rdi.

– Sollons! – xitob qildi tujjor. – U yig'layapti-ku!

– Shu pallada uyda begona odamni ko'rib quturib ketdi, Mariya dus Prazerish past ovozda uzrxohlik qildi. – U, odatda, uyga kishilarga qaraganda toza holda kiradi. Lekin sening boshqalardan istisno ekaningni ko'rdim.

– Lekin yig'layapti-ku, onasini!.. – takrorladi tujjor va to'satdan o'zining naqadar qo'polligini tushunib qoldi va qizardi. – O'tinaman, meni kechiring, lekin bunaqasini, hatto kinoda ham ko'rmaganman.

– Agar o'rgatilsa, barcha itlar yig'lashi mumkin, – dedi beka. – Gap shundaki, egalari itlarni asosan mashaqqatli ishlarga, masalan, yaloqdan ovqat yeyishga yoki belgilangan vaqtda bir joyda hojat chiqarishga o'rgatishadi. Yoki, aksincha, itlarni tabiiy, xush yoqadigan ishlarga, masalan, kulish va yig'lashga o'rgatishmaydi. Xo'sh, nima deyayotgan edik?

Aniqlab olish lozim bo'lgan narsalar kam qolgandi. Mariya dus Prazerish sersoya daraxtlar ostida yotmaslikka ko'nishga majbur bo'ldi, chunki qabristonda qad ko'targan bir nechta daraxtlar osti rejim hukmfarmolari tomonidan allaqachon olib qo'yilgan edi. Shartnomaning ayrim shartlari va ta'riflari or-

tiqcha tuyuldi, chunki u oldindan va naqd to'langan taqdirda beriladigan imtiyozlardan foydalanmoqchi edi.

Ishlarni bitirgach, tujjor qog'ozlarni yig'ishtirib, papkasi-ga solar ekan, tajribali kishi ko'zi bilan xonani yana bir qur ko'zdan kechirdi va ayolning jozibador go'zalligidan hayrat-ga tushdi. U Mariya dus Prazerishga uni xuddi birinchi marta ko'rayotgandek tikilib qoldi.

– Sizga nokamtarona bir savol bersam maylimi? – so'radi tujjor.

Beka tujjorni eshik tomonga boshlar ekan dedi:

– Albatta, yoshimdan boshqa istagan narsangizni so'ra-shingiz mumkin.

– Men odamlarning kasbini uyidagi anjomlariga qarab aniqlash kasaliga mübtalo bo'lganman. Bu yerda bo'lsa, to'g'risini aytsam, topolmayapman, – dedi u. – Nima ish bilan shug'ullanasiz?

Mariya dus Prazerish qahqaha otdi.

– Axir, men fohishaman-ku, bo'tam. Yoki aft-angorimdan bu sezilmayaptimi?

Tujjor qizardi.

– Kechiring, men afsusdaman...

– Men afsuslanishim kerak o'zi, – dedi beka tujjor boshini eshik kesakisiga urib olmasligi uchun uni qo'ltiqlar ekan. – Ehtiyot bo'lib yurgin! Yana meni risoladagiday ko'mmasdan oldin kallangni yorib yurma.

Eshikni yopar-yopmas, kuchukni qo'liga olib silashga kirishdi va shu asnoda qo'shni bolalar bog'chasidan eshi-tilayotgan bolalar xori ijro etayotgan qo'shiqqa xush ovozda jo'r bo'la boshladi. Uch oy oldin tez orada o'lishi unga tushi-da ayon bo'lgan va o'shandan buyon yolg'izlikda unga ham-dam bo'lgan bu jonivorga qattiq bog'lanib qolganini hamisha his qilardi. U o'limidan so'ng barcha anjomlari va jasadining taqdirini shunchalik puxta hujjatlashtirib qo'ygandiki, endi hech kimni tashvishga qo'yamay, istalgan vaqtda bemalol o'la-

versa bo'lardi. Biroz oldinroq u o'z ixtiyori bilan ishdan voz kechdi, o'zini ko'pam qiynamasdan, oz-ozdan mol-dunyo orttirdi va shaharga qo'shilib ketgan Grasia dahasini tanladi. Dudlangan baliq hidi anqiydigan, devorlarini sho'r yemirgan, sharmandali urush izlari qolgan yarim vayrona boloxonani sotib oldi. Uning qorovuli yo'q edi. Garchi barcha xonadonlarda odamlar yashayotgan bo'lsa-da, zax va qorong'i zinaga bir necha pillapoya yetishmasdi. Mariya dus Prazerish vanaxona va oshxonani ta'mirlatdi, devorlarga yorqin rangdagi mato qoqtirdi, derazalarga qirrador oyna o'rnatirdi va baxmal darpardalar ostirdi. Nihoyat, hashamatli mebel, idish-tovoq, bezak buyumlari, ipak va zarbof mato sirilgan sandiqlar olib keldi. Bularning hammasini mag'lubiyatdan so'ng qochgan respublikachilar qoldirib ketgan uylardan fashistlar o'g'irlagan edilar. Bu ashyolarni Mariya dus Prazerish necha yillar davomida oz-ozdan, kezi kelganda yopiq savdodan xarid qilgandi. Graf Kardona bilan do'stligi uni o'tmish bilan bog'laydigan birdan-bir rishta edi. Graf har oyning so'nggi jumasida birgalikda ovqatlanish, yemakdan so'nggi shirinlik o'rniga esa sust ishq o'yini bilan shug'ullanish uchun unikiga kelardi. Lekin yoshlikdan kelayotgan bu do'stlik ham pinhon tutilardi: graf uni, shuningdek, o'zini gap-so'zga qoldirmaslik uchun risoladagi barcha geraldika belgilari bilan bezatilgan mashinasini ehtiyotkorlik yuzasidan ancha uzoqda qoldirar, ko'chaning soya tarafidan piyoda yurib unikiga kelardi. Mariya dus Prazerish bu uyda yashaydiganlardan ro'parasidagi xonadonga yaqinda ko'chib kelgan to'qqiz yashar qizchasi bo'lgan yosh er-xotindan boshqa kimsani tanimas edi. Garchi, ehtimoldan uzoqday tuyulsa-da, Mariya dus Prazerish haqiqatan ham zinapoyada hech qachon hech kimni uchratmagandi.

Ammo, merosni taqsimlar ekan, u pokdomonlik milliy iftixori bo'lgan qattiqqo'l kataloniyaliklar jamoasiga o'zi o'ylaganidan ham ko'proq ko'nikib qolganiga ishonch hosil qildi.

Hatto, eng arzon ashyolarini ham o'z qarddonlari, ayni uyiga yaqin kishilar orasida taqsimladi. Pirovardida hamma-

sini adolat yuzasidan qilganiga o'zi ko'pam ishonmadi, lekin bir narsaga ishonchi komil edi: munosib kishilarning birontasi ham esidan chiqqani yo'q. Hammasi shunchalik puxta hozirlangandiki, dunyoda ko'rmagan-bilmagan narsam yo'q, deb o'ylaydigan Arbol ko'chasidagi notarius Mariya dus Prazerish o'rta asrga xos kataloncha tilda notariusning mirzalariga o'z tasarrufidagi har bir narsaning nomini, undan keyin merosxo'rlarining to'la ro'yxatini, kasbu kori va manzilini, ularning o'ziga yaqinlik darajasini yoddan aniq va batafsil aytib yozdirganida, o'z ko'zlariga ishonmadi.

Dafn tujjori kelib ketganidan keyin u yakshanba kunlari qabristonga boradigan ko'pdan-ko'p ziyoratchilarning biriga aylandi. O'ziga ajratilgan maydonchaga, qo'shni qabr egalari qilib qo'yganidek, to'rt faslga mos chechaklar ekdi, maysalarni sug'ordi, bog' qaychi bilan o'rdi, maydoncha shahar munitipalitetidagi gilamdek bo'lgunga qadar kuymalandi. Bu yerga shunchalik bog'lanib qoldiki, maydoncha unga oldin nega qarovsizdek tuyulganiga hech tushunolmadi.

Qabristonga birinchi marta kelganida, kiraverishdagi nomsiz uchta mozorni ko'rib, yuragi hapriqdi, lekin u qablarni ko'rish uchun to'xtagani ham yo'q, chunki bir necha qadam narida hushyor soqchi turgan edi. Ammo uchinchi bozor kuni kelganida soqchining nimagadir alaxsiganidan foydalanib qoldi va o'zining buyuk orzularidan birini amalga oshirdi – yomg'ir tozalab qo'ygan birinchi qabrtoshga lab bo'yog'i bilan Durruti deb yozib qo'ydi. O'shandan keyin imkon topdi, deguncha qabrtoshlarning bittasi, ikkitasi yoki har uchalasiga yozadigan bo'ldi, yozarkan qo'llari titramas, yuragi o'tmishdan qolgan huzn hislariga to'lib-toshar edi. Bir kuni, sentyabrning oxirgi yakshanbasida u qabristonda o'tkazilgan dafn marosimida birinchi marta qatnashdi. Uch haftadan keyin izg'irinli kunda qo'shni mozorga yoshgina ke-
linchakni ko'mishdi. Yil oxiriga borib, yana yettita mozorga jasad qo'yildi. Qish o'tib ketsa-da, unga hech vaqo bo'lmadi.

U kasal-pasal bo'lmadi, kunlar isigan va ochiq derazalardan qaynoq hayot nafasi gurkirab ufurib kira boshlagan chog'da, aftidan sirli tush bashoratini unutish uchun o'zida kuch topadiganga o'xshab qoldi. Jazirama issiq oylarini tog'da o'tkazgan graf Kardona shaharga qaytib, uni hayratlanarli darajada malohatli bo'lgan ellik yoshlik vaqtidan ham jozibaliroq ko'rdi.

Beto'xtov urinishlardan so'ng Mariya dus Prazerish ulkan tepalik ustidagi sanoqsiz qabrlar orasidan egasining mozorini topishni Noyga o'rgatishga muvaffaq bo'ldi. Shundan keyin kuchukka bo'sh qabr ustida yig'lashni chidam bilan o'rgata boshladi. O'lganidan keyin kuchuk uning qabri ustida yig'lashga odatlanishi kerak edi. U kuchukni bir necha marta uydan qabristonga qadar piyoda olib bordi, Ramblas yo'nalishidagi avtobus yo'lini eslab qolishi uchun kuchukning e'tiborini yo'lda uchragan turli-tuman narsalarga qaratdi. Kuchukni yetarli darajada o'rgatganiga va uni yakka yuborishi mumkinligiga ishonch hosil qilmaguncha shunday qildi.

Yakshanba kuni bosh repititsiya o'tkazish maqsadida kunduz soat uchda u, bir tomondan, yoz nafasi sezilayotgani, ikkinchi tomondan, e'tibor jalb qilmasligi uchun Noyning ustidagi qishlik nimchani yechdi va qo'yib yubordi. U kuchukning ayanchli ravishda qisgan dumini likillatganicha ko'chaning soya tarafidagi yo'lkada yugurib borayotganini kuzatib turdi, ham o'zining, ham kuchukning holiga, alamli yillar qatidagi armonlariga achinib yig'lab yubormaslik uchun o'zini arang tiydi, so'ngra kuchuk dengiz tomonga burilib, Kale Mayor ko'chasi muyulishida g'oyib bo'lganini ko'rdi. O'n besh daqiqadan keyin Ramblas tomonga ketadigan avtobusga chiqdi, kuchukka ko'rinmasdan uni kuzatib borishga harakat qildi va haqiqatan ham kuchukni yakshanba sayriga chiqqan bolalar to'dasi ichida ko'rdi: kuchuk begonasiragan va jiddiy qiyo-fada Paseo de Grasia ko'chasida svetoforning ko'k chirog'i yonishini kutib turardi.

«Yo, Xudoyim-yey, – xo‘rsindi u. – U naqadar yolg‘iz-a».

Monjuik tepaligida shafqatsiz oftob ostida qariyb ikki soat kutishiga to‘g‘ri keldi. Ayol qandaydir motamsaro kishilar bilan salomlashdi, ularni oldingi yakshanba kunlari uchratgan bo‘lib, zo‘rg‘a tanidi, chunki birinchi marta ko‘rganidan beri ancha vaqt o‘tgan edi. Endi ularning egnida motam liboslari yo‘q bo‘lib, yig‘lamayotgandilar. Garchi qabri ustiga gullar keltirgan bo‘lsalarda, endi marhumni eslamayotgan ham edilar. Birozdan keyin hamma ketib bo‘lgach, u chag‘alaylarni cho‘chitib yuborgan xunuk o‘kirik tovushini eshitdi va Braziliya bayrog‘i ko‘targan oq kema adoqsiz dengiz uzra suzib borayotganini ko‘rdi hamda kema Pernambuku zindonida uni deb o‘ladigan kimdandir maktub keltirishini dil-dildan istadi. Soat endigina olti bo‘lganida, belgilanganidan o‘n ikki minut oldin tepalikda charchoq va issiqdan so‘laklari oqayotgan, lekin g‘olib boladay shod-u xurram Noy paydo bo‘ldi. Shu lahzada Mariya dus Prazerishning tepamda hech kim yig‘lamaydi, degan xavotiri barham topdi.

Kuzga borib unga achchiq alomatlar ayon bo‘ldi, ularning ma‘nosini chaqa olmadi va yuraging ustiga tosh bos-tirilganday bo‘ldi. U yana Soat maydonidagi zarrin arg‘uvon daraxtlari ostida qahva icha boshladi. Egnida tulki mo‘ynali palto, boshida sun‘iy gullar taqilgan shlyapa bo‘lardi. Bu almisoqdan qolgan liboslar yana yangidan urf bo‘lgandi. Uning sezgilari kuchaydi. O‘zini ezayotgan g‘am-g‘ussaning tagiga yetish uchun Ramblas ko‘chasida parranda sotuvchi xotirlarning g‘ala-g‘ovuriga, kitob yoymachilari orasidagi erkaklarning ohista suhbatlariga (ular necha yillardan buyon ilk bor futbol haqida gapirmayotgan edilar), urushda mayib-majruh bo‘lgan va non ushoqlari bilan kaptar boqayotgan kishilarning chuqur sukunatiga quloq soldi va hammasidan muqarrar o‘lim belgisini topdi. Yangi yilga yaqin qolganida arg‘uvon daraxtlariga osilgan rang-barang chiroqlar yondi, ayvonlardan shodiyona tovushlar va musiqa eshitila boshladi, bizning

taqdirimizdan yiroq bo'lgan turistlar to'dasi ochiq osmon ostidagi qahvaxonalarni to'ldirdi, ammo, hatto, bayramda ham kishilar taranglashgan asablarini zo'rg'a bosib turishgani sezilib turardi. Anarxistlar ko'cha xo'jayiniga aylanishidan oldin ham shunday bo'lgan edi. Ulkan ehtiroslar jo'sh urgan o'sha davrda yashagan Mariya dus Prazerish ichidagi xavotir hissini hech bosolmadi va umrida ilk bor bir kuni yarim tunda uyg'onib ketdi, borlig'ini qo'rquv qamrab, qattiq czayotgandi. Bir kuni tunda Davlat xavfsizligi agentlari shundoqqina derazasining tagida yo'g'on cho'tka bilan devorga «Visca Cataluna lliure» – deb yozgan talabani otib o'ldirishdi.

«Yo Xudoyim, – deb o'yladi u hayratga tushib, – go'yo barcha men bilan baravar o'lib ketadiganga o'xshaydi!»

Shunga o'xshash g'ussali xavotirni u qizaloq vaqtida Manausda, tong otishiga bir lahza qolganida tungi beaded shovqinlar birdan tinchib, suv to'xtagan, vaqt go'yo ikkilanayotganga o'xshab qolgan va Amazonkaning butun borlig'i faqat o'lim sukunatiga o'xshatish mumkin bo'lgan tubsiz jimlik qo'yniga g'arq bo'lgan paytda boshdan o'tkazgan edi. Asablar chidab bo'lmaydigan darajada taranglashgan bir vaqtda, odatdagidek, aprelning so'nggi juma kuni graf Kardona unikiga kechki ovqatga keldi.

Uning tashriflari allaqachon odat tusiga kirgandi. Graf hamisha ayni vaqtda kechki yettidan to'qqizgacha bo'lgan vaqtda, e'tibor tortmasligi uchun kechki gazetaga o'rog'liq bir shisha katalon shampan vinosi va bir quti tryufel konfeti ko'tarib kelardi. Mariya dus Prazerish uning uchun qizartma va yumshoqqina jo'ja go'shti qovurib qo'yar, mahalliy kataloniyaliklarning bir vaqtlardagi sevimli taomlarini hozirlar, kattakon laganga faslning mevalarini to'ldirib qo'yardi. U oshxonada kuymalanayotgan vaqtda graf eng yaxshi italyan operalaridan parchalar yozilgan plastinkalarni qo'yib patefon eshitar va oz-ozdan sharob qultumlar, plastinka oxirlaganda qadahdagi sharob ham tugab bitardi.

Dildan qilingan uzoq suhbat asnosida taom yeganlaridan keyin eski zamonlarni, sevgi mojarolarini eslashardi. Bu doimo ularda halokat hissini uyg'otardi. Tun yaqinlashdi deguncha hamisha tashvishga tushib qoladigan graf ketish oldidan yotoqxonada kuldon ostida yigirma besh peset qoldirardi. Graf bilan Paralelo mehmonxonasida tanishgan vaqtlarida Mariya dus Prazerishning narxi shuncha bo'lib, vaqtlar zangi yemirolmagan yagona narsa shu edi.

Na u, na ayol do'stliklarining qanday asosga qurilgani ustida hech bosh qotirmasdi. Mariya dus Prazerish arzimagan qarzar berib turgani uchun unga burchli edi. Graf yig'gan mablag'ini qanday sarflash kerakligi to'g'risida unga o'rinli maslahatlar bergan, xonasini bezab turgan ashyolarning haqiqiy bahosini aniqlashni va bu ashyolar o'g'irlik mol ekanligini bildirmaslik uchun ularni qanday saqlash kerakligini o'rgatgan edi. Lekin eng asosiysi, butun umri o'tgan fohishaxonada uvadasi chiqdi, endigi erkaklarga yoqmay qoldi, deb topganlaridan keyin qarigan fohishalarning yashirin islovotxonasiga jo'natmoqchi bo'lganlarida (bu islovotxonada fohishalar besh peset evaziga o'smirlarga ayollar bilan yaqinlik qilishni o'rgatishardi) Mariya dus Prazerishga ayni graf Grasia dahasida keksaligini munosib tarzda o'tkazish yo'lini ko'rsatgan edi. O'z vaqtida Mariya grafga onasi uni o'n to'rt yoshligida Manaus bandargohida sotib yuborganini, birinchi kishi – turk kemasining zobiti Atlantika okeanini kesib o'tgunga qadar u bilan beto'xtov ayovsiz ishrat qilganini, so'ngra til bilmaydigan, ismi ham bo'lmagan qizni nimqorong'i Paralelo ko'chasida bir tiyin bermay tashlab ketganini aytib bergandi. Har ikkovi ham oralarida ularni bog'laydigan umumiy narsa yo'qligini anglar, birga bo'lishganida o'zlarini o'ta yolg'iz his etishar, lekin maftunkor odatdan voz kechishga hech birining yuragi betlamasdi. Shuncha yillar mobaynida nechog'lik navozish ko'rsatganlaridan qat'iy nazar, bir-birini yomon ko'rishlarini ayni vaqtda baravariga tushunishlari uchun milliy tuyg'ularning junbishga kelishi darkor bo'ldi.

Birdan aqllari ravshanlashdi. Graf Kardona «Bogema» dan Lyuchiya Albanele va Benyamino Djilya ijrosidagi sevgi aytishuvini tinglayotgan vaqtda tasodifan radio yangiliklari qulog'iga chalindi. Mariya dus Prazerish oshxonada radiodan yangiliklarni eshitayotgan edi. Graf oyoq uchida yurib kelib, quloq osdi. Ispaniyaning abadiy diktatori general Fransisko Franko hozirgina o'lim jazosiga hukm qilingan uch nafar bask separatchilarining taqdirini uzil-kesil hal qilish mas'uliyatini o'z zimmasiga olgan edi. Graf mamnun bo'lib, tin oldi.

– Demak, ularni albatta otishadi, – dedi u, – chunki Kaudi-lo adolatli kishi.

Mariya dus Prazerish unga haqiqiy ko'zoynakli ilonga o'xshab teshib yuborguday tikildi va grafning zarrin ko'zoynak ostidagi hissiz qorachiqlarini, yirtqichlarnikidek tishla-rini, rutubat va zulmatga o'rgangan vahshiy qo'llarini ko'rdi. U haqiqatda qanday bo'lsa, shunday ko'rdi.

– Shunday bo'lmasligini xudodan tila, – dedi ayol, – chunki, agar ulardan bittasini otadigan bo'lishsa, men sho'rvangga zahar qo'shib beraman.

Graf qo'rqib ketdi.

– Nega endi?

– Chunki men ham adolatli j... man.

Graf Kardona qaytib yo'lamadi. Mariya dus Prazerishda esa, umrining so'nggi bosqichi yakunlanganiga ishonch paydo bo'ldi. Hali yaqin-yaqindagina unga avtobusda joy berishsa, ko'chani kesib o'tishga ko'maklashmoqchi bo'lishsa yoki zinadan ko'tarilarkan, qo'ltig'iga kirishsa jahli chiqardi, lekin endi bunga yoqimsiz bir zaruriyat deb qaraydigan, shunday qilishlariga izn beribgina qolmay, hatto, buni istaydigan bo'lib qoldi. Ayni ana shu vaqtlari u o'ziga anarxistlarnikidek, ismi, o'lim tarixi bitilmagan marmar tosh buyurtma qildi va uyqusida o'lib qolsa, Noy tashqariga chiqib xabar berishi uchun eshigini ochiq qoldirgancha uxlaydigan bo'ldi.

Bir kuni yakshanbada qabristondan qaytib kelib, zinapoya maydonchasida qo'shni xonadonda yashaydigan qizaloqni

uchratdi. U qizaloq bilan xuddi o'z buvisi kabi u yoq-bu yoq-dan gaplashib, bir necha dahani bosib o'tdi va qizaloq Noyga do'stona muomala qilayotganini sezdi. Diamante maydoniga yetishganida, rejalashtirib qo'yganidek, qizaloqni muzqaymoq yeyishga taklif qildi.

– Kuchuklarni yaxshi ko'rasanmi? – so'radi u qizchadan.

– O'lguday, – deb javob qildi qizcha.

Shunda Mariya dus Prazerish allaqachon o'ylab qo'ygan gapini qizchaga aytdi.

– Agar qachondir menga bir gap bo'lsa, Noyni olgin, – dedi u. – Faqat bir shartim bor: yakshanba kunlari uni qo'yib yuborasan, lekin aslo tashvishlanma. U nima qilishini yaxshi biladi.

Qizcha juda xursand bo'ldi. Mariya dus Prazerish bo'lsa, qalbining to'rida bir necha yildan beri pishib yetilgan orzusi amalga oshganidan xurram holda uyga qaytib keldi. Biroq keksalik charchatgani uchun ham, ajal kechikkani uchun ham emas, bu orzusi amalga oshmadi. Bu ish uning irodasi bilan bo'lgani yo'q. Uning uchun hayotning o'zi masalani hal qildi – sovuq noyabr kunlarining birida qabristondan chiqqanida to'satdan bo'ron boshlandi. Mariya darvoza yonidagi har uchala qabrtoshga ismlarni yozishga ulgurgandi. Avtobus bekatiga borayotganida jala urib berib, hammayog'i shalabbo bo'ldi. U kimsasiz dahadagi bir uyning dahliziga kirishga zo'rg'a ulgurdi. Bu dahaning yarim vayrona qovoqxonalari, irkit fabrikalari, ulkan yuk mashinalari quturayotgan jala ostida yanada mudhish ko'rinardi. Mariya dus Prazerish shalabbo bo'lgan kuchukni tanasining issig'i bilan isitar ekan, yonidan o'tayotgan tirband avtobuslar, ko'k chirog'i o'chirilgan bo'sh taksilarga qarab turardi, uning jon holatda qo'l silkitishlariga hech kim e'tibor bermasdi. Mana, nihoyat hech qanday mo'jiza ro'y bermaydigandek tuyulgan bir chog'da hashamatli po'latrang avtomobil yomg'ir bosgan ko'chadan deyarli ovoz chiqarmay yurib o'tdi va birdan muyulishda to'xtadi,

so'ngra orqasi bilan yurib u turgan joyga qaytdi. Xuddi afsun o'qigandek, mashina eshigining oynasi pastga tushdi va haydovchi unga olib ketishni taklif qildi.

– Men uzoqqa boraman, – deya Mariya dus Prazerish rostini aytdi. – Lekin sal nariroqqa tashlab qo'ysangiz menga katta yaxshilik qilgan bo'lardingiz.

– Qayoqqa bormoqchi ekaningizni aytaversangiz-chi? – oyoq tiradi haydovchi.

– Gratsiyaga, – dedi ayol.

Garchi haydovchi qo'l uzatmagan bo'lsa-da, eshik ochildi.

– Men ham shu yoqqa boraman, – dedi u. – O'tiring.

Yoqimli bo'ylar ufurayotgan avtomobilda o'tirar ekan, endi jala qo'rqinchli tuyulmas, shahar boshqacha ranglarga burkangandek tuyular va Mariya dus Prazerish o'zini barcha muammolar oldindan hal qilib qo'yilgan boshqa baxtli olamga tushib qolgandek his qilardi. Tartibsiz ko'cha harakati ichida haydovchining mashinani chapdastlik bilan boshqarishi sehrgarlikka o'xshardi. Mariya dus Prazerishni vahima bosdi, u o'ziga nihoyatda, hatto tizzasida uxlab qolgan kuchukdan ham ayanchli bo'lib ko'rindi.

– Mashinangiz xuddi okean kemasiga o'xshaydi-ya, – dedi u bunaqa hollarda nimadir deyishi kerakligini his qilgani uchun. – Hayotda, hatto tushimda ham bunaqasini ko'rmaganman.

– To'g'risini aytganda, meniki emasligi bu avtomobilning birdan-bir kamchiligi, – dedi haydovchi katalonchada zo'r-bazo'r. Biroz jim qolgach, ispanchalab ilova qildi: – Bir umr olgan maoshimga ham bu mashinani xarid qilolmagan bo'lardim.

– Nimasini aytasiz... – deya xo'rsindi ayol.

U ko'z qiri bilan haydovchining asboblarning ko'kish yog'dusi yoritayotgan yuziga nazar tashladi. Hali yoshgina yigit, kalta jingalak sochlari, yuzi yon tomondan qaraganda qadimiy rimliklarni eslatadi. Ko'hlik emas, lekin unda qan-

daydir joziba bor, arzon charmdan tikilgan kurtkasi o'ziga juda yarashib turibdi, uyga qaytganida onasining boshi osmonga yetsa kerak, deb o'yladi ayol. Faqat dehqoncha qo'llaridan yigit haqiqatan ham bu mashinaning egasi emasligi ayon bo'lib turardi.

Yo'l-yo'lakay boshqa so'zlashmadilar, lekin Mariya dus Prazerish haydovchi ham ko'z qiri bilan unga bir necha bor qaraganini ko'rdi va keksayib qolganidan yana bir marta o'kindi. U yomg'ir boshlanganda boshini sal-pal pana qilgan bu oshxona ro'molida, yelkasiga ilgan kuzgi ko'rimsiz palto-da o'zini xunuk va ayanchli his qildi. Ajal kutayotgani uchun yangi palto olgisi kelmagandi.

Gratsiyaga yetib kelishganida havo ochilib ketdi, lekin qosh qorayib, ko'cha chiroqlari yongan edi. Mariya dus Prazerish muyulishda tushirishi mumkinligini aytdi, ammo haydovchi ayolni uy eshigi oldigacha olib borishini aytib, oyoq tiradi. U eshik oldiga borish bilan cheklanib qolmadi, balki ayolning oyoqlari ho'l bo'lmasligi uchun mashinani yo'lka ustiga ham chiqardi. Mariya dus Prazerish kuchukni qo'yib yubordi, mashinadan gavdasi imkon bergancha munosib tarzda tushmoqchi bo'ldi, biroq minnatdorchilik bildirish uchun qayrilib qaraganida erkakning ko'ziga ko'zi tushdi, uning nigohidan yuragi o'ynab ketdi. Kim, kimdan, nimani kutayotganini ko'pam tushunolmay bir necha soniya uning nigohiga dosh berdi, shunda yigit qat'iy ohangda so'radi:

– Men chiqsam bo'ladimi?

Mariya dus Prazerish o'zini kamsitilayotgandek his qildi.

– Lutf etib olib kelganingiz uchun sizdan minnatdorman, – dedi u, – lekin ustimdan kulishingizga yo'l qo'ymayman.

– Birovning ustidan kulishim uchun hech qanday sabab yo'q, – deb javob berdi u jiddiy yo'sinda ispanchalab. – Ayniqsa, sizday ayol ustidan.

Mariya dus Prazerish unga o'xshash ko'pgina erkaklarni ko'rgan, o'z joniga qasd qilgan undan ham yovqur yigit-

larni necha bor o'limdan qutqarib qolgan, lekin uzoq umri mobaynida bir qarorga kelishidan oldin hech qachon bunchalik qo'rquvga tushmagan edi. Yigitning hanuz o'sha zarracha o'zgarmagan, qat'iy ovozda takrorlagan gapi qulog'iga chalindi:

– Chiqsam bo'ladimi?

Ayol eshikni yopmasdan mashinadan uzoqlashdi va aniq tushinishi uchun unga ispancha javob berdi:

– Xohlaganingizday qilaqoling.

Ko'cha chiroqlari g'ira-shira yoritayotgan yo'lakka kirdi, zinadan ko'tarila boshladi, tizzalari qaltirar, qo'rquvdan bo'g'ilar edi. Unga o'lim oldidan kishi xuddi shunday bo'g'iladigandek tuyulardi. O'z kvartirasi eshigi oldiga kelib cho'ntagini paypaslab kalitni qidirayotganida birin-ketin ikkita – mashina va yo'lak eshigi yopilganini eshitdi. Oldinga o'tib ketgan Noy hura boshladi. «Ovozingni o'chir», – buyurdi ayol hansiragancha shivirlab. Shu lahzada zinapoyadan eshitilayotgan qadam tovushlarini eshitib, yuragi qinidan chiqquday bo'ldi. Keyingi uch yillik hayotini butunlay o'zgartirib yuborgan karomatli tushini oniy bir tarzda esladi va tushini yanglish yo'rganini angladi.

«Voy Xudoyim-yey, – hayratlandi u. – Demak, bu o'lim emas ekan-da!»

U qorong'ida shaxdam qadam tovushlarini, xuddi unga o'xshab qo'rqayotgan, o'ziga yaqinlashib kelayotgan erkakning tobora kuchayayotgan hansirashlarini eshitar ekan, nihoyat kalit o'rnini topdi va mana shu oniy zavqni totish shuncha yil kutishga va shuncha qiynalishga arzishini tushunib yetdi.

ZAHARLANGAN O'N YETTI INGLIZ

Senora Prudensia Linero Neapol bandargohiga kelib birinchi sezgani shu bo'ldiki, bu yer Rioacha bandargohi singari sassiq ekan. Tabiiyki, bu haqda hech kimga hech narsa demadi, chunki bu sharti ketib parti qolgan dengiz paroxodidagilarning birontasi uni tushunmagan bo'lardi. Paroxod urushdan keyin ilk bora uyiga qaytayotgan italiyaliklar bilan liq to'la edi. Yetmish ikki yoshga kirganiga, buning ustiga quturgan dengizda o'n sakkiz kun suzganiga qaramay, u boshqalardek o'zini yolg'iz, uyidan va yaqinlaridan olisda sezmayotgan, cho'chimayotgan edi.

Tong pallasi qirg'oq chiroqlari ko'rina boshladi. Odatdigidan ertaroq uyg'ongan va yangi ust-boshlarini kiyib olgan yo'lovchilar intiq bo'lib turishardi, butunlay mavhumlikdan yurak siqilar, xullas, butun suzish mobaynida paroxod bortidagi bu oxirgi yakshanba yagona haqiqat bo'lib tuyulardi. Senora Prudensia Linero ibodat maqsadida kelayotgan kam sonli yo'lovchilarning biri edi. Suzish kunlarini u motamsaro o'tkazdi, ammo yetib kelish sharafiga qora matodan tikilgan yengsiz, uzun, qora ridosini kiyib oldi, beliga fransisklarga xos chizim bog'ladi, oyog'iga xom teridan tikilgan shippak ildi. Bu shippak yap-yangi bo'lgani uchun ziyoratchilar kiyadigan poyabzalga o'xshamas edi. Papa hazratlarini ko'rishi uchun Parvardigor yuqoridan unga Rimga sayohat marhamatini tushiradigan bo'lsa, to o'lguniga qadar monax libosini kiyib yurishi haqida Yaratganga va'da berib qasam ichgan edi. Mana, marhamat tushirgani uchun u Parvardigorga minnatdorchilik bildirib yotibdi. Ibodat tugagach, Karib dengizida ro'y bergan ob-havo mashaqqatlarini yengib o'tishi uchun uning diliga jasorat baxsh etgan Muqaddas Ruhga atab sham yoqdi, shu pallada shamol quturayotgan Rioachadagi uyida uxlayotgan va tushlarida uni ko'rayotgan to'qqizta o'g'li va o'n to'rtta nevarasining har biriga atab duo o'qidi.

Nonushtadan keyin palubaga chiqqanida paroxoddagi hayot o'zgarib ketgandi. Raqs tushiladigan zalda yuklar xilma-xil afsungarlik mollari sotiladigan Antil orollari bozorlaridan italiyaliklar xarid qilgan turli-tuman turistik hadyalar bilan ayqash-uyqash bo'lib yotar, bar stoli ustidagi temir qafasda Pernambuku makaka maymuni gerdayib o'tirar edi. Avgust oyi boshidagi ko'zni qamashtiradigan tonglardan biri, odatdagi yoz yakshanbasi edi. Urushdan keyin Xudoning bergan har kuni bir ne'mat hisoblanardi. Katta paroxod, bamisoli bemorday pishqirib, xirillab shaffof ko'lmak suv uzra asta suzib borardi. Gersog Anjuyskiylarning mash'um qal'asi ko'rindi. Bortga qapishgan yo'lovchilarga tanish joylar ko'rinayotgandek tuyula boshladi, ular duch kelgan tomonga barmoq cho'zib, bu joylarni ko'rsatishar, O'rta dengiz shevalarida hayajonli so'zlab, paroxodni boshlariga ko'tarar edilar. Senora Prudensia Linero paroxodda ota-onalari raqs tushgan vaqtlari bolalariga qarab turgani uchun ko'pgina do'stlar orttirishga ulgurgan, hatto kapitanning birinchi yordamchisining kamzuliga tugma ham qadab qo'ygan edi. Biroq hozir ular begona va uzoq bo'lib tuyula boshladi. O'zaro muloqot va mehr tropik karaxtlik vaqtida bostirib kelgan sog'inch tuyg'ularini bostirishda unga yordam bergandi, endi ular erib bitganga o'xshardi. Bir umr xabarlashib turish haqida ochiq dengizda berilgan va'dalar qirg'oq ko'rindi deguncha yo'q bo'ldiqo'ydi. Italiyaliklarning o'zgaruvchan atvoridan bexabar senora Prudensia Linero ayb boshqalarda emas, o'zida deb topdi, chunki vataniga qaytayotgan bu olomon orasida birgina yot kishi o'zi edi. Paroxod bortidan teran dengiz ostidagi turfa jonzotlarni tomosha qilar ekan, sayohatlarda shunday bo'lsa kerak, deb o'yladi va yot kishi ekani haqidagi fikr umrida ilk bora miyasini qaqshatdi. Yonida turgan hayratda qolarli darajada go'zal qiz bexosdan dahshatga tushdi va qattiq qichqirib, uni qo'rqitib yubordi.

– Mamma mia! – baqirdi u suvni ko'rsatib. – Qarang.

Bu g'arq bo'lgan kishining jasadi edi. Senora Prudensia Linero katta yoshdagi, tepakal, nihoyatda bashang kiyingan va chalqancha yotgan kishining, tonggi osmon rangiga o'xshash – xushchaqchaq ko'zlari ochiq qolganini ko'rdi. O'likning eg-nida ohorli kostyum, zarrin nimcha, oyog'ida yaltiroq botinka, yoqasida yangi gul, o'ng qo'lida hadyalik qog'ozga o'rog'liq to'rtburchak paketcha, ko'kargan qo'li bilan lentadan qilingan jamalakni qattiq ushlab olgan, aftidan, o'lim oldidan yopish-gan oxirgi narsasi shu bo'lsa kerak.

– Qaysidir to'y marosimida suvga yiqilib o'lgan bo'lsa kerak, – dedi paroxod zobitlaridan biri. – Bu yerda yozda bu-naqa hodisalar tez-tez sodir bo'lib turadi.

Jasad yonidan tezda o'tib ketishdi, paroxod ko'rfazga kirdi va yo'lovchilarning diqqati unchalik dilgir qilmaydigan nar-salarga qaratildi. Lekin senora Prudensia Linero g'arq bo'lgan kishi haqida o'ylashda davom etdi, badbaxtning kamzulining barlari hanuz paroxod ortida to'lqinlanib turardi.

Ko'rfazga kirar-kirmas, eskigina saldov kemachasi paro-xodga peshvoz chiqdi va uni urush vaqti vayron bo'lgan beadad kemalar yonidan tortib keta boshladi. Zanglagan temir-tersaklar orasidan o'tavergan sari suv tobora bulg'ala-nib, moyga aylana boshladi, jazirama Rioachening tushki soat ikkidagi issig'idan ham o'tib tushdi. Qator turgan kemalar orasidan crtalabki soat o'n birda shaharning afsonaviy sa-roylari, tepalik yonbag'riga yopishgan rang-barang eski kul-balari birdaniga oftob ostida yaraqlab ko'rindi. Bo'tana suv tubidan chidab bo'lmaydigan qo'lansa hid ko'tarilardi, senora Prudensia Linero bu hidni o'z hovlisida chiriyotgan qisqich-baqalarning hidiga o'xshash deb topdi.

Paroxod qirg'oqqa bog'lanarkan, yo'lovchilar pristan ustida quvonchdan qiy-chuv ko'tarayotgan qarindoshlarini taniy boshladilar. Ularning ko'pchiligi motam libosi kiygan, ko'krakdor, yoshi o'tinqiragan xotinlar bo'lib, yonlarida dunyodagi eng chiroyli va son-sanoqsiz bolalar, past bo'yli

va olg'ir erlar turardi. Bu erlar gazetani xotinidan keyin o'qiydigan va jazirama issiqqa qaramay, albatta, poshsholik mirzalariga xos kiyinadigan o'sha o'lmas turga mansub edilar.

Bozor g'alvasiga o'xshash bu g'ala-g'ovur orasida qandaydir daydi chol ikkala qo'li bilan juldur paltosining cho'ntaklaridan bir hovuch jajjigina momiq jo'jalarni chiqardi. Jo'jalar dadil chiyillagancha, bir lahzada pristanni to'ldirdi. Mo'jizaga tamomila loqayd olomon ularni bosib, yanchib o'tdi. Ammo sehrli bo'lgani uchun jo'jalarning ko'pchiligi omon qoldi va chopqillayverdi. Afsungar shlyapasini yerga qo'ydi, lekin shlyapaga hech kim bir chaqa ham sadaqa tashlamadi.

Faqat o'zi minnatdorlik bildirib ibodat qilgani uchun go'yo uning sharafiga berilayotgandek tuyulgan bu ajoyib tomoshadan sehrlangan Prudensia Linero narvonni qanday tushirishganini va olomon qaroqchilar abordajga olgan kemalariga qanday baqir-chaqir bilan hujum qilsalar, xuddi shunday shovqin-suron va qat'iyat bilan paroxodga yopirilganini sezmedi. Yopirilgan olomonning shod-u xurramligidan, ular-dan anqiyotgan chirigan piyoz hididan, jomadonlarni egalash uchun olishayotgan hammollar to'dasidan esankiragan Prudensia Linero pristandagi jo'jalar boshiga tushgan sharafsiz o'lim xavfi boshi ustida charx urayotganini sezdi. Shunda u qirralariga bo'yalgan, jez qoplangan taxta jomadonining ustida o'tirib oldi va toshday qotib o'tirganicha, kofirlar zamini-dagi vasvasa-yu balo-qazolardan o'zini himoya qilish maqsadida duo o'qiy boshladi. Kapitanning birinchi yordamchisi ayolga duch kelganida to's-to'polon tugagan va vayronasi chiqqan zalda undan boshqa hech kim qolmagan edi.

– Endi bu yerda hech kim qolishi mumkin emas, – dedi u muloyimlik bilan. – Sizga biron yordamim kerakmi?

– Men konsulni kutishim kerak, – dedi u.

Haqiqatan ham, jo'nab ketishlaridan ikki kun oldin katta o'g'li o'zining oshnasi bo'lgan Neapoldagi konsulga onasini

kutib olishni va Rimga jo'rab ketishi uchun qog'ozlarni rasmiylashtirishga yordam berishni so'rab telegramma jo'natgan edi. O'g'li telegrammada paroxodning nomi, borish vaqtini va Prudensia Lineroni fransiskan rohiblariga o'xshash ust-boshidan tanib olishi mumkinligini ko'rsatgandi. Onasi qirg'oqqa tushish oldidan ana shunday kiyinsa kerak, deb o'ylagandi. Ayol konsulni kutish niyatini shunchalik qat'iyat bilan aytdiki, zobit kema komandasining tushlik qiladigan vaqti kelgani va stullarni stollar ustiga ag'darib, palubani tozalashga kirishganlariga qaramay, ayolga yana birmuncha vaqt paroxodda qolishiga ruxsat berdi. Ho'l bo'lmasligi uchun uning sandig'ini matroslar bir necha marta u yoqdan-bu yoqqa surishdi, u to'xtamay tilovat qilganicha sovuqqonlik bilan o'sha yoqqa o'tib o'tiraverdi. Nihoyat, oxir-oqibat zaldan haydab chiqarishdi va u jazirama quyosh ostida palubada qutqaruv qayiqdari orasidan qo'nim topdi. Tushki soat ikkilarda kapitanning birinchi yordamchisi uni shu yerda uchratdi, tavbaridosiga o'ralgan va ter bosgan ayol endi noumidlik bilan tilovat qilayotgan edi. U shunchalik tahlikaga tushgan va g'amga botgan ediki, ko'z yoshlarini zo'rg'a tutib turardi.

– Ibodatning foydasi yo'q, – dedi zobit endi avvalgiday takalluf ko'rsatmay. – Avgust oyida hatto Parvardigor ham ta'tilga chiqadi.

U ayolga bu pallada, xususan, yakshanba kunlari Italiya aholisining yarmi plyajda yotishini tushuntirdi. Konsul xizmat burchi yuzasidan ta'tilga ketmagan bo'lishi mumkin, lekin u idorasini dushanbagacha ochmasligi turgan gap. Mehmonxonaga ketish, bir kecha dam olish, keyingi kuni konsullikka telefon qilish oqilona ish bo'ladi, konsulning telefoni, hech shubhasiz, telefon kitobida mavjud. Senora Prudensia Lineroning bu vaj-korsonlarga rozi bo'lishiga to'g'ri keldi va zobit uning kirish hujjatlarini rasmiylashtirishga, bojxonadan o'tib pul almashtirishiga ko'maklashdi, so'ngra taksiga o'tqazib, tuzukroq mehmonxonaga olib borishni tayinladi.

O'lik tashiydigan aravani eslatuvchi, daqqiyunusdan qolgan taksi titrab, silkinib, bo'sh ko'chalardan yurib ketdi. Bu arvohlar shahrida haydovchi bilan o'zi yakka-yu yolg'iz tirik jon bo'lsalar kerak, yana tinmay, buning ustiga zavq-shavq bilan javrayotgan bu odam Papani ko'rish umidida okean ortidan bunaqa tavakkaliga sayohatga jazm qilgan bechora yolg'iz ayolga yomonlik qilishga vaqt ham topmasa kerak, degan fikr senora Prudensia Lineroning miyasidan yilt etib o'tdi.

Qing'ir-qiyshiq ko'chalar oxirida yana dengiz ko'rindi. Taksi cho'g'dek qizib yotgan qumloq plyaj bo'ylab silkina-silkina ketib borardi. Plyaj bo'yida yorqin bo'yoqlarga bo'yalgan mo'jaz mehmonxonalar qator tizilgandi, lekin taksi ularning hech biri yonida to'xtamay o'tib ketdi hamda baland palmalari va oq o'rindiqlari bo'lgan jamoat parkining o'rtasida joylashgan ko'rimsiz mehmonxona yonida to'xtadi. Shofyor sandiqni olib, sersoya yo'lkaga qo'ydi va senora Prudensia Lineroning ikkilanib turganini ko'rib, bu Neapoldagi eng yaxshi mehmonxona ekaniga ishontirdi.

Kelishgan va sertakalluf hammol sandiqni yelkasiga ortib, butun tashvishni zimmasiga oldi. Ichki hovli zinapoyasi yonida qurilgan metall katak ichidagi lift yoniga olib bordi va qat'iyatla, bor ovozi bilan Puchchini ariyasini kuylay boshladi. Uning bu qiligi xavotir tuyg'usini uyg'otardi. Puturdan ketgan bino to'qqiz qavatli bo'lib, ta'mirlangan va har bir qavatda mustaqil mehmonxona joylashgan edi. Tovuqxona-ga o'xshash simkatak liftga olib kirishganida va lift marmar pillapoyalar bo'ylab guvullab asta ko'tarilayotganida derazalardan uyning ichki o'ta mahram hayotini, yirtiq paypoqlarini kuzatar, achimsiq hidlar dimog'iga urilar ekan, senora Prudensia Lineroning miyasi bir lahzaga g'ovladi. Lift uchinchi qavatda bir silkinib to'xtadi, hammol kuylashdan to'xtadi, metall romblardan iborat yig'ma eshikni ochdi va tavoze bilan egilib, senora Prudensia Lineroga uyiga yetib kelganini bildirdi.

Dahlizda rangdor shisha naqshlar bilan ziynatlangan yog'och peshtaxta ortida turgan yoshgina qotma yigitchaga va mis gultuvaklardagi sershox o'simliklarga ko'zi tushdi. Yigitcha bir ko'rishdayoq unga yoqib tushdi, chunki uning farishtalarnikiday jingalak sochlari xuddi kichik nevarasinikiga o'xshar edi. Jez taxtachaga o'yib tushirilgan mehmonxona nomi ham, ufurayotgan karbolka hidi ham, osig'liq gultuvaklardagi qirqquloq ham, sukunat, devorqog'ozlardagi liliyalar ham maqbul bo'ldi. Lekin u liftdan chiqdi deguncha yuragi tars yorilay dedi. Kutish zalida turna qator terilgan oromkursilarda kalta ishton va plyaj shippagi kiygan ingliz turistlari mudrab o'tirishardi. Ular o'n yetti nafar bo'lib, aslida bir kishi-yu, xuddi ko'zguda ko'paytirib qo'yishganday, hammasi ayni holatda o'tirishardi. Senora Prudensia Linero ularning har biriga alohida qarab o'tirmay, birvarakayiga nazar tashladi, bamisoli qassob do'konida qanora changaklariga ilib qo'yilgan son go'shti singari uzun tizilgan qator pushti oyoqlar uning diqqatini tortgan va hayratga solgan yagona narsa bo'ldi. Ayol chiqqan joyida to'xtab qoldi va qo'rqqanidan tirsarilib, liftga qaytib kirdi.

– Boshqa qavatga ketdik, – dedi u.

– Signora, lekin faqat shu qavatda oshxona bor xolos, – dedi hammol.

– Ahamiyati yo'q, – dedi u.

Hammol rozi bo'lganini bildirib ishora qildi, lift eshigini surdi va qo'shig'ini boshladi, beshinchi qavatga chiqqanlarida ashula ham so'ngiga yetdi. Bu yer unchalik sarishta bo'lmasa-da, beka ko'rkam xotin bo'lib chiqdi, u ispanchada juda yaxshi gapirardi, buning ustiga qabulxonaning oromkursisida mudrayotgan odamning o'zi yo'q. Haqiqatan ham oshxonaga yo'q edi, lekin mehmonxona yaqin atrofda joylashgan bir oshxona bilan shartnoma tuzgan bo'lib, u yerda mehmonxonaga mijozlarini maxsus narx asosida ovqatlantirishardi. Senora Prudensia Linero bu yerda bir kecha qolishga rozi bo'ldi.

Yoqimtoy bekaning gapga chechanligi va qabulxonada pushti shim kiygan bironta ham ingliz yo'qligi bunga sabab bo'ldi.

Kunduz soat ikki bo'lsa-da, xonaning pardalari tushirilgan, yarim qorong'ida ko'rinmas va osoyishta emanzor sukunati hukm surardi, bu yerda ko'z yoshi to'kish juda maqbul ish bo'lar edi. Yolg'iz qoldi deguncha, senora Prudensia Linero eshikning har ikkala lo'kidonini surib qo'ydi-da, ertalabdan beri birinchi marta bovu qildi va huzurlandi. Shundan keyin u shippagini, ridosining belidagi chilvirni yechdi, yolg'iz o'ziga juda kenglik qiladigan ikki kishilik karavotga chiqib, so'l tomoni bilan yotdi-da, boshqa manbaga – toshib turgan ko'z yoshlariga erk berdi.

U bolalari oila qurib, ro'zg'orini bo'lak qilganlaridan va xushidan judo bo'lgan eriga qarash uchun yalangoyoq yuradigan ikkita hindu oqsoch bilan yolg'iz qolganidan so'ng, umrida birinchi marta Rioachadangina emas, balki, umuman, ilk bora uyidan chiqqan edi. Hayotining yarmi yoshlik yillarida muhabbat to'shagi bo'lib xizmat qilgan echki terisidan qilingan to'shakda deyarli o'ttiz yildan beri letargik uyquda yotgan suyukli erining yonida o'tdi.

O'tgan yilning oktabrida bemor ko'zini ochdi, birdaniga aqli ravshanlashib, yaqinlarini tanidi va fotosuratchini chaqirishlarini so'radi. Istirohat bog'ida ishlaydigan keksa fotosuratchini chaqirib kelishdi. U uy sharoitida suratga olish uchun qora qo'lliklari bo'lgan kattakon qatlama fotoapparatini va magniy idishini olib keldi. Suratga olish jarayoniga bemorning o'zi rahbarlik qildi. «Bitta surat menga, sevgisini va baxtni in'om etgan Prudensiaga», – dedi u. Magniy yalt etdi. «Endi ikkita surat jondan ortiq sevadigan qizlarim – Prudensia va Nataliya uchun», – dedi bemor. Yana magniy charaqladi. «Yana ikkitasi o'g'illarimga, ular latif sevgisi va oqilligi bilan butun oilamizga o'rnak bo'lmoqdalar», – dedi u. Shu tariqa fotosuratchining qog'oz tamom bo'lguncha ish davom etaverdi va u yana qog'oz keltirish uchun uyiga ket-

di. Peshindan so'ng soat to'rtda, magniy tutuniga va suratini olishga oshiqib kelgan qarindoshlar, do'stlar va tanishlarga to'lib ketgan xobgohda nafas olish imkoni qolmagan bir vaqtda bemor to'shakda bamisoli o'z-o'zidan eriyotgandek bo'ldi va qo'lini behol ko'tarib, barcha bilan vidolashdi-da, uzoqlashayotgan kema palubasida ko'zdan g'oyib bo'lgandek, bu dunyodan ketdi.

Hamma erining vafotidan keyin beva yengil tortsa kerak deb o'ylagandi, lekin bunday bo'lmadi, aksincha, u shunchalik qattiq g'amga botdiki, barcha bolalari to'planib, unga qanday taskin berishlari mumkinligini so'rashdi. Shunda u faqat bir narsani – Papani ziyorat qilish uchun Rimga borishni xohlashini aytdi.

– Lekin men fransisk rohiblari ridosida yolg'iz o'zim ketaman, – deb ogohlantirdi u. – Shunday deb ont ichganman.

Bemor ustida necha yillab bedor o'tkazgan tunlardan so'ng, u faqat to'yib-to'yib yig'lashdan orom olardi. Paroxodda ikki nafar klarissa-rohiba ayol bilan bir kayutada yashashga majbur bo'lgan vaqtida birov ko'rmasligi uchun vannaxonani ichkaridan qulflab, yig'lab olardi. Neapol mehmonxonasidagi o'z xonasi Rioachadan chiqqanidan buyon birinchi marta to'yib yig'lab olishi uchun yagona qulay joy bo'lib chiqdi. Agar soat yettida beka eshik qoqib, hozir oshxonaga bormasa, och qolishi mumkinligi haqida ogohlantirmaganida ertagacha, poyezd Rimga jo'nagunga qadar yig'lagan bo'lardi.

Xodim uni oshxonaga olib bordi. Dengiz tomondan toza shamol esdi, lekin bir nechta suzuvchi haliyam plyajda bo'zarib borayotgan quyosh ostida o'tirar edilar. Senora Prudensia Linero xizmatchining ortidan yakshanba uyqusidan uyg'ongan odamlar toshib chiqa boshlagan tor ko'chalar bo'ylab yurib borardi. Ko'p o'tmay oq-qizil katak dasturxonlar yozilgan stollar qo'yilgan sersoya bostirma yoniga yetib bordi. Stollar ustida guldonchalar o'rnida murabbodan bo'shagan bankalarda qog'oz gullar turardi. Hali juda vaqqli

bo'lgani uchun faqat xizmatchilar ovqatlanayotgan edi. Bir chekkada kambag'al ruhoni non va piyoz tanovul qilayotgandi. Oshxonaga kirar ekan, hammaning diqqati uning qora libosiga qaratilganini sezdi, lekin parvo ham qilmadi, chunki kulgili bo'lish, kaforatning ajralmas belgisi ekanini bilardi. Ofitsiantka bo'lsa, aksincha, unda achinish hissini uyg'otdi. Chunki bu sariq soch qiz go'zal bo'lib, so'zlaganida xuddi qo'shiq aytayotganga o'xshardi. Modomiki, shunday qiz oshxonada ishlashga majburmi, demak, urushdan keyin bu Italiyaning ahvoli xiyla og'ir ekan, deb o'yladi u. Lekin gullar bilan bezatilgan bu shiyponchada o'tirishdan uning bahridili ochildi, oshxonadan kelayotgan ovqat va dafna yaprog'ining hidi kundalik tashvishlar tufayli mudroq bo'lgan ishtahasini qo'zg'adi. Qachonlardan beri birinchi marta uning yig'lagisi kelmadi.

Ammo qisman, garchi sariq soch ofitsiantka yoqimtoy va sabrli bo'lsa-da, u bilan tillasha olmagan, qisman taomnomada birdan-bir go'shtli taom sayroqi qush go'shti bo'lgani uchun maza qilib ovqatlana olmadi. Rioachada sayroqi qushlarni uy sharoitida qafasda saqlashardi. Burchakda ovqatlanayotgan ruhoni oxir-oqibat tarjimonlikka bel bog'ladi va ayolga yevropada urushdan keyingi mushkulotlar hali barham topmaganini, shuning uchun ham hech bo'lmaganda o'rmon qushlari go'shtini tanovul qilish mumkinligiga shukr qilish lozimligini tushuntirishga urinib ko'rdi. Lekin u qush go'shti yeyishdan bosh tortdi.

– Bu qushlarning go'shtini yeyish bolamning go'shtini yeyish bilan bir, – dedi u.

Shu boisdan makaron sho'rva, taxir cho'chqa yog'ida dimlangan qovoq va toshday qattiq non bo'lagi bilan qanoatlanishiga to'g'ri keldi. U ovqatlanarkan, ruhoni yoniga kelib o'tirdi va Xudo yo'liga qahva bilan siylashini o'tindi. U yugoslaviyalik bo'lib, Boliviya missionerlik bilan kun kechirar, ispanchani juda yomon va hayajonlanib so'zlar edi. Senora Prudensia Lineroga u kibrdan tamomila xoli, o'rta-

miyona odam bo'lib ko'rindi. U ruhoniyning kasbiga mos kelmaydigan kir qo'llariga, kemirilgan tirmoqlariga e'tibor berdi. Ruhoniydan piyoz hidi shunchalik anqib turardiki, senora Prudensia Linero bu uning fe'l-atvoriga xos xususiyat bo'lsa kerak, degan fikrga bordi. Lekin nima bo'lishidan qat'iy nazar, u Xudo yo'lida xizmat qiladigan kishi edi. Buning ustiga u uyidan shunchalik uzoqlarda gaplasha olishi mumkin bo'lgan kishini uchratgandi.

Atrofdagi stollar to'lgan sari ot bozoridagiga o'xshab kuchaygan shovqinga parvo qilmay, ular shoshilmay gaplashib o'tirishardi. Senora Prudensia Linero Italiya to'g'risida uzilkesil xulosa chiqardi, bu mamlakat unga yoqmadi. Bu yerlik erkaklar biroz shilqim ekanining o'zi yetarli bo'lgani emas, bu yerdagilar qush go'shti yeyishgani ham emas (bunisi endi haddan tashqari), balki suvga g'arq bo'lganlarni o'z holiga tashlab qo'yishdek yaramas odatlari shu fikrga kelishiga sabab bo'ldi.

Uning hisobiga qahvadan tashqari, yana bir qadah vino keltirishlarini buyurgan ruhoniy bu fikr yuzaki ekanini isbotlashga urinib ko'rdi. Gap shundaki, urush vaqtida Neapol ko'rfazida suv yuzasiga qalqib chiqqan ko'pdan-ko'p murdalarni ushlab olish, kimligini aniqlash va tabarruk qilingan tuproqda dafn etish xizmati juda yaxshi yo'lga qo'yilgandi.

– Ko'p asrlar avval, – deb xulosa qildi u, – italiyaliklar hayot bir marta berilishini tushunib oldilar va imkon boricha yaxshi yashashga harakat qiladilar. Bu ularni tadbirkor va o'zgaruvchan qildi, lekin fe'l-atvorini bag'ritoshlikdan butkul pokizaladi.

– Lekin paroxod, hatto to'xtagani ham yo'q, – dedi ayol.

– Ular radio orqali bandargoh xo'jayinlariga xabar beradilar, – dedi ruhoniy. – Endilikda bo'lsa, murdani olib, Parvardigor haqqiga dafn qilgan bo'lishlari kerak.

Bu gaplardan ikkovining ham kayfiyati buzildi. Ovqatini yeb tugatgachgina senora Prudensia Linero barcha stollar

egallanganini ko'rdi. Shundoqqina biqinlaridagi stolda yarimyalang'och turistlar ovqatlanyapti, ovqat yeyish o'rniga o'pishayotgan yigit-qizlar ham bor. To'rdagi bar yaqinida shu yerlik kishilar narda o'ynab, oqish vino ichayotir. Senora Prudensia Linero bu yoqimsiz mamlakatda turishi uchun birgina sabab borligini tushundi.

– Siz nima deb o'ylaysiz, Papani ko'rish qiyin emasmi? – deb so'radi u.

Ruhoniy yoz vaqtida bu nihoyatda oson ekanini aytdi. Papa ta'tilini Kastelgandolfoda o'tkazadi va chorshanba kunlari tushdan keyin butun dunyodan kelgan ziyoratchilarni rasmiy ravishda qabul qiladi. Kirish haqi juda arzon, bor-yo'g'i yigirma lira.

– Tavba uchun qancha oladi? – so'radi ayol.

– Avliyo Ota hech kimning tavbasini qabul qilmaydi, – javob berdi ruhoniy, birmuncha hayratlanib. – Bundan, tabiiyki, qirollar mustasno.

– Shunchalik uzoqdan kelgan bechora ayoldan bunday marhamatni darig' tutishiga tushunolmayman, – dedi ayol.

– Ba'zi qirollar, haqiqiy qirollar, navbat kutib o'lib ketishdi, – dedi ruhoniy. – Ayting, Avliyo Otaga tavba qilaman deb shuncha yo'lni yakka-yu yolg'iz bosib kelganingizga qaraganda, katta gunohingiz borga o'xshaydi.

Senora Prudensia Linero bir zum o'ylanib qoldi va ruhoniy uning yuziga tabassum qalqqanini ilk bor ko'rdi.

– Lue Mala Rshtasha! – dedi u. – Men uni ko'rsam bo'ldi. – So'ngra yuragining to'ridan chiqqanday, chuqur xo'rsindi: – Men buni butun umr orzu qilganman!

Aslida ayol hanuz qo'rquv ichida edi, hasrat yuragini kemirar va faqat bir narsani bu yerdan, faqat bu yerdangina emas, umuman, Italiyadan hoziroq ketishni xohlar edi. Ruhoniy bo'lsa, aftidan, bu orzumand ayoldan boshqa foyda yo'q deb o'ylagani uchun bo'lsa kerak, unga muvaffaqiyat tiladi va Iso yo'liga qahva bilan siylashlarini o'tingani boshqa xo'randalar yoniga ketdi.

Senora Prudensia Linero oshxonadan chiqib, shahar o'zgarganini ko'rdi. Kechki soat to'qqizda ko'chalar nurga ko'milganidan hayron bo'ldi, sof havodan nafas olib, tetiklashish uchun ko'chaga chiqqan xaloyiqning g'ala-g'ovuri uni cho'chitdi. Sanoqsiz quturgan «vespa»lar chiqarayotgan tutundan nafas olish imkoni yo'q. Rulda ko'yleksiz erkaklar, orqada ularni belidan quchib olgan chiroyli qizlar, mototsikllar changaklarga osilgan son go'shti rastalari orasidan otilib chiqar va tarvuz to'la stollar orasida g'izillab aylanishardi.

Bayram nafasi ufurar, lekin senora Prudensia Lineroga balo-qazo yopirilganday tuyulardi. U adashib ketdi. Birdan qandaydir pastqam ko'chaga borib qoldi, hammasi bir-biriga aynan o'xshash uylar eshigi oldida ma'yus juvonlar o'tirishar, qizil chiroqlar yonib-o'chardi. Senora Prudensia Linero dahshatdan qaltiradi. Barmog'iga kattakon oltin uzuk, galstugiga olmos to'g'nog'ich qadab olgan, bashang kiyingan bir erkak anchagacha orqasidan yurib, italyancha, so'ngra inglizcha, fransuzcha gapirib, nimalargadir ko'ndirmoqchi bo'ldi. Javob bo'lmagach, cho'ntagidagi paketdan bir surat chiqarib ko'rsatdi va ayolning jahannamga tushganini anglashi uchun suratga ko'zi tushishining o'zi kifoya qildi.

U dahshatga tushib, bu yerdan qochdi, ko'cha oxirigacha chopib, yana dengiz bo'yiga chiqib qoldi. Kechki pallada dengizdan baayni Rioacha bandargohinikiga o'xshash chirigan mollyuska hidi anqir edi. Shundan keyingina uning yuragi joyiga tushdi. U sohil bo'ylab tizilgan rang-barang mehmonxonalarini, dafn aravasi - taksilarni, tubsiz osmonda olmosday porlayotgan katta yulduzni tanidi. Senora Prudensia Linero suzib kelgan paroxod palubasi yoritilgan holda ko'rfaz to'rida, to'siq yonida langar tashlab turardi. U endi paroxodga hech qanday aloqasi yo'qligini tushundi. Ayol chapga burildi, lekin uzoq keta olmadi, ko'chani qiziquvchan olomon to'ldirgan bo'lib, karabinerlar dastasi uni zo'r-bazo'r ushlab turardi. Mehmonxonasi yonida esa, eshigi ochiq «Tez yordam» mashinalari turna qator bo'lib kutib turardi.

Senora Prudensia Linero kimningdir yelkasi osha qarab, yana ingliz turistlarini ko'rdi. Ularni birin-ketin zambilda olib chiqa boshlashdi. Hammasi harakatsiz, viqor bilan yotishardi, kechki ovqatga borish uchun ohorlik libosini: yonlama chiziq-li galstuk osgan, flanel shim, ko'krak cho'ntagining ustiga Triniti kollejining gerbi qadalgan qora kamzul kiygan bir inglizning o'zini qayta-qayta olib chiqishayotgandek tuyulardi. Qo'shni uylarning ayvonlaridan qarayotgan qo'shnilar, ko'chani to'sib qo'ygan sinchkov yo'lovchilar baayni ringda bo'layotgandek, olib chiqilayotgan inglizlarni jo'rovoz bo'lib birma-bir sanayverdi. Roppa-rosa o'n yettita. Ularni mashinalarga juft-juft chiqarib, xuddi harbiylarnikiga o'xshash qattiq sirena chalgan holda olib ketishdi.

Ko'rganlaridan esankiragan senora Prudensia Linero o'zga mehmonxonalarda yashaydigan va u tushunmaydigan tilda so'zlashayotgan mehmonlarga liq to'la liftda yuqoriga ko'tarildi. Odamlar har qavatda tushib qolishardi. Faqat uchinchi qavatda hech kim tushmadi. Bu qavatning eshigi lang ochiq, barcha chiroqlar yoqib qo'yilgan, ammo navbatchi o'rnida va kutish zalidagi oromkursilarda hech kim yo'q edi. U yaqindagina bu oromkursilarda mudrab o'tirgan o'n yettita inglizning pushti tizzalarini ko'rgandi. Beshinchi qavat bekasi bo'lib o'tgan hodisani qattiq hayajon aralash so'zlab berdi.

– Hammasi o'ldi, – dedi u senora Prudensia Lineroga ispanchalab. – Kechki ovqat payti ustritsa sho'rvasidan zaharlanishibdi. Tasavvur qiling-a, avgust oyida ustritsa!

Beka unga xona kalitini tutqazdi va endi unga qaramay boshqa mijozlarga neapolitan shevasida so'zlay ketdi: «Bizda oshxona yo'q, shuning uchun ham bizda yashaydiganlarning hech biri o'lib qolmaydi!» Senora Prudensia Linero yana o'pkasi to'lib, ko'z yosh to'kkan holda eshikni tambaladi. So'ngra stol va oromkursini itarib, eshikka tiradi, ustidan sandig'ini qo'ydi. Shu yo'sinda bunaqa qo'rqinchli hodisalar sodir bo'ladigan bu mamlakat dahshatlari hatlab o'tolmaydigan

to'siq qurib oldi. Keyin, kechki ko'yagini kiydi, to'shakka chalqancha uzandi va zaharlanib o'lgan o'n yettita ingliz haqiga o'n yettita duo o'qidi.

TRAMONTANA

Men uni faqat bir marta, dahshatli o'limidan bir necha soat oldin Barselonaning sermijoz «Bokachchio» kabaresida ko'rgandim. Kadakesh sayriga olib ketish uchun urinayotgan yosh shvedlar to'dasi uni siquvga olgandi. Ular o'n bir nafar bo'lib, bir-biriga shunchalik o'xshar edilarki, qay biri yigit-u, qay biri qiz ekanini ajratish mushkul edi. Hammasi kelishgan, xipchabel, oltinsoch. U bo'lsa, nari borsa, yigirma yoshlarda edi. Sochlari jingalak, terisi bug'doyrang, chunki karibliklarni onalari soyada yurishga o'rgatadilar va silliq, arablarnikiga o'xshash ko'zlari shved qizlarini aqldan ozdiradigan darajada maftunkor. Shvedlar yigitni, bamisoli so'zlaydigan qo'g'irchoqday, peshtaxta ustiga o'tqazib qo'yib, qarsak urib, urf bo'lgan qo'shiqlarni aytishar va birga ketishga ko'ndirmoqchi bo'layotgan edilar. U qo'rquvdan jovdirab, borolmasligining sababini tushuntirardi. Kimdir aralashib, uni tinch qo'yinglar, deb qichqirdi va bir shved yigit qahqaha otib kulganicha, hi-moyachiga yuzlandi.

– U bizniki, – deb baqirdi u. – Biz uni axlatxonadan topib olganmiz.

Biz do'stlarimiz bilan konsertdan, David Oystraxning Paulau de la musiqa zalidagi so'nggi konsertidan chiqib, endigina kabarega kirgandik. Bu shvedlarning bunchalik Xudobexabarliklaridan etlarim junjikdi. Chunki yigit muqaddas narsani sabab qilib ko'rsatgan edi. U o'tgan yozgacha Kadakeshda yashagan, toki tramontana urmagunga qadar mashhur qovoqxonada shartnoma asosida antil o'lkasi qo'shiqlarini ijro etgandi. Keyingi kuniyoq u yerdan qochib ketishga muvaffaq

bo'lgan va tramontana esidimi-yo'qmi, bundan qat'iy nazar, u yerga qaytib bormaslikka qaror qilgandi. Chunki bu yerga qachondir qaytsa, uni ajal olishiga ishonchi komil edi. Yozgi jaziramadan va Kataloniyaning taxir sharobidan qizishgan, kallasida mardonavor g'oyalar charx urayotgan shimollik ratsionalistlar to'dasi karibliklarning bu e'tiqodini tushunmasdi.

Men uni boshqalardan ko'ra yaxshiroq tushunib turardim. Kadakesh Kosta-Brava sohilida joylashgan eng go'zal shaharlardan, saqlanib qolgan boshqa shaharlarning hammasidan yaxshirog'i. Bu shaharga tubsiz jarlar yoqasidan o'tadigan egri-bugri, tor karniz yo'l orqali boriladi. Bu yo'ldan mashinani soatiga ellik kilometrdan tezroq haydash uchun asablar juda mustahkam bo'lishi kerak. Bu yerdagi uylar O'rta dengizning baliqchilar posyolkasiga xos an'anaviy uslubda oppoq va pastak qilib qurilgan. Mashhur me'morlar bu yerdagi uyg'unlikka rioya qilgan holda yangi uylar qurayotgandilar. Yozda, ko'chaning bevosita qarshi tomonidan Afrika sahrolarining jaziramasini ufurayotgandek tuyuladigan pallada, Kadakeshda qiyomat qo'pard: butun yevropadan kelgan turistlar muttasil uch oy davomida yerliklar va imkoni bo'lgan vaqtda omadi kelib, bu yerdan arzon-garovga uy sotib olgan o'zgalarning jannatidan joy olish uchun jiqqamusht bo'lishardi. Lekin bahorda va kuzakda, Kadakesh, ayniqsa, chiroy ochadigan mavsumda barcha qit'adan esadigan shafqatsiz va qattiq shamol – tramontana haqida o'ylab, dahshatga tushardi. Chunki tub aholi va achchiq tajriba orttirgan ayrim yozuvchilarning fikriga qaraganda, tramontana odamlarni aqldan ozdirar ekan.

O'n besh yilcha oldin men oilam bilan doimiy ravishda Kadakeshga borib turardim. Safarlarimiz tramontanani boshdan o'tkazgunimizga qadar davom etdi. Bir yakshanbada, peshin uyqusi vaqtida tramontana esmasidan oldinoq men uni sezdim, borlig'imni tushuntirib bo'lmaydigan g'alati hissiyot qamrab oldi, nimadir yuz berishi kerakdek bo'laverdi. Kay-

fiyatim darhol tushib ketdi, yurak siqila boshladi va menga o'g'illarimning kattasi hali o'n yoshga ham to'lmagandi, hovlida u yoqdan-bu yoqqa yurayotgan otasini dushmanlar-cha kuzatayotgandek tuyuldi. Ko'p o'tmay eshik-derazalarni mustahkamlash uchun asbob-uskunalarini va kema arqonini ko'tarib kelgan darvozabon mening tushkun kayfiyatda ekanimdan zarracha hayratlanmadi.

– Bu tramontana nishonasi, – dedi u menga. – Bir soat o'tmay shamol bu yerga yetib keladi.

U hayotini allaqachonlardan beri dengizga bag'ishlagan keksa kishi bo'lib, oldingi kasbidan nam o'tkazmaydigan kurtka, shapka, tamaki chekiladigan trubka qolgan, ustiga-ustak butun badanini dengiz sho'ri bosgan edi. U bo'sh vaqtlarida mag'lubiyat bilan tugagan turli urushlarning veteranlari bilan maydonchada qarta o'ynar, kataloncha yordamida istalgan bir tilda so'zlashishdek ajoyib qobiliyatga ega bo'lgani uchun sohildagi qovoqxonalarda turistlar bilan sharobxo'rlik qilar edi. U butun dunyoning bandargohlarini bilishini aytib maqtanishni yaxshi ko'rar, lekin qit'a ichidagi bironta shaharni bilmas edi. «Hatto o'sha fransuz Parijini ham ko'rmanman», – derdi. U dengizda suzmaydigan bironta naqliyot vositasiga ishonmasdi.

So'nggi yillarda u birdaniga qartaydi va ko'chaga chiqmay qo'ydi. Ko'p vaqtini darvozaxonasida o'tkazar, hamishagidek yakka-yu yolg'iz o'tirardi. Spirt olovida tunuka qozonchada o'ziga ovqat pishirardi. Lekin qozonchadagi gotcha lazzatli taomlar bizni siylashiga ham yetardi. Erta tongdanoq u xonadonma-xonadon kezib, uy ishlari bilan shug'ullanardi. U men ko'rgan kishilar orasida xizmatga doim shay turadigan eng yaxshi dastyorlardan biri bo'lib, favqulodda saxiy va katalonchasiga jiddiy, mehribon kishi edi. Kamgap, lekin aniq-ravshan so'zlar, ishlarini bitirgach, soatlab futbol lotereyasi kartochkalarini to'ldirar, lekin ularni kamdan-kam hollarda jo'natar edi.

O'sha kuni, kelayotgan falokatning oldini olish uchun deraza va eshiklarni mustahkamlar ekan, u tramontana haqida go'yo usiz yashashining ma'nosi bo'lmagan manfur xotin to'g'risida so'zlayotgandek gapirgandi. Dengizchi odamning qirg'oqdan esadigan shamoldan bunchalik cho'chishi meni hayratga soldi.

– Gap shundaki, bu eng qadimiy shamoldir, – dedi u.

U yilni oylar va kunlarga emas, balki tramontana esadigan vaqtlarga ko'ra hisoblaydiganga o'xshardi. «O'tgan yili, ikkinchi tramontanadan uch kun o'tgandan keyin meni qattiq sanchiq tutgandi», – degandi u bir kuni menga. Har bir tramontanadan keyin kishi bir necha yilga keksayishiga ishonishi ham, ehtimol shu bilan izohlansa kerak. U tramontana haqida to'xtovsiz gapiraverib, bizni ham qiziqtirib qo'ydi. Tramontana ajaldek xavfli, lekin marg'ub mehmonni kutgandek, kuta boshladik.

Ko'p kutishga to'g'ri kelmadi. Darvozabon ketdi deguncha g'uvillagan tovush eshitildi, tovush borgan sari kuchaydi, nihoyat yer-u ko'k larzaga kelguday bo'lib gumburladi. Nihoyat, shamol esdi. Oldiniga o'qtin-o'qtin, keyingisi oldingisidan kuchliroq, oxiri tanaffussiz, benihoya quturib, kuchli shiddat bilan esa boshladi. Bu shamolda qandaydir g'ayritabiiy kuch bor edi. Xonamizning derazasi, Karib mamlakatlardagi an'anaga teskari o'laroq, dengiz emas, tog' tomonga qaragan edi. Bu, aftidan, dengizni yaxshi ko'radigan, lekin unga qaramaydigan kataloniyaliklarning didiga mos bo'lsa kerak. Shuning uchun ham shamol shundoqqina manglaydan urar, deraza oynalarini sindirgudek bo'lardi.

Hammasidan hayratlanarlisi shu ediki, ob-havo takrorlanmas darajada fusunkorligicha qolaverdi, ochiq osmonda oftob zarrin nur sohib turaverdi. Shunda dengizda nimalar bo'layotganini ko'rish maqsadida bolalar bilan ko'chaga chiqishga qaror qildim. Nafsilamrini aytganda, ular Meksika zilzilasi ham, Karib to'fonlarini ham ko'rishga ulgurishgan, binobarin,

shamol qattiq essa nima-yu, sekin essa nima bo'пти, tashvishlanmasa ham bo'laveradi, deb o'yladik.

Uylar panasida biroz yurishga muvaffaq bo'ldik, biroq muyulishga yetib, panadan chiqdik deguncha, shamol uchirib ketmasligi uchun simyog'ochni quchoqlashga majbur bo'ldik. Quturgan ofat qo'ynida simyog'ochga yopishgancha, tinch va shaffof dengizni tomosha qilib turaverdik. Darvozabon qo'shnilar ko'magida bizni qutqardi. Shundagina to'rt devor orqasida biqinib o'tirish yagona oqilona ish bo'lishini tushunib yetdik. Bu balo-qazo qachon to'xtashi birgina Parvardigorga ma'lum edi.

Ikkinchi kun oxiriga borib bu qo'rqinchli shamol tabiiy ofat emas, balki kimdir tomonidan shaxsan va faqat bizning boshimizga ataylab yog'dirilgan balo-qazodek tuyula boshladi. Darvozabon kayfiyatimiz tushib ketganidan xavotirlanib, bizdan kuniga bir necha marta xabar olar, bolalarga mavsum mevalari va kulchalar olib kelardi. Seshanba kuni tushlikda bizni Kataloniyaning mashhur taomi chig'anoq qo'shib qovurilgan quyon go'shti bilan siyladi. Bu dahshat ichra shohona ziyofat bo'ldi.

Shamoldan boshqa hech narsa sodir bo'lmagan chorshanba umrimda eng uzun kun bo'ldi. Tong otgandan keyin to'satdan qorong'i tushganga o'xshash qandaydir g'alati hodisa yuz berdi, yarim tunda atrof birdaniga suv quygandek tinchib qolgani uchun barchamiz baravariga uyg'onib ketdik. Bu mash'um sukunat faqat ajal sukunati bo'lishi mumkin edi. Deraza oldidagi daraxtlarning bironta bargi shitirlamasdi. Biz ko'chaga chiqdik, darvozabonning kulbasida chiroq o'chgandi va tong oldidan bo'zarayotgan, hali yulduzlar charaqlab turgan osmon-u falakka va yorishayotgan dengizga suqlanib tikildik. Garchi hali soat besh bo'lmagan bo'lsa-da, ofat o'tib ketganidan yengil tortgan turistlar sohil bo'yidagi toshlar ustida huzurlanib o'tirishardi, uch kunlik to'fondan keyin yelkanli kemalar birinchi marta dengizga chiqishga tayyorgarlik ko'rishardi.

Uydan chiqqanimizda darvozabonning kulbasi qorong'i ekani bizga g'alati bo'lib tuyulmagandi. Ammo qaytib kelganimizda, dengiz singari tevarak-atrof ham yorishgan, lekin kulbada hanuz chiroq yonmagan edi. Hayron bo'lib eshikni taqillatdim, hech kim javob bermagach, eshikni ochdim. Af-tidan, bolalar uni mendan ko'ra oldinroq ko'rishdi, shekilli, dahshatdan baqirib yuborishdi. Taniqli dengizchilarga be-riladigan nishonlarini taqib olgan kekxa darvozabon asosiy to'singa osilib yotar, murdasi tramontananing so'nggi epkini ostida haliyam chayqalib turardi.

Hushimizga kelib ulgurmasdanoq va zerikkanimiz uchun biz bu yerga boshqa qaytib kelmaslikka qattiq ahd qilib, vaqtidan oldin jo'nab ketdik. Turistlar yana ko'chalarga toshib chiqqan, maydonlarda musiqa sadolari yangrar, veteranlar bu yerda soqqa o'yini o'ynashga hozirlik ko'rishar edi. «Ma-ritim» barining chang bosgan derazalari ortida o'tirgan tirik qolgan ayrim do'stlarimizga ko'zimiz tushdi. Tramontanadan keyin yorishib ketgan borliqda hayot nafasi ufura boshlagan-di. Tramontana o'tib ketgan, unutilgan edi.

Mana shuning uchun ham o'sha qayg'uli tong vaqtida «Bokkachio»da yigitning vujudini qamragan dahshatning boisini hech kim menchalik tushunib yetmayotgan edi. Kada-keshga qaytsa, o'lishiga amin bo'lgani uchun yigit u yerga borishdan bo'yin tovlayotgan edi. Shunday bo'lishiga qara-may, yigitning afrikacha uydirmalari puch ekaniga qat'iy ishonayotgan shvedlarni fikridan qaytarish mumkin bo'lmadi va ular, oxir-oqibat yigitni majburlab olib ketishdi. Shvedlar ikki tomonga bo'lingan kabare mijozlarining qarsaklari va qahqahalari ostida yigitni mastlarga to'la mashinaga deyarli itarib-turtib chiqarishdi va bemahalda uzoq Kadakeshga to-mon yo'lga chiqishdi.

Ertasiga saharbordonda telefon qo'ng'irog'idan uyg'onib ketdim. Sayrdan qaytgach, pardalarni tushirishni unutgan-dim, yotoq yoz quyoshidan charog'on bo'lgan, lekin soat necha bo'lganidan xabarim yo'q edi. Go'shakdan eshitilgan

tashvishli ovozni dastlab tanimadim, lekin uyqum butunlay qochib ketdi.

– Kecha Kadakeshga olib ketishgan yigit esingdami?

Gapning davomini eshitmasam ham bo'laverardi. Lekin hammasi tasavvurimdagidan ko'ra fojiali tarzda ro'y bergan edi. Kadakeshga qaytishdan qattiq qo'rqayotgan yigit, muqarrar o'limdan qutulishga urinib, tentak shvedlar nimagadir alahsigan paytda g'izillab borayotgan mashinadan o'zini to'ppa-to'g'ri jarga otgan ekan.

SENORA FORBESNING BAXTLI YOZI

Kunduzi uyga qaytib, eshik kesakisiga qoqilgan qora va yaltiroq katta dengiz ilonini ko'rdik. Bu lo'lilarning jodugarligiga o'xshardi, mix ilonning bo'ynidan qoqilgan, ko'zlaridan hali tirik ekani, katta ochilgan og'zidan arrasimon tishlari ko'rinib turar edi. Men to'qqiz yoshda edim va jodudan shu daraja qo'rqib ketdimki, unim chiqmay qoldi. Mendan ikki yosh kichik ukam bo'lsa, qo'lidagi kislorod balloni, niqob va rezina kurakoyoqni tushirib yuborib, dahshatdan baqirgan nari qochdi. Sohildan uyga qoyalar orasidan ko'tariladigan tosh zinapoyada turgan senora Forbes uning baqirig'ini eshitib, harsillagan nari yugurib keldi. Uning yuz-ko'zi oppoq oqarib ketgandi. Eshikka qoqib qo'yilgan maxluqni ko'rib, qo'rquvimizning sababini tushundi. U doim birining qilg'ilig'i uchun birga yurgan bolalarning ikkovi ham aybdor derdi, shuning uchun ham ukam qo'rquvdan baqirib yuborgan va o'zimizni tuta olmaganimiz uchun ikkovimizni ham koyidi. Uni murabbiyalikka yollash to'g'risidagi shartnomaga muvofiq inglizcha gapirishi lozim bo'lsa-da, nemischa so'zlay ketdi, aftidan, u ham qo'rqib ketgan bo'lsa kerak. Lekin o'zicha buni tan olgisi kelmadi va nafasini rostlab oldi deguncha, o'zining pedagogik burchini eslab qoldi va inglizchalab bizni yozg'ira ketdi.

– Bu – muraena helena, – dedi u, – qadimgi yunonlar uni muqaddas jonivor deb hisoblashgani uchun shunday deb atashgan.

Kutilmaganda kovul butalari orqasidan bizni suv ostida suzishga o'rgatayotgan shu yerlik yigit Orest chiqib keldi. Boshidagi g'avvos niqobini yuqoriga ko'tarib qo'ygan, tor ishtoncha kiygan, belidagi charm kamariga turli shakl va kattalikdagi pichoqlar osig'liq, u suv ostidagi ovni qo'l jangi deb hisoblardi. Yigirma yoshlardagi Orest ko'p vaqtini quruqlikda emas, suv ostida o'tkazar, badani boshdan-oyoq mashina moyiga belangan bo'lib, dengiz maxluqiga o'xshardi. Senora Forbes uni birinchi marta ko'rganida, ota-onamizga bundan go'zalroq odamzod borligini tasavvur ham qilib bo'lmaydi, degandi. Lekin chiroyi Orestni so'kish eshitishdan qutqarib qololmadi, murabbiya bolalarni shunchaki qo'rqitish uchun eshikka murenani qoqib qo'ygani sababli unga italyanchalab tanbeh berdi. Senora Forbes afsonaviy maxluqqa hurmat bajo keltirgan holda uni olib tashlashni buyurdi, bizni esa, ovqatlanishdan oldin kiyim almashtirgani jo'natdi.

Biz shu zahoti kiprik qoqmay bo'ysundik, bironta xatoga yo'l qo'ymaslikka tirishdik, chunki hayotda senora Forbes tomonidan joriy qilingan kun tartibiga rioya qilishdan mushkulroq vazifa yo'qligini o'tgan ikki hafta ichida bilib olgandik. Nim qorong'i hammomda dush ostida cho'milar ekanman, ukam hali-hanuz murena haqida o'ylayotganini sezdim. «Uning ko'zi odamnikiga o'xshar ekan», – dedi u menga. Garchi uning fikrini jo'yali deb topgan bo'lsam-da, teskari-siga ishontirishga urina boshladim. Cho'milar ekan, mavzuni boshqa yoqqa burishga muvaffaq bo'ldim. Biroq hammomdan chiqqanimizdan keyin ukam birga borishimni iltimos qildi.

– Kuppa-kunduz-ku, – dedim men.

Shunday derkanman, pardani ko'tardim. Avgust oyi edi, deraza ortida orol qirg'og'iga qadar jazirama tekislik yastanib yotar, osmonda quyosh porlab turar edi.

– Buning uchun emas, – dedi ukam. Qo‘rqaman, deb qo‘rqyapman.

Lekin oshxonaga kirganimizda u, aftidan, tinchidi shekilli, hamma ishni saranjom-sarishta va aniq-puxta bajardi. Buning uchun senora Forbesdan alohida maqtoov eshitdi va hafta mobaynidagi yaxshi xulq-atvori uchun qo‘shimcha ikki ochko oldi. Mening bo‘lsa, aksincha, oldin topgan besh ochkomdan ikkitasini olib tashlashdi, chunki oxirgi lahzada men oshxonaga kechikib, biroz harsillab kirib borgandim. Agar ellik ochko to‘plasak, ovqatdan keyingi shirinlikni ikki hissa qilib berishlari kerak edi, lekin ikkovimiz ham o‘n besh ochkodan ko‘p to‘play olmasdik. Afsus, haqiqatan ham afsus, chunki biz senora Forbes pishirgan bunday ajoyib pudinglarni hech qachon yemadik.

Ovqatga qo‘l urishdan oldin, biz tik turgan holda bo‘sh likoplarga tikilganча, duo o‘qidik. Senora Forbes katolik emasdi, lekin shartnomaga muvofiq, bizni kuniga olti marta ibodat qildirishi darkor edi. Shartnomani lozim darajada bajarish uchun u biz o‘qiydigan duolarni yodlab oldi. Duodan so‘ng uchovimiz ham o‘tirdik, ukam ikkovimiz murabbiyamiz qaddi-qomatimizni to‘g‘ri tutib o‘tiribmizmi yoki yo‘qligini ipidan-ignasigacha tekshirib, mukammal o‘tirganimizga ishonch hosil qilib, qo‘ng‘iroq chalmaguncha nafasimizni ichimizga yutib kutdik. Shundagina oshpaz ayol Fulviya Flaminiya vermishel sho‘rva ko‘tarib kirdi. O‘sha la‘nati yozda har kuni bunaqa sho‘rva ichaverib, bezib ketgandik.

Yoz boshida, ota-onamiz bilan yashagan vaqtimizda tushlik biz uchun bayramga aylanib ketardi. Fulviya Flaminiya stol atrofida girdikapalak bo‘lib, hammayoqni betartib holga keltirar, bundan hayot qiziqroq tuyular edi. Tushlik oxiriga yetganda u yonimizga o‘tirib olar va barchaning tovog‘idan ozroq ovqat olib yerdı. Ammo taqdirimizni senora Forbes o‘z qo‘liga olgach, Fulviya Flaminiya qovog‘idan qor yoqqancha, churq etmay xizmat qiladigan bo‘lib qolgan va endi sukunat-

da qozondagi sho'rvaning qanday qaynayotganini ham eshishimiz mumkin edi. Biz qaddimizni kursining suyanchig'iga tegadigan darajada rostlab o'tirar, luqmani oldin og'zimizning o'ng tomonida o'n marta chaynar, so'ngra chap tomonida yana o'n marta chaynar, bizga tinmay yaxshi fe'l-atvor darsi beradigan, temir fe'lli so'liyotgan ojiza ayoldan ko'z olmasdik. Bu o'tirishimiz yakshanba kuni cherkovda o'tkaziladigan ibodatning naq o'zi edi, yaxshiyamki bir narsa cherkov xori yo'qligiga shukr qilardik.

Kesakiga murena qoqilganini ko'rgan kunimiz senora Forbes bizga vatan oldidagi burch masalasida va'z o'qiy boshladi. Fulviya Flaminiya stol atrofida inglizcha nutqqa to'yingan havoda bamisoli uchib yurganga o'xshardi. U sho'rvadan keyin ko'mir cho'g'ida pishirilgan oq baliq go'shtini olib kirdi. Go'shtdan ishtahani qitiqlaydigan hid ko'tarilardi. Har qanday taomdan hamisha baliqni afzal ko'rganim uchun Guakamayaladagi uyimizni esladim va yengil tortdim. Lekin ukam, garchi totib ko'rmagan bo'lsa-da, ovqatdan bosh tortdi.

– Menga yoqmadi, – dedi u.

Senora Forbes yaxshi atvor darsini to'xtatdi.

– Tatib ham ko'rmagan bo'lsang, mazasini qanday bilishing mumkin? – dedi u.

Shunday derkan, oshpazga ogohlantiruvchi nazar tashladi, lekin kech qolgandi.

– Murenaning go'shti nihoyatda lazzeatli bo'ladi, figlio mio, – dedi Fulviya Flaminiya. – Sen bir tatib ko'r, shunda bilasan.

Senora Forbes zarracha parvo qilmadi va qat'iy ohangda murena go'shti qadim zamonlarda faqat podshohlar tanovul qiladigan taom hisoblangani, murena terisi misli ko'rilmagan darajada jasorat baxsh etgani uchun askarlar orasida tashlash bo'lgani haqida so'zlay ketdi va yaxshi sulukat tug'ma bo'lmasligi, yosh o'tishi bilan egallanmasligi, balki bolalikdan singdirilishi kerakligini ta'kidladi. Bu so'zlarni u bizga

shu qisqa vaqt ichida nechanchi bor takrorlayotgan edi. Shuning uchun bu taomdan bosh tortish uchun uzrli sabab yo'q. Bu taom murena go'shtidan pishirilganini bilmay turib undan tatishga ulgurgan edim, shuning uchun ham menda bir umrga ziddiyatli tuyg'u saqlanib qoldi, murena go'shti ko'rinishdan biroz yoqimsiz bo'lsa-da, ta'mi lazzatli edi. Lekin go'shtga qaradim deguncha, eshikka qoqilgan ilon ko'z oldimga kelar va ishtaham bo'g'ilar edi. Ukam o'zini zo'rlab bo'lsa-da, go'shtdan bir tishlam yedi, lekin ko'tara olmadi, qusib yubordi.

– Hammomga bor, – dedi senora Forbes so'z ohangini o'zgartirmay. – Yaxshilab yuvingin-u, qaytib kel.

Ukanga juda rahmim keldi, chunki g'ira-shira qorong'ilik oralagan bir paytda butun uydan o'tib, hammomga borish, keyin yuvinib olish uchun u yerda ancha qolib ketish naqadar mashaqqatli bo'lishini bilardim. Biroq u tezda qaytib keldi, egnida toza ko'ylak, rangi o'chgan, qo'rquvdan hanuz qaltirayotgan bo'lsa-da, mushkul tozalik imtihonidan a'lo darajada o'tdi. Senora Forbes uning tovog'iga yana murena go'shti soldi va tanovul qilishni buyurdi. Men ming mashaqqat bilan yana bir luqmani yutdim. Ukam bo'lsa, hatto sanchqi va pichoqni qo'liga olganiyam yo'q.

– Yemayman, – dedi u.

U bu so'zni shunchalik qat'iyat bilan aytdiki, senora Forbes yon berishga majbur bo'ldi.

– Mayli, – dedi u, – lekin senga shirinlik ham berilmaydi.

Ukam yengil nafas oldi, men ham yuraklandim. Sanchqi va pichoqni tovoq ustiga xoch shaklida qo'ydim. Senora Forbes ovqat yeb bo'lgandan keyin shunday qilish kerakligini o'rgatgan edi.

– Menga ham shirinlik kerakmas, – dedim.

– Televizor ham ko'rmaysizlar, deb qo'shimcha qildi u.

– Televizor ham kerakmas, dedim men.

Senora Forbes qo'l sochiqni dasturxon ustiga qo'ydi va

uchovimiz ham ibodat qilish uchun o'rnimizdan turdik. Shundan keyin u o'zi ovqat yeb bo'lgunga qadar uxlashimiz uchun bizga yotoqqa borishni buyurdi. Ishlab topgan barcha ochko-larimiz olib tashlandi, faqat yigirma ochko to'plasakkina, uning yog'upali pirojniysi, vanilli pechenesi va g'aroyib olchali biskvitini yeyishimiz mumkin edi. Bunaqa shirinliklar qolgan umrimizda yetti uxlab tushimizga ham kirmagan bo'lardi.

Ertami-kechmi, shunday bo'lishi kerak edi. Sitsiliyadan janubda joylashgan Pantelariya orolida yozni emin-erkin o'tkazishni butun yil bo'yi orziqib kutgandik. Nihoyat orzumizga erishdik va ota-onamiz bilan bir oy birga bo'ldik. Vulqonlar natijasida vujudga kelgan qoyalarni, quyosh nurlari ostida yastanib yotgan vodiyni, umrboqiy dengizni, so'ndiril-magan ohakka bo'yalgan oppoq uyni, shamol esmagan kechalari dengiz yuzasida nurlari aks etgan Afrika sohilidagi mayoqlarning derazadan ko'rinib turishini hozirgacha men bir g'aroyib tushdek eslayman. Otam bilan orol tevaragidagi osoyishta dengiz tubini tadqiq qilib, oxirgi urushdan qolgan, sarg'aygan torpedalarga duch keldik. Biz balandligi bir metr keladigan, toshga aylangan chig'anoqlar marjoni bilan o'ralgan yunon xumini qazib oldik, xum tubida o'sha zamonlardan qolgan zaharli sharob haliyam bor edi. Sho'r ko'lmakda cho'milardik, bu yerda suvning qalinlik darajasi shunchalik yuqori ediki, kishi cho'kmasdi. Lekin Fulviya Flaminiya biz uchun chinakam kashfiyot bo'ldi. U tolei kulgan yepiskop-ga o'xshardi, uyqusiragan mushuklar to'dasi atrofida aylanib, oyoqlari ostida o'ralashardi. Fulviya bo'lsa, mushuklarni yaxshi ko'rgani uchun emas, balki ular uni kalamushlardan asragani uchun haydab solmasligini aytardi. Oqshomlari, ota-onamiz televizordan kattalarga mo'ljallangan ko'rsatuvlarni tomosha qilishayotganida Fulviya Flaminiya bizni uyimizdan yuz qadamcha narida joylashgan uyiga olib ketar, yot tildagi g'uldurashlar, qo'shiqlar va Tunis tomondan esadigan g'uvil-

lagan shamollar ma'nosini chaqishni o'rgatar edi. Yoshi undan ancha kichik bo'lgan eri yozda orolning narigi tomonidagi mehmonxonalarda ishlar va uyga faqat tunagani kelardi. Orest bo'lsa, ota-onasi bilan shundoqqina yaqinda yashar va oqshom pallasini yangi ushlangan va chizimchaga tizilgan baliqlarni, qisqichbaqa to'la savatni ko'tarib kelar va ularni Fulviya Flaminiyaning eri ertasiga mehmonxonada sotishi uchun oshxonada qoldirar edi. O'zi bo'lsa, g'avvos fonarini yana peshonasiga qo'ndirar va bizni ovqat chiqindilari orasida izg'iydigan, kattaligi quyonday keladigan ulkan tog' kalamushlarini ovlashga olib chiqardi. Ko'pincha uyga qaytgan vaqtlarimizda ota-onamiz uxlab qolgan bo'lardi. Hovli-da urishayotgan kalamushlarning shovqinidan anchagacha ko'zimiz ilinmasdi. Lekin mana shu shovqin-suronli kalamush urishtirishlar baxtli yozimizning ajralmas sehrli tarkibiy qismi edi.

Nemis murabbiyasini yollash fikri iste'dodidan ko'ra shuhratparastligi kuchli bo'lgan otamninggina kallasiga kelishi mumkin edi. U kariblik yozuvchi edi. Bir vaqtlar yevropada qozongan shuhrati ko'zini ko'r qilgan otam kitoblari-da ham, hayotda ham nasl-nasabi uchun kechirim so'rashdan to'xtamaydiganga o'xshar, bolalarining xotirasida o'z o'tmishidan, hatto zarracha asar ham qoldirmaslik to'g'risidagi fikrga yopishib olgan edi. Bir vaqtlar Guaxira vodiysining u qishlog'idan-bu qishlog'iga ko'chib, bolalarni o'qitgan onam bo'lsa, kamtar muallimaligicha qolgan va eri bo'lmag'ur fikrga muhtalo bo'lishi mumkinligi xayoliga ham kelmasdi. Shuning uchun ham ota-onamiz qirqta taniqli yozuvchi bilan besh hafta mobaynida Egey dengizi orollari bo'ylab madaniy sayohatga ketgan vaqtlarida, yevropa hayotiga xos daqqi-yunusdan qolgan fe'l-atvorni bizga zo'rlik bilan singdirishga urinadigan, etik kiygan bu dortmundlik serjant bilan birga o'tkazadigan hayotimiz qanday bo'lishini o'ylab ham o'tirmadilar.

Senora Forbes iyul oyining oxirgi shanbasida Palermodan kichkina paroxodda yetib keldi. Bayram kunlari barham topganini bilib olishimiz uchun unga bir nazar tashlashimizning o'zi yetarli bo'ldi. U harbiycha etik kiygan, yoz jazirasiga qaramay, qo'sh barli kostyumining tugmalarini siqib qadab olgan bo'lib, fetr shlyapasining ostidan erkakcha kalta qirqtirgan sochlari chiqib turardi. Undan maymun peshobining hidi anqirdi. «Yevropaliklarning hammasidan, ayniqsa, yozda shunaqa hid keladi, – dedi bizga otam. – Bu madaniyat hidi». Lekin harbiycha qaddi-qomatiga qaramay, senora Forbes xiyala oriq ekan va balki, biroz kattaroq bo'lganimizda yoki uning o'zi loaqal salgina muloyim bo'lganida, bizda unga nisbatan achinish tuyg'usi uyg'ongan bo'lardi. Dunyo ag'dar-to'ntar bo'lib ketdi. Yoz boshidan beri dengizda to'xtovsiz olti soat aql bovar qilmaydigan o'yinlar o'ynaguvchi edik, bunga barham berildi, bu har kuni ayni o'yin o'ynaladigan, zerikarli bir soatga tushirildi. Ota-onamiz borligida biz Orest bilan qancha xohlasak, shuncha cho'milishimiz mumkin edi. Orest bittagina pichog'ini olib, qo'rqmay sakkizoyoqlar bilan jangga kirishardi va uning jasoratiga qoyil qolar edik. Orest endilikda ham soat o'n birda motorli qayig'ida suzib kelar, lekin senora Forbes uning suv ostida suzish darsiga ajratilgan bir soatdan bir daqiqa ham ko'proq qolishiga yo'l qo'ymas edi. U oqsoch bilan apoq-chapoq bo'lishimizni ortiqcha deb topgani uchun, oqshomlari Fulviya Flaminianing uyiga borishimizni taqiqlab qo'ydi va biz endi qiziqarli kalamush ovi o'rniga vaqtni Shekspir asarlarini tahliliy o'qishga sarflashga majbur bo'ldik. Guakamayyalada begonalarning bog'iga tushib mango o'g'irlashga, jazirama ko'chalarda itlarni toshbo'ron qilishga odatlangan bizlar uchun endi shahzodalarga o'xshab yashash dahshatdan boshqa narsa emasdi.

Ko'p o'tmay, senora Forbes o'ziga bunchalik talabchan emasligini tushundik va uning obro'siga darz ketdi. Avvaliga, Orest bizni suv ostida suzishga o'rgatayotgan vaqtda, harbiy-

cha kiyingan senora Forbes plyajda guldor shamsiya ostida o'tirib, Shillerning dostonlarini o'qirdi, keyin tushlik vaqtigacha bizga jamoat o'rtasida o'zini yaxshi tutish to'g'risida soatlab nazariy saboqlar berardi.

Bir kuni u Orestdan motorli qayiqda mehmonxonalar atrofida turistlar uchun ochilgan baqqollik rastalariga olib borishini iltimos qildi va tyulen terisiga o'xshab tovlanadigan qora cho'milish kostyumida qaytib keldi, lekin baribir, suvga tushmadi. Biz cho'milar ekanmiz, u qumloqda o'tirganicha terlarini sochiq bilan artaverdi, dushga ham bormadi, natijada uch kundan keyin qaynatilgan qisqichbaqaning o'zi bo'ldi-qoldi. Uning madaniyatining hidi bo'lsa, mutlaqo chidab bo'lmaydigan holga keldi.

U tunda o'ziga erk berardi. Senora Forbes hukmronlik taxtiga o'tirganidan boshlab, biz kimdir qorong'ida turtinib daydishini sezdik. Ukam ular g'arq bo'lgan kishilarning arvohi bo'lsa kerak, deb o'ylab qo'rquvga tushdi. Fulviya Flaminiya bular haqida bizga ko'p gaplar aytib bergan edi. Tez orada kechalari daydiyotgan senora Forbes ekanini bilib oldik. U kunduz kunlari yolg'iz ayolning kechki hayotini qoralardi, lekin o'zi kechalari shunday yashashga o'tgan edi. Bir kuni tong pallasini uni oshxonada maktab o'quvchilari kiyadigan kechki ko'ylakda ko'rib qoldik. U boshdan-oyoq unga belangan holda ajoyib shirinlik pishirar, ora-sira stakandagi vinoni ho'plab qo'yar, aftidan, kunduzgi senora Forbesga o'xshamay qolgani uchun g'azabdan o'zini qo'yarga joy topolmayotgan edi. Bizni uyquga yotqizgandan keyin u xobxonasiga emas, cho'milish uchun yashirincha dengizga ketishini yoki bemahalgacha mehmonxonada o'tirib olib, televizorning ovozi o'chirgan holda bolalarning ko'rishi taqiqlangan filmlarni tomosha qilishini, ustiga-ustak butun boshli tortni paqqos tushirishini, hatto otam tantanali hollar uchun tishining kovagida saqlaydigan noyob sharoblarni no'sh qilishini biz allaqachon bilib olgandik. Nafsni tiyish va tana istaklarini o'ldirish to'g'risida

o'zi targ'ib qiladigan qat'iy qoidalariga xilof ravishda u olti oy och qolgan odamdek, nimalarnidir tinimsiz ochofatlarcha yerdidi. Keyin biz uning xonasida o'zi bilan o'zi gaplashganini, nemischa sayroqi tovushda «Orlean qizi»dan parchalarni yoddan o'qiganini, qo'shiqlar aytishini va to'shakda yotib sahargacha ho'ngrab yig'lashlarini eshitardik. Shundan so'ng u nonush-taga yig'layverib ko'zlari shishgan, qovog'idan qor yoqqan va yanada qo'rsplashgan holda chiqib kelardi. O'sha vaqtlari ukam ikkovimiz o'zimizni nihoyatda baxtsiz his qilardik, lekin men belgilangan muddatgacha tishimni tishimga qo'yib chidashga tayyor edim, chunki uni yengib bo'lmasligini bilardim. Ukam bo'lsa, butun borlig'i bilan qarshilik ko'rsatardi. Natijada baxtli yoz biz uchun jahannamga aylandi. Murena hodisasi sabr kosamizni to'ldirib yubordi. O'sha kechasi qo'nim topolmay uyqudagi uy bo'ylab tentirab yurgan senora Forbesning qadam tovushlarini to'shagida yotgancha eshityotgan ukam ichiga to'lib ketgan zaharni qo'qqisidan to'kib soldi.

– Men uni o'ldiraman, – dedi u.

Men uning qat'iyatidan emas, fikrlarimiz bir joydan chiqqani uchun hayratga tushdim, chunki tushdan beri men ham shu haqda o'ylayotgan edim. Shunday bo'lsa-da, ukamni fikridan qaytarishga urinib ko'rdim.

– Unday qilsang, kallangni chopishadi, – dedim men.

– Sitsiliyada gilotina yo'q, – dedi u. – Qolaversa, bu ishni kim qilganini qayerdan ham bilishardi?

Dengiz tubidan topib chiqqan xumimiz esimga tushdi. Uning tubida odamni til tortmay o'ldiradigan ozroq zaharli sharob bor edi. Otam zahar tarkibini aniqlash uchun sharobni tekshirtirgani asrab qo'ygandi. Axir, dengiz tubida uzoq yotgani bilan sharob o'zidan-o'zi zaharga aylanishi mumkin emas-ku. Senora Forbesga shu vinodan qo'shib berilsa, hech kim uni birov ataylab o'ldirgan deb o'ylamas, u o'z joniga suiqasd qilgan yoki baxtsiz hodisa yuz bergan, deb topgan

bo'lishardi. Xullas, tongga yaqin tunni suronli va uyqusiz o'tkazgan senora Forbes nihoyat tinchiganini anglagach, otam tishining kovagida asraydigan o'sha noyob sharob shishasiga xumdagi zahar qoldig'ini solib qo'ydik. Biz, bu zaharning bir tomchisi ham otni o'ldirishi mumkin, deb eshitgandik.

Soat roppa-rosa to'qqizda oshxonada nonushta qildik, senora Forbesning o'zi bizga zog'ora tarqatdi. Ularni tongda Fulviya Flaminiya pishirgan va gazo'choqda qoldirgan edi. Ikki kundan keyin, nonushta paytida ukam ko'zi bilan javonda turgan zaharli shishani ko'rsatdi, unga qo'l urishmagandi. Bu juma kuni edi, shanba va yakshanba kunlari ham shishaga hech kim qo'l tekkizmadi. Biroq seshanba kuni tunda senora Forbes televizordan behayo filmlar tomosha qilayotib, yarim shishani bo'shatdi.

Ammo chorshanba kuni u har doimgiday ayni vaqtida nonushtaga chiqdi. Basharasi, odatdagiday, behalovat o'tkazilgan tun oqibatida shishgan, ko'zlari oynasi qalin ko'zoynak orqasidan hadik bilan boqar edi. Non solinadigan savatda Germaniya markasi yopishtirilgan xatni ko'rganida qattiq tashvishlandi. U qahva ichayotib, maktubni o'qidi, holbuki, ovqatlanayotganda o'qish mumkin emasligini bizga necha martalab uqtirgandi. Maktubni o'qir ekan, bir necha marta yuzlari yorishib ketdi. O'qib bo'lgach, xatjildga yopishtirilgan markani qo'porib oldi va non savatdagi zog'oralar yoniga qo'ydi – Fulviya Flaminiyaning eri marka yig'ardi. O'sha kuni, tunni juda yomon o'tkazganiga qaramay, biz bilan dengiz qa'rini tadqiq qilgani bordi. Biz ballonlarimizdagi havo tugagunga qadar suv o'tlari changalzorida tentiradik va yaxshi xulq sabog'ini olmasdan, uyga qaytdik. Senora Forbes kun bo'yi ko'tarinki kayfiyatda yurdi, tushlikka har vaqtdagidan shodon holda chiqdi. Ukamning kayfiyati butunlay tushib ketdi. Ovqat yeyish to'g'risida buyruq oldik degancha, u qovog'idan qor yoqqancha, vermishel sho'rva solingan kosani nariroq itarib qo'ydi.

– Bu chuvalchangli suv jonimga tegdi, – dedi u.

Dasturxon ustida jangovar granata portlagandek bo'ldi.

Senora Forbes bo'zarib ketdi, lablari qattiq qisildi. O'zini bosib olguncha va ko'zlari yoshlanib, ko'zoynak xiralashguncha qotib turdi. Shundan keyin ko'zoynagini oldi, qo'l sochiq bilan artdi va o'rnidan turishdan oldin qo'l sochiqni zarda bilan dasturxon ustiga tashladi. Bu sharmandali taslimiyot nishonasi edi.

Menga desa, bilganingizni qiling, – dedi u. – Men ketdim.

Soat yettida xonasiga qamalib oldi. Lekin yarim kecha bo'lay deb qolganda, bizni uxlab qoldi deb o'ylab, xonasidan chiqdi. O'quvchilarnikiga o'xshash kechki ko'ylakda shokoladli tortning yarmini va shishani ko'targancha xobgohiga o'tib borayotganini ko'rdik. Shishada hali to'rt enlik zaharlangan sharob qolgan edi. Achinganimdan etlarimda chumoli o'rmalaganday bo'ldi.

– Bechora senora Forbes, – dedim men.

Lekin ukam taslim bo'lmadi.

– Agar bu kecha o'lmasa, u emas, biz bechoraga aylanamiz, – dedi u.

Senora Forbes jinnilarcha jazavaga tushib, o'zi bilan o'zi gaplashib chiqdi, bor ovozi bilan Shiller she'rlarini yodaki o'qidi va oxirida butun uyni larzaga keltirib, na'ra tortdi. Shundan keyin bir necha bor qattiq xo'rsindi va harakatsiz turgan kema singari, qayg'uli ohangda uzoq hushtak chaldi. Asablarimiz qaqshaganidan tunni bedor o'tkazganimiz uchun holdan toygan holda uyg'onganimizda, quyosh deraza tirqishlaridan yorib kirayotgan, uy nurga g'arq bo'lganga o'xshardi. Shundagina soat o'n bo'lganini va senora Forbes o'zi o'rnatgan ertalabki kun tartibiga muvofiq bizni soat sakkizda uyg'otmaganini angladik. Soat sakkizda hech kim hojatxonada suv to'kmadi, jo'mrakdan ham suv oqizmadi, deraza tabaqalari g'ijirlab ochilmadi, taqa qoqilgan og'ir etiklar gursillamadi, eshigimizni uch bora taqillatishmadi. Senora Forbes Xudo-

ning bergan kuni ertalab shafqatsiz mushti bilan eshigimizni taqillatib, o'takamizni yorar edi. Ukam qo'shni xonada nima bo'layotganini bilish maqsadida devorga qulog'ini qo'yib, nafasini ichiga yutdi, nihoyat entikdi.

– Ish bitdi, – dedi u. – Dengizning shovullashidan boshqa narsa eshitilmayapti.

Soat o'n birga yaqin o'zimizga nonushta tayyorladik va Fulviya Flaminiya mushuklari qurshovida uy tozalashga kelishidan oldin ulgurishga harakat qilib, har birimizga bittadan, ustiga ikkita zaxira kislorod balloni olib, plyajga tushib ketdik. Orest prichalda hozirgina tutilgan olti funtlik baliqning ichak-chavog'ini tozalayotgan ekan. Biz unga senora Forbesni o'n birgacha kutganimizni va uyqudan uyg'onmagani uchun o'zimiz dengizga chiqishga qaror qilganimizni aytdik. Shuningdek, kecha oqshom pallasi dasturxon ustida yig'isi xuruj qilgandi, shuning uchun kechasi mijja qoqmagan va mana endi miriqib uxlab olishga qaror qilgan bo'lsa kerak, dedik. Kutganimizning teskarisi bo'ldi – Orest izohlarimizga parvo ham qilmadi va bir soatdan ko'proq biz bilan suv ostida suzdi. Shundan keyin suvdan chiqib, bizga tushlik qilgani uyga borishni buyurdi, o'zi bo'lsa motorli qayig'ida baliq sotgani turistlar mehmonxonasiga jo'nab ketdi. Tushlikka ketganimizga ishonch hosil qilishi uchun, tik qoyalar ortida ko'zdan g'oyib bo'lgunga qadar tosh pillapoya ustida qo'l silkib xayrlashib turdik. Keyin yana yelkamizga kislorod ballonlarini osib, suzishga kirishdik. Bunday qilishimiz uchun hech kimdan ruxsat-puxsat ham so'raganimiz yo'q.

Osmonni bulut bosgan, ufqda momaqaldiroq dahshat solib gumburlar, lekin dengiz osoyishta va shaffof bo'lib, yorug'lik shundog'am yetarli edi. Biz Pantelariya mayog'iga qadar, undan so'ng o'ng tomonga yana yuz metrcha suzib bordik. O'sha yerda suv ostiga sho'ng'idik, otam bilan urushdan qolgan torpedalarni yoz boshida xuddi shu yerda ko'rgan edik, shekilli deb o'yladik. Torpedalar haqiqatan ham shu yerda

ekan: zarrin-sariq rangga bo'yalgan, ustidagi seriya raqamlari haligacha saqlanib qolgan oltita torpeda suv ostida tizilib yotardi. Bu tasodif bo'lishi mumkin emasdi. So'ngra suv ostiga cho'kib ketgan qadimiy shaharni topish niyatida mayoq atrofida suzdik. Fulviya Flaminiya bu haqda bizga katta zavq-shavq bilan hikoya qilib bergandi. Lekin shaharni topolmadik. Ochilmagan sir qolmaganiga amin bo'lgach, ikki soatdan keyin ballondagi oxirgi kislorodni tugatgach, suv yuzasiga ko'tarildik.

Biz suv ostida suzayotganimizda osmonni butunlay butlular qoplagan ekan. Dengiz to'lqinlar, yirtqich qushlar to'dasi chag'ir-chug'ur qilgancha, qirg'oqqa chiqib qolgan o'lik baliqlar ustida charx urardi. Atrof qorong'ilashayotgan bo'lsa-da, senora Forbessiz o'tkazgan kunimiz bizga juda yaxshidek tuyulayotgan edi. Lekin qoya bag'riga o'yilgan zinapoyadan ko'tarilib, uyimizning eshigi oldida to'plangan olomon va politsiya mashinalarini ko'rganimizda qilib qo'ygan ishimizning dahshatini ilk bor vujudimiz bilan his qildik. Ukam orqaga qaytmoqchi bo'ldi, u qaltirayotgan edi.

– Men uyga bormayman, – dedi u.

Menda bo'lsa, aksincha, murdani borib ko'rsak, shubhadan xoli bo'lamiz degan g'ira-shira hissiyot bor edi.

– Qani, o'zingni bosib ol-chi, – dedim unga. – Chuqur nafas ol va yodingdan chiqara ko'rma: biz hech narsa bilmaymiz.

Biz kislorod ballonlari, niqob va rezina kurakoyoqlarimizni eshik oldida qoldirib, yon tomondagi ayvonga kirdik. U yerda pol ustidagi zambil yonida ikki kishi chekib o'tirardi. Shundagina biz orqa eshik oldida turgan sanitariya mashinasi va miltiq ko'targan bir nechta harbiyni ko'rdik. Qo'shni xotinlar mehmonxonada devor bo'ylab qo'yilgan kursilarda o'tirgancha, sitsiliya shevasida tilovat qilishardi. Ularning erlari bo'lsa hovlida ivirsib, o'limga mutlaqo aloqasi bo'lmagan narsalar haqida so'zlashishardi. Men bor kuchim bilan ukam-

ning qattiq va sovuq qo'llarini qisdim va orqa eshikdan uyga kirdik. Xobgohimiz eshigi ochiq bo'lib, hamma narsa ertalab qanday tashlab ketgan bo'lsak, shundayligicha turardi. Bizga qo'shni bo'lgan senora Forbesning xobxonasini qo'riqlayotgan qurolli karabiner u yoqdan-bu yoqqa borib kelayotgan, eshik esa ochiq edi. Biz qo'rqa-pisa eshikdan mo'raladik, shu ondayoq dahshatli tovushda baqirgancha Fulviya Flaminiya oshxonadan biz tomonga otilib keldi va eshikni yopdi.

– Xudo haqqi, figlioli qaramanglar!

Lekin kech bo'lgandi. Shu qisqa lahzada ko'rganimizni hech qachon, umrimizning oxiriga qadar unutmasak kerak. Fuqarocha kiyingan ikki kishi karavotdan devorgacha bo'lgan masofani o'lchayotgan, boshqa biri bo'lsa, qora mato yopilgan fotoapparatini chiqillatayotgan edi. Istirohat bog'larida yuradigan fotosuratchilarning fotoapparati shunaqa bo'lardi. Ag'dar-to'ntar bo'lgan to'shak ustida senora Forbes yo'q edi. U polda, qotib qolgan qon halqobi ustida qip-yalang'och, xanjar bilan ilma-teshik qilingan holda yonboshlab yotardi. Pol butunlay qonga belangan edi. Tananing yigirma yetti joyiga shafqatsiz ravishda xanjar sanchilgan edi. Bu zarbalar qondirilmagan sevgidan g'azablangan kishi tomonidan berilgani va senora Forbes bu o'lim zarbalarini xuddi shunday ehtiros bilan, baqirib-chaqirmay, yig'lab-siqtamay, Shiller she'rlarini soldatcha ajoyib ovozda yodaki ifodali o'qigan va o'zining baxtli yozi uchun tovon to'layotganini aniq tushunib yetgan holda kutib olgani ravshan ko'rinib turardi.

NUR – SUV DEGANI

Yangi yil bayramiga bolalar yana qayiq va eshkak olib berishimizni so'ray boshlashdi.

– Bo'pti, – dedi otasi, – Kartaxenaga qaytganimizdan keyin sotib olamiz.

To'qqiz yoshli Toto bilan yetti yashar Xoel ota-onasi o'ylagandan ko'ra qat'iyatliroq bo'lib chiqdi.

– Yo'q, – jo'r ovoz bilan e'tiroz bildirdi ular. – Qayiq bizga shu yerda, hoziroq kerak.

Birinchidan, – dedi onasi, – bu yerda jo'mrakdan oqadigan suvdan boshqa suzadigan joyning o'zi yo'q.

Er-xotin haq edi. Ularning Kartaxena-de-Indiasdagi uyida, shundoqqina hovlida ko'rfazga chiqadigan to'lqinqaytargich va ikkita katta yaxta bemalol joylashadigan prichal bor edi. Bu yerda, Madridda ular Kastelyan shohko'chasidagi 47-uyning beshinchi qavatida torgina xonadonda istiqomat qilishardi. Lekin oxir-oqibat er-xotin bolalarga rad javobi bera olishmadi, chunki ular bolalariga boshlang'ich maktabning uchinchi sinfini a'lo baholarda tugatsalar, eshkakli qayiq, sekstant va kompas olib berishni va'da qilgan edilar. Shuning uchun ota yutqizganidan so'ng to'lashni unchalik xush ko'rmaydigan xotiniga aytmasdan, bularni sotib oldi. Alyuminiydan yasalgan qayiq juda chiroyli bo'lib, o'rtasidan zarhal vaterliniya chizig'i tortilgan edi.

– Qayiq garajda, – dedi ota tush payti sirni oshkor etib. – Gap shundaki, na lift, na zina orqali uni bu yerga olib chiqib bo'lmaydi, shuning uchun uning joyi garaj.

Biroq ilk shanba kuni kechga yaqin bolalar sinfdoshlarini chorlab, qayiqni zinadan yuqoriga olib chiqishdi va qaznoqqa tiqib qo'yishdi.

– Tabriklayman, – dedi ota. – Xo'sh, buyog'i qanday bo'ladi?

– Hech narsa bo'lmaydi, – deyishdi bolalar. – Biz, shuncha-ki, qayiq yonimizda turishini xohlagan edik, shunday qildik, tamom vassalom.

Har chorshanbada bo'lganiday, ota-ona kinoga ketdi. Uyda xo'jayinga aylangan bolalar eshik-derazalarni zich yopib, mehmonxonada yonib turgan lampochkani sindirishdi. Singan lampochkadan tillarang nur suvday sharillab oqa bosh-

ladi. Nur xonani poldan to'rt qarich balandlikka to'ldirguncha bolalar qo'yib berishdi. So'ngra ular chiroqni o'chirishdi, qayiqni chiqarishdi va xonadagi orolchalar oralab, maza qilib suza boshlashdi.

Bu ertaknamo sarguzasht uy ashyolari she'riyatiga bag'ishlangan seminarda ishtirok etayotib, biroz yengiltaklik qilganim uchun sodir bo'ldi. Toto tugmachani bosgandanoq, qanday qilib nur paydo bo'ladi, deb so'radi.

– Nur ham suvga o'xshaydi, – dedim men hozirjavoblik bilan. – Jo'mrakni ochdingmi, suv oqaveradi.

Shunday qilib, bolalar chorshanba kuni qayiqda suzishdi, sekstant va kompas ishlatishni o'rganishdi, ota-ona kinodan qaytib, ularni farishtalar yanglig' qattiq yerda uxlab yotgan holda ko'rdi. Kun o'tgan sayin ularning ishtahasi karnay bo'lib ketdi, bir necha oy o'tib-o'tmay ular suv ostida suzish anjomlarini – niqob, rezina kurakoyoq, kislorodli ballon va havo kuchi bilan otiladigan miltiq talab qilib qolishdi.

– Qaznoqda eshkakli qayiq turganining o'zi yetmay turuvdi, – dedi ota. – Qayiq endi ularga kerak bo'lmay qoldi. Biroq suv ostida suzish anjomlarini xohlab qolganlari hammasidan yomon bo'ldi.

– Agar biz yarim yillikni faqat a'lo baholarga tugatsak-chi? – so'radi Xoel.

– Xudo saqlasin, kerakmas, – dedi ona qo'rqib. – Shu yetar.

Ota uni qaysarligi uchun yozg'irdi.

– Eh, bu bolalar, lozim bo'lgan ishni qilishmaydi, tepsa tebranmaydi, – dedi ona, – doim xarxasha qilishadi, lekin ko'ngillari bir narsani tusab qolsa bormi, osmondagi oyni olib kel desang ham olib kelishadi.

Ota-ona xo'p ham, yo'q ham demadi. Biroq ikki yildan buyon sinfning eng qoloq o'quvchisi bo'lgan Toto bilan Xoel iyul oyida maqtov yorlig'i oldi, direktor ularni hammaning o'rtasida maqtadi. Garchi istaklarini boshqa eslatishmagan

bo'lishsa-da, o'sha kuni ular yotoqxonalarida suv ostida suzish anjomlarini to'la-to'kis va qadoqlangan holda ko'rdilar. Keyingi chorshanba kuniyoq, ota-ona «Parijdagi oxirgi tango»ni ko'rgani ketganlarida, bolalar kvartirani ikki sarjin balandligida nurga to'ldirishdi va bamisoli uy akulalari singari stollar, karavotlar ostida suzishdi, nur tubida ko'p yillar oldin qaysidir tirqishga tushib yo'qolgan narsalarni topishdi.

O'quv yilining oxirida aka-ukani butun maktabga namuna qilib ko'rsatishdi va imtiyozli yorliq bilan mukofotlashdi. Bu gal ular biron narsa so'rashga ulgurmasdanoq, ota-onaning o'zi nima xohlashlarini so'radi. Bolalar bo'lsa, andisha qilib qolishdi va bor-yo'g'i sinfdoshlarini chaqirib, bayram o'tkazib berishlarini so'rashdi.

Ota xotini bilan yolg'iz qolganida og'zi qulog'iga yetib:

– Bu ularning katta bo'lib qolganidan dalolat beradi, – dedi.

– Parvardigorning o'zi seni qo'llasin, – dedi ona.

Keyingi chorshanba kuni, ota-ona «Jazoirdagi jang» filmi tomosha qilishga ketgan vaqtda, Kastelyan ko'chasi-dan o'tgan-ketgan yo'lovchilar daraxtlar ortidagi eski binoning derazalaridan nur toshqindek otilib tushayotganini ko'rishdi. Nur ayvonlardan toshib, uy devoridan sharillab tushar va daryo-daryo bo'lib ko'chani to'ldirib oqar, butun shaharni Guadarramagacha yoritar edi.

Tezda chaqirilgan o't o'chiruvchilar beshinchi qavatdagi uy eshigini buzishdi va butun kvartira shipga qadar nurga ko'milganini ko'rishdi. Mehmonxonadagi qoplon terisi qoplangan divan va oromkursilar royal bilan birgalikda turli balandlikda bardan chiqqan shishalar orasida suzib yurar, Manila sholro'moli suvda xuddi meduzaday qalqib turardi. Oshxonadagi uy anjomlari ship ostida javlon urardi. Chalingan vaqtda bolalar maza qilib raqs tushadigan harbiy orkestr karnaylari bo'lsa, onaning akvariumidan chiqqan rang-barang baliqchalar yonida langar tashlab turardi. Baliqchalar bu

keng va yog'duli ummonda yagona tirik va baxtiyor mavjudot cdilar. Vannaxonada oila a'zolarining tish cho'tkalari, otaning xos ashyolari, onaning pardoz qutilari va sun'iy jag'i suzar, katta xobgohdagi televizor suvda yonboshlagancha bolalarning ko'rishi taqiqlangan kechki filmning oxirgi sahnasini ko'rsatib yotardi.

Dahlizning to'rida, ikki suv oralig'ida niqob tutgan Toto suzib borardi. U eshkaklarni mahkam ushlab olgan holda qayiq quyrug'ida o'tirar, uzoqdagi bandargoh mayog'iga tiki-lar, ballonlarda hali kislorod tugamagan edi. Qayiq boshida o'tirgan Xoel sekstant yordamida Qutb yulduzini axtarish-da davom etar, ularning o'ttiz yetti nafar sinfdoshi kvartira bo'ylab suzib yurardi. Bolalar zahartang qilib gultuvaklarga peshob bo'shatar, maktab gimni so'zlarini o'zgartirib, di- rektor sha'niga hazil-mazax so'zlarni qo'shib bo'kirar yoki hech kimga bildirmay, otaning shishasidan konyak ho'plar cdilar. Nur shunchalik ko'p oqqandiki, u butun uyni to'ldirib, tashqariga toshib chiqqan, Avliyo Xulian boshlang'ich mak- tabining to'rtinchi sinf o'quvchilarining hammasi Kastelyan shohko'chasidagi 47-uyning beshinchi qavatida nurga g'arq bo'lgan edi. Bu voqea yozning jazirama issiq, qishda izg'irin nimaligini bilmaydigan, na dengiz, na daryo bo'lgan va quruq- likda yashaydigan shaharliklar yorqin nurda suzish san'atidan tamomila yiroq bo'lgan Ispaniyaning Madrid shahrida yuz bergandi.

QORDA QOLGAN QON IZLARING

Kechga yaqin chegaraga yetib kelganlarida Nena Dakonte nikoh uzugi taqilgan barmog'i hanuz qonayotganini ko'rdi. Yaltiroq uchburchak bosh kiyimi ustidan qalin jun sholro'mol tashlab olgan jandarm karbid fonari yorug'ida, Pireneya tog'laridan esayotgan shiddatli shamolda zo'r-bazo'r oyoq-

da turganicha, ularning pasportini tekshirdi. Garchi pasportlar diplomatik va hammasi joyida bo'lsa-da, jandarm suratga solishtirish maqsadida fonarini ko'tarib, yuzlariga qaratdi.

Qorakuzan mo'ynasidan tikilgan po'stinga o'ralib olgan Nena Dakonte yosh qizga o'xshar, ko'zlari qushchanikidek beg'am, qiyomrang badani, hatto yanvarning g'ira-shira qorong'isida ham yaltirar edi. Butun chegara garnizonining yillik maoshini yig'anda ham, bu po'stinni sotib olishga yetmas edi.

Rulda o'tirgan, katak kurtka va beysbolchilar kepikasi kiygan eri Billi Sanches de Avila undan bir yosh kichkina bo'lib, deyarli xotini kabi kelishgan yigit edi. Xotinidan farqli ravishda Billi baland bo'yli, pahlavonkelbat yigit edi. Bamisoli temir jag'li, lekin tortinchoq barzangi. Biroq tirik maxluqqa o'xshab guldirayotgan yaltiroq avtomobil kelin-kuyovning ijtimoiy mavqeyi haqida hammasidan ko'proq dalolat berib turardi. Bu gadoy topmas chegarada bunday avtomobilni hech qachon ko'rishmagan edi. Orqa o'rindiqlarda yangi jomadonlar, haligacha ochib ko'rilmagan sanoqsiz hadya qutilari qalashib yotardi. Bular orasida tenor-saksofon ham bor edi. Nazokatli kurort qaroqchisining mash'um sevgisi yo'ldan ozdirgunga qadar bu saksofon Nena Dakontening eng sevgan ovunchog'i edi.

Jandarm pasportlarga belgi qo'ygach, qaytarib bera-yotganida Billi Sanches qayerda apteka borligini (xotini barmog'ini jarohatlab olgan) so'radi va jandarm shamolni qo'li bilan to'sib, Endayeda, Fransiya chegarasida so'rash kerakligini baqirib aytdi. Ammo Endayedagi jandarmlar issiqqina va yop-yorug' budkada ko'ylakchan o'tirishar, qarta o'ynashar, krujkadagi sharobga non botirib yeyishar va hech birining hecham sovuqqa chiqqisi yo'q edi. Billi Sanchesning kattakon, ketvorgan limuzinini ko'rib, ular qo'l silkib oldinga, Fransiya ichkarisiga borishi kerakligiga ishora qilishdi. Billi bir necha marta signal chaldi, lekin jandarmlar ularni

chaqirishayotganini tushunishmadi, bittasi darchani ochdi va shamoldan ham g'azabnok tovushda baqirdi:

– Merdi! Allez-y, espese de con!

Shunda po'stinga o'ralib, chirmanib olgan Nena Dakonte mashinadan tushdi va fransuzchani a'lo darajada so'zlab, jandarmdan apteka qayerda ekanini so'radi. Jandarm, odatlanganidek, og'zi to'la non bilan umuman, ayniqsa, bunaqa bo'ronda yo'l ko'rsatish uning vazifasiga kirmasligini aytdi va darchani yopdi. Lekin keyin ko'z qamashtiradigan mo'ynaga o'ralib olgan holda barmog'ini so'rayotgan qizga diqqat bilan tikildi, bu mudhish kechada unga qiz ilohiy ro'yo bo'lib tuyuldi va shu zahoti o'zgardi. U eng yaqin shahar Biarrits ekanini, lekin bunday qahratonda, buning ustiga bo'ron quturayotgan bir vaqtda, sal nariroqdagi Bayon shaharchasidagina aptekalar ochiq bo'lishi mumkinligini aytdi.

– Nima gap o'zi, biron jiddiyroq gap bormi? – dedi u.

– Arzimagan gap, – kulimsiradi Nena Dakonte olmos uzukli barmog'ini ko'rsatar ekan. Barmoq uchida atirgul tikandan qolgan yara sal-pal ko'rinib turardi. – Xiyol yaralandim, xolos.

Bayonga yaqinlashganlarida qor yog'a boshladi. Hali soat kechki yettidan o'tmagan bo'lsa-da, bo'ron quturayotgani sababli, uylar eshigi taqa-taq yopiq edi. Shaharni aylanib, biron-ta ham ochiq apteka topmagan yosh kelin-kuyov yo'lda davom etishga qaror qildi. Bu qarordan Billi Sanches xursand bo'lib ketdi. U nodir avtomobillarni o'lguday yaxshi ko'rardi. Xotiralarga ko'milib yashaydigan va o'zini haddan tashqari aybdor deb o'ylaydigan otasi o'g'li nima desa yo'q demasdi. Qolaversa, Billi tomi ochiladigan bunaqa «Bentli»ni umrida haydamagan. Bu mashinani unga to'y munosabati bilan hadya qilishdi. U mashina haydashdan shunchalik zavqlanayotgan ediki, qancha uzoq yursa-da, zarracha charchoq his etmasdi. Bu kechasi Bordoga yetib olish niyatida bo'lib, hech qanday shamol yoki qorbo'ron unga monelik qilolmasdi. Bordodagi

«Splendid» mehmonxonasida kelin-kuyovga shohona xona ajratib qo'yishgan edi. Nena Dakonte, aksincha, butunlay holdan toygandi. Madriddan boshlangan tor va ilonizi yo'lning oxirgi qismida do'l urib berdi va qizning sillasi battar quridi. Shuning uchun ham u Bayondan keyin tinmay oqayotgan qonni to'xtatish maqsadida nomsiz barmog'ini ro'molcha bilan siqib bog'ladi va qattiq uyquga ketdi. Billi Sanches buni faqat yarim tunga yaqin, qorbo'ron to'xtagan, qarag'aylar orasidan quturib esayotgan shamol birdan to'xtab, yalanglik ustidagi osmonda sovuq yulduzlar yaltiragan paytdagina sezdi. U uyqudagi charog'on Bordo yonidan o'tib ketdi, faqat yo'l ustidagi yonilg'i quyish shoxobchasidagina to'xtadi, xolos. Chunki u shunchalik g'ayratli ediki, yo'lda to'xtamay Parijga yetib olishi hech gap emasdi. U 25 ming funt sterling turadigan kattakon o'yinchog'idan shunchalik zavqqa to'lgan ediki, hatto barmog'i shishgan, yonginasida uxlayotgan, beozor tushlarida ilk bora ishonchsizlik yashinlari chaqnayotgan benihoya malohatli go'zal ham baxtiyorlik hissini tuyganmidi, deb o'ylagani ham yo'q.

Ular uch kun oldin bu yerdan o'n ming kilometr uzoqdagi Kartaxena-de-Indias shaharchasida turmush qurishgandi.

Bundan yigitning ota-onasi hayron, Nena Dakontening qarindoshlarining hafsalasi pir bo'lgan edi. Buning ustiga, o'sha joyning arxiepiskopining o'zi ularni nikohlab qo'ydi. Nima gapligini, bu kutilmagan sevgi qanday paydo bo'lganini ularning o'zlaridan boshqa hech kim bilmasdi. Bu sevgi to'ydan uch oy oldin, yakshanba kuni dengiz sohilida, Billi Sanchesning to'dasi Marbelya kurortining ayollar ust-boshxonasiga hujum qilgan lahzadan boshlandi. Nena Dakonte endigina o'n sakkiz yoshga kirgan, yaqindagina Shveytsariyadagi «Shatleleni» pansionidan qaytib kelgandi. U to'rt tilda aksentsiz gapirar, tenor saksofonni qoyillatib chalar edi. U qaytganidan so'ng birinchi yakshanba kuni dengizga chiqdi. Nena endigina cho'milish libosini kiymoqchi bo'lib turgani-

da, qo'shni bo'lmadagi qizlar qochib chiqa boshladi, hujum qilayotganlarning baqir-chaqirlari eshitildi, lekin eshigining ilmog'i bir zarbada uchib ketib, ro'parasida juda kelishgan qaroqchi paydo bo'lmaguncha qiz hech narsani tushunmadi. Yigitning egnida qoplon tasviri tushirilgan ishtonchadan boshqa hech narsa yo'q, sohil kishilarinikiga o'xshab qoraygan badani nafis, zuvalasi pishiq. O'ng bilagida rim gladiatorlari kishani, urushgan pallada dahshatli qurol bo'ladigan temir zanjirni mushtiga o'rab olgan, bo'yniga osilgan, avliyo qiyofasi tushirilmagan xoch dukillayotgan yurakka mos tebranardi. Billi bilan Nena mustamlaka davridan buyon shahar taqdiri qo'lida bo'lgan mahalliy zodagonlar oilasiga mansub bo'lib, boshlang'ich sinfda birga o'qigan va tug'ilgan kunlarda birga o'ynashgan edi. Lekin ko'pdan beri ko'rishmaganlari uchun bir qarashda bir-birini tanimadilar. Nena Dakonte qoqqan qoziqday serrayib qoldi, hatto aql bovar qilmaydigan darajada go'zal badanini pana qilishga urinmadi ham. Nena ko'zini ham olib qochmadi, hayron ham bo'lmadi.

– Sendaqalarning burnini yerga ishqab, bir cho'qishda qochiraman.

Aslida Nena Dakonte bokira qiz bo'lib, hali umrida yalang'och erkakni ko'rmagan edi. Ammo uning yolg'oni ish berdi: jahldan quturib ketgan Billi Sanches zanjir o'ralgan mushtini devorga aylantirib soldi va bilagi sindi. Nena uni o'z mashinasida kasalxonaga olib bordi, tuzalgunga qadar parvarish qildi va oxir-oqibat ikkovi ham sevgi ilmini yaxshigina o'zlashtirib olishdi. Ular kishini lohas qiladigan iyun oyini uyning ichki peshayvonida o'tkazishardi. Bu uyda Dakontelarning olti avlodi umrguzaronlik qilgan. Nena o'sha vaqtlari urf bo'lgan qo'shiqlar kuyini saksofonda chalar, u bo'lsa, qo'lga gips bog'langan holda to'r belanchakda yotgancha, unga hayrat bilan tikilib o'tirardi. Binoning ko'pdan-ko'p, butun devorni qoplagan kattakon oynalari suvi qo'lansa ko'rfazga ochilardi. Bu uy qadimiy La Manga dahasidagi eng katta

uylardan bo'lsa-da, shubhasiz, juda ko'rimsiz edi. Lekin polining plitkalari shaxmat taxtasi tartibida yotqizilgan peshayvon tushdan keyingi jaziramada salqin bo'lar, Nena Dakonte bu yerda saksofon chalardi. Peshayvon oldida sersoya mango va bananlar qad ko'tarib turar, daraxtlar ostida kimniki ekani yozilmagan qabr bor edi. Bu qabr uydan ham eskiroq bo'lib, Nena Dakonte oilasidagilar ham bu yerda kim yotganini bilmasdilar. Hatto, musiqadan mutlaqo bexabar kishilar ham bu mashhur joyda saksofon chalishni o'rinsiz, deb hisoblashardi. Nena Dakontening buvisi saksofonni birinchi bor eshitganidayoq «Paroxodga o'xshab g'o'ng'illaydi», – degan edi. Nena saksofonni o'ziga qulay bo'lgan usulda: etagini yuqoriga shimargan va oyoqlarini kergan holda chalardi. Onasi uni boshqacha yo'sinda o'tirishga majbur qilmoqchi bo'lib ko'purindi, ammo hammasi behuda ketdi. Onasining fikricha, musiqacha chalganda oyoqlarini kerib, hissiyotga berilishning hech keragi yo'q. «Nima chalsang chalaver, menga baribir, – dedi onasi, – faqat oyoqlaringni yig'ishtirib o'tirsang bas». Lekin paroxodlarning vidolashuv signallari yangrab turadigan ayni shu muhitda vahshiyona ishq otashini alangalatish tufayligina Nena Dakonte Billi Sanchesning tosh bag'rini critishga muvaffaq bo'ldi. Aslzoda oiladan bo'lgani uchun nima qilsa-da, kechirilaveradigan bu o'taketgan bezori aslida, quyonyurak va ko'ngli yarim yetimcha bo'lib chiqdi. Suyagi bitgunga qadar ular juda yaqin bo'lib qolishdi.

Oldinlari ular sport avtomobillarida mahoratlarini oshirishdi. O'g'li oldidagi gunohini yuvish uchun otasi mashinalarni Billi Sanchesga hadya qilgan edi. Keyin, avtomobillar jonga tekkach, kechalari taqdir ularni birinchi marta uchrashtirgan Marbeli sohilidagi bo'm-bo'sh ust-boshxonalariga o'tishdi va hatto, noyabr oyidagi karnaval vaqtida niqob kiygan holda eski zamonlarda qullarniki bo'lgan «Gefsiman bog'lari» dahasidagi fohishaxonalarning qo'shmachilaridan panoh so'rashdi, holbuki, atigi bir necha hafta oldin bu qo'shmachilar Billi Sanches va uning zanjirlar bilan qurollan-

gan sheriklarining xurujlariga chidashga majbur bo'lishgan edi. Ilgarilari saksofonga mukkasidan ketgan Nena Dakonte endilikda shiddatli muhabbat zavq-shavqiga berildi. Xullas, oxir-oqibat jilov urilgan qaroqchi Nena «burningni yerga ishqayman» deganida nimani nazarda tutganini tushundi. Billi Sanches sevgiga sevgi bilan javob berar va o'shanchalik tiyiqsiz edi. Ular turmush qurgach, to'y sayohatiga yo'l olishdi. To'ydan bir kun o'tgandan keyingina ular Nena Dakonte ikki oylik homilador ekanini bilishdi.

Xullas, Madridga kelganlarida ular ishqdan to'ymagan bo'lsalar-da, o'zlarini yangi kelin-kuyovga xos tutishlari uchun yetarli imkoniyatlari mavjud edi. Har ikkovining ota-onasi hamma narsani oldindan hozirlab qo'yishgandi. Samolyotdan tushishlaridan avval Tashqi ishlar vazirligi protokol bo'limining mas'ul xodimi birinchi darajali salonga ko'tarilib, Nena Dakontega oq-qora kuzan mo'ynasidan tikilgan, yaltiroq qora hoshiyalari bo'lgan po'stinni topshirdi. Bu Nenaga ota-onasining to'y tuhfasi edi. Billi Sanchesga esa – qo'zichoq terisidan tikilgan kurtka va mashina kalitini berdi. Bunaqa kurtka o'sha qishda endigina urf bo'lgan edi. Kalitda mashinaning markasi ko'rsatilmagan bo'lib, aeroportda unga kutilmagan yangilik hozirlab qo'yilgandi.

Rasmiy mehmonlarga ajratilgan zalda ularni diplomatik missiya kutib oldi. Elchi va uning rafiqasi har ikkala oilaning eski do'stlari, buning ustiga elchi vrach bo'lib, Nena Dakonteni tug'dirishda ishtirok qilgan edi. Elchi unga yap-yangi va qip-qizil atirgullar sovg'a qildi. Atirgul ustidagi shudringlar go'yo sun'iydek tuyular edi. O'zining ertaroq turmushga chiqqanidan biroz xijolat bo'lgan Nena hazillashib, elchi va uning rafiqasi bilan o'pishib ko'rishdi va gullarni oldi. Gullarni olayotganida barmog'iga gul tikani kirib ketdi, lekin u vaziyatdan nazokat bilan chiqish yo'lini topdi.

– Men bu ishni ataylib qildim, – dedi u. – Qo'limdagi uzukni ko'ringlar dedim-da.

Darhaqiqat, diplomatik missiyadagilarning hammasi yaltirayotgan uzukka mahliyo bo'lib qolgan va olmoslarining ko'pligi uchungina emas, balki juda qadimiy bo'lgani va yaxshi saqlangani uchun uzuk juda qimmat tursa kerak, deb o'ylayotgan edilar. Lekin barmoqning qontalashligiga hech kim e'tibor bermadi. Hammaning e'tibori yangi avtomobilga qaratildi. Elchi mashinani aeroportga olib kelib, sellofanga o'rashni, ustidan kattakon zarrin kapalak nusxa tugun bog'lashni buyurib, ajoyib hazil qilgan edi. Biroq Billi Sanches uning haziliga e'tibor bermadi. U mashinani tezroq ko'rish orzusida yonardi, bir tortishda o'rovni yirtirdi va hayajondan entikdi. Uning oldida so'nggi rusumdagi, tomi ochib-yopiladigan va o'rindiqclariga tabiiy charm sirilgan «Bentli» turardi. Osmonga kulrang choyshab tortilganga o'xshar, Guadarramadan qattiq izg'irin esar va ochiq ko'chada turish hech kimga xushyoqmas, lekin Billi Sanchesga sovuq bilinmayotgan edi. U kishilar tavoze yuzasidan sovuq yeyayotganiga e'tibor qilmay, diplomatik missiyani ko'chada tutib turdi va toki mashinani ipidan-ignasigacha o'rganib chiqmaguncha tinchimadi. Shundan keyin elchi rasmiy qarorgoh yo'lini ko'rsatib borish uchun uning yoniga o'tirdi. Tushlik o'sha yerda tashkil qilingan edi. Elchi yo'l-yo'lakay Billi Sanchesning e'tiborini shaharning asosiy diqqatga sazovor joylariga qaratishga urindi, ammo mashina uning es-hushini butunlay olib qo'ygandi.

U o'z mamlakatidan birinchi marta tashqariga chiqqan edi. Yurtida Billi ko'pgina xususiy va davlat maktablari-da o'qib ko'rgan, hadeb sinfda qolgan, nihoyat uni odam bo'lmaydi, deb haydab yuborishgandi. Qadrdon shahriga o'xshamaydigan, kuppa-kunduzi derazalaridan nur yog'ilib turgan kulrang uylardan iborat dahalar, yalang'och daraxtlar, dengizning uzoqligi – bularning hammasi unda ojjizlik hissini kuchaytirar, bu hissiyotni zo'r berib bostirishga urinardi. Biroq ko'p o'tmay, Billi, o'zi ham payqamagan holda, bularni unuta boshladi. Birdaniga shahar ustidan sassiz bo'ron esib

o'tdi. Bu shu qishdagi birinchi bo'ron edi. Yosh kelin-kuyov tushlik qilib, Fransiya sayohatiga jo'nash uchun elchining uyidan tashqariga chiqishganida shaharni yaltiroq qor bosganini ko'rishdi. Shunda Billi Sanches mashinani unutdi, kurtkasini ham yechmay, hammaning ko'zi oldida ko'cha o'rtasida qorga dumalay ketdi. U shodon qiyqirar, qorni siqimlab olib, boshiga sochar edi.

Nena Dakonte kunduzi, qorbo'rondan keyin havo ochilgan vaqtdagina barmog'idan oqayotgan qon to'xtamayotganini sezdi. Bu vaqtda ular Madriddan chiqib ketishgan edi. U hayron bo'ldi, chunki rasmiy tushlikdan keyin italyan tilida ope-ralardan ariyalar ijro etishni xush ko'radigan elchining rafiqasiga saksofonda jo'r bo'lganida nomsiz barmog'ida og'riq sezmagandi. So'ngra eriga chegaragacha bo'lgan eng qisqa yo'lni ko'rsatar ekan, barmog'idan qon oqib qolsa, beixtiyor uni so'rib qo'yardi. Faqat Pireneya tog'lariga yetgandagina dorixona topish fikri miyasiga urildi. Lekin bir necha kunlik charchoq o'z tasirini ko'rsatdi va uxlab qoldi. Qo'rqinchli tushdan uyg'onib ketdi, go'yo mashinalari suv ustida ketayotgandek tuyulardi. Barmog'iga o'ralgan ro'molcha anchagacha Nenaning esiga ham kelmadi. Avtomobil paneliga o'rnatilgan soat tonggi to'rtidan o'tganini ko'rsatib turardi. Nena necha kilometr yo'l bosishganini ichida o'ylab ko'rdi va Bordo, Angulem va Puate orqada qolganini, hozir esa, suv bosgan Luar to'g'oni yonidan o'tib borishayotganini sezdi. Tuman orasidan oy nuri suzilib o'tar, qarag'aylar orasidan qorayib ko'rinayotgan qal'a bamisoli ertaklardagiga o'xshar edi. Bu yerlarni yaxshi biladigan Nena Dakonte Parijga yetib olishlariga uch soat qolganini hisoblab chiqdi. Billi Sanches bo'lsa, hanuz avvalgiday tetik edi.

– Sen juda asov ekansan, – dedi u Billiga. – O'n bir soatdan beri mashina haydayapsan, hech narsa yemading ham.

Eri yangi avtomobilni haydashdan hanuz boshi osmonda edi. Samolyotda kam va yomon uxlaganiga qaramay, u o'zini tetik his qilari va sahargacha Parijga yetib borishga qodir edi.

– Elchixonada yaxshigina to‘yib olgan ekanman, – dedi u va tomdan tarasha tushgandek qo‘shimcha qildi, nafsilamrini aytganda, Kartaxeneda odamlar hozirgina kinodan chiqishdi. U yerda hozir soat o‘n bo‘ldi.

Shunga qaramay, Nena Dakonte uning rulda uxlab qolishidan cho‘chiyotgan edi. Madridda ularga ko‘pdan-ko‘p hadyalar berishgan edi. U hadyalar solingan sanoqsiz qutilardan birini ochdi va shakar sepilgan apelsin bo‘lagini uning og‘ziga solmoqchi bo‘ldi. Lekin Billi bosh tortdi.

– Erkaklar shirinlik yemaydi, – dedi Billi.

Orleanga yaqinlashganlarida tuman tarqaldi va kattakon oy qor bosgan dalalarni yoritdi, lekin Parijga ketayotgan ulkan yuk mashinalari va vino sisternalari ko‘pligidan mashina haydash ancha qiyinlashdi. Nena Dakonte mamnuniyat bilan erining o‘rniga mashina haydab ketishi mumkin edi, lekin u bu haqda og‘iz ochishga ham jur‘at qilmadi, chunki birinchi uchrashuvlaridayoq Billi er uchun mashina haydayotgan xotini yonida o‘tirishdan kattaroq nomus yo‘qligini aytgandi. Nena deyarli besh soatlik uyqudan so‘ng o‘zini bardam his qilar va bundan tashqari, yo‘l ustidagi mahalliy mehmonxonalarda tunamaganlaridan mamnun edi. Bolaligida ota-onasi bilan qilgan ko‘pgina sayohatlari tufayli u bu mehmonxonalarni yaxshi bilardi. «Dunyoning hech bir joyi bunchalik go‘zal emas, – derdi u, – lekin bu yerda tashnalikdan o‘lib qolish mumkin, chunki hech kim tekinga bir qultum suv bermaydi». Nena bunga shunchalik ishonchi komil ediki, oxirgi daqiqalarda yo‘l sumkasiga sovun va bir o‘ram tualet qog‘ozini soldi – chunki fransuz mehmonxonalarida hech qachon sovun qo‘yishmaydi, to‘rtburchak qilib kesilgan va ilmoqqa ilib qo‘yilgan eski gazeta parchalari bo‘lsa, tualet qog‘ozini o‘rniga o‘tadi.

Tongga yaqin ular yuvinib olishdi, yo‘l ustidagi yemakxonaning hojatxonasiga borib kelishdi va peshtaxta yonida turib, issiqqina shirinkulcha yeb, qahva ichishdi. Qizil sha-

rob ichayotgan shofyorlar ham shu yerda nonushta qilayotgan edilar. Hojatxonada Nena Dakonte ko'ylagi va etagidagi qon dog'larini ko'rib qoldi, lekin ularni yuvib tashlashga urinmay qo'yaqoldi. Qondan shishgan ro'molchani tashladi, nikoh uzugini boshqa qo'liga taqdi va yarador barmog'ini sovun bilan yaxshilab yuvdi. Tikan kirgan joy deyarli bilinmasdi. Biroq ular mashinaga qaytdi deguncha, barmoqdan yana qon oqa boshladi. Shuning uchun Nena Dakonte mashina derazasidan qo'lini tashqariga chiqardi, dala ustiga qorlarni sovurayotgan muzday shamol qonni to'xtatishiga ishonchi komil edi. Bu ham behuda ish bo'lib chiqdi, lekin Nena bundan tashvishlanmay qo'yaqoldi.

– Agar kimdir bizni qidirib topmoqchi bo'lsa, qorga tomgan qon izlarimdan kelaversa bo'ladi, – deya hazillashdi u. So'ngra o'zi aytgan so'zlarning ma'nosi ustida bosh qotira boshladi va tonggi quyosh nurlari ostida yuzlari qizardi. – O'zing bir tasavvur qilib ko'r... Madriddan Parijgacha qordagi qon izlari... Qo'shiq uchun go'zal misralar, shunday emasmi?

Lekin bu fikrga qaytish uchun uning hech vaqti bo'lmadi. Parij ostonasiga yetib borishganida barmog'idan to'xtamay qon keta boshladi va unga haqiqatan ham joni yaradan chiqib ketadigandek tuyuldi. Nena oqayotgan qonni yo'l sumkasida yotgan tualet qog'ozi bilan to'xtatmoqchi bo'ldi, ammo barmog'ini o'radi deguncha, qontalash qog'oz parchasini derazadan tashlab yuborishga to'g'ri kelaverdi. Egnidagi kiyimlari, po'stini, mashina o'rindig'i asta-sekin qonga belana bordi. Billi Sanches qattiq qo'rqdi va dorixonona topaylik deb turib oldi, biroq Nena Dakonte endi dorixonachi unga yordam berolmasligini tushunib yetgandi.

– Orlean darvozasiga yaqin qoldik, – dedi u. – General Leklerk shohko'chasi bo'ylab to'g'ri yuraver. Ko'cha bu yerda juda keng va daraxt ko'p. Nima qilish kerakligini keyin senga o'zim aytaman.

Butun sayohat davomida yo'lning mana shu qismini bosib o'tish juda qiyin bo'ldi. General Leklerk shohko'chasi yengil mashinalar va mototsikllarga to'lib ketgan, ular tiqilinchda hadeb tirband bo'lib qolishardi. Ulkan yuk mashinalari bo'lsa, markaziy bozorlarga o'tish uchun urinardi. Befoyda signal chalishlaridan joni halqumiga kelgan Billi Sanches bir nechta haydovchini bo'ralab so'kdi va hatto mashinadan chiqib, bittasi bilan yoqalashmoqchi ham bo'ldi. Ammo Nena Dakonte fransuzlar dunyodagi eng qo'rs odamlar bo'lsalar-da, ular hech qachon yoqalashmasligiga Billini ishontirishga muvaffaq bo'ldi. Bu uning to'g'ri fikr yurita olishining yana bir dalolati edi. Holbuki, shu vaqtda Nena Dakonte bor kuchini yig'ib, hushdan ketmaslikka urinayotgandi.

Belfort sheri maydoniga yetib olishlari uchun ikki soatdan ko'proq vaqt kerak bo'ldi. Hozir go'yo yarim kechadek qahvaxona va do'konlarning chiroqlarini yoqib qo'yishgandi. Holbuki, Parijning bu seshanbasi odatdagi yanvar kunlaridan biri bo'lib, osmonning qovog'i soliq, to'xtovsiz yog'ayotgan, qorga aylanmaydigan yomg'irdan hammayoq shilta bo'lib ketgan edi. Biroq Danfer-Roshro shohko'chasi ancha bo'shroq ekan. Ular bir necha dahani bosib o'tganlaridan keyin Nena Dakonte eriga o'ngga burishni buyurdi va u g'amgin ko'rinishli kattakon kasalxonaning «Tez yordam» bo'limi eshigi oldida to'xtadi.

Nena mashinadan ko'maksiz tusha olmadi, lekin xotirjam va aqli ravshan edi. Navbatchi vrachning kelishini kutib, zambilg'altakda yotar ekan, Nena hamshiraning o'zi va boshidan o'tkazgan kasalliklari haqida bergan odatiy savollariga javob berdi. Uning sumkasini olib kelgan Billi Sanches rafiqasining chap qo'lidan ushlab turardi. Nikoh uzugi endi shu qo'lga taqilgandi. Nenaning qo'li sovuq va shalvirab yotar, lablaridan qon qochgan edi. Billi navbatchi vrach kelgunga qadar Nening yonida qo'lini ushlab turaverdi. Navbatchi vrach yara-

dor, nomsiz barmoqni tezda ko'zdan kechirdi. Vrach yoshgina yigit bo'lib, sochini taqir qirdirgan, terisi eskirgan jez rangida edi. Nena Dakonte unga e'tibor bermadi va eriga oppoq oqargan lablari bilan tabassum qildi.

– Qo'rqma, – dedi u chinakamiga matonat bilan mutoyiba qilib. – Menga hech narsa bo'lmaydi. Faqat manavi odamxo'r qo'limni kesib yeb qo'ymasa bo'ldi.

Vrach tekshiruvni tamomladi va sof ispancha so'zlab, ularni dong qoldirdi. To'g'ri, u ispanchani osiyocha g'alati talaffuzda so'zladi.

– Yo'q, bolalar, – dedi u. – Bu odamxo'r bunaqa nafis qo'ldani kesganidan ko'ra ochdan o'lishni afzal ko'radi.

Ular xijolat bo'lishdi, lekin vrach nazokatli ishora qilib, ularni tinchlantirdi. Shundan keyin vrach zambilg'altakni olib ketishni buyurdi. Billi Sanches xotinining qo'lidani ushlagan-cha, birga bormoqchi bo'ldi, lekin vrach uni to'xtatdi.

– U yoqqa borishinigiz mumkin emas, – dedi u. – Uni jadal terapiyaga yotqizamiz.

Nena Dakonte eriga yana bir marta tabassum qildi va zambilg'altak dahliz to'rida ko'zdan g'oyib bo'lgunga qadar qo'l silkib bordi. Vrach hamshiraning yozganlarini o'rganish maqsadida biroz ushlanib qoldi. Billi Sanches unga murojaat qildi.

– Doktor, – dedi u. – U homilador.

– Necha oylik?

– Ikki oylik.

Billi Sanchesning kutganiday bo'lmadi, vrach bunga alohida e'tibor bermadi.

– Buni aytib to'g'ri qildingiz, – dedi u ma'qullagan ohangda va zambilg'altak ketgan tomonga yo'l oldi. Billi Sanches esa, bemorlarning ter hidi ufarayotgan mash'um dahlizda qoldi.

U Nena Dakonteni olib ketishgan bo'm-bo'sh dahlizga tikilgan-cha, ancha vaqt garangsirab turdi, so'ngra taxta o'rindiqqaga o'tirdi. Boshqa kutguvchilar ham shu o'rindiqqada

o'tirishardi. U bu yerda qancha o'tirgani noma'lum, lekin kasalxonadan chiqishga qaror qilganida qosh qorayib, yomg'ir shivalay boshlagandi. Hayot tashvishlaridan gangigan Billi o'zini qayoqqa qo'yishini bilmay, chiqib ketdi.

Ko'p yillar o'tganidan keyin kasalxona yozuvlarini kovlashtirar ekanman, shunga amin bo'ldimki, Nena Dakonte 7-yanvarda, seshanba kuni soat 9 dan 30 daqiqa o'tganida shifoxonaga qabul qilingan. Billi Sanches o'sha kechasi «Tez yordam» bo'limi eshigi ro'parasida mashinada tunadi. Ertalab tong otar-otmas oltita qaynatilgan tuxum yedi, ikki finjon sutli qahva ichib oldi, chunki Madriddan chiqqanidan beri tuz totmagan edi. Shundan keyin u Nena Dakonte bilan ko'rishish maqsadida qabul bo'limiga qaytdi, lekin unga asosiy eshikka borishi kerakligini aytishdi. U yerda nihoyat asturiyalik qandaydir xizmatchini topishga muvaffaq bo'ldi. Xizmatchi uning darvozabon bilan tillashishiga ko'maklashdi. Darvozabon Nena Dakonte haqiqatan ham kasallar ro'yxatida borligini tasdiqladi, lekin bemorlarni faqat seshanba kunlari soat to'qqizdan to'rtgacha ko'rishga ruxsat berilishini aytdi. Demak, olti kundan keyin. Billi Sanches ispancha gapiradigan vrachni topishga urinib ko'rdi. U vrachni o'zgacha nom bilan ta'rifladi, ammo bunaqa ikkita mukammal tavsifga qaramay, hech qanday ma'lumot ololmadi.

Nena Dakontening ro'yxatda borligidan xotirjam bo'lgan Billi mashinasini qoldirgan joyiga qaytdi. Yo'l inspektori mashinani ikki daha nariga haydashga va torgina ko'chada toq sonli uylar tomonga qo'yishga majbur qildi. Ko'chaning shundoqqina qarshi tomonida yaqindagina ta'mirdan chiqarilgan «Nikol oteli» qad ko'tarib turardi. Mehmonxona eng past toifaga mansub bo'lib, qabul bo'limi katalakdek edi. Bu yerda divan va eski pianino bor edi, xo'los. Ammo xo'jayin jarangdor ovozda istalgan tilda so'zlasha oladigan kishi bo'lib chiqdi. Unga mijozlar pul to'lasa bas edi. Billi Sanches o'n bitta jomadoni va to'qqizta qutisi bilan yagona bo'sh bo'lgan

xonada, to'qqizinchi qavatning uchburchak boloxonasida joylashdi. Bu yerga qaynatilayotgan rangli karam hidi anqib turadigan yoysimon zinapoyadan harsillab o'rimalab chiqishga to'g'ri kelardi. Xona devorlariga uvadasi chiqqan gilamlar osig'liq bo'lib, ichki hovliga qaragan yagona darchasidan xira yorug' tushib turardi. Xonada ikki kishilik karavot, katta javon, kursi, ko'chma bide, qung'on va tog'ora bor edi. Bino-barin, hayot makoni faqat karavotdan iborat edi. Jihozlarning hammasi daqqiyunusdan qolgan, faqirona bo'lsa-da, top-toza qilib yuvilgan, yaqindagina dezinfeksiya qilingani ko'rinib turardi.

Agar ziqnalikka asoslangan dunyo jumboqlarini yechishga urinadigan bo'lsa, Billi Sanchesga umri ham yetmagan bo'lardi. Billi o'z qavatiga ko'tarilib ulgurmay turib o'chib qoladigan zinapoya chirog'i sirini hech bila olmadi. Chiroq o'z-o'zidan yana qanday yonishini ham Billi tushunolmadi. Har bir qavatning zinapoya maydonchasida joylashgan, bachoklariga zanjir osilgan hojatxonalarning sirini kashf etishga yarim kuni ketdi. Bir kuni u yerda qorong'ida obdan o'tirishga chog'langan ham ediki, eshik qulflangan taqdir-dagina chiroq yonishi qo'qqisdan, tasodifan ma'lum bo'ldi. Kimdir faromushxotirlik bilan chiroqni yoniq qoldirmasligi uchun shunday qilishgan ekan. Dush dahliz etagida joylashgan bo'lib, Billi o'z uyida qilganidek, kuniga ikki marta yuvinib olardi. Dush uchun pul alohida to'lanishi darkor edi. Ma'muriyat izmida bo'lgan issiq suv, uch daqiqadan so'ng tugab qolardi. Biroq uning uchun bunchalik noodatiy tartiblar har holda yanvar ob-havosidan yaxshi ekanini tushunib olishi uchun Billi yetarli darajada oqilona fikrlaydigan kishi edi. Qolaversa, buning ustiga, u o'zini juda notavon, kimsasiz his qilar va qachonlardir Nena Dakontening vasiyligisiz qanday yashaganiga hayron bo'lardi.

Chorshanba kuni erta bilan xonasiga ko'tarilgan Billi pal-tosini ham yechmay, yo'lning naryog'idagi kasalxonada yot-

gan barmog'idan qon oqayotgan ilohiy xilqat haqida beto'xtov o'ylagancha, o'zini karavotga tashladi. Ko'p o'tmay uni uyqu eltdi. Bu uning holatida g'oyat tabiiy hol edi. Uyg'onib, soat beshni ko'rsatayotganini ko'rdi. Billi hozir tongmi, oqshommi, qaysi kun, qaysi shaharda ekanini aniqlay olmadi. Derazaga shamol va yomg'ir urilardi. U ko'zlari ochiq holda haqiqatan ham tong otganiga ishonch hosil qilgancha, Nena Dakonte haqida o'ylab yotdi. Shunda Billi o'tgan safargi qahvaxonaga nonushta qilishga bordi va bu kun payshanba ekanini so'rab bildi. Kasalxona derazalaridan yonayotgan chiroqlar ko'rinib turar, yomg'ir tingan edi. Shuning uchun Billi asosiy eshik oldidagi kashtanga suyanib o'tirdi. Eshikdan oppoq xalat kiygan vrachlar va hamshiralar kirib-chiqishardi. Billi Nena Dakonteni qabul qilgan osiyolik vrachni uchratishdan umidvor edi.

Lekin u, bu vrachni ertalab ham, tushdan keyin ham uchrata olmadi. Qattiq sovqotganidan keyin kutishdan voz kechishiga to'g'ri keldi. Billi soat oltida sutli qahva ichdi va peshtaxtadan qattiq qaynatilgan ikkita tuxumni o'z qo'li bilan olib yedi. Endi u bunga odatlanib qolgandi, chunki ikki kundan beri ayni oshxonada ayni taomni yeyayotgandi. Uxlash uchun mehmonxonaga qaytgan Billi barcha mashinalar yo'lning qarshi tomonida turganini, uning avtomobilining peshonasiga jarima to'lashi haqida bildiruv xati qistirib ketilganini ko'rdi. «Nikol» otelining darvozaboni unga mashinalarni toq kunlari ko'chaniq toq raqamli uylari tomonida, juft kunlari aksincha, tartibda qo'yish lozimligini amal-taqal qilib tushuntirdi. Atigi ikki yil oldin shahar hokimining xizmat mashinasida Karataxane kinoteatriga yorib kirgan va toshday qotib qolgan politsiyachilar ko'zi oldida bir necha kishini bostirgan aslzoda Sanches de Avil uchun bunday ratsionalizatorlik nayranglari tushunib bo'lmaydigan bir sinoat edi. Darvozabon unga jarimani to'lashni, lekin kech soat o'n ikkida yana ko'chaniq bu tomoniga o'tkazishga to'g'ri kelishi bois, mashinani o'z joyida qoldirishni maslahat berganida, u hech narsani tushunma-

di. O'sha kuni ertalab Billi uyqusizlikdan u yoqdan-bu yoqqa ag'darilar ekan, birinchi marta Nena Dakontedan boshqalar haqda o'yladi, Karib Kartaxanesi bozorida joylashgan besoqollar fohishaxonasidagi og'ir kechalarni esladi. U bandargoh oshxonalarida kolumbiyachasiga pishirilgan baliq va guruch ta'mini xotirladi. Arubadan kelgan shxunalar shu yerga langar tashlar edilar. Devorlari chirmovuqlar bilan qoplangan uyini esladi... U yerda hali kechagi kun o'tib bo'lmagan, soat endigina kechki olti bo'lgandi. Salqin peshayvonda gazeta o'qiyotgan ipak pijama kiygan otasi ko'z oldiga keldi. Doimo, kim bilsin, qayoqlargadir sang'ib ketadigan onasini, kishilik ko'ylagini kiygan, qosh qoraydi deguncha qulog'ining orqasiga atirgul taqib oladigan, ko'krakdor gavdasi og'irligi ostida issiqdan qiynaladigan vaysaqi onajonisini esladi. Yetti yoshlik chog'ida Billi bir vaqt hech kutilmaganda yotoqxonaga kirib, onasini tasodifiy jazmanlaridan birining quchog'ida qip-yalang'och holda ko'rib qolgan edi. Ular hech qachon eslamaydigan mana shu anglashilmovchilik tufayli oralarida allaqanday fitnakorona munosabatlar o'rnatilgandi. Bu munosabatlar ona-bola sevgisidan ham qimmatliroq edi. Biroq Billi yolg'izlikning boshqa dahshatlari singari, chunki u oilada yakka-yu yagona farzand edi, bu hodisaning mag'zini, dardini to'kib soladigan kishi yo'qligi va ko'z yoshlarini to'xtata olmayotgani uchun o'zidan qattiq g'ijinib, Parijning faqirona boloxonasida u yoqdan-bu yoqqa ag'darilib yotgan o'sha mash'um kechagacha tushunib yetmadi.

Uyqusizlik unga foydali bo'ldi. Juma kuni Billi dahshatli kechadan butunlay holdan toygan, lekin hayotini yo'lga qo'yishga tayyor holda uyg'ondi. Kiyimini almashtirish, nihoyat, jomadon qulfini buzishga qaror qildi. Jomadonni ochish imkoni yo'q, chunki kalit pullarning asosiy qismi va cho'ntak daftarchasi bilan birga Nena Dakontening sumkasida qolgan. Bu daftarchani titkilab, ehtimol parijlik bironta tanishining telefonini topgan bo'lardi. Hamisha ovqatlana-

digan o'sha qahvaxonada Billi birdaniga fransuzcha salomlashish va go'shtli kulcha bilan sutli qahva buyurtma qilishni o'rganib olganini payqab qoldi. U hech qachon yog' va tuxum buyurtma qila olmasligini juda yaxshi bilardi, chunki ularning nomini o'lsa ham o'rgana olmasdi. Lekin yaxshiyamki, yog'ni nonga qo'shib berishar, qaynatilgan tuxumlar bo'lsa, peshtaxta ustida ko'rinadigan joyda turar, istagan kishi uni o'zi olardi. Bundan tashqari, uch kun ichida unga o'rganib qolgan ofitsiantlar fransuzcha gapirishiga yordam berishardi. Xullas, juma kuni Billi ovqat buyurtma qildi, taom kelguncha xayollarini yig'ishtirib olishga urindi. Unga buzoq go'shti, qovurilgan kartoshka va bir shisha sharob keltirishdi. Sharobdan keyin u o'zini shunchalik yaxshi his qildiki, ikkinchisini buyurdi. Shishani yarmigacha bo'shatdi va kasalxonaga kuch bilan bostirib kirishga qaror qilib, ko'chani kesib o'tdi. U Nena Dakonteni qaerdan izlash kerakligini bilmas, lekin qodir xalloqning o'zi tomonidan yuborilgan osiyolik vrach qiyofasi ko'z oldida yaqqol gavdalanar va Billi uni topishiga amin edi. U asosiy eshikdan emas, «Tez yordam» bo'limi eshigidan kirdi. Bu yer unga unchalik qattiq qo'riqlanmaydigandek tuyulgandi. Biroq u Nena Dakonte qo'l silkib xayrlashgan dahlizgacha borishga muvaffaq bo'ldi, xolos. Xalatiga qon sachragan navbatchi yonidan o'tib ketayotganida undan nimadir deb so'radi, lekin Billi unga parvo qilmadi. Navbatchi orqasiga tushib, fransuzchalab nuqul o'sha savolni takrorlayverdi va nihoyat, uning qo'lini omburdek siqib ushladiki, Billi Sanches qoqqan qoziqday serrayib qoldi. Billi Sanches o'ziga omburdek yopishgan navbatchini kadeneros usulida itqitib tashlamoqchi bo'ldi. Shunda navbatchi fransuzchalab boloxonador qilib so'kdi, usul ishlatib, qo'llarini orqasiga qayirdi va Billining onasi sha'niga to'xtovsiz so'kish yog'dirarkan, og'riqdan aqldan ozay deyayotgan yigitni eshikkacha sudrab olib bordi va bir qop kartoshkaday ko'chaga uloqtirdi.

O'sha kuni achchiq dars olgan Billi Sanchesning esi kirib qoldi. U elchiga murojaat qilishga qaror qildi. Har holda Nena

Dakonte shunday qilgan bo'lardi. Mehmonxona darvozaboni badjahlddek ko'rinsa-da, aslida chet elliklarga xizmat qilishga hozir-u nozir kishi bo'lib, ularga sabr-toqat bilan quloq solar edi. U so'rov kitobidan elchixonaning telefonini topdi va bir parcha qog'ozga yozib berdi. Go'shakni juda iltifotli ayol ko'tardi. Billi Sanches ayolning cho'zib, loqayd ohangda so'zlashidan, shu zahotiyuq uning andlik ekanini bilib oldi. U ayolga lozim darajada ta'sir ko'rsatishiga qat'iy ishongan holda o'zining ismini, oqsuyaklarga xos familiyasini to'liq aytdi, lekin ayolning ovozida qilchalik o'zgarish sezilmadi. Kotiba to'tiqushdek yodlab olgan so'zlarini takrorlay ketdi: senor elchi hozir yo'qlar, ertagacha kelmaydilar, lekin u kishi, baribir, oldindan qayd qilingan kishilarnigina istisno holda qabul qiladilar. Billi Sanches bu yo'l bilan ham Nena Dakonteni ko'rolmasligini tushundi va mulozamatda undan ham qolishmagan holda bergan axboroti uchun kotibaga minnatdorchilik bildirdi. Undan keyin taksi yollab, elchixonaga oshiqdi.

Elchixona Parijning eng osoyishta mavzalaridan birida, Elizium ko'chasidagi 22-uyda joylashgan edi. Lekin ancha yillar o'tgach, Kartaxene-de-Indiasda Billi Sanchesning o'zi menga hikoya qilib berganiga qaraganda, bu yerga kelganidan keyin birinchi marta quyosh Karib dengizidagiday yorqin nur sochayotgani va shahar ustidagi Eyfel minorasi ko'zni tindirib yuboradigan darajada tiniq osmon uzra bo'y cho'zib turganigina unga ta'sir qilgan. Elchi o'rniga Billini qabul qilgan amaldorning egnida qora matodan kostyum, bo'ynida motam belgisi bo'lgan galstuk bor edi. Bu kiyimlari, ehtiyotkorona xatti-harakatlari va muloyim so'zlashi bilan o'lim yoqasidan qaytgan bemorni eslatardi. U Billi Sanchesning xavotirlarini to'g'ri deb topdi, lekin tavozeni qo'ldan boy bermagan holda, ular madaniyatli mamlakatda ekanliklari, ularning qattiq qonun-qoidalari qadimiy va oqilona tamoyillarga asoslanishini, bu tamoyillar darvozabonning qo'liga pul qistirib, istalgan

kasalxonaga kirish mumkin bo'lgan vahshiy Lotin Amerika-sining odatlaridan farq qilishini eslatdi.

– Yo'q, aziz yigitcha, hech natijaga erisha olmaysiz, – deya xulosa qildi amaldor. – Aql-idrok irodasiga bo'ysunish va seshanbani kutishi kerak. Axir, atigi to'rt kun qolibdi-ku. Ungacha, shaytonga hay berib, Luvrga boring. Menga ishonavering, borib ko'rishga arziydi.

Elchixonadan gangib chiqqan Billi Sanches Murosa maydoniga borib qoldi. Tomlar osha qad ko'tarib turgan Eyfel minorasiga ko'zi tushdi. Unga minora shundoqqina qo'l uzatsa yetadigan joyda turgandek tuyuldi va u yerga sohil bo'ylab piyoda yetib olishga qaror qildi. Biroq ko'p o'tmay, minora unga tuyulganidan ko'ra uzoqroq ekanini tushundi, bundan tashqari, olg'a yurgani sayin minora o'rmini o'zgartiraverdi.

Shuning uchun Billi Sena sohilidagi o'rindiqlardan biriga o'tirib, Nena Dakonte haqida o'ylay boshladi. U ko'prik ostidan suzib o'tayotgan saldov kemalarini ko'rdi. Ular unga kema emas, balki tomlari turli ranglarga bo'yalgan, derazalari oldiga gultuvaklar qo'yilgan, dorlariga quritish uchun kiyim-kechaklar osilgan sayyoh uylarga o'xshab tuyuldi. Billi qirg'oqda po'kagi ham, qarmog'i ham, o'zi ham qimirlamayotgan baliqchini uzoq kuzatdi. Birontasining qimirlashini kutaverishdan charchadi, ustiga-ustak qosh qoraya boshladi va Billi mehmonxonaga qaytish uchun taksi tutishga qaror qildi. Shundagina mehmonxonaning nomini ham, manzilini ham bilmasligini, kasalxona Parijning qaysi mavzesida joylashgani haqida, hatto tasavvuri ham yo'qligini angladi.

Sarosimaga tushib duch kelgan qahvaxonaga kirdi, konyak buyurdi va o'y-fikrini yig'ishtirib olishga urindi. O'yga botib o'tirar ekan, Billi bexosdan devorga o'rnatilgan ko'pdan-ko'p ko'zgularda o'z aksini turli holatlarda, qo'rqqan va yolg'iz tarzda ko'rdi va umrida birinchi marta o'lim haqiqat ekani haqida o'yladi. Lekin ikkinchi qadahdan keyin ko'ngli ancha ko'tarildi va elchixonaga qaytish kerakligi to'g'risidagi

fikr birdaniga miyasiga urildi. Billi ko'cha nomi yozilgan qog'ozchani qidirdi va qog'ozchanning orqa tomonida mehmonxonaning nomi va manzili yozilganini ko'rdi. Bu hodisa uni shunchalik gangitib qo'ydiki, hafta oxiriga qadar mehmonxonadan faqat ovqatlanish va mashinani ko'chani narigi tomoniga o'tkazib qo'yish uchungina chiqdi, xolos. Uch kun mobaynida tinimsiz yomg'ir yog'ib, hammayoqni shilta qilib yubordi. Parijga kelgan tongida ham shunday bo'lgan edi. Umrida bironta kitobni oxirigacha o'qimagan Billi Sanches to'shakda yotaverib zerikmaslik uchun endi mamnuniyat bilan kitob o'qigan bo'lardi, lekin xotini jomadonidan chiqqan kitoblarning hammasi chet tilida ekan. Shu tariqa, avvalgidек, devorqog'ozdagi sanoqsiz tovuslarning rasmini tomosha qilib, Nena Dakonte haqida to'xtovsiz o'ylab yotishiga to'g'ri keldi. Nena uni bunday ahvolda ko'rsa nimalar deyishi mumkinligini o'ylab, dushanba kuni xonani sal-pal yig'ishtirgan bo'ldi va faqat shundagina qora kuzan po'stindagi qotib qolgan qon dog'larini ko'rdi. U yarim kun unnab, po'stinni Madridda samolyotga keltirganlaridagi holatga keltirguncha xushbo'y sovun bilan yaxshilab yuvdi.

Seshanba tongi bulutli va sovuq bo'lsa-da, yomg'ir yog'mayotgan edi. Saharmardondan bedor bo'lgan Billi Sanches bemorlarini ko'rgani kelgan, qo'llarida sovg'a-salom va guldasta ushlagan odamlar orasida kasalxona eshigi oldida kuta boshladi. U qora kuzan po'stin ko'targan holda olomonga qorishib ichkariga kirdi. Nena Dakonte qayerda ekanini bilmasdi, bu haqda hech kimdan so'ramadi ham. Osiyolik vrachni topishiga ishonchi komil edi. U hovlini kesib o'tdi. Hovlida gullar o'sib yotar, yovvoyi qushlar uchib yurardi. Hovlining o'ng tomonida ayollar, chap tomonida erkaklar bo'limlari joylashgan edi. Kelguvchilarga ergashib, ayollar bo'limiga kirdi. U kasalxona ko'ylagini kiygan va qator tizilgan karavotlarda o'tirgan ko'pdan-ko'p bemor ayollarni, kattakon derazalardan tushayotgan nurga ko'milgan xotinlarni ko'rdi va hatto ularni

tashqaridan ko'ra ichkarida ko'rgan afzalroq ekan, deb o'yladi. U dahliz etagigacha bordi, keyin orqaga qaytdi, nihoyat bemorlar orasida Nena Dakonte yo'qligiga ishonch hosil qildi. Keyin u tashqariga chiqib, erkaklar bo'limi derazalaridan mo'raladi va birdaniga o'zi qidirib yurgan vrachni ko'rganday bo'ldi.

Bu haqiqatan ham o'sha vrach bo'lib chiqdi. Boshqa vrachlar va hamshiralalar bilan birga u qandaydir bemorni ko'rayotgan edi. Billi Sanches palataga kirdi, hamshiralardan birini chetlatib, kasal ustiga egilib turgan osiyolik vrachga yuzma-yuz bo'ldi. Shundan keyin uni chaqirdi. Vrach ma'yus ko'zlari bilan unga qaradi, bir lahza o'ylandi va uni tanidi.

– Jin ursin, qayoqqa g'oyib bo'ldingiz? – dedi u.

Billi Sanches esankiradi.

– Men mehmonxonada edim, – dedi u. – Shu yerda, muyulishda.

Shunda unga Nena Dakonte payshanbada, 9-yanvar kuni soat 19 dan 10 daqiqa o'tganda ko'p qon yo'qotish natijasida vafot etganini aytib berishdi. Fransiyaning eng zo'r mutaxassislari yetmish soat mobaynida uning hayotini saqlab qolish uchun kurashganlar, lekin foyda bermagan. Nena Dakonte so'nggi daqiqalargacha hushini yo'qotmagan, o'zini xotirjam tutgan va erini «Atne maydoni» mehmonxonasidan qidirib topishni buyurgan, ular uchun shu mehmonxonaga buyurtma berilgan edi va o'z ota-onasi bilan qanday bog'lanish mumkinligini aytgan. Juma kuni devonxonadan yuborilgan shoshilinch telegramma bilan elchixonaga xabar qilingan, bu vaqt ichida Nena Dakontening ota-onasi Parijga uchib kelgan. Elchining shaxsan o'zi jasadni mo'miyolash to'g'risida g'amxo'rlik qilgan va Billi Sanchesni axtarayotgan Parij politsiyasi mahkamasi bilan aloqada bo'lib turgan. Jumadan yakshanbagacha, deyarli ikki kun mobaynida radio va televidenie orqali Billining tashqi ko'rinishi haqida shoshilinch xabar berilgan, bu qirq soat mobaynida uni zo'r berib izlash-

gan. Ungacha Fransiyada hech kimni bunchalik axtarishmagan ekan. Nena Dakontening sumkasidan Billining fotosurati topilgan va uni ko'paytirib, barcha joylarga osib chiqishgan. Tomi ochiladigan uchta «Bentli» topilgan, lekin ularning hammasi boshqalarniki bo'lib chiqqan.

Nena Dakontening ota-onasi shanba kuni peshinda yetib kelishgan va kechani kasalxona ibodatxonasiga qo'yilgan qizining jasadi yonida o'tkazishgan. Ular oxirgi daqiqalargacha Billi Sanchesni ko'rish umidida bo'lishgan. Billining ota-onasi ham xabardor etilgan. Ular ham Parijga uchmoqchi bo'lishgan, lekin bir-biriga zid telegrammalar kelganidan chalg'ib, uchishdan voz kechishgan. Janoza marosimi yakshanba kuni kunduz soat ikkida, Billi Sanches Nena Dakontesiz, yolg'izlikdan o'lib qolayozgan o'sha la'nati mehmonxonadan atigi ikki yuz metr naridagi ibodatxonada o'tkazilgan. Uni elchixonada qabul qilgan amaldor bir necha yillardan keyin menga Billi Sanches ketganidan bir soat o'tgandan keyin vazirlik devoni telegrammasini shaxsan o'zi olganini va Billini Fobur Sent-Onoreda joylashgan pastqam barlardan qidirganini aytib berdi. U qo'zi terisi kiygan va ko'rinishidan egarda o'tirgan buqaga o'xshaydigan, Parij yangiliklaridan gangigan bu kosteno shunchalik nomdor aslzoda ekani yetti uxlab tushiga kirmaganini tan oldi. O'sha yakshanba kuni, Billi Sanches achchiq-achchiq ko'z yoshlari to'kishdan o'zini zo'r-bazo'r tiyib o'tirgan bir vaqtda Nena Dakontening ota-onasi qidiruvni to'xtatib, mo'miyolangan jasadni metall tobutda olib ketishgan. Marhumni ko'rishga ulgurgan kishilar hech qachon xoh tirik, xoh o'lik bo'lsin, bunchalik go'zal ayolni ko'rmanliklarini to'xtovsiz gapirib yurishgan. Shunday qilib, Billi Sanches seshanba kuni ertalab, nihoyat kasalxonaga kirishga muvaffaq bo'lgan chog'da, La-Mangidagi oilaviy qabristonda dafn marosimi bo'lib o'tgan. Bu qabriston ular baxtiyorlik nashidasini totigan o'sha uydan bor-yo'g'i bir necha qadam narida joylashgan edi. Fojia haqida so'zlab bergan osiyolik

vrach Billi Sanchesga tinchlantiruvchi dori bermoqchi bo'ldi, lekin u bosh tortdi. U xayrlashmasdan, minnatdorchilik bildirmasdan, minnatdorchilik bildiradigan ishning o'zi yo'q, faqat bir narsa – borlig'ini bosgan g'ussadan qutulish uchun kimnidir topib, o'lasi qilib do'pposlashni orzu qilgan holda chiqib ketdi. Kasalxonadan chiqar ekan, osmondan yog'ayotgan qor-da zarracha qon izi yo'qligini, pag'a-pag'a yog'ayotgan momiq, nafis qor kaptarning parlarini eslatishini va keyingi o'n yil ichida birinchi marta shunchalik katta qor yog'ayotgani uchun Parij ko'chalari bayramdagidek ko'rinayotganini sezgani ham yo'q.



MUNDARIJA

Adolat va qalamga sadoqat ramzi	3
«Ulug' onaning janozasi» kitobidan	
Shaharchamizda o'g'ri yo'q	10
Shanbadan keyingi kun	41
Sun'iy atirgullar.....	61
Ulug' Onaning janozasi.....	73
«O'n ikkita sayyoh hikoya» kitobidan. Prolog.	
Nima uchun o'n ikkita, nima uchun hikoyalar va nega sayyoh?	93
Oq yo'l, janob prezident!	99
Avliyo	128
Samolyotda uxlayotgan go'zal	145
«Men tush ko'rish uchun yollanaman»	152
«Men telefondan qo'ng'iroq qilish uchungina kelgandim»	160
Avgust dahshatlari	179
Mariya dus Prazerish.....	182
Zaharlangan o'n yetti ingliz	199
Tramontana.....	213
Senora Forbesning baxtli yozi.....	219
Nur – suv degani	233
Qorda qolgan qon izlaring.....	237

1. 1

2. 2

3. 3

4. 4

5. 5

6. 6

7. 7

8. 8

9. 9

10. 10

11. 11

12. 12

13. 13

14. 14

15. 15

16. 16

17. 17

18. 18

19. 19

20. 20

21. 21

22. 22

23. 23

24. 24

25. 25

26. 26

27. 27

28. 28

29. 29

30. 30

31. 31

32. 32

33. 33

34. 34

35. 35

36. 36

37. 37

38. 38

39. 39

40. 40

41. 41

42. 42

43. 43

44. 44

45. 45

46. 46

47. 47

48. 48

49. 49

50. 50

51. 51

52. 52

53. 53

54. 54

55. 55

56. 56

57. 57

58. 58

59. 59

60. 60

61. 61

62. 62

63. 63

64. 64

65. 65

66. 66

67. 67

68. 68

69. 69

70. 70

71. 71

72. 72

73. 73

74. 74

75. 75

76. 76

77. 77

78. 78

79. 79

80. 80

81. 81

82. 82

83. 83

84. 84

85. 85

86. 86

87. 87

88. 88

89. 89

90. 90

91. 91

92. 92

93. 93

94. 94

95. 95

96. 96

97. 97

98. 98

99. 99

100. 100

Adabiy-badiiy nashr

GABRIEL GARSIA MARKES

ULUG' ONANING JANOZASI

Muharrir *Habib Abdunazar*
Badiiy muharrir *Dilmurod Jalilov*
Musahhah *Ahror Abdumannonov*
Kompyuterda sahifalovchi *Hilola Sharipova*

Nashr. lits. AI № 290.04.11.2016

Bosishga 2023-yil 0-yanvarda ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 $\frac{1}{32}$ Times New Roman garniturasida.

Ofset bosma. 13,86 shartli bosma taboq. 12,7 nashr tabog'i.

Adadi 3000 nusxa. 2-raqamli buyurtma.

Bahosi shartnoma asosida.

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.

100128. Toshkent. Labzak ko'chasi, 86.

Telefon: (371) 241-35-47, 241-48-62, 241-83-29

Faks: (371) 241-82-69

www.gglit.uz

info@gglit.uz



1 010600 986146

22000

Gabriel Garcia Markes

**ULUG' ONANING
JANOZASI**

22000




- Pullarni yig'ib bo'lgach, ularni bu yerga birinchi bo'lib kelgan va dastlab yolg'izgina o'zi o'tirgan yigitchaga bergin va bu pullarni yangi shlyapa sotib olishingiz uchun ruhoniy berib yubordi degin.

16+



G'AFUR G'ULOM
nomidagi nashriyot-matbaa
ijodiy uyi

ISBN 978-9943-8835-7-4



9 789943 883574